

333(3 Q05)
4-50

Adhambek Alimbekov

QARDOSH TURKIY XALQLAR ADABIYOTI

Qozoq adabiyoti



83.3/5 Qos
A -50

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

Adhambek Alimbekov

QARDOSH TURKIY XALQLAR ADABIYOTI

(QOZOQ ADABIYOTI)

O'quv qo'llanma – xrestomatiya

Toshkent
Yosh avlod matbaa
2021

UO'K: 821.512.122(0475.8)

KBK: 83.3(5Qoz)

A 50

Alimbekov, Adhambek

Qardosh turkiy xalqlar adabiyoti (qozoq adabiyoti)

[Matn]: darslik / A. Alimbekov. – Toshkent: «Yosh avlod matbaa», 2021. – 216 bet.

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida magistrlar uchun “Qardosh turkiy xalqlar adabiyoti” kursi o’qitiladi. Ushbu xrestomatiya-o’quv qo’llanmasi qardosh adabiyotlar turkumidan qozoq adabiyotini o’rganuvchilarga mo’ljallab tuzildi.

Mazkur o’quv qo’llanma-xrestomatiya Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 7-dekabrdagi 648-sonli buyrug’iga asosan 5120100 – Filologiya va tillarni o’qitish yo’nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun o’quv qo’llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

O’quv qo’llanma-xrestomatiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti O’quv-uslubiy Kengashining 2020-yil 30-iyundagi 2-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Mas’ul muharrir:
filologiya fanlari doktori, professor Q.Omonov

Taqrizchilar:
filologiya fanlari nomzodi E.Ochilov,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) X.Hamidov

UO'K: 821.512.122(0475.8)

KBK: 83.3(5Qoz)

ISBN 978-9943-7850-0-7

**© A. Alimbekov
© «Yosh avlod matbaa», 2021**

KIRISH

Adabiy aloqalar adabiyotlarning rivojlanishi uchun asosiy omillardan biridir. O'zbek adabiyotini dunyoga targ'ib qilish, jahon adabiyotining yaxshi namunalarini o'zbek tiliga o'rigish bugungi kunda har doimgidan ham dolzarbdir. O'zbekistonda bu masalaga davlat miqyosida ahamiyat berilayotir. O'zbekiston Respublikasi Vazifalar Mahkamasining "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillarga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora tadbirlari" to'g'risidagi 2018-yil 18-maydag'i qarori bu sohaning rivojlanishiga yanada keng sharoit yaratdi.

2018-yil 7-8-avgust kunlari "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy -amaliy konferensiya buning yaqqol isbotlaridan biri. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi tashabbusi bilan oyushtirilgan bu ilmiy-anjumanda qirqa yaqin xorijiy mamlikutlardan vakillar qatnashdilar. Ularning chiqishlari kitob holida nashr qilindi. ("O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari"). Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent-2018).

Mana shunday ilmiy anjumanlarda ToshDShU olimlari ham faol qatnashmoqdalar. O'zbek adabiyotining yaxshi namunalarini chet tillarga tarjima qilishda, tarjimashunoslik masalalariga bag'ishlangan ilmiy anjumanlar o'tkazishda universitetimiz olimlarining ham alohida o'rnii bor. Ko'p yillardan buyon universitetda "Qardosh turkiy xalqlar adabiyoti" kursi o'qitib kelinayotir. Jurnadan qozoq adabiyoti ham o'qitiladi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash kerakki, kuyingi vaqtarda hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev va Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti Nursulton Nazarboyev tashabbuslari bilan adabiy-madaniy aloqalarimiz yanada jadallik bilan rivojlanmoqda. 2018-yil 15-mart kuni Ostona shaxrida "Astana operasi" teatrda 2018-yil Qozog'istonda O'zbekiston yili deya e'lon qilindi. 2019-yil O'zbekiston Respublikasida Qozog'iston

Respublikasi yili deb ataldi. Mana shuning o'zi qardosh turkiy xalqlar adabiyotini o'rganish muhim vazifalardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida qozoq adabiyoti o'qitilsada, o'quv qo'llanmalari yetarli emas. Shu nuqtai nazardan ushbu xrestomatik o'quv qo'llanma talabalarini qozoq adabiyoti bilan tanishtirishda muhim ahamiyatga ega. O'quv qo'llanmada mualliflar haqida qisqacha ma'lumot va ular ijodidan namunalar berildi. Bir xrestomatik qo'llanmada butun qozoq adabiyoti haqida ma'lumot berish mushkil. Shunday bo'lsada kitob bu sohadagi bo'shligni biroz bo'lsada to'ldiradi. O'quv qo'llanmani tayyorlashda olimlar Qaldibek Seydanov, Mehmونqul Islomqulov, Abdulla Rustamov va boshqa olimlarning ilmiy ishlariga suyanildi. Qozoq adabiyoti namunalaridan ustozlar qilgan tarjimalar bilan bir qatorda yangi tarjimalar ham kiritildi. She'rlarni asosan Mirpo'lat Mirzo tarjima qilgan. Uyg'un, Mirtemir, Nosir Fozilov, Mehmونqul Islomqulov, Muzaffar Ahmad va yana boshqa tarjimonlarning tarjimalaridan, shu vaqtga qadar tuzilgan adabiy antologiyalardan foydalanildi.

O'ZBEK-QOZOQ ADABIY ALOQALARI TARIXIDAN

O'zbek - qozoq adabiy aloqalari haqida so'z ketganda, biz avvalo ikki xalqning tarixiy ildizi birligini aytishimiz kerak. Qadim-qadimdan bu ikki xalq yonma-yon yashab, bir daryodan suv ichib, bir yaylovda chorvachilik qilganlar. Bir so'z bilan aytganda tutash taqdirli xalq. O'zbek-qozoq xalqlarining do'stligi, adabiyotlarining ruhiy yaqinligi haqida gap borganida beixtiyor G'afur G'ulomning "Qozoq elining ulug' to'yi" she'ridagi quyidagi misralari yodimizga tushadi :

*Ming yillarga bar tutqazmas
Qardoshlik tariximiz.
Ikki boshga bir manglayday
Yarqiroq taqdirmiz.*

Donishmand shoirimiz xo'p topib aytgan. Zero, alloma adibimizning ushbu o'xshatishida ikki qondosh, yelkadosh xalqning azaлиy birdamligini aks ettiruvchi muazzam bir doston ko'lamidagi ma'no aytilgan. Sobit Muqonovning "Yaylovda molimiz, to'shakda boshimiz qo'shilgan" degan so'zlari yoki Shol oqinning:

"O'zbekning unib-o'sgan yeri gul-da!
O'zbekdan o'tadigan el bormikan
Do'stlik, mehr, sadoqat, shirin tilda!

so'zlari bu qradoshlikning yana bir tasdig'idir.

Daryolar irmoqlardan quvvat olib, to'lib-toshib, teranlashgani-dek, adabiyotlar ham, ayniqsa, tili bir, dili bir xalqlarning adabiyotlari ham o'zaro hamkorlik jarayonida bir-biridan quvvat olib, yuksalib boradi. O'zbek-qozoq adabiyotlaridagi o'zaro hamkorlik jarayonini atoqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov shunday ta'riflagan: "XX-asr boshlarida o'zbek adibi Abudulla Qodiriy yaratgan romanlar qozoq yozuvchilari uchun ham adabiy maktab bo'lgani haqida Muxtor Avezov ko'p yozgan... Qozoq adabiyotidagi epiklik, xalq og'zaki ijodiyotiga moyillik kabi xislatlar asosan mumtoz adabiyot an'analari ruhida shakllangan o'zbek

adabiyotini yanada yorqin ranglar bilan boyitishga munosib hissa qo'shdi. Ikki xalq adabiyoti vakillarini bamisoli egizakka o'xshatish mumkin, zero, Muxtor Avezov va Oybek, G'afur G'ulom va Sobit Muqonov, Abdulla Tojiboev va Mirtemir, Abdulla Oripov va O'lijas Sulaymonovlar adabiyot maydonida bir-biriga hamnafas bo'lib qalam surdilar..."

Adabiy aloqlarning ijodiy samarsini XIX asrning ikkinchi yarimida yashagan qozoq yozma adabiyotining asoschisi, buyuk mutafakkir shoir Abayning ijodida yorqin namoyon bo'lganligini kuzatish mumkin. Adib ko'p asrlik tarixga ega sharq mumtoz adabiyoti, uning buyuk namoyondalari Firdavsiy, Nizomiy, Sa'diy, Hofiz Sheroziy, shuningdek, Alisher Navoiyni o'ziga pir tutib, ularning ijodidan ruhiy madad olganini o'n to'rt yoshidayoq bitgan quyidagi to'rtligida bayon etadi:

*Fuzuliy, Shamsiy, Sayqaliy,
Navoiy, Sa'diy, Firdavsiy,
Ho'ja Hofiz--bu hammangiz,
Madad bering--qilmangiz osiy.*

Abay o'zining "Naqliya"larida o'zbek xalqini ko'p jihatdan o'rnat qilib ko'rsatadi, hurmat bilan tilga oladi, o'zbeklardan chiqqan allomalarni ulug'lab, xalqimizning ziroatda tengsizligini ta'kidlaydi.

Qozoq va o'zbek adabiyotidagi ijodiy hamkorlik, ayniqsa o'tgan asarda yuksak nuqtaga yetdi. Adabiyotshunos olim Qoldibek Seydanovning ta'kidlashicha, 1935-yilda Saken Sayfullin, Ahmad Boytursunov, Mirjaqip Dulatov, Sultonmahmud To'rayg'irov, Sobit Do'nantoev, Mag'jon Jumaboev, Asqar To'qmig'anbetov kabi atoqli qozoq shoirlarining she'rlari Uyg'un va Mirtemir tarjimasida "Qizil yaylov" nomi bilan Toshkentda chop etiladi. 1938-yilda G'ayratiy she'rlari, Abdulla Qahhor hikoyalari Abdulla Tojiboev tomonidan qozoq tiliga tarjima qilinadi.

1945-yili qozoq xalqining ulug' shoiri Abay tavalludining yuz yilligi munosabati bilan oqinning tanlangan asarlari Mirtemir, Uyg'un, G'ulom Shodi tarjimalarida ilk bor o'zbek tilida nashr etiladi. Shundan buyon Abay asarlari qayta-qayta nashr etilmoqda,

turli mualliflar tomonidan tarjima qilinayotir. Abay Qunonboev ijodiy merosini o'rganish va targ'ib qilish bo'yicha 2018-yil 13-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori e'lon qilindi. Bu hujjat o'zbek-qozoq adabiy aloqalari yangi bosqichga ko'tariladigan davr kelganidan dalolat, deyish mumkin.

O'zbek-qozoq adabiy aloqalarining mustahkamlanishida qozoq adabiyotidan qilgan ko'plab tarjimalari, shuningdek, qozoq ijodkorlari bilan samimiy do'stona munosabatlari bilan "O'zbek-qozoq xalqining oltin ko'prigi" degan faxriy e'tirofga sazovor bo'lgan ustoz adib Nosir Fozilovning xizmatlari beqiyesdir. 1953-yilda yosh adib Nosir Fozilov atoqli qozoq yozuvchisi Sobit Muqonovning "Hayot maktabi" nomli avtobiografik romanini, 1956-yilda esa G'abiden Mustafinning "Qarag'anda" romanini o'zbek tiliga o'girib, nashr ettirdi. O'tgan asrning 50-yillari oxirida Muxtor Avezovning "Abay yo'li" tetralogiysi Zumrad tarjimasida o'zbek tilida nashr etilishida Nosir Fozilovning ham xizmatlari katta bo'lgan, ya'ni u ustoz Mirtemir bilan hamkorlikda asar tarjimasining tahriri ustida faol ishtirok etgan. 1958-yilda Qalmaxon Abduqodirovning "Hojimuqon" qissasi ham Nosir Fozilov tarjimasida o'zbek tilida nashr etiladi. Afsonaviy shuhratga ega bo'lgan qozoq pahlavoni Hojimuqon siymosi o'zbek xalqiga ham suyukli bo'lgani tufayli mazkur qissa O'zbekistonda olti marta nashr etildi.

1978-yilda mohir tarjimon Sobit Muqonovning "Cho'loq polvon" qissasini tarjima qildi. Millatning oriyati, qadri uchun kurashda jonini qurban qilgan qozoq pahlavoni, iste'dodli bastakor Cho'loq polvon haqidagi qiziqarli qissa ham O'zbekistonda uch marta, Qozog'istonning "Mektep" nashriyotida o'zbek tilida bir marta nashr etildi. G'abit Musrepovning Qozoq soldati", Sobit Muqonovning "Cho'pon bolasi" romanlari, Abayning tanlangan asarlari Mirtemir, Nosir Fozilov, Saidahmad Xudoyberganov, Razzoq Abdurashidov tarjimasida o'zbek o'quvchilariga yetib bordi.

O'zbek tomoshabinlari qozog'istonlik adiblarning ko'plab dramatik asarlaridan bahramand bo'lishgan. Jumladan, Muxtor Avezovning "Abay", G'abit Musrepovning "Ipak qiz", Abdulla Tojiboevning "Ko'tarilgan gumbaz", Shaken Aymanovning Abayning bolaligi haqidagi "Abay – el farzandi", Quvondiq

Shang‘itboevning "Jon qizlar", Oltinsoch Jahonovaning "Hazrati ayol" dramatik asarlari mamlakatimiz qator teatrlarida sahnalashtirilgan. Shuningdek, Dulat Isabekovning "Eski uydagi ikki uchrashuv" dramasi, "Bir haykal mojarosi" tragikomediyasi, "Bonapartning uylanishi", Sofi Smatayevning "Bovvuchcha, to‘qol degandek..." komediyalari, Qaltoy Muhammadjonovning "Biz farishtamizmi?", Sherxon Murtazoning "Stalinga xat", Ersin Qo‘yboqarning "Bola va tilanchi", Rahimjon O‘tarboevning "Sulton Beybars", "Men sizni sotmaganman" tragediyalari hamda "Uylanish osonmi?", "Qiyofadosh" komediyalari o‘zbek tiliga tarjima qilindi.

So‘nggi besh yilda Janubiy Qozog‘iston viloyatining Chimkent shahridagi o‘zbek teatrida atoqli adib Muhammad Alining "Navoiy va Boyqaro" dramasi, Saylovboy Jurnag‘ulov, Mirpo‘lat Mirzo va Erkin Xushtvaqtovning pesalari ham sahnalashtirildi.

To‘qsoninchi yillarda qozoq adibi Sobit Do‘sanovaning "Qalbim-dagi dardim mening", "Arvona" qissa va hikoyalari Nosir Fozilov va Muzaffar Ahmad tarjimasida, adabiyotshunos olim va yozuvchi Qulbek Ergobekning Sobit Muqonov ijodiga bag‘ishlangan "Yozuvchi ijodxonasida" nomli ulkan monografiyasi, qozoq shoiri va esseisti Esong‘ali Ravshanovning "Qushlar – bizning do‘stimiz" esselar te‘plami, 2013-yilda Sobit Do‘sanovaning "Qashqir uligan tun" romani Mehmon Islomqulov tarjimasida o‘zbek tilida nashr etildi. Ayni paytda tarjimon shu adibning qozoq xalqining yuz yillik tarixi qamralgan "Yigirmanchi asr" tetralogiyasi tarjimasini ustida ishlamoqda.

2005-yilda shoir Mirpo‘lat Mirzo ellik nafar qozoq shoirlarining she’rlarini "Qozoq she’riyati antologiyasi" ruknida "Sayra do‘mbiram" nomida G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotda, 2007-yilda esa, qozoq adiblarining nasriy asarlari Nosir Fozilov, Saidahmad Xudoyberganov, Rahimjon Otayev, Husan Ro‘zimatov tarjimasida "Tiriklik qo‘shig‘i" nomi bilan "Sharq" nashriyotida chop etilgan bo‘lsa, 2018-yil Qozog‘istonda O‘zbekiston yili deb nomlanishi munosabati bilan shoir va tarjimon Yangiboy Qo‘chqorov tashabbusi bilan o‘zbek kitobxonlariga Abaydan boshlab zamonaviy qozoq she’riyatining iste‘dodli namoyandalari asarlardan iborat "Ko‘ngildagi qirq qo‘shiq" to‘plami taqdim etildi.

Shuningdek, 2013-yilda "Jahon adabiyoti" jurnalining o'ninchi soni to'lig'icha qozoq adabiyoti va san'atdagi yirik namoyandalari asarlariga bag'ishlangan edi.

Qozoq-o'zbek adabiy aloqalariga katta xizmati singan O'zbekistonlik uch nafar adibimizning ijodiy mehnatlari Qozog'istonda e'tirof etilib, yuksak qadrlandi. Atoqli adib, zahmatkash tarjimon Nosir Fozilov Qozog'iston Prezidentining "Tinchlik va ma'naviy hamjihatligi uchun" mukofoti, shuningdek, Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasining Beyimbet Maylin hamda Xalqaro "Alash" mukofotlari bilan taqdirlandi, shoir Mirpo'lat Mirzo "Alash", yozuvchi Mehmon Islomqulov "Alash" hamda "Arg'umoq" adabiy mukofotlari bilan taqdirlandilar.

O'z navbatida Qozog'istonda ham Abdulla Qahhorning "Sinchalak" qissasi Aben Sotiboldiyev tarjimasida, G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasi va hikoyalari Ko'bey Seydaxonov tarjimasida, Asqad Muxtorning "Opa-singillar", Said Ahmadning "Ufq" romanlari, Uyg'un, Mirtemir, Zulfiyaning she'riy kitoblari Quvondiq Shang'itboyev tarjimasida, Nosir Fozilovning bolalar haqidagi hikoyalari, "Oqim" qissasi Aben Sotiboldiyev, "Ayni yoz" qissasi Ko'pey Seydaxonov tarjimasida nashr etilgan.

Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" komediysi Muxtor Avezov nomidagi Qozog'iston Davlat Akademik drama teatrida ko'p yillardan beri namoyish etib kelinmoqda. Shuningdek, shu teatrda Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" asari asosida yaratilgan spektakl O'zbekiston xalq artisti, iste'dodli rejissyor Olimjon Salimov tomonidan muvaffaqiyat bilan sahnalashtirilgan.

2015-yilda "O'zbekiston" nashriyotida Abay Qunonboyevning 170 yilligi munosabati bilan Qoldibek Seydanov va Muzaffar Ahmad tahriri ostida buyuk shoirning she'r, doston va qora so'zlaridan iborat "Yorqin yulduz" nomli yangi to'plami nashr etildi. 2018-yilda Abayning yangi tarjima qilingan nazmiy va nasriy asarlari, shoir ijodiga bag'ishlangan maqolalar to'plami nashrga tayyorlanmoqda.

O'zbekistonda bir millionda ortiq qozoq qardoshlarimiz umrguzaronlik qilishadi. Ular orasida ko'plab iste'dodli shoirlar, yozuvchi, dramaturglar qalam tebratishadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshida qozoq adabiyoti kengashi ish olib

bormoqda. Kengash faollaridan iste'dodli shoir Mahkamboy O'marov Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasiga ham a'zo, Navoiy viloyatidan Oytuar Sobirov, Navro'zboy Jarbo'sinov, Jarasqan Nurboyev, Aqchagul To'laganova, Toshkentdan Qoldibek Seydanov, Serik Usenov, G'ulomzokir Yusupov, Axan Tashmetov, Abdulla Rustamov, Lola Junusova, Bo'ron Qidirov, Oysuluv Axan qizi, Anor Naliboyeva, Ergash Abduvalitov, Tursunimat Qalboyev, Anorgul Qoldibekova, Quttabek Basharov, Tursunali Ahmedov, Cydona Bozorboyeva kabi iste'dodli qozoq ijodkorlari kengash ishida faol ishtirok etishmoqda. Shularning tashabbusi bilan Vatanimiz istiqlolining 23 yilligi munosabati bilan kengash ellik olti nafar O'zbekistonda yashab, qalam tebratayotgan shoir va yozuvchilarning qozoq tilida "Shug'lali elding shabiti" ("Nurafshon o'lka ilhomlari") nomli Vatanimiz istiqloliga bag'ishlangan nazmiy va nasriy asarlari to'plami chop etildi. 2017-yilda esa O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari istiqlolining 25 yilligiga bag'ishlab kengash tomonidan bir yuz ellik nafar shoirlarining she'rlari jamlangan "O'zbekistonlik qozoq shoirlarining antologiyasi", shoir va nosir Bo'ron Qidirovning "Zamon" tarixiy romani qozoq tilida nashr etildi.

"Qozoq va o'zbek adabiyotidagi ruhiy yaqinlik, ayniqsa, o'tgan asrda yuksak nuqtaga ko'tarildi. Bu davrda yashagan biror shoir yoki oqin yo'qliki, o'zaro beg'ubor do'stlikni surur bilan qalamga olmagan bo'lsa.

XX asr boshlarida o'zbek adibi Abdulla Qodiriy yaratgan qozoq yozuvchilari uchun adabiy mактаб bo'lgани haqida Muxtor Avezov ko'п yozgan.

Qozoq adabiyotidagi epiklik, xalq og'zaki ijodiyotiga moyillik kabi xislatlar asosan mumtoz adabiyot an'analari ruhida shakllangan o'zbek adabiyotini yanada yorqin ranglar bilan boyitishga munosib hissa qo'shti. Ikki xalq adabiyoti vakillarini bamisolgi egizakka o'xshatish mumkin, zero, Muxtor Avezov va Oybek, G'afur G'ulom va Sobit Muqonov, Abdulla Tojiboyev va Mirtemir, Abdulla Oripov va O'lijas Sulaymonovlar adabiyot maydonida bir-biriga hamnafas qalam surdilar" – deya yozgandi O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov. ("Sayra, do'mbiram" kitobiga so'zboshi. G'afur G'ulom nomidagi NMIU. Toshkent-2005).

So‘zimizni Abirash Jamishevning "Do‘stligimiz" she’ridagi quyidagi satrlar bilan yakunlamoqchimizki, o‘tmishi bir xalqning kelajagi ham birdek do‘stona bo‘lishi kerak.

Tariximiz,

Qonimiz bir azaldan.

Otamiz bir,

Onamiz bir,

Bus-butun--

Seni og‘am deyman sevib men dildan.

Bir chamanda tug‘ilganmiz yonma-yon.

QOZOQ SHE'RIYATI

ABAY (1845-1904)

Abay (Ibrohim) Qunonboyev yangi qozoq adabiyoti va adabiy tilining asoschisi. U Semipalatinsk (hozirgi Semey viloyatinining Abay tumani)dagi Qashqabuloq ovulida tug'ilgan. Abayning asl ismi Ibrohim bo'lgan. Ammo onasi Uljon uni erkalatib, ardoqlab Abay degan. "Abay" so'zining asl ma'nosi "avayla", "ehtiyot bo'l" degani.

Abay o'n yoshga qadar ota-onasining tarbiyasida bo'lib, boshlang'ich ma'lumotni o'z ovulidagi G'abitxon ismli mulladan oladi. So'ogra Semipalatinsk shahridagi madrasaga o'qishga boradi. U avval Abdujabbor, keyinchalik Ahmad Rizo ismli mullalarning qo'lida uch yil tahsil ko'radi. Ayniqsa, Sharq klassiklari asarlarini alohida mehr bilan o'rganib, Firdavsiy, Nizomiy, Xo'ja Hofiz, Alisher Navoiy, Fuzuliy va boshqa shoirlarni o'ziga ustoz deb bilib, ulaming asarlaridan bahra oladi va g'azallarini yodlaydi. Abay o'z ijodi bilan qozoq she'riyatida yangi davrni boshlab berdi. Ulug' shoir, faylasuf, ma'rifatparvar, bastakor sifatida ulkan ma'naviy-estetik meros qoldirdi. Uning nasrda bitilgan "Qora so'zlar" nomli falsafiy asari qozoq xalqining pedagogik-didaktik tafakkuri taraqqiyotida katta o'rin tutadi. She'rlarida xalq ruhi, milliy qiyofasi, badiii tafakkur olami o'z aksini topgan.

Abaydan 200 ga yaqin she'riy asarlari bilan 3 ta dostoni ("Iskandar", "Azim hikoyasi", "Mas'ud") yetib kelgan. 1882-1885-yillari A.S.Pushkindan "Tatyananing Oneginga yozgan xati", "Tatyananing qirdagi qo'shig'i", "Tatyananing so'zi", "Onegin so'zi", M.Yu.Lermontovdan "Borodino", "Kam so'zlay, ishonay", "Ko'nglim mening" kabi va boshqa asarlarini qozoq tiliga tarjima etgan. Abayning asarlari o'zbek tilida qayta -qayta nashr qilinmoqda.

* * *

Yuragim mening qirq yamoq,
Xiyonatkor olamdan.

Qanday qilib bo'lsin sog',
Ko'ngil qolgan hammadan.
Goho o'ldi, goh bo'ldi yov
Kimni sevsə bu yurak!
Bari dushman, yo'lga g'ov,
Suyanishga yo'q tırgak.

Yetib keldi qarilik ham,
Uni to'sar kuch qayda?!

Do'st bo'lmas qalbi beg'am,
Undan bizga yo'q foyda.

Ey, yuragi dardli odam,
Qalbimdan sen xabar ol:
Unda ne bor, qanday dard, g'am
Tilga kirar, qulq sol.

(1899)

* * *

Nurli osmonga intilib o'sgansan sen,
G'ururlanib, qayg'ulardan bezgansan sen.
Xuddi shunday bahor chog'i maysalarning
Quyosh sari rag'batini sezgansan sen.

Shundan beri ko'p rahmsiz yillar o'tdi,
O'roq oni, yig'im-terim oni yetdi.
Issig'ini, sovug'ini – barin ko'rib
Munglig' ko'ngil qayishmasdan g'ayrat etdi.

Og'ir o'ylar azobida qiynalib jon,
Qayg'u, hasrat chehrangga iz solmish ayon.
Doni to'liq boshaqlarday, u o'ylar ham
Sening boshing egimak istar yerga tomon.

Tirik jon-ku o'lmaqlikka rozi bo'lmas,
Go'yoki u bir umrga yashar, o'lmas.
Ajal kelib chovut solsa, jomni olsa,
Umr qayda, sen qayda – bir o'ylasang, bas.

Odam zoti bugun odam, erta – tuproq,
Bu kun umr yashnab turar, aldov – biroq.
Erta o‘zing qaerdasan, bilarmisan,
O‘lmak uchun tug‘ilgansan, o‘yla, chiroq.

(1899)

ISKANDAR

Bizning yurt Iskandarni bilarmakan?
Makedoniya shahari – unga makon.
Filipp podsho bolasi, er ko‘ngilli,
Maqtov suygich, qizg‘anchoq odam ekan.

Filipp o‘ldi, Iskandar podsho bo‘ldi,
Yoshi arang yigirma birga to‘ldi.
O‘z yurti oz ko‘rinib, qo‘shnilarga
Ko‘z olariib qaradi o‘ngni-so‘lni.

Shumlik-la askar yig‘ib quvvatlandi,
Yaqin yerga yov bo‘ldi, tura otlandi.
Bo‘ysummagan ko‘p elni qirdi-surdi,
Shohni o‘ldirib, qal’asin tortib oldi.

Begunoh yaqin elning barin chopdi,
Daryoning suvi kabi qonlar oqdi.
Chopgan elning barin ham bo‘dam¹ qilib,
Hukumatni qo‘liga tortib oldi.

Iskandar elin olmagan xon qolmadi,
Olgan sayin ko‘ngili bir to‘ymadi.
Ishtaha borgan sayin qatti(q) ochilib,
Yer yuzini olishni u o‘yladi.

Qonichar, qahrli shoh, achchig‘i ko‘p,
Atog‘idan qo‘rqadi yurt qayg‘u yeb.

¹Bo‘dam, bo‘dan – ruscha “poddanniy” so‘zining buzilgan shakli.

O'shal kun xushomadni aytaverdi,
Xonning xoni, podshoning podshosi deb.
Talay yerga atog'i uning yetdi,
Yer yuzini clishga talab etdi.
Hisobsiz askar olib, yarog'lanib,
Eshitgan ellar tomon yurib ketdi.

Oldidan chiqalmadi hech kim uning,
Barini oldi, qo'rqtidi yo'l dagining.
Jon chiqmadi oldidan, to'xtovi yo'q,
Yer yuzin olsam deya o'ylovchining.

Yura-yura bir elsiz cho'lga tushdi,
Olib yurgan suvining barin ichdi,
Odam, hayvon bari ham birday cho'llab,
Boshiga xudoy soldi qiyin ishmi.

Sandaldi² sar(iq) dalada suv topoimay,
Cho'llagan yurt ne qilsin bo'sh qamalimay.
Barcha xizmatkorlarin o'ldirmoqchi
Bo'libdi, cho'llaganga chidayolmay.

Misoli, ostdagisi ot tag'in uchdi,
Iskandar ham otining yolin quchdi.
Yaltirab shu'la bergen bir narsaga,
Ot ustida podshoning ko'zi tushdi.

Borsa, bir oqib yotgan shildir buloq
Ariqdan to'lib oqar toshib-qulab.
Otdan tushib Iskandar boshin qo'ydi,
Ichib ko'rsa, boldan ham bu totiroq.

Qoq baliqni keltirdi shunda turib,
Suvga soldi baliqni bir yuvdirib.
Isi, ta'mi o'zgacha bo'lib ketdi,
Tang qoldi buning barin suvdan ko'rib.

²Sandalmoq – kezmoq, tentiramoq.

Iskandar der qo'shinga: "Bu netgan suv?
Baring ichib, bu suvgaga betingni yuv!
Bir boy eldan ushbu suv chiqqan chiqar,
O'rlab borib, ustiga tikaylik tug!"

Bu totli suvni iching, qoning sizlar,
Bas kelar jin yo'q menga, biling sizlar.
Menden qolmay, bu suvdan boring o'rlab,
Talqon qilib shaharin oling sizlar.

Yorliq sochdi, qo'l³ yurdi suvni o'rlay,
To shaharga yetguncha, hordik ko'r may
Ko'k-ko'mbak temir kiygan necha botir,
Torttirib yo'naladi karnay-surnay.

Shu askar suvni o'rlab talay yurdi,
Suvning boshi bir guzar chotga⁴ kirdi.
Chotning og'zin bekitgan oltin qo'rg'on,
Darvozas bekilgan, hamma ko'rdi.

Darvozani ochay deb xon intildi,
Tutqichin ulay-bulay siltab-yuldi.
Ocholmadi eshikni, umid uzib,
Atrofga boqib, hayron qarab turdi.

Iskandar to'xtov ko'r may o'sgan jon-ku,
Shundaylar bo'lar manman, o'jar, gov, quv.
Dovdirab bari izga qaytib chiqdi,
Olishib, hol yetmasin payqagan-ku.

Iskandarning yuziga g'azab to'ldi,
Achchiq-la darvozaga yetib bordi.
Qasir-qusur qoqdi u darvozani,
– Eshiging och! – deya ayyuhannos soldi.

³Qo'l – qo'shin.

⁴Chot – tog' unguri, g'or, dara, chotqol.

Darvoza naryog‘idan birov keldi,
Qorovulmi, kimman deb tovush berdi.
-- Ruxsat yo‘q senga eshik ochmoqqa hech,
Bu xudoga boshlovchi eshik, – dedi.

– Bilmasang bil, men – Iskandar podshoh degan!
Urushda yer yuzining barin yenggan!
Darvozang och, xabaring ayt, bildir menga,
Xor sezdim men o‘zimni ko‘z ko‘rmagan!

-- Zo‘rman deb hech maqtanima, oqil bo‘lsang,
Zo‘r bo‘lsang sen nafsing-la qilib ko‘r jang!
Ichi tor, ko‘rolmasning biri – sensan,
Uday kishi bu yerga kelmaydi teng.


-- Maqsad sari talpingan men ham bir er,
Ko‘p yurdim, duch keldi shu ko‘rmagan yer.
Eng bo‘lnasa, xalqimga ko‘rsatayin,
Sovg‘a qil, belgi bo‘lar bir narsa ber!

Devordan uchib tushdi tugun – ro‘mol.
-- Sovg‘a deb, ey podsho, manovni ol!
Ichida bir narsa bor, hikmat berar,
Olib bor, o‘ylanib ko‘r, ko‘zingni sol!

Iskandar shu tugunni qo‘lga oldi,
-- Sovg‘a oldim! – deb qo‘shinga ayta soldi.
Qarasa, tugun ichi – bir quv suyak,
“Bu netgan mazag‘i?” – deb ang-tang qoldi.

Achchig‘landi, ko‘ksida tuydi kekni,
-- Bilmadi-ya kimga, nima siy bermakni.
Shu menga loyiqmidi? – deb bir hayqirib,
Uloqtirib yubordi u suyakni.

Yo‘ldoshi Aristotel – oq(i)li mo‘l
Otvorgan huv suyakni oladi shul.



Shohga dedi:

– Xosiyat bor bu suyakda,
Ko 'zingga ko 'rsatayin, xabardor bo 'l!

O 'shal payt Aristotel aqli sara,
Oqil so 'zin tinglamay bormi chora?
– Tarozini opke, hoy, suyakni sol,
Bir tomonga oltin sol, o 'lchab qara!

Bu so 'zga Iskandar ham qaray qoldi,
Tarozini qudirib, o 'rtaga oldi.
Pallaga kumush, oltin-zar salsa ham,
Kichkina bir suyakni ag 'darmadi.

Buni ko 'rib Iskandar ang-tang bo 'ldi,
Oltin-kumush yig 'dirib, qo 'sha soldi.
Endi nima qilar deb qaragandi,
Qaytanga suyak battar og 'irlandi.

Aristotel hakimga podsho keldi:
– Manov suyak xazinaning barin yengdi.
Bu suyakni bosarlik narsa bormi?
Aql ila o 'ylanib top-chi! – dedi.

Hakim yerdan bir hovuch tuproq oldi,
Bir pallaga tuproqdan to 'kdi, soldi.
Shunda palla shilq etib yerga tushib,
Suyak esa yuqori chiqib qoldi.

Iskandar buni ko 'rib oz turadi,
Hakimni ovloq yerga chaqiradi.
– Tang qolarlik ish bo 'ldi buning o 'zi,
Ma 'nosini aytib ber-chi, – deb so 'radi.

– Bu odam ko 'z chanog 'i, – dedi xonga. –
To 'yarmi odam ko 'zi mingta songa?
Yemit ko 'z yer yuziga to 'ymasa-da,
O 'lsa – to 'yar, ko 'ziga qum to 'lganda.

Kofir ko'zning dunyoda oroni⁵ ulkan,
Olgan sayin dunyoga to'yarmikan?
Qancha tirik yursa ham, o'lgan kuni
O'zga ko'z-la birday-oq bo'ladi ekan.

Achchiqlanmang, podshchim, aytayin dod,
Oltin eshik bermadi sizga ruxsat.
Sovg'a deding, bergani – bir quv suyak,
Buni ko'rib, olingiz siz ham ibrat!

O'ylab-o'ylab podshoning bo'yni tushdi,
Xudoyim ko'rsatdi deb bul bir ishni.
O'rinsiz ekan mening bu ishim deb,
Qo'shinni olib ortga qayta ko'chdi.

Shundoqqina qisqa so'z bu hangoma,
Buni bir bekorchining so'zi dema.
Qorning to'ysa, qayg'urma qaydagini,
To'ymas ko'z ham to'yadi, qayg'u yema.

Quv umr mangu emas, tezda o'tar,
O'z kulgungga o'zing g'arq bo'lma battar.
Uyat bilan oringni molga sotma,
Uyatsizda imon yo'q, tubga yetar.

Maqtanasan birovga maqtasin deb,
Shavjoyimdan⁶ hech odam qoqmasin deb.
Sen ketganda ortingdan kulib qolar,
Kudoyim onturgandan saqlasin, deb.

Aqlsiz o'zin maqtab biljiraydi⁷,
Bo'yingga o'lchab gap ayt, ne bo'lardi.
Yaxshi bo'lsang – yorug'san, hamma ko'rar,
O'z bahongni o'zingdan kim so'raydi?!

(1900–1902)

⁵Oron – 1. Xalqum. 2. Nafs.

⁶Shavjoy – o'mrov, olqim. Bu yerda, "yoqamdan ushlamasin" degan ma'noda.

⁷Biljiramoq – ezimalannoq.

ABAY NASRIDAN

O'N YETTINCHI SO'Z

Bir kuni G'ayrat, Aql, Yurak – har qaysisi o'z hunarini maqtab, aytishib, tortishib qolishibdi-yu. Ilmning oldiga kelib, undan hakamlik qilishni so'rashibdi.

Shunda birinchi bo'lib G'ayrat so'zlabdi:

– Ey Ilm, – debdi u, – axir o'zing bilasan, dunyoda hech bir narsa yo'qki, u mening ishirokimsiz kamol topsin. Avvalo, mana, sening o'zingni bilish ham, erinmay, sabot va matonat bilan izlab, o'rganib, yana uni o'z o'rnida ishlatish ham – mening ishim. Har kuri o'z vaqtida toat-ibodatni kanda qilmay o'miga qo'yish ham mening ishim. Senga ma'lumki, dunyoda har kim o'ziga loyiq hunar o'rganishi, mol topishi, obro' qozonishi, mansab egallashi kerak – bularning hammasi bemehnat bunyodga kelmaydi. O'tinsiz, bo'larbo'lmas ishlarga ko'ngil qo'ydirmay, insonni sof saqlaydigan, uni gunohkorlikdan, johillikdan, shaytonning gapiga kirib, nafs balosiga giriftor bo'lishlikdan asraydigan, adashgan bandalarni to'g'ri yo'lga solib yuboradigan ham – men emasmi, axir? Shunday bo'lgandan keyin, Aql bilan Yurak nega men bilan masala talashadi? – debdi.

Shunda Aql aytibdi:

– Na bu dunyoda va na u dunyoda nimaiki foydali, nimaiki zararli bo'lsa – biladigan bir menman. Sening so'zingni uqadigan ham men. Mensiz inson na o'z feydasini biladi va na o'z zararidan qochib qutula oladi. Hatto, Ilmni ham o'qib o'rgana olmaydi. Shunday bo'lgandan so'ng, bu ikkalasi men bilan nega g'ijillashadi? Men bo'lmasan bu ikkalasining qo'lidan nima ish keladi? – debdi.

Nihoyat, Yurakka navbat kelibdi va u shunday debdi:

– Men inson tanasining podshosiman, qon mendan taraydi, jon menda makon quradi, mensiz hayot yo'q, – debdi u. – Issiq uyda, yumshoq to'shakda yotgan to'q bir odamni: och-yalang'och, to'shaksizsovqotib yurgan kambag'alni holi nima kechdi ekan, deb o'ylantirib, uni u yonidan bu yoniga ag'anatadigan, uyuqsini qochirib, jonini achitadigan ham menman. Kattalarga nisbatan hurmatizzat, kichiklarga nisbatan mehr-shafsqat qildiradigan ham menman. Biroq inson meni hamma vaqt ham sof saqlay olmaydi. Oxir bir kuni

xor qiladi. Agar men toza bo'lsam, inson bolasini olalamagan bo'lur edim: yaxshisini yaxshilikka yetkazadigan ham – men, yomonining ta'zirini beradigan ham – men. Adolat, insof, or-nomus, rahm-shafqat, mehribonchilik kabi narsalarning hammasi menden chiqadi. Mensiz bularning ko'rgan kuni kunmi? Shunday bo'lgandan keyin, bu ikkalasi men bilan yana qanday qilib masala talashishadi? – debdi.

Shunda Ilm uchalasining gapini bafurja tinglab olib, uchalasiga shunday debdi:

-- Ey G'ayrat, sening aytgan gaplaringning hammasi to'g'ri. Hatto u aytganlaringdan boshqa hunarlaringning bortigi ham rost, shuningdek, ularning sensiz hech ekanligi ham to'g'ri. Ammo shu bilan birga, kuch-quvvatingga yarasha qattiqchililing ham bor. Ko'pgina foydang bilan birga, zararing ham yo'q emas. Ba'zan yaxshilikka, ba'zan esa yomonlikka mahkam yopishib olasan – ana shuning yomon!

So'ng Aqlga aytibdi:

– Ey Aql! Sening aytgan gaplaring ham to'g'ri. Sening ishtirokingsiz hech narsaning bo'imasligi ham rost. Yaratganni ham sen tanitasan, mavjud har ikki dunyoning kori- holini harn sen bilasan. Bundan tashqari ham qo'lingdan ko'p narsalar keladi: turli amal, hiyla-nayranging bari sendan chiqadi; yaxshining ham, yomonning ham tayangani – sensan. Sen ikkalasiga ham birdek xizmat qilasan, istaganini topib berasan – mana shu odating yomon! – deb so'zini davom ettiribdi Ilm. Endi men uchalangning boshingni qo'shib, ittifoqlaringni kelishtirib qo'yishim kerak. Bu ishda yo'il - yo'riq ko'rsatadigan boshliq Yurak bo'lsa yaxshi bo'ladi. Chunki, Aql, sening nojo'ya tomonlaring ko'p, shu sababdan Yurak sen yetaklagan tomonga qarab yuravermaydi: yaxshi yo'lga boshlasang – jon dilidan yuradi, hatto xursand ham bo'ladi; yomon yo'lga boshlasang – sendan jirkanadi, aytganingga yurmaydi, balki ko'krakdan haydab chiqaradi.

So'ngra Ilm yana G'ayratga aytibdi:

-- Ey G'ayrat! Sening ham kuch-quvvating juda ko'p. Lekin Yurak bosh bo'lsa, seni ham o'z erkingga qo'ymaydi. Uni faqat o'rinli ishlargagina safarbar qiladi. O'rinsiz nar –salarga-chi, qo'l urdirmaydi. Mening gapimga qirib, uchovlon birga bosh qo'shinglar,

tinch-totuv yashanglar va bamaslahat ish ko'ringlar! – deb maslahat beribdi Ilm. -- Agar uchalangizdag'i xususiyatlар birikib, bir odam bo'lsalaringiz – u holda sizning bosgan izingizni tabarruk qilib ko'zga surtsa bo'ladi. Bordi-yu, uchovingiz ola bo'lsangiz, bir keishimga kelisha olmasangiz – u holda men faqat Yurakning tarafinigina yoqlayman. Chunki kitoblarda: odamgarchilik kishining qalbida bo'ladi, qalbingni pok saqla, deyilgan...

O'TTIZ YETTINCHI SO'Z

1. Insonning insonligi ishni qanday boshlaganidan bilinadi, lekin qanday tugatganidan emas.
2. Ko'nglingdagi ko'rkan o'y og'zingdan chiqqach xiralanadi.
3. Sen agar faqat o'zini o'ylaydigan nodonga hikmatli so'z aytsang, u seni yo xursand qiladi yo esa xafa.
4. Kishiga bilimiga qarab yaxshilik qil, yomonga qilgan yaxshilingiz boshingga balo bo'lib tushadi.
5. Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'll! Odam bolasi – elning lolasi.
6. Yaxshi odam ko'p so'raydi, ammo oz bersang ham rozi bo'ladi. Yomon odam oz so'raydi, ammo ko'p bersang ham rozi bo'lmaydi.
7. Yolg'iz boshing uchun mehnat qilsang, o'z qorni uchun o'tlagan hayvonning biri bo'lasan. Insoniy burching uchun mehnat qilsang esa, Yaratganning suygan bandasi bo'lasan.
8. Suqrotga og'u bergen, Ioanna Arkni olovga tashlagan, Isoni xochga tortib, Payg'ambarimiz sallallohu alayhi va sallamni tuyaning o'limtigiga ko'mgan kim? Xalq! Shunday bo'lgach, xalqda aql yo'q. Yo'lini topda, xalqqa rahnamolik qil.
9. Inson bolasini zamona parvarish qiladi. Kimda-kim yomon bo'lisa, ayb zamondoshlarida.
10. Agar davlat mening qo'limda bo'lganda, inson farzandini tuzatib bo'lmaydi, degan odamning tilini kesib tashlardim...
11. Dunyoda tanho yashagandan – o'lgan yaxshi. Yolg'iz odamni qayg'u-hasrat bosadi. Dunyoda nimaiki bor: u yaxshilikmi, yomonlikmi, xursandchilikimi, qayg'u- hasratmi – hammasi xalqda

bo'ladi. Avvalgisiga kim chiday oladi? Keyingisisiz kim yashay oladi?

12. Dunyoda kim yomonlik ko'rmagan deysiz? Umidsizlik – bu g'ayratsizlikdir. Dunyoda hech muqim narsa yo'q, shuningdek, yomonlik ham mudom bo'lmaydi. Axir, qori qalin qahraton qish ketidan, ko'k maysali, tiniq suvli yoz kelmasmu?

13. Badjabl odam kamgap kelsa, zahari ichida bo'lgani. Bordiyu, hech kimga gap bermay, lo'lilik qilib shovqin solsa – bu odam yo qo'rroq yo esa maqtanchoq keladi.

14. Quvonch va mag'rurlik – mastlikdir. Faqat mingdan bir kishigina bu narsadan o'zini ehtiyot tutib yura oladi.

15. Ishning omadi – o'z vaqt.

16. Buyuk mansab – go'yo bir buyuk qoya. Unga erinmay, o'rmalab yurib ilon ham chiqadi, uchib-qo'nib yurib qiron ham chiqadi.

17. Dunyo kattakon ko'1. Zamona esa esib turgan yel. Odding-dagi to'lqin – og'alar bo'lsa, ketindagi to'lqin – inilardir. Navbat bilan o'lishar, avvalgiday bo'lishar.

18. Tuyadek bo'y bergandan, tugmadek aql bergen ortiq. Soqolini sotgan qaridan, mehnatini sotgan yosh ortiq.

19. Mo'ltoni mulla el talar.

20. Yomon do'st – bir ko'lankadir: quyoshli kunda qochsang ham qutulolmaysan, bulutli kunda esa izlasang ham topolmaysan.

21. Do'sti yo'q bilan sirlash, do'sti ko'p bilan siylash. Yaxshiga yaqin bo'l, yomondan – yiroq.

22. G'ayratsiz jahl – tul, qayg'usiz oshiq – tul, shogirdsiz olim – tul.

23. Baxtiyor bo'lguningcha baxtingni eling ham tilaydi, o'zing ham tilaysan. Baxtiyor bo'lganidan so'ng esa – faqat o'zinggina tilaysan.

JAMBUL JABAYEV

(1846-1945)

Xalqning sevimli shoiri, mohir so‘z ustasi, ulug‘ oqin Jambul Avliyoota viloyatidagi Qoratov etaklarida dunyoga kelgan. U xalq og‘zaki ijodiyoti namunalarini bolaligidan sevib o‘rgandi va qozoq xalqi orasida aytishuv san’atining yetakchisi sifatida shuhrat qozondi.

Shoирning ijodi munosib taqdirlandi. U ko‘plab mukofotlar va nishonlar, sovrinlar olishga sazovor bo‘ldi.

Oqin Jambulning shoirlik qudrati, salohiyati xalqona ohanglarda aytilgan o‘ynoqi misralarda, so‘z san’atining nozik tovlanishlari aks etib turgan quyma terma va to‘lg‘ovlarda yercin ifodalangan. Xalqining ezgu umid-orzulari, quvonch va tashvishlari san’atkorona tasvirlangan Jambul asarlari hamisha sevib o‘qiladi.

OLATOV

Tizilgan tog‘lari bor Jetgisuvning,
Dov-daraxt o‘sar unda turfa, ming-ming.
Shu yuksak qoyalardan qaynab-toshar,
Ko‘rasan tomoshasin oqqan suvning.

Bu go‘zal tog‘lar kimni maftun etmas?
Kuylashga biyron til ham kuchi yetmas.
O‘rigu olma, olmurut, mevalar ko‘p.
Bir totsang og‘zingdan hech ta’mi ketmas.

Suzadi oq bulutlar — osmon mulki,
O‘rganar oq cho‘qqilar osmonlikni.
Turli jon-jonivorlar yashar bunda,
Tilaydi bir-biriga omonlikni.

Arslon, ayiq, qashqir, tulki va bo‘rsiq,
Silovsinu yo‘lbarslar yurar yo‘rtib.
Qaynagan oq buloqlar mavjlarida
O‘ynaydi kumush baliq sakrab-sho‘rchib.

Bu yerning kengliklari kaftdek emish,
Dehqonlar adirlarga bug'doy ekmish;
Bu yurtda makon tutib zahmat chekkan
El uchun yetkazarlar rizq-ro'z, yemish.

Olatov Jettisuv-la quchoqlashgan
Eliga dur-gavharli qo'yin ochgan.
Bag'ringda Olmataday zo'r shahrim bor,
Bovurdosh — o'ris, qozoq o'rtoqlashgan.

Yaylov bor bu yerlarda — yotar chalqib,
Ko'k maysa adir-qiri — turar balqib,
Qizig'in ko'k yayloving ko'ray desang,
Maysaga yotib olib, unda qalqi.

SARI BOYGA

Sariake, so'zim izhor qildim sizga,
Siz aytgan gap oliv mezon bo'lgan bizga.
Qo'lga olib do'mbiramni — talab qildim,
Berasiz qanday baho ulingizga?

Yomonning ko'ngli ko'qda, baland sasi,
Uchirib yuborguday shabadasi.
Yaxshining o'zi kichik, o'yi biyik,
Birdaymi ikkisining martabasi?

Birovlar tekin oshga bo'kmoq istar,
Insofga chaqirganni so'kmoq istar.
Ko'tarib bu dunyoning go'ng-qo'qirin,
Oborib qay chuqurga to'kmoq istar?

Birovlar qarshisida paydo tog'lar,
Har lahza xushomadga o'zin chog'lar.
Birovlar orzusiga yetolmas hech,
Bilmaydi — oyoq-qo'llin nima bog'lar?

Qay birov oq bulutda qasr qurar,
Ko'kdagi oy menga deb dovlab yurar.
Birovlar quruq so'zdan qamichi yasab,
Oqquv minib, qulonni ovlab yurar.

Meni shular qay biriga ep ko'rasiz?
O'zimga o'zim desam o'pkalarsiz.
Suyekem* suyganini o'ylasangiz,
O'lan bo'lzin sheringing, deb berasiz.

SHOKARIM XUDOYBERDIYEV

(1858-1931)

Qozoq adabiyotining yirik arbobi Shokarim Xudoyberdiyev Semipalatinsk viloyatining Chingiztov tumanida tug'ilgan. Yetti yoshida yetim qolib, tog'asi Abay Qunanboyev oilasida tarbiyalangan. Mustaqil ravishda bilim olib, arab, fors, qadimgi turk va rus tillarini o'rgangan.

Uning she'rlari falsafiy timsollar, go'zal tashbehlarga boy. U ajoyib she'riy asarlar bilan birga axloqiy-ma'rifiy, tarixiy risolalar ham yozgan. "Qozoq onasi" she'rlar to'plami, "Qalmaqan va Mamir", "Enlik va Ko'bek" kabi asarlari, "Qozoq shajarasi" risolasi xalq orasida mashhur bo'lgan.

Shokarim sharq mumtoz adabiyoti namunalarini va A.Pushkin, L.Tolstoy asarlarini qozoq tiliga tarjima qilgan. Uning ijodi qozoq adabiyoti rivojiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

* * *

Do'st senga zor,
Dushmaning xor,
Sen tilakka yetgan on.

Beadad baxt,
Oltindan taxt —
Ayamasa o'zni jon.

Chekinar g'am,
Qolmas alam —
Dil murodga yetsa gar.

Biroq ne naf —
Barin tashlab
Qo'ling ochiq ketsa gar.

Bu dunyo quv,
Bir oqin suv,

Tushdik unga cho'p bo'lib.
Kundan-kunga
Dil to'lar mungga
Tashvishimiz ko'p bo'lib.

Gohi toshga,
Goh og'ochga
To'qinamiz urinib.

Suvidan-da
Og'usidan-da
Qutulamiz surinib.

Dunyo — toshqin
Mavjdek shoshqin
Singar yerga dam-badam.

Tin bilmay hech
Ert a yo kech
Bari shunda bo'lar jam.

Har kas barii
Fano sari
Yo'l olgaydir begumon.

Tunga inib,
Mangu tinib,
Shundagina tinchir jon.

* * *

Suydim men azaldan turk tilin,
Jamuljamdir unda bor bilim.
O'zlashtirdim sehrin ixlos-la,
Mazmunga to'ldi har kunim.

O'rganishdan sira toldimmi,
Shundan oqin bo'lib qoldimmi!

Mehr qo‘ydim o‘ris tiliga,
Boyitar endi u qalbimni.
Shogirdman Tolstoyga, tonmayman,
O‘qiymen uni — hech qonmayman.
Uni kofir deb atading sen,
Nafrat o‘tida men yonmayman.

Tolstoy kofirmas, kofir — o‘zing,
Yolg‘ondir va’zing, yolg‘on so‘zing.
Ko‘ngli so‘qir nodonsan, fe’ling kaj,
Qandoq payqasin nurni ko‘zing?

Ko‘nmam dinni ters burmog‘iga,
Tushmam hech uning qarmog‘iga.
Rosti, undoq ming kasni
Olmayman Tolstoy tirnog‘iga.

Aqlii-la gap talashmagin,
Munofiq so‘figa yondashmagin.
Dono, oq niyat odamlarning
Izmin tut doim, adashmagin.

SULTONMAHMUD TO'RAYG'IROV

(1886-1920)

Qozoq romançiligining asoschilaridan biri, demokrat shoir Sultonmahmud To'rayg'irov Pavlodar viloyatining Bayanovul tumaniida tug'ilgan. Madrasada ta'lif olgan. 1913-yildan boshlab birinchi qozoq jurnali "Ayyop"da mas'ul kotib bo'lib ishlagan.

Ilk she'rlari, publisistik maqolalari va ocherklari ana shu jurnalda e'lon qilingan.

Shoir xalq turmushi manzaralarini, ovul hayotini haqqoniy ko'rsatishga intildi. Shuning uchun ham she'rlarida grajdaniq ruhi kuchli. "Adashgan umr", "Gadoy" dostonlari falsafiy umumlashmalarga boy, ularda ijtimoiy adolatsizlik va tengsizliklar qattiq qoralanadi. Adib qalamiga mansub "Qamar suluv" romani qozoq realistik nasrinining ilk go'zal namunalaridan biridir.

QIMIZ

Azaldan har yon dong'i ketgan, qimiz,
Seni totgan murodga yetgan, qimiz.

Tabarruksan, hattoki bir tomching ham
Har qanday dardga shifo etgan, qimiz.

Chiqqanda adir uzra oy charaqlab,
Qo'yasan atrofingga ipsiz bog'lab.
Tomoqqa "qult-qult" etib quyilasan,
Tashnalar taskin topar ko'nglin chog'lab.

Kuvining ovozlari biram yoqar,
Ko'zini uzmas undan bola-chaqa.
Dunyoda turli-turli ne'matlar ko'p,
Ne'matsan — ta'rifi yo'q sen shunaqa.

Ko'pirsang — jannat bo'yli anqib ketar,
Mavjlaring har vujudni sarmast etar.
Ayyqirib oqqan daryo sadosidek

Yetti qirdan nariga ising yetar!
Sehring bor — seni totgan tirishmaydi,
Yoviga do'st tutinar, urishmaydi.
Labimga bir-ikki kun tegmay qolsang,
Ko'ngil qurg'ur burishib, quruqshaydi.

Kuvining sasi chollar esin olib,
Chiqib kelar ular uydan “hay-hay” solib.
Mayli, so'k, mayli, hayqir, mayli, jekir,
Kek saqlamas hech kim senga, ko'ngli qolib.

Mehimon ising olisdan bilaverar,
Bir salom-chun qoshingga yelaverar.
Boyu gadoy, yaxshi-yomon, to'ra, faqir
Sen tomon yopirilib kelaverar.

Ayniqsa, hoji, so'fi, xo'ja-mulla
Tasbeхlarin oshig'ich olib qo'lga,
Oq fotiha berarlar kelgandanoq:
“O xudoyim, arvoхlar, har vaqt qo'lla!”

Ziyorat qilar shu tarz yurtning bari,
Ko'ngillar biram chog', dil g'amdan nari.
“Yopiray!..” deya senga bosh irg'ashsa,
Ehtirom bildirarlar ichgan sari.

Shopirsang cho'mich bilan quloch kerib,
Yig'ilgan mehmoningga quyib berib.
Uyini, o'tovini tashlab butkul
Har gapida ketmasmi senga erib.

Har yon ko'zi javdiragan sho'rlik gadoy
Qo'yarmi ising andib, tentiramay.
Boyaqish obro'yingni yoyar yurtga,
Bir qultum bersang agar “ket, chiq” demay.

Kishi yo‘q — qimiz bilan kechgan onni —
Hush demas, mayli, kezgin keng jahonni.
Qimizsiz, menga desa, Aflatun bo‘l,
Ko‘rmassan so‘zing tinglar hech bir jonni.
Oldingdan qimiz ketsa, qiziq ketar,
Qitmır gap savlatingni buzib ketar.
Kechagina biyik bo‘p o‘tirgan yurt
Bugun sendan umidiñ uzib ketar.

Sen ortiq tutaqmagin har yon chopib,
Bos avval tashnaliking qimiz topib.
Qimizga yetishgach, so‘ng hovliq, hayqir,
O‘zingni sultondek sez, gapning lofi.

Ay, qimiz, izza qilding qo‘lga tushmay,
Yurayin tokaygacha kuvi pishmay.
Yurakning g‘amlarini aritgung sen,
Topsam gar elga beray, o‘zim ichmay.

TUQQAN ELIMGA

Umid-la menga qaraysan,
O‘zingga hamdardı sanaysan.
Men dastyorlikka yarasam,
Sen rohbonlikka yaraysan.

Har ishga, elim, men shayman,
Jonimni sendan qiymayman.
Koringga bakor kelmasam,
Ezilgum, o‘zni qiynayman.

Olti qir oshib ketsam-da,
So‘zlarining sening siylayman.
Sendan, elim, bor o‘tinchim,
Izn et dilimni ochay men.

To‘plagan ilmu bilimim —
Qoshingga keltirib sochay men.

AHMET BOYTURSUNOV
(1873-1938)

Qo'stanay viloyatining Jankeldin tumanidagi Saritubek ovulida tug'ilib o'sgan Ahmet Boytursunov qozoq xalqining XX asr boshlaridagi milliy-ozodlik harakati yo'lboshchilaridan biri, davlat arbobi, shoir va publitsist sifatida tanilgan.

U qozoq tili va adabiyotining tadqiqotchisi, qozoq imlosi—ning islchotchisi, shuningdek, ma'rifatparvar shoir hamdir. Uni haçli ravishda qozoq adabiyotshunosligi fanining asoschisi, deb atashadi.

U qoldirgan "O'quv quroli" darslik kitobi qozoq tilida yozilgan to'ng'ich alisbe o'quv-qo'llanmalaridan hisoblanadi. U yozgan ko'plab she'rlar xalq qo'shiqlariga aylanib ketgan.

OQIN INIMGA

So'zimga qulog'ing sol, oqin inim!
O'y-fikr va ruhimiz yaqin, inim.
Og'alik huquqim bor, shundan senga
Keldim men o'rgatay deb aql, inim.

O'zimni og'angdayin tutsam agar,
Bu ishim ko'rarmisan ma'qil, inim?
Og'angning gar adashgan yeri bo'lsa,
So'rayman eta qol deb afu, inim.

Joy yursang qeqilmaysan, yiqilmaysan,
Yo'qsa kim bo'lar bunga kafil, inim.
Ot qo'ygan old-ortiga qaramaydi,
Doimo bo'lgin bizdek faqir, inim.

To'ng'izday har neni yeb semirganlar
Sanalib aqlliga yotir, inim.
Millatning arzandasasi bo'lay desang,
Nochorning ko'proq yegin haqin, inim.

Siylasiu desang yurting qadring bilib,

Ayg'irday mo'minlarga ayqir, inim.
Bilimli bo'lay desang el ichinda,
To'xtamay so'ylab, hargiz lof ur, inim.

Qo'lingdan bular biri kelmas bo'lsa,
Kimgadir shotir bo'lib charx ur, inim.
So'zingni tinglatayin desang yurtga,
Et tortib tovoq-tovoq, chaqir, inim.

Og'zi-la o'roq o'rib berar har kim,
Qimizni kosa-kosa shopir, inim.
Et bilan qimiz berib so'ylab ko'rsang,
Aytganing yurtga bolday tatir, inim.

Ilming gar Aflatunday bo'lsa hamki,
Bilki, et-qimizsiz — bir paqir, inim.

QOZOQ UDUMI

G'oz edik qator uchib qanqillagan,
Sahroda ko'lga qo'nib salqinlagan.
Bir o'rtga*⁸ — qaydan chiqqan — duchor bo'lib,
Ne qoldi tanamizda cherpilmagan?!

Alashning odamining bari ma'lum:
Kim qoldi taroziga tortilmagan?
“Men yaxshi” deganlar ko‘p, to'lib yotar,
Yaxshilik o'zi boshidan ortilmagan.

Qaqillab, biyron-biyron so'ylovchi ko‘p,
Epkinlab, uchqur otday qarqinlagan.
Bo'sh belbog', bo'shang va sust bo'z bola ko‘p,
Kigizday chala bosib, qarpilmagan.

Emgaklab et andigan chollar ham ko‘p,

⁸ Yong'in, olov ma'nosida

Termilib, bir to‘yishdan or qilmagan.
Oqko‘ngil, alang-jalang odamlar bor,
Hisoblab ozin ko‘pga, anqillagan.
Qurumsoq, necha sarang boylar-da bor,
Qayiqday to‘lqindagi qaltillagan.
Baridan tinch uyquda yotganlar ko‘p,
Unutib maqsadini, talpinmagan.

Shularning qatorida biz yuribmiz,
Mast bo‘lib mis tugmaga — yarqillagan.
Ne nafdir hunaring va bilimingdan,
Eng kerak o‘rnlarda sarf qilmagan?

Bu so‘z bir hasrat erur, xatga yozgan,
Qolmadi hech xosiyat, qozoq ozgan.
Boy — boyir, o‘qiganga — sha’n-obro‘ yo“q,
Yuri g‘amin o‘ylaydigan odam ozdan.

MAG'JAN JUMABOY

(1893-1937)

Qozoq she'riyatining buyuk namoyandasasi, otashnafas shoir Mag'jan Jumaboyning nomi xalq orasida afsonaga aylanib, qalblardan o'chmas joy olgan. U 1893-yilning may oyida dunyoga kelgan. O'n to'rt yoshidan she'r yoza boshlagan.

Shoir asarlari o'sha paytlarda qozoq, tatar tillarida nashr qilinuvchi gazeta-jurnallarda chop qilingan. "Cho'lpon" nomli ilk she'rlar to'plami 1912-yilda Qozon shahrida bosilgan. Ulug' shoirning "Bayan botir" nomli dostoni 1922-yilda Toshkentda yozilgan va shu yerda nashr qilinuvchi "Sana" ("Tafakkur") jurnalining 3-5-sonlarida e'lon qilingan.

Mag'jan Jumaboy ijodiyoti - tutqun qalb faryodlarining, ozodlik nashidasini qo'msab oh urgan dil dardlarining ifodasidir. Shoir butun umri bo'yli mustam'laka kishanlarini parchalab tashlashga da'vat qiluvchi she'rlar yozdi, ozod va erkin hayotni ehtiros bilan yonib kuyladi. Isyonkor ruhdagi she'rlari uchun mustabid hukumat zindonlarida o'tirib, oxir-oqibatda stalinchi yovuzlar qo'lida halok bo'ldi.

Mag'janning olevii she'rlari uzoq yillar mobaynida xalqdan yashirib kelingan edi. Faqat mustaqillik tufayligina bu isyonkor she'rlar yana o'z xalqining ma'naviy xazinasiga aylandi.

TURKISTON

Turkiston – ikki dunyo eshigi bu,
Turkiston – har bir turkning beshigi bu,
Turkiston – Tangri bergen muqaddas joy,
Turkiston – har bir turkka sochar yog'du.

Moziyda Turkistonni Turon demish,
Turonda turk ulusi topgan yemish,
Turonning taqdiri o'n dolg'alidir,
Boshidan og'ir kunlar kechgan emish.

Turonning tarixi bor misli olov,
Teranroq boqsang o'tday yonar lov-lov.
Turonning yeri bilan suvi qadim,
Dengizday g'amiga dil bermaydi dov.

Turonning ikki cheksiz cho'li go'zal,
Dengizday qirg'og'i yo'q ko'li go'zal,
Turonning to'lib oqqan daryolari,
Yana bir to'lib oqsa seli – go'zal.

Turonning tog'lari bor osmon oshgan,
Purviqor cho'qqilarin qerlar bosgan.
Bag'rida ko'k buloqlar jimirlaydi,
Yaralib tog'dan oqqan tomchi yoshdan.

Sahrolari yuzin bosmish qat-qat ajin,
Sassizdir, olgan kabi manguga tin.
Ko'rinnas jon jonivor sarg'ish ufqda,
Qumiarda raqs etadi pariyu jin.

Turonning suvlari bor moviy, zilol,
Chayqalib yashnab yotar ulkan Orol.
Bir tomon – yarqiragan Issiqko'lning,
Bag'rida dunyo ko'rgan turkiy ko'kyol.

O'rtada Jayxun, Sayxun oqar sarin,
Ikki nahr boqib kelgan turkning barin.
Beshak bu ikki daryo orasinda,
Topgaysan ulug' bobong ertaklarin.

Turonning Tiyonshonday tog'i qalay,
Teng kelmas Tiyonshonga tog'lar talay!
Turkning cho'ng g'ururin yodga olgin,
Viqorli Xontengriga qaray-qaray.

Yo'qsa u buyuk yurtga o'xsharmidi?
Ulug'lar bu zamanni yo'qlarmidi?

Qazig'urt xosiyatli tog' bo'lmasa,
To'fonda Nuh kemasi to'xtarmidi?!

Bu tuproq ezgu — garchi oddiydayin,
Uqarsan tarix ko'rsang buni tayin.
Turonga bejiz xumor bo'lgan emas,
Qachondir Qayxisravu Zulqarnayn.

Bu shunday xush o'lkaki — tonglari sof,
Botirlar etdi uni sha'n, fayziyob.
Turonning dovrug'ini ko'targan ilk
Shavkatli, afsonaviy Afrosiyob.

Turonga yet yuzida yetganmi?
Basharda turk eliga el yetganmi?
Bemisl matonatda, zakovatda
Turonning erlariga er yetganmi?

Turonning beklari bor Tarag'ayday,
Tug'ilgan undan Temur o't bo'p o'ynay.
Tanalgan yet yuziga Sohibqiron,
Chaqmoqday qilichini qo'ldan qo'y may.

Turonni maqtamayman manmanlikka,
Dovrug'in bilar uni olis — chekka.
Anglamoq borasida yulduz sirlar
Kim bordir — teng kelolsa Ulug'bekka.

Asldir xosiyatli turkning qoni,
Tug'di shu qon Beruniyu Sinoni.
Keldimi bu zaminga ularday zot —
Zabt etgan aqli bilan keng dunyoni?

Kamsitgan kim qadim musiqasin?
Bilarmi u do'mbira yo ud sasin?
Farobiy ilk bor yasab chalganida,
Dillardan quvmaganmi g'am sharpasin?

Turk azal olov nomin olmaganni?
Dunyoning bag'riga o't solmaganmi?!
Talay turk bo'laklanib taralaganda,
Qozoqda qora o'tov qolmaganimi?

Arslondek elga Vatan bo'lgan Turon,
Tiklagan qozog'im ham unda qo'rg'on.
Qozoqning tanti, dono Qosimxonii,
Turonning faxri bo'lgan qozonib shon.

Odil xon kam uchraydi Nazardayin,
Ulusga Yesimxonning yo'li tayin.
Taukeday donishmand xen qurgan ekan,
Kultepa degan joyda Qurultoyin.

Bu Turon azal – azal ezgu makon,
Dardiga yupanch topgan har bitta jon.
Turonning tuprog'ida orom olar,
Tanti er, arslon yurak Abilayxon...

G'am chekkan o'z yurtida topar qoim,
Tulpor ham tuqqan yerin qo'msar doim,
Botishu so'lg'a qarab ketgan ulus,
Turondir, bilsang seni tuqqan joying.

O'rtada Jayxun, Sayxun oqar sarin,
Ikki nahr boqib kelgan yurtning barin,
Beshak, bu ikki daryo orasinda,
Topgaysan ulug' bobong xikmatlarin.

SAKEN SEYFULLIN

(1894-1938)

Saken Seyfullin 1894-yil 15-oktabrda Jezqazg'an viloyatining Oqadir tumanidagi "Qarashilik" qishlog'ida tug'ilgan. U qozoq adabiyotining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan shoir. Uning "Ko'kchatov", "Qizil ot" dostonlari va she'rlari qozoq she'riyatining 30-yillardagi eng yaxshi asarlaridan hisoblanadi. "Baxt yo'lida", "Qizil shunqorlar" kabi dramalari adibning qozoq sahna san'atida yorqin iz qoldirganini isbotlaydi.

20-30-yillar qozoq she'riyatida o'ziga xos maktab yarata olgan shoir mustabid tuzum mubitida o'z iste'dodi, salohiyatini to'la namoyen qila olmagan bo'lsa-da, she'rlari, yirik dostonlari xalq dilidan joy olib, qozoq adabiyotining nodir namunalariga aylangan.

MUNG

Qolganda tor lahadda yolg'iz o'zim,
Jon chiqib yumilganda ikki ko'zim,
Tanimdan ayro jonday qolarsan sen,
Yurakdan chiqqan otash mungli so'zim!

Qayg'ular ichra qisqa umrim o'tib,
Jon bilan tan ayrılar damlar yetib,
Qanday sir, qanday kuy-la aytganimni
Kim anglar, qolganda sen — o'zim ketib?

Shodlansam, ohlar tortsam, horsam behol,
Chiqarding ko'kragimdan bir oh misol.
Tabiat, o'zgalardan o'zgacha bo'p
Kuylagan bu kuychingni bag'ringga ol.

Birovning davlatiyu moli ko'pdir,
Birovning turmushidan ko'ngli to'qdir.
Mening-chi, axtarganim: hasratlashar —
Bir jonakash, afsus, u ham menda yo'qdir.

Mitti jon og‘ir dardga yo‘liqqanda,
Ko‘ngil bir najot istab zoriqqanda,
Qoshingda bo‘larmikin bir mehribon,
Tanangdan quvvat ketib, toliqqanda?!

Yigitning bo‘lmasa gar jon yo‘ldoshi,
To‘imasmi mung-hasratga aziz boshi?
Qayg‘usi; g‘ussasini kim aritar,
Oqqanda ko‘zlaridan sel bo‘p yoshi?

Kimsa yo‘q sir ayturga ko‘ngil ochar,
Yurakning kuyib-yongan dardin bosar.
Mungimni yurtga aytmay, senga to‘kdim,
Yurak — o‘t, ko‘ngil — daryo. holim abgor!

G‘AMZADA KO‘NGILGA

Ko‘nglim-yey, yongan o‘tday chalqir eding,
Lochinday yuksaklarga qalqir eding.
Zulmatga qahring sochib, ia‘nat aytib,
Boldayin muhabbatda balqir eding.

Erkingni g‘am-hasratga berma, ko‘nglim!
O‘zingga o‘kinchlarni terma kunglim!
Munglanib qayg‘ulanding nega bundoq,
Talpinib ko‘kda quloch serma, ko‘nglim!

Bir kezda g‘aming to‘lib-toshgani rost,
Ko‘p yovlar sirtdan tegib qochgani rost.
Yarqirab yerga qo‘ngan qizil kunni
Ushbu dam qora zulmat bosgani rost.

G‘animlar qo‘li bapand kelgani rost,
Zulmat tun yog‘dularni yenggani rost.
Yurakni jarohatlab misli o‘kday,
Qayg‘ular ko‘kragimga engani rost.

Bu kunda yov yoqadan olgani rost,
Ko‘p dushman oyoqlardan chalgani rost.
Jonsizday bo‘lib yotgan ilon birdan
Zahrini naq yelkadan solgani rost.

Mung‘ayma sira, ko‘nglim, bari o‘tar,
Azoblar bir zumlikday — izsiz ketar.
Qora tun chulg‘asa ham orqa-olding,
Yatqirab tong otuvchi damilar yetar.

ILYOS JONSUG'UROV (1894-1938)

Ilyos Jonsug'urov Toldiqo'rg'on viloyatining Oqsuv tumanida dunyoga kelgan. Uning ijodi qozoq adabiyotida ko'p qirraliligi, badiiy baquvvatligi bilan e'tiborni tortadi. Ayniqsa, shoirning dostonlari qozoq she'riyatida katta o'rinni egallaydi. Ular ko'pdan beri adabiyotshunoslar va o'quvchilar diqqatini jalb qilib keladi.

Shoir o'n beshga yaqin doston yaratgan bo'lib, ular ichida "Kampeske", "Tuxum", "Kuy", "Kuychi", "Dala", "Qulager" kabi dostonlari haqli ravishda xalq orasida mashhur bo'lib ketgan.

YAYLOV

Gilamin yoyib tashlar bunda bahor,
Ufqla to'kib turar tog'lar viqor.
Yayloving yoz lavhasin ta'rifida
Mening bir dildan aytar o'lanim bor.

Tuni — oltin, kunida — kumush ranglar.
Buloqlari marjon sochib, kuydek yangrar.
Yel esib gul-giyoxdar mavjilanadi,
Bazmida yayragandek yosh-yalanglar.

Kishnaydi qulun, toyalar ahyon-ahyon,
Bo'zto'rg'ay bo'zlab qolar kuydirib jon.
Qo'ylarning bir chetida — ko'kalamda
O'tirar qatiq ichib beg'am cho'pon.

Yam-yashil qarag'ayzor yaylov oldi,
Qaliman va Beysenbek qayda qoldi?
O, ular hov ana-ku — halinchakda,
Havoda tebranishib qiy-chuv soldi.

Adirda yellar kezar davron surib,
Xotinlar kuvi pishar yayrab yurib.
Osmonni bulut qoplar onda-sonda.

Yaylovni cho‘miltirib — yoshartirib.
Boybicha halak boyga qimiz tutib,
Boyning-chi, joyidadir rangi-quti.
Dimog‘ni yorgudayin sarxush qilar
Tong payti anqib kelgan og‘iz suti.

Tikilib bo‘y yetgan qiz bo‘ylariga,
Erk berib bebosh ko‘ngil o‘ylariga —
Qo‘zini urintirgan shu Ja’far toz,
Elovsiz bo‘p ishiga — qo‘ylariga.

Qamish chiy ustida qurt yiltillaydi,
Biya sog‘gan yosh kelin qiltillaydi.
Epkinning zabitidan shipshiydam o‘tov
Gadoyning kulbasidek qirsillaydi.

Yilqichi dil tuyg‘usin zavqqa yo‘yar,
Qo‘shiqning safosiga qirlar to‘yar.
Va uni eshitgan har navrasta yosh
Oh tortib, sochin ko‘zdan surib qo‘yar.

Mel-yilqi ketib qolmas daydib har yon,
Ularni bir manzilga yig‘moq oson.
Hovridan tushmay qozon — tong yorishsa,
Sug‘ur tosh uzra chiqib o‘qir azon.

Shirindir tun uyqusi bu payt tashda,
Qimizlar sipqorilar nahor-nashta.
Gullarning iforiga to‘lib ko‘ngli,
Oq suluv bir chekkada tikar kashta.

DO‘MBIRA

Sayragin bir, do‘mbira!
To‘kil, to‘kil, navolar,
Tog‘ suviday shildira,
Kuyga to‘lsin havolar!

Bulut soya solmasin
Yashil adir, qir uzra!
Tinglamagan qolmasin
Qo'shig'ing, kuying sira,
Sayra, sayra, do'mbira!

Qo'sh ichak ip, uch qulcq,
To'qqiz parda do'mbira,
O'ynar senda o'n barmoq
Qulunday chop, guldira.

Bo'zla-bo'zla, bo'z ohang,
Dildan g'amni sidira,
Sayra, sayra, do'mbira!
Mehnatkash el kuychisi,

Qulog'imni bir yayrat,
Ko'nglimga shavq qondira,
Totli-totli kuy tarat,
Zavqlaringni do'ndira,

Sayra, sayra, do'mbira!
Xoksor dillar malhami,
Soch nurlarning jarangin,
Ko'kayimni qondira,

Sen qo'shiqlar ayt yangi,
Yuraklarni yondira,
Eski g'amni so'ndira
Sayra, sayra, do'mbira!

ABDULLA TOJIBOYEV (1909-1998)

Qizil O'rda shahrida dunyoga kelgan. Internatda o'qib tarbiyalangan. 1948-yilda Qozog'iston Davlat universitetining filologiya fakultetini bitirgan. Shundan keyin yoshlar gazetasida Bosh muharrir o'rinnbosari, Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasi boshqarmasining Raisi, ko'ibi, "Qozoq adabiyoti" gazetasining bosh muharriri, M.Avezov nomidagi Adabiyot va san'at institutida bo'lim mudiri vazifalarida ishlagan.

Ilk she'rlari 1927-yildan chop etilgan. Qozog'iston Oliy kengashining Faxriy Yorlig'i, Davlat mukofoti bilan taqdirlangan. 1985-yilda "Qozog'iston xalq shoiri" faxriy unvoniga sazovor bo'lgan.

"Chin yurakdan" (1949), "Sevgan yuraklar" (1951), "Hayot va she'riyat" (1962), "Tanish ovozlar" (1984) kabi ko'plab to'plamlari nashr etilgan.

Abdulla Tojiboyev – XX asr qozoq she'riyatida yorqin iz qoldirgan shoir. Uning lirik she'rlarini yod bilmaydigan qozoq yo'q desa bo'ladi.

SHOIRLIK

Shoirlik og'ir mehnat tushunganga,
Kon qazuvchi, tosh yo'nuvchi ishindan-da.
Yolg'izsan, yordam tilab ololmaysan
Eng yaqin, eng suyukli kishingdan-da.

Ajibdir ilk sevgiga duchor kezing,
G'oyibdan dunyolarni quchar kezing.
O'yingda uya qurgan polaponing
Yuksakka qanotlanib uchar kezing.

Ajibdir tug'ilishi tuyg'ularning,
Ko'zingdan qochar payti uyqularning
Hislaring yuragingda mavjlanganda
Ajibdir tovlanishi yog'dularning.

Osonmas ruhing yerga hech qo'nmasa,
Taskimu tasalliga hech ko'nmasa;
Ya'nikim she'r qiyinog'i yuragingda
Hovurin chiqarmasa, hech so'nmasa.

Bilmaysan shunda kimga ne deringni,
Ber, deysan, shirin damlar, ko'magingni,
Qopqog'in yonartog'ning ochib yubor,
Osmonga ro'para qil yuragimni!

TİLAK

Men bugun sochi oq-oppoq
Abdulla degan otaman.
Kun sayin senga, Vatanim,
Oq tilak tilab yotaman.

Oq tilak tilab yotaman,
Oq fe'li shundoq otaning.
Takrorlab so'zin tilagim,
Senga baxsh etgum, Vatanim.

Tog'larim turcin silkinmay,
Dengizim tinsin xo'rsinmay,
Quyoshim yonsin yarqirab,
Oydinim tursin yaltirab.

Tiniqsin yaqin, olislar,
Tiniqsin tegra-atroflar.
Qon to'kar ofat urushdan
Titramasin hech yaproqlar.

Ohlar tortmasin sibizg'am,
Qayg'ulanmasin kuy sira.
Ingranmasin hech qo'bizim,
G'ussalanmasin do'mbiram.

Nevaram o'ynab-kulsin-yey,
Kapalak quvib yursin-yey.
Kuz payti ketgan oqquvim
Ko'klamda qaytib kelsin-yey.

Oqquvim qaytib kelsin-yey,
Moviy ko'liga qo'nsin-yey,
Oq bulutlarni ko'rsin-yey,
So'ng sho'x sayrab bersin-yey.

Men bugun sochi oq-oppoq
Abdulla degan otaman.
Yangi yil keldi — yo'llaring
Oq bo'lsin doim, Vatanim!

* * *

Men ham shu yurt ko'rking bir xumori,
Men ham uni sevaman el qatori.
Soxta o'lan hech qalbni titratmaydi,
Asl she'mning bo'lmaydi hech g'ubori.
Nahot mening qalbimda yolg'on jarchi?
Xanjar bilan qoq yorib qaranglar-chi.

* * *

O'y-xayollar ergashtirsa izidan bog,
Yetolmaydi unga agar chopsa-da ot.
Adog'i yo'q o'kinchlarga ko'milgaydir
Vijdoni-la bahsga tushsa har qanday zot.
Shu asnoda tungi uyqu buziladi,
Shundaylarga ajal ko'zi suziladi.

* * *

Tuqqan yirtga o'tadi erkaligim,
Abekem, — deb siylaydi elim bugun.
Tirishsa ham nomimdan ne bir kaslar,
Bosolmas aslo ular qalbim unin.
Qozoqqa yetsa bas-da so'zim, axir,
Emasmi bu men uchun buyuk faxr?!

JUMAG'ALI SAIN

(1912-1961)

Jumag'ali Sain Ko'kchatov viloyati (hozirgi Oqmo'la)ning Ariqbaliq tumanida tug'ilgan. Pedagogika institutini bitirib, o'qituvchilik qilgan. Jurnalistlik faoliyati bilan shug'ullangan. Ikkinci jahon urushi qatnashchisi. Urushdan keyin "Qozoq adabiyoti" gazetasiga muharrirlik qilgan.

Birinchi she'rlar to'plami – "Baxt qo'shig'i" 1936-yilda chop etilgan. Qozoq qizining hayot yo'liga bagishlangan "Kulanda" dostoni (1939–1940) yirik adabiy hodisa sifatida baholangan. She'rlari o'zining mayin lirizmi, samimiyligi bilan dilga yaqin.

"Ayg'oq", "Oltoy", "Tonggi shabnam" dostonlarining muallifi. "Yo'l ustida" qissasi 1961-yilda chop etilgan. Jahon adabiyoti namunalarini qozoqtiligatarjima qilgan.

* * *

Qarama-chi, qadama-chi ko'zingni!
(Axir, yurak temir emas to'zimh!)
Men olovman, qar uchquni kuydirar,
Aya, meni, aya, gulim, o'zingni!

O'yla, axir, o'yla, axir, aqllim!
Unsizgina meni qayga chaqirding?
Teran sirli ko'zlarining tubiga
Asta-asta cho'kib bormoqdadirman...

G'ussalarga yo'g'irmagin so'zingni!
Aya, meni, aya, gulim, o'zingni!
Uyg'otmagin qalbimdag'i tug'ytonni,
Javdiratib chaqnoq qora ko'zingni!

O'yla, axir, o'yla, axir, aqllim!
Unsizgina meni qayga chaqirding?
Sokin edim, nega solding tug'yonlar,
Nega g'amlar ummoniga botirding?!

* * *

Men uyquga ayni cho'mgan dam edi.
Bir payt o'lan turtdi meni,
tar, dedi!
Uchib turdim,
charx urardi satrlar,
Oldi meni o'y-xayollar sexrlab...
Gohi xira,
gohi nurli tovlanib,
Ko'z oldiimda turdi hislar mayjlanib.
Shunda birdan,
“evoh!” deya o'kindim,
Ilhomimga “sabr qil!” deb o'tindim.
O'z joyida ko'rinnasdi to'rt qalam,
Kunduz uni olgan, albat, to'rt bolam.
O'lan ketdi...
O'ltirdim men jim, xomush.
Yarim kecha,
eshitilmas sas-tovush.
Qayda ekan tarashlangan to'rt qalam?
Yotar shirin uyqu ichra to'rt bolam.
Qarayman-da, quvonaman, toshaman.
Oyog'imni men avaylab bosaman.
Ko'rpalarni,
yostiqlarni tuzatgum,
Uyg'oqman-u,
uyqularni kuzaggum.
Kiprik, qoshi,
lablariga boqgum jim,
(Bari mening quyib qo'ygan yoshligim!)
O'ylar chulg'ab,
chorlar meni shu oni —
Iqbolimning yozilmagan dostoni!
Uyqusida
ana biri kulmoqda,
Balki hozir shirin bir tush ko'rmoqsa.
Balki qayta ko'rар kechgan bayramni,

Deyman,
nurli yuzlar,
ko'rmang hech g'amni!
Zuryodlarim,
mening poydor umrimsiz,
Qalbda yolqin,
jonimdag'i qumrimsiz!
Turfa,
ajib xayollarga to'ldim men,
Sizga boqib,
qayta go'dak bo'ldim men!
Va qalbimda ajib ilhom chaldi soz,
Bitilmagan misralarda aytib roz.
Men she'rlarni garchi shoshib to'qirdim.
To'rt bolamning yuzlaridan o'qirdim.
Yozilganmi shundoq kitob — yarqiroq!
Nasib etmas hech oqinga u biroq!
Aytinlar-chi, bu dunyoda nima bor,
Shu to'rt yurak urishidan azizroq!

G'ALI O'RMONOV

(1907-1978)

Toldiqo'rg'on viloyatining Qapal tumanidagi "Echki o'lmas" manzilida dunyoga kelgan. Eski maktabda savod chiqargan. 20-yillarda gazetalarda muxbir bo'lib ishlagan. Dastlabki she'rlari 1928-yildan matbuotda e'lon qilina boshlagan. Uning qozoq she'riyatini yangi obrazlar va uslubiy izlanishlar bilan boyitgan ko'plab she'r va dostonlari bosilib chiqib, xalq orasida shuhrat qozongan.

Adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun ko'plab orden va nishonlar, faxriy yorliqlar bilan mukofotlangan.

"Umr dostoni" (1948), "Go'dak yuragi" (1949), "Safarda" (1957), "Yillar qo'shigi" (1976) kitoblarida uning asosiy asarlari jamlangan.

XX asr qozoq she'riyatida o'ziga xos ovozga ega bo'lgan lirik shoir sifatida shuhrat qozongan G'ali O'rmonovning ko'plab she'rlari xalq qo'shiqlariga aylanib ketgan.

YANGIYER GULLARI

Bizga yoshlar gul tutdi,
Bu lahzalar yayrar jon.
Ajib gul edi ular —
Qirlarda urgan javlon.

Maktabiyu bog'i ham
Bir kunda yaralganday.
Bu yerda xush sadolar
Jannatdan taralganday.

Dildan toshdi hislarim
Boqib jajji saflarga.
Vaqti kelib birma-bir
Tushirgayman daftarga.

Naq qo'shiqsir Yangier —
Uzoq yashar qalbimda.
Gul singari bolalar
Turibdi ko'z oldimda.

DO'ST MADHIYASI

Tomirdosh, biz azaliy do'st ekanmiz,
Bu boqqa neni eksak, qo'sh ekkanmiz.
Shu tuyg'uni ulug'lamay, kuya solmay,
Deyman, nega sho'ncha mahal bo'sh o'tganmiz?

Jonimiz bir-biriga jondosh ekan,
Elimiz bir-bnriga yondosh ekan.
Toleyu qismatimiz birligini
Jahonga uqtirmaymiz bizlar nedan?

Ko'rmadik nega burun Samarqandni?
Kelmanidik Zarafshonga nega qamti?
O'zbekcha soz-la Uyg'un, G'afur G'ulom
Kuylamagan nega mening Sariorqamni?

Nima ko'rар uyidan chiqmas inson?
Unga dunyo tuyular tor bir makon.
Olatovning adirin cho'qqi deydi,
O'z yog'iga qovrilib yotar guyon.

Ko'p ekan bu borada menda ayb,
Qo'yaman o'z-o'zimni goho koyib.
O'zbekning ko'p kitobin o'qiganday
Yurtimga qaytdim o'lan-she'rga boyib.

Tog'lari tog'larimday — boqmay qayon,
Buloqlar dil so'zimni aylar bayon.
Tosh qopqa yonboshida ulug' Temur
Ufqqa termulganin tuydim ayon.

Qo'rkamdir Omonqo'ton, Yetimtov ham,
O'ramish oppoq salsa bulutlardan.
Ko'rdim men cho'lga shoshgan kanallarni,
O'ynoqi suvi edi misli zardan.

Shundoqdir, ellarimiz cho'ng o'lkasi —
Bamisli bir daraxtning ko'lankasi.
Biz uning soyasida sozlar chertsak,
Kim bo'lar — biz bo'lmayin yurt erkasi?

DIXAN ABILOV

(1907-2003)

Dixan Abilov 1907-yilda Pavlodar viloyatining Bayanovul turnani, Bayantov qoʻltigʼidagi Moylibuloq qishlogida dunyoga kelgan. Bayan shahridagi oʻrta maktabda, Semeydagʼi Qishloq xoʼjaligi texnikumida oʼqigan. 1937-yilda Olmaotadagi Jurnalistlar institutini, 1948-yilda Qozoq Akademiyasi aspiranturasini tamomladi. 1942–1946 yillarda Ikkinchı jahon urushida ishtirot etib qaytgach, turli gazeta-jurnallarda ishladi, “Oʼqituvchi” nashriyotida bosh muharrir boʼlib xizmat qilgan.

Shu kungacha muallifning elhkdan ortiq kitobi, sheʼriy toʼplamlari, qissa va romanlari nashr qilingan. Yozuvchining shoir Sultonmahmud Toʼraygʼirov hayotiga bagʼishlangan “Sultonmahmudning armoni” (1980) nomli roman-trilogiyasi, shuningdek, “Yelkadosh doʼstlar” (1948), “Mayra” (1954), “Birjon sol bilan oqin Sara” (1939) kabi dramalari mashhur.

Adib rus, ukrain, turk, arman mumtoz shoirlarining dostonlarini qozoq tiliga tarjima qilgan.

QORAQALPOQ BOVURLARGA

Ovulingni sogʼindim men ovulimday,
Olmaotadan yoʼlga chiqdim sen deb atay.
Olib keldim Olatovning salomini,
Quchoq ochib kutib olding bovurimday.

Kimligingni azal-azal bilgan oʼzim,
Yuragimda bisyor erur yaxshi soʼzim.
Osmoningdan yerga asta qoʼngan zamon,
Yayrab ketdi diydoringni koʼrib koʼzim.

Dilimga men qayajonlar uydim yana,
Taqdim etgan gullaringni suydim yana.
Musaffoyu moviy Nukus ufqlariday
Toza koʼngling osmonini tuydim yana.

Toleimiz yashnar hali alvon qirdek,
Do'stligimiz abadiydir ajib sirdek.
Ertaklaru hangomayu hazillarga
Azal-azal ishqibozmiz, o'chmiz birdek.

Qoraqalpoq, sen qozoqning o'z joniday,
Dil tug'yoning yurtimning dil tug'yoniday.
Vujuddagi sof shu yurak o'rtamizda —
O'rtadagi moviy Orol ummoniday.

Iltifotlar ko'rdim har kun har kasingdan,
Istiqlolning shavqin tuydim nafasingdan.
Oftob kabi yuragingning taftin sezdim —
Kaftingdagi haroratdan, qalb sasingdan.

Birga bo'lsa ellarimiz shunqorlari,
Qolmagaydir yurtning g'amu g'uborlari.
Tashrif payti qizlaringdan gullar oldim
Va bag'rimga to'ldi chaman iforlari.

Toabaddir omon bo'lsin yurtning bari,
Qozoqdadir sodda mehr talqinlari.
Olislardan tuqqanim deb izlab keldim,
O'chmasin hech dilda ishqning yolqinlari.

TO'QTAG'ULGA

Yuragimning qatiga
Qanot bog'lab dovuldan,
Qirg'iz oqin o'g'liga
Olis qozoq ovuldan
Muhabbatim keltirdim,
Ne bor aziz bovurdan?!
Yig'lasam chin yig'layman,
Quvonsam chin quvongum.
Ishq-sadoqat o'tida
Yonsam — baralla yongum.

Abayni o‘qib tunlar,
To‘qtag‘ul deb uyg‘ongum.
Lolalar to‘lqin otgan
Dałasini bir suyub,
Olmosday o‘g‘il topgan
Onasini ming suyub,
Kezdim qirg‘iz elini,
Yuragimdan she‘r quyib...

KUZ BO‘LSA-DA...

Kuz bo‘lsa-da, osmon ochiq, lojuvard,
joyibdir Amudaryo elati.
Odamlari doim uning tanti, mard,
Qozoqlarga juda uyqash keladi.
Dunyoda har ikkisin o‘z o‘rnini bor,
Botirlari bilan mashhur har biri.
Sir, Amuday bir ummonda mujassam
Qoraqalpoq va qozoqning taqdiri.

JUBAN MO‘LDAG‘ALIYEV (1920-1988)

Juban Mo‘ldag‘aliyev (Jybán Moldag‘aliyev) O‘rol viloyatining Taynaq tumanidagi “Jilandi” manzilida tug‘ilgan. 1940-yilda O‘rol Qishloq xo‘jaligi texnikumini bitirgan. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi.

Juban Mo‘ldag‘aliyev “Yesir ayol taqdiri”, “Men – qozoqman”, “Kishan ochgan”, “Sel”, “Boyqo‘ng‘ir bosh barmoqlari” va boshqa o‘nlab she’riy kitoblarning muallifidir. Ko‘plab orden va nishonlar bilan taqdirlangan. “Qozog‘iston xalq shoiri” faxriy unvoniga sazovor bo‘lgan.

U XX asr qezoq she’riyatining yirik vakillaridan biri hisoblanadi.

TOSHKENT BILAN KO‘RISHGANDA

Yo‘l bo‘lib yotsa osmon yerdagiday,
Nega men ajablar may, hayratlanmay?
Qozoqning oqinlari bamisol
Toshkentga qo‘nar ko‘kdan farishtaday.

Aylanib oq bulutlar tegrasidan,
Pastlikka tayyorada yuz buraman.
Toshkentning zar do‘ppiday zebolangan
Ko‘rkiga termulishni xush ko‘raman.

Kelganim yo‘q men aslo yot makonga,
O‘zimni begonaga mengzamasman.
Do‘stimning, yo‘ldoshimning, jigaramning
Muborak diydoriga yetdim, rostdan.

Bu o‘lka chamani soz, qo‘shig‘i soz,
Yurakka ajib ilhom berar, beshak.
Yurganda o‘zbek bilan qo‘l ushlashib,
Shukuhli ruhing c‘sar tag‘in yuksak.

Ilk tongning nurlariga sayqallangan
Ayyomni qarshilab dil masrur juda.
Shafaqning zar yolqini bamisoli
Tilla rang uqa o'zbek do'ppisida.

Oqinlar yerga qo'nar farishtaday,
Boqarlar tevarakka, ma'volarga.
Toshkent ham ushbu damlar yerda emas,
Yuksalib ketgandayin havolarga.

NON

Sira va'z o'qimayman non haqsa men,
Qadrini ulug'larman biroq-da men.
Yodiimda,
uning zarra ushog'ini
Oppoq tong bahosiga ko'rgandim teng.

Ne xasis zamonalar kechmadi, ha,
Kechmadi ne savdolar non ustida.
Ko'rganman,
donga qahat dalalarni
Ham ochhk zada qilgan shaharni-da.

O'tdi-ku ochlik, urush qiy nab jonne,
Bu kun non to'ldirmishdir dasturxonni.
Har qozoq olib chiqar mehmoniga
Bamisli quyosh nusxa shirmoy nonni.

Qozog'im azaldan-da qiziq xalqadir,
Uni mahv etolmagan ayanch taqdir.
Zero u ollo deya topingani
Hamisha baxt keltirgan mehnatgadir.

O'landir bor bisotim, simu zarim,
Mard dehqon nasliga yo'q hech ayarim.
Yuragin she'r larimga o'rasin u,
Baxsh etay unga o'tli satrlarim.

KUZ

Kunlari bor — tafti butkul so‘nmagan,
Gullari bor — hali to‘yib kulmagan,
Kuz ham o‘xshar mening ellik yoshimga,
Yozi o‘tib, qishi yetib kelmagan.

So‘ngan yozdan yodgor uning yolqini,
Junjiktirar tonglar shudring salqini.

Kuz ham o‘xshar mening ellik yoshimga,
“Erta” emas, “kecha” bo‘lgan ko‘p kuni.

Yalt-yult etib chaqin o‘ynar yiroqda,
Cho‘malaylar* o‘rtanmaydi biroq-da.

Kuz ham o‘xshar mening ellik yoshimga,
Dildiraydi boqib oyna buloqqa.

Goho ochiq, gohc kunlar beyog‘du,
Goho yomg‘ir, goh qor bosar — oq, parqu.
Kuz ham o‘xshar mening ellik yoshimga,
Yoz va qishni tutashtirib turar u.

Xazon to‘la bog‘lar boqar parishon,
Endi unda yashillikdan yo‘q nishon.
Kuz ham o‘xshar mening ellik yoshimga,
Nigohida allanechuk dard nihon.

Dalalarda jilvalangan sarob-da
Kumush tongdan endi mujda emas, ha.
Kuz ham o‘xshar mening ellik yoshimga,
Zohiridan na qariya, yigit na.

Rangpar oftob so‘ylar ko‘kda so‘nggi røz,
Zero, uning tafti-qi‘ri qolmish oz.
Kuz ham o‘xshar mening ellik yoshimga,
Bilar — yilda ikki marta kelmas yoz.

Biroq kuzdan mo‘l-ko‘l ne‘mat ehsondir
Hamda kuz cho‘ng sarhisobga imkondir.
U ham o‘xshar mening ellik yoshimga,
Ko‘pni ko‘rgan, teran o‘yli dehqondir.

SIRBOY MAVLENOV (1922-1993)

Sirboy Mavlenov 1922-yil 17-sentabrda To'rg'ay viloyati Jongeldin tumanida tavallud topgan. Avval o'zi tug'ilib o'sgan qishloqda, so'ngroq Qizil O'rda shahrida o'qigan. Ikkinci jahon urushi qatnashchisi.

Shoirning dastlabki she'rlari 1937-1938-yillarda e'lon qilina boshlagan. Ilk to'plami 1948-yilda nashr qilingan. Sirboy Mavlenov Qozog'iston Davlat mukofotu sovrindori.

Uning "Yashil o'rmon" (1950), "Majittovning otlari" (1951), "Yoz erkasi" (1952), "Jondo'st" (1953), "Yo'l ustidagi gulxanlar" (1954), "Tortishuvning boshlanishi" (1955), "Chag'alay" (1962), "Qoq tush mahali" (1963), "Yaproqlar yonadi" (1964), "Bo'z qirov" (1976), "Sen ikkovimiz" (1977), "Yurak g'alabasi" (1985) kabi o'nlab kitoblari chop etilgan.

G'AFUR G'ULOM

Arpapoya ko'chasi dilga yaqin,
Turar unda o'zbekdag'i eng zo'r oqin.
Oltmisht yoshga oyog'idan chaldirmay,
Yoshligining saqlagan kuch-quvvatini.

May gullari ayni xandon chog'ida
Bo'ldik bizlar shoirning ardog'ida.
Paloviyu ko'k choyi-la siyladi,
Chaq-chaqlashdik hovlida — tut tagida.

Keksaysa ham keksalikdan u yiroq,
Yoshligidek hazilkash va ko'ngli oq.
Yaltirarkan oq qirovlar boshida,
U Asqartov cho'qqisiga o'xshar naq.

Ilhomlanar yurt ishqida erta-kech,
Tashvishi yo'q she'r yozishidan boshqa hech.
Shunchakimas, u hayqirgan chin oqin,
Qalami she'r, doston bitar peshma-pesh.

Dong taratdi, unga zafar bo‘ldi yor,
Yuragida naq arslonning shahpi bor.
O‘tib borar ko‘chasidan Toshkentning,
O‘zbekligi bilan qilib iftixor.

* * *

Yaproqlar ila yoz uchib,
Kezganda kuzak yurt bo‘ylab,
Ketganda ko‘ldan g‘oz uchib,
Entikdim seni men o‘ylab.

Ko‘tarib keldi qish yalov,
Sovugan suvdek men tindim.
Shoxlarga qo‘ndi qor-qirov,
Qishda ham seni sog‘indim.

Eslab sevgimiz armonin,
To‘ldi bu o‘ksuk dil g‘ashga.
Ko‘klamning yaqin qolganin
Tuydimu chiqdim izlashga.

Gul tutib keidi bir kun yoz,
Shu gulda seni ko‘rmadim.
Ko‘lga qaytdi yana suluv g‘oz,
Faqat sen qaytib kelmading.

QOZOQLARNING VAKILI

Nosir Fozolovga

Qozoqlarning vakili,
Mehmonlarga o‘zdekdir.
Qo‘sish daryoga u ko‘prik
Qurib bergen o‘zbeklar.

Kirgan ona suti-la,
Kendir doim quchog‘i.
Muqim yashar Toshkentda,
Turkistonning qozog‘i.

Peshvoz chiqib choy quyar,
Ayirmaydi o‘zidan.
O‘zbekligi bilinar,
“Xo‘sh” degan bir so‘zidan.

Alisheru Abayni,
Qo‘yib yuksak o‘ringa.
Ikki tilda so‘zlab u,
Fayz kiritar gurunga.

Do‘stligiuniz tarixin,
Ta’riflar oshib-toshib.
Nosir bilan kamina
Zerikmas suhbatlashib.

Yana qancha sir-asror,
O‘rtada – zehnimizda.
Kelmoqdamiz shu asno,
To‘ymasdan mehrimizga.

G'AFU QAIRBEKOV (1928-1994)

G'afu Qairbekov 1928-yil 15-avgustda hozirgi To‘rg‘ay viloyatining To‘rg‘ay shahrida dunyoga kelgan. 1952-yilda Abay nomidagi Qozog‘iston Davlat pedagogika institutini bitirgan. Ilk she’ri 1948-yilda To‘rg‘ay tuman gazetasida bosilgan. Birinchi she’riy to‘plami “Tengdosh” 1954-yilda nashr qilingan. 1980-yilda “Yulduzli taqdirlar” poyemasi uchun Qozog‘iston Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Uning “Baliqchi Ivan” (1955), “Dala qo‘ng‘irog‘i” (1956), “Tog‘lar gapiradi” (1960), “Quyosh o‘gli” (1964), “Qanotli yillar” (1973) kabi she’riy to‘plamlari chop etilgan.

SAMARQAND

Samarqand afsonaviy oltin qasr,
Bor uning har burchida mo‘jiza, sir.
O‘zbekning pok xayolin gultoji u,
O‘zbekning joni bilan joni-da bir.

Betakrordir saroylar shinamligi,
Yo‘q uning ertaklardan hech kamligi.
Undadir zarrin gumbaz, minoralar,
Undadir jahon husni, ko‘rkamligi.

Kim bor — uning toshlarin silamagan,
Kim bor — uni ko‘rmoqni tilamagan.
Undadir ulug‘ me’mor sohir qo‘li —
Asrlar shamolini elamagan.

Buyuklik o‘lmas moziy girdobida,
Katomat bor bobolar xitobida.
Temurning ulug‘ligin ta’rifni ko‘p,
Hammasi Ali Yazdiy kitobida.

Go'ri Mir, Bibixonim, Registon bu,
Har biri oltinlanib sochar yog'du.
Qasrlar turaverdi unniqniy hech,
Girdida kechaverdi turfa qayg'u.

Yo'qlikdan shiddat esar zamonga zab,
Mangulik muhrin olib bo'lmas zo'r lab.
Asrlar dovonidan osha mag'rur
Turonning salobati kelar o'r lab.

ULUG'BEK

Taxtlar doim bebaqo — u bilgandi,
Ilm bo'ldi doim uning dilbandi.
Janglar gardin kiprigi-la tozalab,
U yulduzlar olamiga yuzlandi.

Koinotga boqib aslo to'ymadi,
Qavat-qavat xilqatlarni bo'y ladi.
Falak sirlin anglamoqqa bir umr
Fido bo'ldi uning teran o'ylari.

G'anim chiqsi ne-ne peshvo a'yonlar,
Hayotida ko'rди quyun-to'fonlar.
Xurofotning buzib zulmat qal'asin,
Tikladi u ilm bobida qo'rg'onlar.

Payt poyladi mudom jirkanch qaboqat,
Saltanatga ildiz yoydi jaholat.
"Xudo bilan so'ylashmoqchi bo'iding" deb,
Oltin boshga yog'dirdilar malomat.

So'qir qilich shundoq boshni kesibdi,
Tilsimlarga ochgandi u eshikni.
U ilmga kechikmadni, yo'q, aslo,
Lekin uning zamonasi kechikdi.

Hur tafak'kur kaj zamonga yoqmadı,
Badbinlarga qayriilib u boqmadi.
Shundan nomi yarqiragan yulduzdek
Buyuk Turon osmonida chaqnadi.

Ne-ne asr qo'ymas aslo porlovin,
Tinglar go'yo sirli ko'kning chorlovin.
U edi ilk qo'lin cho'zgan falakka,
U edi ilk "tutgan samo jilovin".

Buyuk Turon ko'kiga ko'z solganda,
Sen ham uni bir zum yodga olgin-da.
Naq teparigdan boqib turar Ulug'bek,
Ajib hislar mavjlantrib qalbingda.

MUQAG'ALI MAQATOYEV (1931-1976)

Olmaota viloyati Norinko'l tumanidagi "Qorasoz" manzilida tavallud topgan.

M.Maqatoyev qisqa ijodiy faoliyati davrida qozoq she'riyatida inqilob qilgan novator shoir sanaladi.

U badiy tarjima sohasida ham katta ishlar qildi. Jumladan, Dantening "Illohiy komediya"sinı, V.Shekspirning sonetlarini, Uolt Uitmenning she'rlarini qozoq tiliga tarjima qilgan.

Uning "Hormang, do'stalarim" (1966), "Qaldirg'ochim, kelding-mi?" (1968), "Mavr" (1969), "Vodarig", yurak" (1972), "Oq qushlar uxlaganda" (1974), "Shu'lam mening" (1975), "Umr dostoni" (1976), "Umr o'zani" (1978), "Basira" (1981), "Yurak zarblari" (1982), "Cho'lpon" (1984) kabi she'riy to'plamlari chop etilgan.

DASTURXON USTIDA

(O'zbek yigitiga)

Tegrangda turfa ne'mat hamda qimiz.

O'nda — she'r, ko'ngilda — kuy, jonda — tamiz

Jannatning durkun fayzi shu zaminda,

O, do'stim, ko'p go'zal-a Olmaotamiz?

Ayniqsa ajib bunda manzaralar,

Olatov bag'ridan bir sas taralar.

Ohuday bir-birining izin quvib,

Otilar qoyalardan sharsharalar.

Yurakda shahrimga bor chin sadoqat,

Havo ham havo emas — istirohat.

Tomoshaga kelgin bir,

O'zbek do'stim,

Soyalarda o'ynab-kul, ayla rohat.

Qimiz ich, qazidan ol, tortinmagin,

Toqqa chiq, daryoga tush, salqinlagin.

O'zingning xalqing kabi bag'ri ochiq,

Unutma, qozoq degan xalqning borin.

Esingga solib qo'yay men yana bir,
Albatta, Olmaotaning bog'iga kir.
Kiyikday sho'x va ma'sum qizlarimiz
Joniga joning bilan o't yoqa bil.

Tegrangda turfa ne'mat hamda qimiz,
O'nda—she'r, ko'ngilda—kuy, jonda—tamiz.
Toshkentdek cho'ng shahardan tashrif etgan,
O, do'stim, ko'p go'zal-a Olmaotamiz?!

EY, O'LAN!

Ey o'lan, menga tekkan enchim eding,
Yuksalayin, qonimga kel-chi mening.
Mening senda azaldan ko'nglim bordir,
Sen ham meni xush ko'rib, ko'nglim, deding.

Qoshimga kel, qalbimni uqqin --- tushun,
Tez kela qol, bobom Abay ruhi uchun.
Behishtdagi uyangni qo'yib turgin,
Sen umrimga keraksan, ardoq qushim.

Ey o'lan, jon berayin senga qandoq,
Jonsiz o'lan jonimni so'rар har choq.
Bir o'yim — yuragimda qazo topib,
Bir o'yim — bo'g'izimda turibdi naq.
Ey o'lan, jon berayin senga qandoq?

UMR O'ZI NE DESAM

Umr o'zi ne desam,
Umr uchqur tulpor, ha.
Cho'chib ketding nega sen?
Qo'ygil, jonim, cho'chima.

O'z-o'zingni ayamay,
Umr degan --- chin yonmoq.
Bir narsaga xumorday,
Eir narsadan jirkamoq.

Birovlarni aldash — u,
Birovlarni aldamoq.
Kimdadir ko'rsang qayg'u,
Qo'ldan kelsa qo'llamoq.

Dil to'la hasrat va g'am,
O, do'stim, bersin to'zim!
Umr o'zi ne desam,
O'zim ekan, ha, o'zim...

TURSUNXON ABDURAHMONOVA (1921-2003)

Semey viloyatining Jarma tumaniga qarashli “Bo‘ka” ovulida tug‘ilgan. Mehnat faoliyati 1941-yildan boshlangan. Urush yillarida o‘rta maktabda o‘qituvchi, mакtab direktori bo‘lib ishladi.

1950-1954-yillarda “Qozog‘iston ayollari” jurnalida bo‘lim mudiri, 1954-1959-yillarda Qozog‘iston Davlat universitetida, 1959-1963-yillarda aspiranturada o‘qigan. Keyinchalik Qozog‘iston Nashriyot, matbaa va kitob savdosi Davlat qo‘mitasida katta muhattrir, 1967-1969-yillarda Qozog‘iston FADA ilmiy kotib vazifalarida ishlagan.

XALQIM DESAM

Xalqim desam, o‘zni har yon tashlaysan.
Nogoh shubha-gumon qila boshlaysan.
Qaytib olib kecha aytgan so‘zingni,
Tikolmaysan ko‘zlarimga ko‘zingni.

Bobolardan meros bu yer, fikr qil,
Hammamizga u Vatandir, shuni bil.
Ayt, bu elni tag‘in hasrat quchmasin,
Yurt boshiga qora zamon tushmasin.

A’lo bildik biz hamisha imonni,
Bosib keldik yurakdagи tug‘yonni.
Kolgindiga berib qo‘yib diyorni,
Illat dedik biz g‘ururni va orni.

Ular qachon yovga qarshi turgandi?
Chorig‘ini zo‘rg‘a sudrab yurgandi!
Sen deb qachon tushdi qora terlarga?
Yuksak sha’nim urdi ular yerkarga!

Jonim Vatan!
Seni deya zorladim,

Qay yurakka yetib bordi zorlarim?
Eshitganlar eshitmasdek turdilar,
Hadiklarda mendan yuzin burdilar.
O'z yurtimda o'z bolam naq begona,
Har ishga u jahd qilolmas maro'ona.
Agar zanjir yurt bo'yniga tortiqdir,

Mening bundan o'lganim ming ortiqdir!
Essiz ko'ngil — yemasa gar o'z g'amin.
Etolmasa o'z baxtin o'zi ta'min.
Har kim ko'kni ko'zlar turna misoli,
To'lib ketdi undaylarga bu zamin.

Kunlar shu tarz to'xtamay o'tayotir,
Chin umrning yo'lin kim tutar, axir?!

"Adashganning oldi yo'l. orti so'xmoq",
Umr essiz — bo'lsa qalb yaydoq, taqir.

* * *

Qancha molni yiqqan bilan evin bilib,
Boy-badavlat bo'lib qolmas aslo yigit;
El ko'ngli — oq sandiq, topib kalstini,
Yuksalmasa — ko'kka lunar tug'in tikib.

O'z soqasin mashqin olgan ko'pdir, biroq
Undaylardan chin san'atning sehri yiroq.
Jon kuydirib, o'zin fido aylamagan
San'ati-la hech bir jonga solmas titroq.

* * *

So'z so'zlasang, o'zagiga boqib ayt,
Ma'nosini uqib, mag'zin chaqib ayt.
Boylargina so'z aytar deb o'ylama,
Sen so'zing-la o'zga dilni yoqib ayt.

Taxtli der el dono qalbni — so‘z bilgan,
U hamisha ezgulikka intilgan.

Taxtlimikin ko‘pni to‘nab boyigan ——
Qurumsoqlik, xasislikni kasb qilgan.

* * *

So‘zchanlikni fazilatga biz yo‘ydik,
Siyqa so‘zning sururidan ko‘p to‘ydik.
Odamiylik fazilati — eng asl,
Qani o‘sha ishchanlik va haqgo‘ylik.

Savdo-sotiq, dur sehriga boylanib,
Qalbimizga nafs borar joylanib.
Shu ketishda qolmasak bas — bir kuni,
Nopoklikning qo‘rg‘oniga aylanib.

O'LJAS SULAYMONOV (1936)

Olmaotada shahrida tug'ilgan. O'rta maktabni tamomlagach, Qozog'iston Davlat universiteti geologiya fakultetida, Moskvadagi Oliy Adabiyot institutida tahlil oladi. 1983-1991-yillarda Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasi boshqarmasining birinchi ketibi bo'lib ishladi. U Qozog'iston Davlat mukofoti (1972) sovrindori. Ko'plab orden va nishonlar bilan taqdirlangan.

Uning "Arg'umoqlar" (1961), "Zamin, insonga ta'zim qil!" (1961), "Nurli tunlar" (1962), "Iliq tun" (1963), "Shafoatli chog'" (1964), "Maymun yili" (1967), "Az i Ya" (1975), "Ming bir so'z" (1984) kabi kitoblari o'quvchilar orasida keng shuhrat qozagan.

U rus tilida ijod qiladi. O'ljas Sulaymonov XX asr qozoq she'riyatini jahonga tanita olgan yorqin ijodkordir.

QUVIB YET

Quvib yet qani, yigit,
Ayama otni, yigit,
Sevsangu bo'lsang o'ktam.
Ot yetajak o'lsa ham.

Sevaman seni, yigit,
Yetginu tez,
O'p mahkam.
Bo'saga intiq yuzim

Qizib ketdi uyatdan.
Yellar meni quvmoqda,
Ko'kragimga to'shalib
Quchmoqda, eh, quchmoqda..

Sen esa ortda, yigit!
Ko'kda oy ham kular jim,
Men yolg'iz,
Hamon yolg'iz.

Tizgin tutgan qo'llarim
Qahrdan bo'lar qonsiz.
Odamlar,
Eh, noshud odamlar,
Yer bo'ldi-ku chavandoz dong'i.

Tutqazibsiz jasur yigitga,
Tutqazibsiz yovqur yigitga
Va kelishgan, mag'rur yigitga
Uchqur tulpor emas,
Qirchang'i!..

* * *

Yozda bir qiz keldi
janub shaharga,
Bir juft kokilida
Bir juft oq bantik.
Ko'hlikkina qiz,
Ismi uning --- Bella.
Yerlik bolaiar ko'nglida g'ulu.
Yuvinib-tarangan, oyoqda shippak,
Deraza tagida o'ralishardi,
gap otishardi.

Farroshlar, negadir,
Jerkib berishdi:
Bunday sho'xliklarga yo'l qo'yilmaydi.
Lek qizcha, baribir
Bittasi bilan do'stlashib oldi —
Deraza tagiga kelar har tongda
Kichkina bir bola
Va bo'yin cho'zib,
qizchani chaqirar cho'chib, alanglab:
— Bel-la...
Qizcha olmaxonday tushar zinadan,
so'ngra qo'l ushlashib
Soyga chopishar.
Onasi ham dildan o'zicha xursand:

zo'r quyosh, sof havo, suv
Va qizchasi.
Bir kuni keldiyu telegramma,
Tungi samolyotda uchib ketishdi.
Yoz-ku tugamovdi.
Tong payti esa
Bola ovoz berar odatdagidek:
— Bel-la...
Balkonga chiqaman
Va kuzataman.
Bola chaqiradi sekin, xotirjam:
— Bel-la...
Yasanib kiyangan
— Tungi shippakda,
Ozoda kalta shim tizzasigacha:
— Bel-la...
Urishib berdim men:
— Uchib ketdi u.
Go'dak shaxt qaradi
Yigitlarga xos.
To'ng'illadi (balki "Senga daxli yo'q"),
So'ngra davom etdi o'z qo'shilg'ini.
Har kuni ertalab,
Siz ishonmaysiz,
Bevadek bo'zlar u oyna ostida.

BOLALIK, BOG'LAR, SARATON...

Yo'q, men to'lmagandim o'n sakkizga ham.
Bolalik. Yoz. Olis front orqasi.
Uycha. Arava yo'llarida suzib yurar chang,
Saraton,
Bog'lar, siyemosida g'ubor ko'rpaşı.

Va sho'xchan bir ayol bizning hovlida.
Ijarachi ayol,
Uni shunday atardi bobom.
Yonoqlariim lovulliardи ertalabdanoq,

Yo‘q, o‘n uchda edim o‘sha choq.
Jilmayar edim men u kulgan onda,
Laqmalik qilardim so‘z topolmasdan,
Goh u yuvinishga soyga tushganda,
Haydardim bolalarни pana-panadan.
Bular bir o‘tmish,
Hozir esa kelar yodimga:
Tun.

mo‘jaz derazali paxsa imorat,
men o‘sha torgina darcha ostida
oqlangan devorga suyanganimcha,
turar edim dilgir, betoqat.
Urushdan qaytgandi u –
Buni anglardim.
O‘sha yigit bilan quchoqlashardi...
U noshud, yaramas quchdi-ko‘tardi
Va u ham yigitni
Tinmay o‘pardi.....

Bilmasdим,
Qo‘llарим titrar nimaga,
Deraza ortida qorong‘u, jimlik
Va yengil shivir-shivir...
E-e, qandoq chidaysan bunday tan’aga –
Tosh bilan oynani sindirdi chil-chil.

Yugurib chiqди kimlar:
–Senmi?
Uning ko‘zlariga boqardim karaxt,
Xuddi tushdagidek, kelmay hushimga,
Shunda men, bir go‘dak,
Dedim ilk bora:
–Bo‘ldi, bas, nari bor, eh onang shunga..

U esa yigitni itardi nari:
–Tegma!
So‘ng meni yupatib, dedi,jimgina,

Yumshoq ko'kragiga bosgancha maxkam:
—Oh meni ko'ngli bo'sh aqlsizginam
Otilib chiqdim men uning bag'ridan,
Tomga ko'tarilib,
Yoyib qo'yilgan
Eski gilam uzra tushdim uzala.
O, katta bo'lsaydim shk bir kechada!
O, agar hoziroq yetsaydi kuchim,
Bu qattiq xo'rlikning qasosi uchun!
....Bolalik unitildi,
Yillar uchvr, ha.
Biroq menga qiyin bo'lar sen bilan,
Qo'shnining bolasi
Suqlanib bizga
Kechirilmas sog'inch-la termulsa ba'zan.
Tikilib turar u, oppoq devorga
Suyanganicha,
Qorako'z, tund, bir iztirob yoqar qonini.
O'zining ilk mehrin bpg'ishlar senga,
Bolaligi,
Bog'lar,
Saratonini.

TUNGI TAQQOSLAR

Sen bolsan go'yo,
esladimmi — labim tamshanar,
Sen bir kulgu,
shiddatidan ko'zlar yoshlanar.
Men g'aribman, kim ham xafa qilardi!
Do'zax ko'rdim, endi jannat istar dil.
Eh, boshqalar nechun seni sevadir,
Sevma sen, odammas ular, axir...
Ularda dard va iztirob ne qilar,
Ular faqat kishnab yurgan yilqilar!
Ayt, qachon tillarim so'ylasin biyron!
Qay lahzada ko'zlarim sochsin alanga?

Noshudlikni ko'rib turib beisyon,
itoatda chidashni ham o'rgatgin menga
Va tunlar qurbaqadek bo'zlamaslikning
ayt chorasini!..

Men seni sevaman,
Beva — oh urishni,
Baliq — tez suzishni
Sevsu qanchalik;
Men seni sevaman
Ojiz — shuhrat-shonni,
Quyosh — keng osmonni
Sevgani kabi.
Sen ziqnasan, senga yashash oson,
Menga rizqin tutdi hatto gado ham
Murg'ak chaqaloqni emizgan kabi.
O, men Xayyom bo'lsaydim agar,
O, men Hofiz bo'lsaydim agar,
O, Mahambet bo'lsaydim agar,
Murodimga yetardim balki!..
Asl she'rlar esa yozib bitilgan.
Shundoq sevisharlar tog'u dashtda ham —
yuraklarga solib orzu va alam.
O'zgacha sevib ham bo'lurmi yoki?..
Men seni sevaman,
Shunday sevamanki...

XAYRLASHUV

Zal jim, sukunatda.
Aytidim barin, neki bo'lsa yurakda.
Sukutda mo'ysafid, qiringan, paxmoq sochlilar.
Qani qo'zg'al, ey zal, yumshoq o'rindiqlardan,
Bo'tonga peshvoz chiq,
Oq yo'l bo'lsin senga!
Og'u emas, xushbo'y tamaki
Sizning uzun trubkalarlingizga,
kapitanlar.

Istiqbolingizga go'zal koinot,
Hozircha.
Yaxshi tushlar, yaxshi taomlar,
Yaxshi xonadonu
 ko'r kam jihozlar.
Mahalla-qo'shnida – ishonchi do'stlar.
Mana bir yosh juvon.
Nasib etsin sizga yaxshi farzandlar,
Munosib erni esa
 topursiz albat!
Hov o'ltingan shofyor,
Hayolida rezina g'ami;
Cho'pon ham og'ir uyda –
Qo'zilatish mavsumi yaqin.
O'yayman:
sizga faqat yaxshi yumushlar!
Sizga yaxshi Amerika,
Yaxshi Rossiya!
Ey, poytaxt va olis ovul bolalari!
Sizlarga yaxshi shoir,
Oqil arboblar!
Seving,
 tushuning dildan,
Bir-biringizni,
Bo'lg'usi hukumatlar yo'lboschchilar!
Shu haqda orzu qiling,
O'ulang –shu haqda,
Yashangiz
 loaqal bir oz ehtiyyotkor!
Yashangiz shoiriar vasiyati-la:
Ular sizga tilar
Faqt ezgulik.

SAHRO TUNI

Shabnam yo'q,
Vojab, qo'limga tegmas sira nam,

Tuning bag'ridagi sovuq qumda ham,
 Yuzda ham, o'tovning sirti – namatda
 Yo'q zarra shabnam.
 To'g'ralgan toshlarning
 Qotgan mavjlari
 Jilolanar oyning nurida biram;
 Izg'iysi qashqirlar har yon sarsari,
 Yo'q zarra shabnami.
 Tunni ng og'ushida,
 Oppoq shu'laga
 Belandi sahroning ko'ksi – siym tan,
 Lekin gezargar dil
 Chiqmaydi sasi –
 Bir tomchi shabnamga tashna, zorlikdan.
 Oy sovur nihoyat.
 Quyosh nuridan
 Bir cheti yarqirab ketar olamning....
 Nega?
 Qo'ngan edi yuziga shabnam
 Sahroda tunagan tanho odamning.

JAVZO

Oh, biram suluv ayoll!
 O'zini qo'uib erkin,
 Uxlar olma tagida,
 Ariq jildirar sekin.
 Tevarak bedazorda erinib kuylar ari,
 O'ynar ayol ko'ksida oftobning she'lalari.
 O'tib borar edim men shoshmay –
 ariq yoqalab,
 buncha suluv bo'lmasa! Qo'yaman zimdan qarab.
 Qari otim qimtinib,
 Ko'zlarin chetga olar.
 Oftobning shu'lalari
 Kaftga o'xshab sirg'anar.

TUMANBOY MO'LDAG'ALIYEV (1935-2011)

Olmaota viloyati, "Mehnatkash qozoq" tumanida dunyoga kelgan. 1958-yili Qozog'iston Davlat universitetining filologiya fakultetini bitirgan.

Shoirning ilk she'ri ("Ukrain qiziga") 1954-yili boshilgan. 1957-yili "Talabaning daftari" nomli ilk to'plami nashr etildi. Shundan keyin uning "Komila" (1960) "Ko'klam tongi" (1951), "Olatov qizi" (1963), "Feruza haqida qo'shiq" (1964), "Kunlar chorlaydi" (1965), "Yuragim mening yo'llarda" (1966) va boshqa ko'plab kitoblari o'quvchilar qo'liga yetib bordi.

U mohir tarjimon hamdir. Qozoq o'quvchilari uning tarjimasida J.Bayron, M.Lermontov, T.Shevchenko, O.Tumanyan, S.Kaputikyan, R.Hamzatov va qator o'zbek shoirlarining she'rlaridan bahramand bo'lganlar.

O'ZBEGIM – O'Z OG'AM

Qozog'u o'zbek qadim qondosh tayin,
Bu tuyg'u dilga surur berar mayin.
Toshkentda yurganim kez do'stlar bilan
Bo'laman Olmaotada yurgandayin.

Toshkentning gulbog'lari o'z bog'imday,
Ko'chalari ko'nglimning charog'inday.
Dunyoda ohu ko'z ko'p, bo'ta ko'z ko'p,
Ko'z bormi o'zbek qizin qarog'inday!

Jon Toshkent qalbimni gar bandi etsa,
Nechun men yosharmayin, bo'lay keksa?
Yigitda armon qolmas bir suluvinning
O'tida parvonadek kuyib ketsa.

O'sh bu yil qoraladi elliklarni,
Bu degani — nari borsa, umr yarmi.
Dali ishq tug'yonimni tuymadingmi,
Kiroyi rom etardim bir dilbarni...

Bilaman, o 'zbegin, ko 'pdan seni,
Xush ko 'rmaysan qozoqning sergapini.
Toshkentda qolib bir oz, bozor kezsam,
Farqlay olar edi sendan kim ham meni?

Dilimda havas so 'nmay, g 'ayrat o 'lmay,
Nechuk ko 'rk-ziynatingga maftun bo 'lmay?
Bir kirsam bozoringga, to kechgacha
Girgitton charx uraman chiqqim kelmay.

Men goh she 'r sururiga lim to 'laman,
Ilhomsiz kunlarimda jim — so 'laman.
Borimni bozoringga berib ketgan
Jaydari, sodda qozoq men bo 'laman...

Qalbimni dalam kabi keng qilaman,
Ulug 'larni tog 'imga teng bilaman.
Muso og 'am* qo 'liga Olmaotada
Suv quygan o 'spirin ham men bo 'laman.

Navoiy, Abay nazm oy-quyoshi,
Talpinamiz ularga qaynab-toshib.
Bir ajib dam kechgandi Olmaotada
Mirtemir og 'amiz-la qaymoqlashib.

O 'zbegin, o 'z og 'amsan, chin bu so 'zim,
Ergashib kam bo 'lmadim, topdim to 'zim.
Uyg 'unning bir tom she 'rin qozoqchaga
Ag 'dargan azamat ham mening o 'zim.

Mehrim bu — hech minnat qilmaganman.
Topilmas Sharqda uni bilmaganlar, —
Zulfiya opamiz ham to 'lib-to 'lib,
Qozoqcha so 'ylagandi bir mahallar.

O 'zbegin, yasha doim dorilomon,
Ko 'rmasam, bot-bot qo 'msab sog 'inaman.

O‘shmi yo u keksami — topishtirar
Toshkentda omon bo‘lsa Nosir og‘am.

O‘rtada to‘ylarimiz, o‘ylarimiz,
Qatorda munosibdir bo‘ylarimiz.
O‘zbekning paloviga tot beray deb,
O‘rlaydi Toshkent tomon qo‘ylarimiz.

Yigitning ko‘zi qizda, ko‘ngli qizda,
Gap tashlardik biz hatto qirqimizda.
Misoli qalin moldek chegaradan
O‘tadi o‘zbek yoqqa yilqimiz-da.

O‘rtada baham orzu, quvonch, azob,
Sen borsan, hech kim meni etmas mazoq.
O‘zbekning osmonida tong balqisa,
Hammadan burun uni ko‘rar qozoq.

Ginam yo‘q, sen og‘amsan — tug‘ishgansan,
Tilagim — ezgulikka yurak qonsin.
Hazillar fayz bersin unrrimizga,
Saodat yulduzimiz mangu yonsin!

QODIR MIRZALIYEV (1935-2011)

O'rol viloyatining Jimpiti shaharchasida tug'ilgan. Qozog'iston Davlat universitetining filologiya fakultetini tamomlagan. Uning ilk asarlari 1954-yilda e'lon qilingan.

1966-yili unga "Xayol armoni" to'plami uchun Qozog'iston Yoshlar mukofoti berildi. 1980-yili "Jeruyiq" she'rlar kitobi uchun Davlat mukofoti sovrindori bo'ldi. "Qozog'iston xalq shoiri" unvoniga sazovor bo'lgan.

Uning "Ko'klam" (1959), "Jangalaklar" (1960), "Kichkina afandilar" (1963), "Dala diydori" (1966), "Kumush qo'ng'iroq" (1970), "Jeruyiq" (1976), "So'z sehri" (1982), "Eh, kunlar..." (1984) singari bir qator she'riy majmualari chop etilgan, shuningdek, o'nga yaqin kitoblari rus tilida e'lon qilingan.

BUXORO BOZORI

Xayollarim suzib yuksak-yuksakda,
Doston sehri mavjilanadi yurakda.
Ixtiyoring — sayr et qadim qal'ani,
Bozorining gashti lekin bo'lakcha.

Sanchmish ko'kka ko'hna kent minorasin,
Kezar suvlar chamanu gul orasin.
Buxoroning bozoriga kirganiningda.
Bu asrni yodingdan chiqarasan.

Tumonatni ko'rib hech bo'lma hayron,
Savdogari bir yonda, mijoz bir yon.
Dunyo asli shunaqa — razm solsang,
Birov molin maqtaru birov giryon.

Xalq bezorni sevdi ne-ne asr,
Bormi bunda bir hikmat, bormi yo sir?
Qah-qah urgan to'dadan senga boqib,
Go'yo peshvoz chiqadi Xo'ja Nosir*.

Duch kelib har kun moziy asroriga,
Ko'z solib Somoniylar mozoriga.
Ertab o'lsin, kech bo'lsin — buxorolik
Bir bosh suqmay o'tmaydi bozoriga.

Yaproqlarga sachrar yoz shu'lalari,
Shahar gavjum bo'lar tong otgan sari.
Ko'lankada o'tirib — bu shaharning
"Bozor-bozor" o'ynaydi bolalari.

Joy yo'qdir bunda meni alqamagan,
Qaytmoqsaman — narsam ko'p orqalagan.
Moziyning ko'p qizig'i tarqab ketgan,
Buxoro bozori hech tarqamagan.

HUSAYN BOYQARONING VAZIRLARIKA DEGANI

Yuzlashganday haqiqatning o'zi-la
Ko'nglim anglar edim uning ko'zi-la.
G'urbatlarga to'la yurak
Har mahal
Poklar edim ulug' shoir so'zi-la.

Goh ruhimda kelsa vijdon junbushga,
Qurbim yetmas edi sobit turishga.
Yolg'onlarni so'ylay-so'ylay,
Axiyri
Qulog'imni to'ldirdilar mish-mishga.

O'kinchdaman, sizlar bois yanglishdim,
Ko'rsatdingiz uni menga siz, g'anim.
Astrobod tunlarida
Mung'ayib,
O'Itirgandir qayg'u-alam chekib jim.

Ayon edi menga yovlar dasturi,
Yuragimda qay kudurat sururi?!

Ko'lankamni tushiribman
Men unga,
Tushardi-ku menga uning dil nuri!

Nomus zahri qo'ydi meni qizartib,
Bormoqdadir yurakkinam zil tortib.
Shakar, novvot —
Lutfingizda sizlarning,
Navoiy nordon so'zi menga ortiq!

Bu ne yovuz, taxtga mingan chog'ingda
Kuyar shohlat nadomatlar dog'inda.
Nodonlarni mensimaymiz
Nodon deb,
Xush ko'rmaymiz donolarni tag'in-da!

Kurashsa gar diyonatni kim suyub,
Guvranamiz dilda unga kin tuyub.
Kechirmaymiz,
Kechirmaymiz biz nechun
Bo'lsa agar o'zimizdan sal buyuk?!

Biortamiz Navoiyning tengimas!
Sizlar tugul o'zim unga teng emas!
O, Yaratgan,
Shundayimiz nega biz?
O, Yaratgan, shundayinmiz nega biz?

Adolatga pesh edim bir zamонлар,
Bugун esa dilda achchiq armonлар.
Qani endi
Ulug' qalбga sadoqat,
Qani endi qilingan ahd-paymonлар?

Bo'lsam men gar shu taxtning chin egasi,
Qolmagaysiz sizlar aslo jazosiz.
Men sizlarni

Mahv etmasman, ehtimol,
Lekin yiqar sizni imon qasosi!
Sultanatni mudom riyo yemirgay,
Ulug'likning nuri kerak Aniirga.
Bu umrda
Navoiyga qiyindir.
Qiyin ko'proq Navoysiz umrga!

TANTI YURAK
Shoahmad ota Shomuhamedovga bag'ishlayman

Yurtlar g'amnok. Janglar borar beomon.
Otash ichra qolurmi gul bexazon?!
O'n to'rt go'dak — o'n to'rt sag'ir izillar.
O'n to'rt go'dak — o'n to'rt yurak notavon.

Qalb bog'ini bosgan edi qirov-qor.
Qaylargadir chekingandi gulbahor.
O'n to'rt go'dak — o'n to'rt nola betaskin,
O'n to'rt go'dak — o'n to'rt murg'ak nonga zor.

Tevarakda qahatchilik qutqusi,
Ufqlarda kulfat isi, g'am isi.
O'n go'rt go'dak — o'n to'rt sho'rlik yetimni
O'z bag'riga olar o'zbek hovlisi.

Qirg'in tugab yurt girdidan ketdi zog',
Qetarmikin lekin qalbdan alam-dog'?!
O'n to'rt go'dak — o'n to'rt nihol bo'y cho'zib,
Qutli uyni etdi gulshan, etdi bog'.

Davron kuldi, yillar kechib paydar-pay.
Tanti qalbni tole kutar ekan shay.
O'n to'rt go'dak, ha, Shoahmad otadan —
Meros qoldi xuddi o'n to'rt mash'alday.

TO'LEGEN AYBERGENOV

(1937-1967)

Qoraqalpog'istonning Qo'ng'irot tumanidagi "Qo'ng'irot" sovxozida tavallud topgan. 1954-1959-yillarda Toshkentda Nizomiy nomidagi Pedagogika institutida qozoq tili va adabiyoti fakultetida o'qigan. Ilk she'rlarini bolalikda yoza boshlagan. Ilk turkum she'rlari "Yosh davron" nomli to'plamda chop etilgan.

1974-yilda "Qumdagı minoralar" to'plami uchun Qozog'iston Yoshlari uyushmasining mukofoti berildi (vafotidan keyin).

Tirikligida uning "Hayotga sayohat" (1955), "Men senga oshiq edim" (1970), "Omonat" (1975) singari kitoblari chop etilgan.

To'legen Aybergenov 60-yillar she'riyatiga yaraqlab kirib kelgan yorqin iste'dod edi. Uning lirik, falsafiy she'rlari qozoq yoshlari orasida keng shuhrat qozonib, ularning so'nmas muhabbatiga sazovor bo'lган.

YURAK SO'ZI

Yuraman yo'l bilan men ezgu,
Beraman jilo ko'llarga.
Guvillab yotgan dengizni
Ag'darib quygum cho'llarga.

Ergashib ko'pning ko'chiga,
Yaylovga chiqqum qo'y haydab.
Shodumon dala to'shida
Chalqancha yotgum men yayrab.

Gohi zaminni sel chayur,
To'ladi borliq fayz-qutga.
Yemg'irli kun naq mo'rcha-yu,
Yuvingga men oq bulutga.

KO'KLAMDA

Ko'klamni qo'msab dillar eziladi,
Unda gullar qizlar-chun uziladi.
Osmonda ezbilikning nomin yozib,
Turnalar qator-qator tiziladi.

* * *

Shodlikka to‘la chog‘im eng
Utkazdim senda, qir oshdim.
Tolega ochib bag‘rim keng,
Shivirlab turib sirlashdim.

Ko‘ngli qo‘klamdek qurch gavda —
Og‘am-la fikr alishdim.
Yoz kelbat yorqin jengeyga
Hazilim aytib tanishdim...

Yurakda kadar-nolish yo‘q,
Ilk sevgi dilni jazb etgan.
Ko‘rindi menga olis bo‘p
Qoshimda turgan bo‘y yetgan.

Ne tongki, dili pok do‘stlar,
Bo‘z bola kunlar o‘tdi-ku.
Xandon-da kulgan ko‘p qizlar
Armon bo‘p qolib ketdi-ku...

QIZIM MENING

Uylandim. Bolaligim biroq qochdi,
Oldimda yangi hayot kulgan chog‘i.
Umrimga sen kelding-da gulin ochdi —
Mening yosh oilamning qizg‘aldog‘i.

Ko‘nglimga sehrin quyib dala, ko‘lning,
Sen menga ota nomin ola kelding.
Yotganday gulg‘unchasi orzuimning,
Aylanib beshigingga boraverdim.

Ko‘p tortgan azobiimdan onaginam
Quchog‘in ochdi senga ko‘proq bu dam.
Kim bilsin, Yillar bo‘yi intiq kutgan.
Seni, o, shiringinam, oy yuzginam.

Sen tug‘ilib — nuqul u kulaverdi,
Qalbiga qaerdandir quvvat keldi.
Xirgoysi boshlab har kun tong-sahardan
Vujudi kuyga to‘lib yuraverdi..

FARIZA O'NG'ARSINOVA (1939-2014)

Fariza O'ng'arsinova (adabiy taxallusi – Sanduvoch) Gurev viloyatining Novobogat tumaniga qarashli Manash qishlog'ida tug'ilgan. Gurev Davlat Pedagogika institutining til va adabiyot fakultetini bitirgan.

Ilk she'rlari respublika gazeta-jurnallarida bosilgan.

F.O'ng'arsinovaning xizmatlari qator orden-nishonlar, faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan. Respublikada xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi. "Vatanim – uyim mening" va "Mang'ishtov monologlari" she'riy to'plamlari uchun 1984-yili Qozog'iston Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan.

Üning "Qizg'aldoq haqida ballada" (1971), "Men tug'ilgan kun" (1972), "Kichkintoy" (1975), "Kamalak" (1979), "Oftobshuvoq" (1980), "Ochiq osmon" (1981), "Temirqoziq yulduzi" (1982), "Qironqiya" (1984), "Mening tuprog'im" (1985) kabi to'plamlari chop etilgan.

* * *

Sog'inch xatin yo'lladim
Sizga, ovuldoshlarim.
Men seni ham qo'msadim,
Do'l-dovulli osmonim.

Hush yerlarda yursam-da
Yodda fayzu qutlaring;
Yero'choqda lovillab
Yonib turgan o'tlaring.

Qaragaysiz har doim —
O'zgacha faxr etib-la,
Bormi deya she'rlarim
Gazet-jurnal betida.

Maqtaysizlar meni, ha,
Bolalarga do'ndirib,

Yuribdi deb poytaxtda
Ulug' ishlar tindirib.

Har yil senga, ovulim,
Kanda qilmay borgayman.
Ko'ngillar tubidagi
Sirlarni axtargayman.

Boraman, qaytadan chin
Zavqlarga to'lmoq uchun!
Boraman, qaytadan men
Bir go'dak bo'lmoq uchun!

* * *

Ot minsam, yigitlardek
Yeldirgum ur-ho solib.
Aytishsam yig'inlarda,
Bo'lurman, shaksiz, g'olib.

Ingichka yo'l qadamim
Hadikka topshirmasman.
Hazilda bo'z bolaning
Og'zini ochirmasman.

Tortinma, sho'rlik bola.
Men bir qiz, bahsga shayman!
Kuy chalsam do'mbirada,
Dina*ni tiriltgayman.

Izlayman botir miqtı —
Ko'z solib umidlarga:
Mendagi botirlikni
Bermapti yigitlarga!

Bu she'rlar yozilmas edi hech,
Men qayg'u yutmagan bo'lsam.
Bu yurak topinmas edi hech,
Sen ko'pga o'xshagan bo'lsang.

Nazarga ilmas edim men,
Chiqa olar joyim bo'lsang gar.
Tavozeni bilmas edim men.
Hat kun xokpoyim bo'lsang gar.

Men bundoq yurmas edim hech,
Umrimda bo'lman bo'lsang.
Sevgini bilmas edim hech,
Qalbimni xo'rلان bo'lsang.

* * *

Oltin zarin sochganda tong nurlanib,
Ko'klam har yon yoyganida ajib gilam.
Quchog'im — gul. Kelaman men lov-lov yonib,
Men yoshlik sururiman.

Dilni o'rtar, shubhasiz, uchqur yillar,
Shirin tuyg'u yurakda, ko'zlarda ham.
Olam tutib turganda msnga gullar,
Masrular masruriman.

Yoshiigimga vaqtning o'zi oshiq,
Yetaklaydi bog'larga qiyg'os, ko'rkam.
Sevgim dilda yonadi nurin sochib,
Joniimda o'zing, erkam.

... Tug'yoni mo'l, har oni to'la sirga,
Qalbga hasrat-quvonchlar olib kirgan...
Bosh egamiz har vaqt biz bu asrga —
Ikkimizni tanishtirgan.

* * *

Yurak mudom moyildir o'yga ezgu,
Olqishlarni ko'rdi bisyor, titramas u.
Netay, sendan qolmadni qalbimda iz:
Na bir quvonch, na qayg'u — hech bir tuyg'u.

Go'yoki men yurar edim ishqing-la shan.
Lekin yurak bu tuyg'uga bermasdi tan.
Zinhor sevgi sanalmaskan yakkash hurmat.
U juda kam uchraydigan bir dard ekan.

Bu kun kelib bundoq hurmat kelar malol,
Er yigitga nomus bo'lar bunday iqbol.
Suydirmasang, suyolmasang kuyib-yonib,
Tuyg'ularing topar zavol.

MUXTOR SHOXONOV (1942)

Chimkent viloyati, Lenger tumani Qashqasuv qishlog‘ida tavallud topgan. Yetti yillik mактабни tamomlagach, “Yulduz” kolxozida traktorchiga yordamchi, keyin viloyat gazetasida adabiy xodim, Qozog‘iston radiosida katta muharrir, bosh muharrir bo‘lib ishladi.

Chimkent Davlat pedagogika institutida tahsil oldi. Keyinchalik “Jalъm” jurnalida bosh muharrir, Qozog‘iston Yozuvchilar uyushmasi boshqarmasida kotib vazifalarida faoliyat ko‘rsatdi.

Mustaqillik yillarda Qozog‘istonning Qиргизистондаги elchisi lavozimida xizmat qildi.

Qozog‘iston halq shoiri. Uning she’riy va dramatik asarlari el orasida katta shuhrat qozongan.

DIYDORLASHUV

Bolaligim lavhalarin eslab shan,
Qashqasuvning yoqasida turdim man.
Gohi unsiz, goh ko‘pirib serg‘ulu —
Oldimizda oqardi u moviy suv.

Biz ham shundoq asov, shaddod edik, ha,
Bir mahallar onamizning bag‘rida.
Kunlarimiz o‘tardi sho‘x suronda,
Janjallahsak, yarashardik bir onda.

Biz begona bo‘lib g‘araz-kinlarga,
Yetib keldik shu muborak kunlarga
O’shal onlar yodingdami, ey nigor,
Yo qalbingda qolmish faqat gard-g‘ubor?

Tong kabi sof kulgung bilan sen shirin —
Ko‘ksimda o‘t yoqar eding yashirin.
Qani o‘sha totli xayol, totli sir,
Bari yulduz yog‘dusidek so‘nmishdir.

Nechun so‘nmish? Aytolmayman men ayon.
So‘ng sochilib ketdik bizlar har qayon.
Jo‘shqin edi u chog‘ orzu-tilaklar,
Qoldi faqat xotiralar yurakda.

...Bolaligim lavhalarin eslab shan,
Qashqasuvning yoqasida turdim man.
Asov daryo yuvib qirg‘oq betini,
Qaylargadir oshiqardi betinim.

Goh daf‘atan entikardi tortib oh,
Yillar yodin eslagandek banogoh.
Ul nigorning qo‘llarida ushbu on —
Tek turmayin bijirlardi raitti jon.

Men go‘dakni suymoq bo‘ldim egib bosh,
Lekin nigor mijjasida ko‘rdim yosh.
Va u tomchi tomdi billur mavjlarga,
Vidolashgan yanglig‘ qaytmas damlar-la.

Nimadir deb xo‘rsindi u o‘sha dam,
Biroq buni anglay olmay qoldim man.

MEN HAQIMDA O‘YLADINGMI?..

Entikdingmi bog‘lar
Chechak taqqanda,
Qushlar navo gulxanini yoqqanda?
Hapriqdingmi — meni kelib qoldi deb,
Bir yo‘lovchi eshicingni qoqqanda?

Oq bulutlar kezsa ko‘kda sargardon,
Kokilingni silab o‘tsa yel shodon,
Turdingmi sen qora yo‘lga termilib,
Shirin umid og‘ushida lol-hayron.

Kechmish yillar girdobida bo‘lib xun,
Chekdingmi sen hajr dardin tunu kun?
Qirmiz oqshom qirga chiqib jimgina
Terdingmi yo gul-chechaklar men uchun?

Sabring tugab, dilingni qon etdingmi?
Rahm etsa gar kelar-da, deb kutdingmi?
Xilvatlarda sen yangangdan yashirib,
Menga atab ro‘molchalar tikdingmi?

Yolvoraman, sog‘ bo‘l, qayda yurma sen,
O‘ylaringni ishqim nuri bezasin.
Menga atab tikan bo‘lsang ro‘molcha,
Xatga solib jo‘natmading nega sen?
Yo‘lga qarab sarg‘aydingmi, so‘ldingmi?
Qattiq o‘ksib, ginalarga to‘ldingmi?

Yoki mendan umid uzib, yot-o‘zga ——
Birovlarga suyumli yor bo‘ldingmi?
Asl sevsang, firoq tog‘in yiqlarsan,
Ojiz ersang, hasratlarda biqarsan.
Bilgim kelar — o‘yladingmi men haqda,
Balki sira o‘ylamagan chiqarsan?

Xayolingdan haydalganim nahot chin,
Yo‘q edi-ku yuragingda zarra kin.
Qadrim mening past bo‘ldimi shunchalar,
Ayovligim, unutolding qandoq sen?

Bari mumkin.
Ishq kiprikni qilar nam.
Ayri ketmoq mumkin ko‘ngil berib ham.
Bari mumkin, faqat mening haqimda
O‘ylamadim der bo‘lsang, hech ishonmam!

BAXTLI BO'L

Mag'rur ko'nglim talpingani-suygani,
Qo'shiq eding men-chun --- shomlar ko'nganda.
Turib-turib qaytar edim uyga men,
Derazangning yog'dulari so'nganda.

Qarolmasdim botinib hech ko'zingga,
Lekin ko'ngling entikishin ilg'ardim.
Seni hamroz etolmadim o'zimga,
Yonsa hamki yuragimda ishq-dardim.

Balki shundan ketding ortga qaramay,
Ketding uchib, o baxt qushim, ayt, qayon?
Kaptari-la xayrplashgan boladay
Tole tilab qolaverdim men nolon.

* * *

Aytsam deyman dildagi bor so'zimni,
Begona ham peshvoz kulib kelgan on.
Haqmanki, men qadrlayman o'zimni
Va shu bois mag'rurdirman har qachon.

Umr haqda ko'p o'yladim, to'lg'an dim,
Do'stlar, do'stlar, mendan umid uzmanglar.
Meni har chog' haqiqat deb kuyungan
Fidoyilar qatoridan izlanglar.

NURLAN O'RAZALIN (1947)

Olmaota viloyatining Uyg'ur tumanidagi Ulkandixan (hozirgi Ko'kbostov) ovulida tavallud topgan. Qozog'iston Davlat universiteti (hozirgi Al-Forobiy nomidagi Milliy universitet)ning filologiya fakultetida tahsil olgan.

Yigirmadan ziyod she'riy to'plamlar, dramalar, esse va publisistik kitoblarning muallifi. Ko'plab dramalari teatr sahnalarida qo'yilgan. She'rlari o'zbek, rus, ukrain, bolgar, turk, moldavan, qirg'iz va boshqa tillarga tarjima qilingan. U qozoq o'quvchilarini ko'plab jahon she'riyati va dramaturgiyasi namunalari bilan tanishtirib kelayotgan zabardast tarjimon.

Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasi boshqarmasining Raisi. Qozog'iston Respublikasi Davlat mukofoti sovrindori.

OTAM YODI

Ruhim so'ngan...

Qonda surur oqmaydi.

("Xoksor uyning egasi bor..." Saqlaydi.)

Otam ketgan, endi mening g'amxo'rim
kelib sira eshigimni qoqmaydi.

Hazil-huzul qilmas endi ko'ngli chog',
otlanmaydi shahar sari ko'ksi tog'.

Kelmas endi uchib-yelib, jonsarak,
yuribdimi o'g'lim, deya, omon-sog'.

"Chiqmadi-ya bir kitobing salmoqli",
deb qo'ymaydi va kutmas ham yo'lim zor.
Urush ko'rgan oqsoqolning pandini
qizargancha eshitmaydi el takror.

Shu qayg'ular
ich-etimni tuzlaydi
g'amgin yurak jimirlaydi, muzlaydi.
Qatag'onlar jabrin chekkan qalb endi

loqayd do'stning kayfiyatini buzmaydi.
Mijjasida yaltiramas endi g'am,
yurt oldida ko'kragiga urmas ham,
do'st-yoroni sog'inadi ko'p hali,
nomiin tildan qo'ymagay el hech bir dam.

Menga endi martabayu mol g'ammi —
bular ulug' qilmas ekan odamni.
"Otang shundoq degandi..." deb odamlar
hali-hanuz eslasharlar otamni.

Na choram bor?
Kech angladim, kuyindim,
fayzi ketgan — to'ri bo'shdir uyimning;
garchi yoniq ko'zlar boqar suratdan,
mashqi pastdir endi ko'ngil kuyimning.

Yuragimni munqlar o'rtar pinhon, zor,
kunlar qani — menga bergen avj viqor?
Ilhom so'nsa... Qayta yozgay qanotin,
chin sog'insang, jo'sh urgay u qayta bcr.

Ilhom qaytar... dunyo bo'lar chamanim,
Oh, otam-chi! Armonimdir, oh, manim.
Kelmas endi, eshigimni qoqmaydi,
Shular haqda to'lib yoz-chi, o'lanim!

Bir to'kilgin!
Taningda o't yonsin, o!
Ezgulikni yuragingga ayla jo!
Nurin to'kkay yo'llaringga samolar,
Otang ruhi bo'lar sendan ko'p rizo!

ONA YURT

Onamday azizsan sen, yurtim manim,
mehringga baxshidadir jonu tanim.
Bir zamon murg'ak dilda jo'shdi hislar,
parvozin topdi senda ilk o'lanim.

Umr bu — oshib o'tib qirdan-soydan,
rizqimni topmayin men qaysi joydan,
bari bir sening o'ning bo'lak menga,
sen menga dasturxonsan onam yoygan.

Men sening ilhoming-la g'arq yuraman,
sen bilan yuksalaman, barq uraman.
Turmushning ummonida qolsam ojiz,
ko'yingda chag'alaydek charx uraman.

Qamishlar ko'l mayjida titragan on,
oqquvlar uchar to'p-to'p ufqqa tomon.
Qo'msagan damlarim men suluvlikni,
sen sari talpinaman hanuz-hamon.

Armonlar,
yuragimni qiynamang, bas...
Tunlar men yulduzlardan tinglayman sas.
Zoriqsan paytlarimda haqiqatga,
dilda she'r tug'yon urar, tinchlik bermas.

Ko'klarga
qanotimni yozib bir qur,
yuksalsam tonglaringda tuyub surur,
uyg'onar tog'lardagi sharsharadek
vujudim tub-tubida teran g'urur.

Qayg'uli damlarimda — o'zingdayman,
orzuli damlarimda — ko'zingdayman.
Men ushbu keng jahonni, axir, netay,
o'zingsiz ko'rolmayman, tuyolmayman.

O, sensan — chin toleim, ezgu sha'nim,
madhingni kuylab o'tgay she'rim manim.
Yuragim... Bor vujudim...
Ona yurtim.
O'zingsan bu dunyoda suyanganim!

ULUG'BEK ESDAVLAT (1954)

Sharqiy Qozog'iston viloyatining Zaysan tumanidagi Ulkan Quratol qishlog'ida tug'ilgan. 1977-yilda Qozog'iston Davlat universitetining jurnalistik fakultetini bitirgan.

1974-yilda yosh shoirlarning she'rlaridan tuzilgan "Qano't chiqdi" to'plamida ilk she'rlari e'lon qilindi. Xalqaro "Alash" mukofoti sovrindori. 2001-yilda chop etilgan "Kigiz kitobi" nomli to'plami uchun Abay nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

Ulug'bek Yesdaylat — zamonaviy qozoq she'riyatining ko'zga ko'ringan yirik vakillaridan hisoblanadi.

BULUTLAR VA YILQILAR

Onamga

Yillar xuddi yilqilarga o'xsharlар,
Toshlari bor — naq tepangdan ucharlar.
Tuyoq tegib ketmasmi deb bexosdan,
Onang seni ming hadikda qucharlar.
...Bolaligim — endigina es kirgan.

Sirtga chiqdim,
Tashqarida kech kirgan.
Osmondagи lov-lov yongan bulutlar
Ogoh etmoq bo'lar edi bir sirdan.

Ufqilarga tashna, xumor choqda men,
Bilolmadim bulutni kim yoqqanin.
Ko'rdim bir payt — yilqilarning uyurin
Ko'cha to'lib menga tomon chopganin.

Yo'q, qochmadim!
Qo'rquv ham yo'q o'yimda,
Turaverdim karaxt qotgan ko'yimda.
Quyun kabi kelar edi yilqilar,
Tushmoqchidek mening-la naq o'yinga.

Bir to‘p tulpor chetlab o‘tdi qoshimdan,
Qolganlari sakrayverdi boshimdan.
Qarab qoldim sag‘risiga otlarning,
Osmondagи bulutlarim yashirgan.

Dupur-dupur...
Titrar edi zamin zir.
Teveragim zo‘r talotum edi gir.
Tosh tuyoqlar uchar ekau tepamdan.
Qulog‘imga o‘tkir nido keldi bir!..

Yalt qaradim —
Qo‘lin cho‘zib ushbu on
Turar onam chehrasidan qochib qon.
Quyundayin ko‘char edi yilqilar,
Tuyoqlarning orasida — men omon!..

Yillar xuddi yilqilarga o‘xsharlar,
Toshlari bor — naq tepangdan ucharlar.
Tuyoq tegib ketmasmi deb bexosdan,
Onang seni ming hadikda qucharlar.
O‘shanda uch yosh ekanman men, yohu!

O‘ttizdaman bu kun —
Dilda g‘am-qayg‘u...
Kecha tag‘in Onam kirdi tushimga,
Turardi men tomon qo‘lin cho‘zib u...

OLTOY AYOZI

Qizil oy o‘y bosqonini bosganda,
Qoyalar naq tunukaday qizarar.
Bamisli o‘q ilondonay osmonda
Dumli yulduz og‘ib borar!

Chakmonini kiygan cholday indamay
Yulduzlarga termiladi tun karaxt.

Qizilqanot izg'iringa chidamay,
Chaqmoqdayin qarsillaydi dov-daraxt.

Kengliklarda, qadam yetmas joylarda
Yaxlagan qor uzra shu'la jim inar.
Qavat-qavat muz bog'lagan soylarda
Qasir-qusur muz sinar.

Tund tog'larning tinch avzoyi buzildi,
Ulib qoldi och qashqirlar bag'rida.
Va bu ulish titrab-titrap uzildi,
Singib yitdi qir-adirlar qa'rige.

Izg'irinda to'ngan itlar ushbu on
G'ingshigancha eshiklarni quchardi.
Cho'ponlarning bolalari xush-xandon.
Oy nurida yaxmalaklar uchardi.

TUG'ILGAN KUN

Dasturxonda hamma narsa bor, tayin...
Biroq kampir yuragini dam sayin —
Xavotirlar bosar, ko'nglin qilar g'ash
Mehmonlarning birortasi kelmayin.

Tug'ilgan kun.
Birortasi kelmadi...
Keksa dilga iztiroblar tomadi.
Bir o'tirib, bir turgancha alanglab,
Tor kulbaga o'z-o'zini qamadi.

Bu yolg'izlik yetsa-da yoshga talay,
Bu kun yolg'iz o'lirolsin u qalay?!

"Kel-may-di!" deb soat chiq-chiq qilardi,
Turar edi telefon toshbaqday.

Tashga chiqdi...
Oy berar ko'ikka pardoz.
Gir aylanib ifor yellar aytar roz.
Biram mayin edi ko'klam oqshomi —
Qushlar sayrar, havo iliq, biram soz!

Izhorini durkun shoxda etib jam,
Olma gulin tutar unga ushbu dam.
“Qutlug‘ bo‘lsin, buvijon!..” deb bamisli,
Bir tomonda bidirlardi chashma ham.

Yulduzlar ham ushbu dam jim turmayin,
O‘paverdi kampirning nur manglayin.
Qeksa ona quchog‘in ochdi asta,
Mehmonlarin qarshilab olgandayin.

XONBIBI YESENQORAYEVA (1949)

Janubiy Qozog'iston viloyati Sariog'och tumanida tug'ilgan. 1972-yilda Chimkent Davlat pedagogika institutining filologiya fakultetini tamomlagan. U "Qozog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" faxriy unvoniga ega.

Xonbibining "Ilk to'plam", "Yulduz", "Muhabbatim mangu", "Haqiqat tomon suzdim men", "Qo'shiqlarim – sirlarim" kabi she'riy kitoblari o'quvchilar mehrini qozongan.

ULUG' DALAM

Yashil olam, ufcqqa yetgan, dalam,
Yuragimga ilhom baxsh etgan, dalam.
Xayollaring, ismsiz so'qmoqlaring
Mening ko'nglim qa'rige ketgan, dalam.

Ko'yak qildim lojuvard ko'klamingni,
Quyoshingdan ko'zlarimga nurlar indi.
Kengliklarga to'nib-to'nib boqdim ba'zan,
Yosh jismimga bobolarim ruhi singdi.

Ne bir zotlar — mijjasida sog'inch yoshi,
Kelar ular seni yo'qdab, to'lib-toshib.
Bari oshiq o'zingga, Ulug' Dalam.
Nasllaring, zuryodlaring bari oshiq.

Mehrim senga baxshidadir, dilda titroq,
Mayli, uchqur orzularim uchsin yiroq.
Alvon shafaq og'ushingga olgin, dalam,
Oftob endi yuragimning to'rida naq.

Qayda yursam yuradirman baxting ko'zlab,
Yiroqlarda yupanaman sendan so'zlab.
Qaldirg' ochday singayin-yey ufqlaringga,
Turnalarday talpinayin bo'zlab-bo'zlab...

UMR O'TIB BORAYOTIR

“Oq ko‘ngil”, — deb, birovlar, “kekkaygan”, — deb.
Umr o‘tib borayotir, umr o‘tib...
Kimir ketsa yuz ko‘rnasdek butkul mendan,
Kimir yurar izlarimni tavof etib.

Kimlarningdir o‘z suyanchi — “tog‘i” bo‘lar,
Shundan o‘zin zo‘r sanaydi har dam ular.
O‘zgartolmas diding sening hech kimni, bas,
Odamlarning razili bor, asili bor.

Birov deydi, omad qushi qo‘nsin menga,
Taxting borki, birovlar do‘sit bo‘lar senga,
Kechirardim men barchasin bexijolat,
Imonlari nur sololsa yuragimga.

Dilni toshdek ezar zavol axdu paymon,
Yuragimda orzudan ham ko‘pdir armon.
Kechirardim tog‘dek ulkan xatolikni,
Bo‘imasaydi agar unda riyo, yolg‘on.

Umr oqar, demang menga maqtov, yorliq,
Menga gohi oydin, gohi jumboq borliq.
Ko‘p narsani xush ko‘rnaydi ko‘nglim, do‘sstar,
Ki shulardan — makkorligu fitnakorlik.

Shundanmikin noshudlikdan qo‘rqaman men,
Ammo guman qoyasini yiqaman men.
Ming o‘ylarga ko‘ksimni men ming bor urib,
Ming o‘ylardan ming bor omon chiqaman men.

CHAQMOQLI TUN

Dirillatib, gumburlatib har yonni,
Navro‘z keldi boshlab selu suronni.
Ufq osmoni ko‘klay boshlar oshig‘ich —
Oltin ip-la to‘zgan, juldur chakmonni.

Qora bulut — xuddi chakmon ming quroq,
To'zgan barin ildi toqqa u shu choq.
Onda-sonda tun zulmatin bag'rida
Yarqillaydi soyga chopgan oq so'qmoq.

Tun chaqmog'in tog' bag'riga sermadı —
Olmos tig'dan dashtu dara yashnadi.
Shunda dir-dir titrab qırda oq biya.
Saman ayg'ir yer tepinib kishnadi.

Tun dalalar maysalarga chulg'andi
Va adirlar yashil-yashil to'lg'andi.
O, qancha gul bosh ko'tardi qoq yerdan.
Qancha umid chechaklardek uyg'ondi!

* * *

Olchalar g'arq pishgan bog',
Indamay turding, begin.
Uvol ketar bari, oh,
Nahotki kelmas yeging?!

O'rıklar-chi — oltin-ol,
Shoxlarin tutar arang.
Tursami tentak shamol,
Quchar barin to'zon-chang.

Qara, kuzgi olma bu,
Sevgimizdek bizning g'o'r.
Uni hech kim uzmasa,
Qor yoqqanda bo'lar xo'r.

Maysa edi — ko'kalam,
Ajib sirlar qalbingda.
Chit ko'yłak kiyib bu dam
Qiz turardi oldingda.

Suluqlik — billur tomchi,
Tashlamading bir nigoh.
O'zi o'tingan on bu,
Keyin qilma attang, oh.

Bu on qaytib kelmaydi,
Uchib ketar izi ham.
Kunlar go'zal — ertangi,
Kechagi — solar alam...

ASQAR O'RAZAQIN (1935)

Sharqiy Turkiston o'lkasining Ili muzofotiga qarashli Mukey-Qoratosh qishlog'ida tug'ilgan.

Dastlab Sari-buloq maktabida ta'llim olib, G'ulja shahridagi gimnaziyada o'qigan.

Ish faoliyatini "Shinjon ro'znomasi" da boshlagan. Ilk she'rlari "Shu'la" jurnali sahifalarida e'lon qilingan.

1955-yilda ota yurti Qozog'istonga kelib, Davlat universitetining filologiya fakultetida tahsil olgan.

Keyingi ish faoliyati Ch.Valixonov nomidagi Tarix, etnografiya va arxeologiya institutida, Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasida, Respublika Kitob palatasida, "Jalin" jurnalida turli lavozimlarda davom etgan.

Uning ko'plab kitoblari, "Taniangan asarlar"i, "Saylanma"lari chop qilingan.

O'LAN

O'lan desa jon bormi alanglamas,
Uni tinglab uyg'onar qalbimda sas.
O'lan yuksak qoyada bitgan guldir,
O'zing chiqib termasang, to'manlamas*.

So'z san'atin kamoli cheksizdir, bil,
Har o'landa tovlanib, ko'rк topar til.
Taftsiz, sayoz so'z uchun titramas hech
Pushkin, Abay she'riga o'rgangan dil.

Maqom topib har yo'lda cho'ng ma'nidan,
Tug'ilar zo'r o'lan el armonidan.
Unday she'rning qog'sri qalbdai oqdir,
Uning o'chmas siyohi yer qonidan.

Bo'lay desang o'landa mag'rur, g'olib,
O'ltirmagin arzimas g'amdan nolib.

Titrab tursin satringda har bir tuyg‘u,
O‘qli qalbning taqdirin esga solib.

Bo‘lsin o‘lan oqinga bolasiday,
Yashnab tursin qirlarning lolasiday.
Anglaganga har bir she’r titroq bersin —
Ishq deb oqqan ko‘zingning jolasiday.

Ilhom gohi yurakka zo‘r o‘t solar,
Istiqboldan jo‘sish urib goh til tolar.
O‘shanda ko‘r — o‘lanning yuksak zabitin,
Nima bo‘pti Asqar tog‘ — pastda qolar!

URUSH VA TINCHLIK

Urush — nayza o‘ylab topdi ilk bor, albat,
Va qoshiga to‘playverdi xatar qat-qat.
Tinchlik — qalqon yasab oldi himoyaga,
To‘xtamasin deya yerda shodon mehnat.

Urush — nayza o‘qtaldi, so‘ng tortdi kamon,
Tinchlik esa —sovut kiyib, qoldi omon.
Urush chiqdi — zambaraklar, tanklar yasab,
Tinchlik — omoch qildi, barin aylab gumdon.

Urush — atom bombam bor, deb suron soldi
Va qilmishi tarixda dog‘ bo‘lib qoldi.
Tinchlik — atom bilan yordi muz bag‘rini,
U zulmatni nuri bilan yengib oldi.

— Uy egasin mahv etib, uyin olgum, —
Deydi Urush, — kiyimin ham kiyib olgum.
Tinchlik deydi: — Bu qilganing qaroqchilik,
Jahon ahli bilan seni tiyib olgum!

TA'TIL PAYTIDAGI MAKTAB

Men ta'til paytida maktab bordim,
Axir, bunda sho'x suron taralardi.
Sukunatli va jimjit yo'laklardan
Kulgisini izladim bolalarning.

Tanaffusga xuddi vaqt jindek borday,
Halizamon qo'ng'iroq chalinarday —
O'quvchilar o'tsin-chun sirtlab yurdim,
Toki bexos birovin turtib olmay.

Birdan barcha eshikni lang-lang ochib
Hamma bola chiqarday tepalashib.
Bir shumtaka daf'atan ko'ringaydek,
Qiz quvaru oldda u borar qochib.

Keyin bir payt sinfga kirdim o'zim.
Bo'tpligiga ishonsin deya ko'zim.
Nigohimni top-toza taxta tortdi,
Go'yo qo'msar yozuvga to'la kezin.

Bir saf bo'lib tizilgan parta — o'ng-so'l,
Alanglayman xarita tomon biryo'l.
Qaydadir deb yelvagay shovvozlarim,
Etagimdan tortadi sirlangan pol.

Derazadan qarayman xomush, so'lib,
Ular balki yugurar maydon to'lib?
Kirarmi yo yelikib bir o'quvchi,
Devordagi kemshikka — g'ishtdek bo'lib.

O'quvchi tut qulog gap sirasiga,
Maktabingning oshiqsan nimasiga?
Dengizchisi har yoqqa suzib ketgan,
O'xshab turar u bilim kemasiga.

JARKEN BO'DESHOV

(1944)

Xitoy Xalq Respublikasining Shinjon o'lkasi Tarbag'atay aymo-g'iga qarashli To'langit ovulida dehqon oиласида түг'ilган. 1969-yili otamakon Qozog'istonga keldi va 1974-1980-yillari Qozog'iston Davlat universitetining jurnalistika fakultetida tahsil oldi.

Ilk she'rlari 1962-yildan boshlab "Shinjon gazeti", "Ili ro'znomasi", "Shinjon adabiyoti va san'ati" kabi qator gazeta-jurnallarda chop qilingan. Dastlabki she'riy turkemlari 1975-yilda "Jazushi" nashriyoti va "Ko'klam jamoli" nomli yosh shoirlar to'plamida chop qilingan. 1976-1984-yillarda Qozog'iston Davlat kitob palatasida katta muharrir bo'lib ishlagan.

Uning "Qo'nish quroq" (1979), "Qo'sh qanot" (1982), "Osmon tovushi" (1985), "Nurli bo'yoqlar" (1988), "Zehn" (1989), "Yulduzga o'rnnini oy bermas" (1990) kabi she'riy to'plamlari e'lon qilingan.

QUSHLAR UCHIB KELGANDA

Zamin uzra yangratar ko'klam nayin,
Bir farahga chulg'anar borliq mayin.
Uchib kelar chayqalib g'oz-turnalar,
Biqinidan muz siqqan kemadayin.

Uzoq yo'lidan kelarlar tog'lar oshib,
O'z qadrdon o'lkasiga mehri toshib,
Jo'rajon, ayoz kunlar tambalangan
Eshigu derazani qo'y-chi ochib.

Surib qo'y pardani-da ushbu on sen,
Qushlarning chug'uriga yurak qonsin.
Chiroyli qanotlarning epkinidan
Dimiqib ketgan uylar tozalansin.

Yoshlikning otashlari o'xshar tushga,
Sururi chulg'anadi ruhga, hushga.

Sen tongda chorlab chiq-chi bolalaring,
Aylanib ketsak zora biz ham qushga.

OLAKO'LGA AYTAR SO'Z

Bo'yingda bosib qalbim taftlarini
Kezganman surib o'ylar avjlarini.
Undoq suzib, gohida bundoq suzib,
Updim men suving mayin mavjlarini.

Esingga, Olako'lim, olgin takror,
Men sening bolang edim sho'xligi bor.
Qirg'oqda qarmoq tashlab o'ltirardim,
Shomlaring shafag'iga boqib xumor.

Sarxushman yodga olib endi barin
(Alvon ufq nafaslari biram sarin).
O'ynashar edi senda yulduzlar-la
Kumush to'sh yoqut ko'zli baliqlaring.

Gar butun bo'lsa edi menda tole,
Kezarmi edim senda yolg'iz qolib.
Oydin tun chag'alaying ma'sum oyni
O'ynardi qanotiga ilib olib.

Epkinin yo'llaganda tog'lar mag'rur,
Bag'ringga to'lar edi ohanglar hur.
Bamisli lochindayin — adil uchgan,
Qo'zg'algan to'lqiningdan edim masrur.

Qalbimni ilhom mavji chulg'agan dam,
Shu mavjga o'xshab ketgum goh o'zim ham.
Xayolchan o'tirganim sohilingda —
O'tdi-ku bolaligim ko'z o'ngimdan.

* * *

Targ'il toshni tuyog'i-la tarashlab,
Tog' ohusi tik so'qmoqlar yasar zab.
Xavf-xatarga ko'kragini tutib, ha,
Chiqib borar naq chaqmoqli buhitga.
Qo'rqlmay dara, qoyalardan sakrar u,
Qanday yuksak,
Qanday qiyin
Shahddir bu!

Bu yo'llarda achchiq tering tomchilar.
"Arxar yo'li" deydi buni ovchilar.
Poyimgamas, chirmashgandek bo'yimga,
Yurar hargiz bu so'qmoqlar o'yimda.
Kimga kerak yashab, umr surmog'im.
Bo'lmasa agar mening o'z so'qmog'im!

SHO'MISHBOY SARIYEV (1946)

Qizil O'rda viloyatining Orol tumanidagi Sho'mish stansiyasida tavallud topgan. 1966-1971-yillarda Qozog'iston Davlat universitetining jurnalistika fakultetida o'qigan, 1970-1974-yillarda "Qozog'iston" nashriyotida muharrir, 1974-yildan boshlab "Juldiz" jurnalida bo'lim mudiri vazifasida ishlab keldi.

Qozoq o'quvchilari uning tarjimasida G.Gulia, O.Berggols, I.Abashidze, S.Vikulov, A.Dementev, F.Alieva va boshqa shoirlarning she'rlari bilan tanishgan.

Uning "Shirin chog'lar" (1974), "Go'zal bahor" (1974), "Dengizdan esgan yel" (1975), "Taqdir" (1976), "Uch, tulpor Vaqt!" (1979), "Tush va o'ng" (1980), "Uch o'ichov" (1982), "Taqdir qo'shig'i" (1984) kabi she'riy to'plamlari chop etilgan.

OQIN KO'NGLI

She'r bitsang titroq-la qalam yo'nib
Va o'qisang — yurt tinglasa sirga to'nib.
Tamakingga o't olsang chaqmoqlardan,
Naq sel bo'lsang — qalbingga bulut qo'nib.

Yaxshi o'lan mangulikka daxldor,
Quyoshga ham yetguday avj shaxding bor.
Yulduzlarday — ko'k betida tovlangan,
Xalqing seni alqab, tuysa iftixor.

Asl she'rlar yashar mangu isyonday,
Asrlarning yuragida u jonday.
Bor zaminni chirmab, ushlab tomirin,
Yer yuzida chayqalsang cho'ng o'rmonday.

Kor etsa ham senga qismat ozori,
Toshib tursa yuragingning viqori.
Ulus senga ehtirom-la yo'l bersa,
Kirib borsang izdihomni qoq yorib.

Sen umringning qadrin anglab daf' atan,
Hayotingning ma'nosini uqsang shan.
Abay, Pushkin tirilib kelishsa-yu,
O'laning-chun tabriklashsa chin dildan.

Bu dunyoning oyi, kuni — sen o'zing,
Chunki noyob, ilohiydir har so'zing.
Ko'nglingda bir she'r tug'il mish bu zamon,
Demak, ko'kda charaqlar baxt yulduzing...

* * *

Keng dalamdan kiyikdayin kelaman,
Qo'rqib xavfdan shamoldan tez yelaman.
Vaqt mergan ovchidir — meni poylar,
Tegmasmikin o'qi deb, seskanaman.

Ziyolilar ahlining imdodiman,
O'lan uqcan har dilning faryodiman.
Men — dalam ufqlarida omon kezgan
Bobomning chaqnab turgan zuryodiman.

Kelaman bu dunyoni kuylab shoyon,
Ko'rinar ko'zga go'zal yurtda har yon.
Qo'rqmasman, cho'chimasman men zarracha,
Chiqsa ham shaqirlatib jag'in arslon!

Hislarim qanotida — teran fikrat,
Ne ishni orzu etsam qildim jur'at.
Sariorqa qirlarin kiyigiman,
Vujudim — bamisli sel, toshqin qudrat.

Inson deb men o'zimni urgum dardga,
Ezgulik shukuhini solib qalbga.
Mendan so'ng bir mangilik qolmasa-da,
Umidim yetaklaydi meni oldga.

Xayolim uchar ko'kda misli shunqor.
Ruhimga timsol qirda o'sgan chinor.
Lekin sen yelday chopib borar ersang,
Ko'zingga yosh to'larkan beixtiyor.

Kun sayin shon-dovrug'i biyiklagan,
Zahmatkash qozog'imni suydim dildan.
Millatim deb o'rtangan shoirlarning
Taqdiri taqdirdoshdir kiyik bilan.

Ko'nglimga bir shavq kirar ajib, masrur,
Istiqlabol ufqlariga boqdim mag'rur.
Kelajak! Kuyunganga kuyub oqqan
Kiyikday — men dalamning kuyiman hur!

YESENG‘ALI RAVSHAN (1957)

Qoraqalpog‘istonning Xo‘jayli shahrida tug‘ilgan. Qozog‘iston Davlat universitetining jurnalistika fakultetida tahlil olgan.

She‘rlari 1980-yillardan e’lon qilinib keladi. 1983-yilda “Bekdavlat va Jo‘loman” nomli dostoni qozoq she’riyatida katta voqeab o‘ldi va qator adabiy mukofotlarga loyiq topildi.

Bugungi kunda “Jazushi” nomli nashriyotning direktori lavozi-mida faoliyat ko‘rsatmoqda.

QOZOQ QISSASI

Men kecha “xalq dushmani” bolasi edim,
Tengqurlarim tengi, lekin “ola”si edim.
O‘pkalasa bizdaylar o‘pkalasin,
Stalinga ne doding bor, og‘a, sening?!

Bizdaylar kam edimi, zotan —
Yuragida g‘ussa, yuragida motam.
“Belomorkanal”ni sen chekding,
Belomor kanalni qazdi otam.

Ohimiz kimga yetdi ekan,
Kimni bezovta etdi ekan?
Aylanib sahma, o‘rinlar
Qalay almashib ketdi ekan?

G‘am-qayg‘uga hayot buncha hotam,
Yurakda g‘ussa, yurakda motam.
Tishni tishga bosib sen yurding,
Tish yormay senga o‘tdi otam.

Tish yormay o‘tdi nelikdan,
Deyman bugunga kelib man.
U uchun o‘lik eding sen,
O‘ch olsin netib o‘likdan?!

Zamona ko'pmi xor etdi,
Hatto kafanga zor etdi.
"Xalqning dushmani" — sariq chol
"Xalq osmon bo'lzin" deb ketdi.

Bog'larga nurlar indi, ha,
Tosh qotgan muzlar sindi, ha.
Aylanib vaqtning sahnasi,
Almashdi o'rinalar endi, ha.

Davr edi-ku ko'p qora,
Ginadan, og'a, yo'q chora.
Sahnadan tushib boryabsan,
Yuzlashsak devdim bir bora.

Yosh avlod bu — yangi olam,
Emasman endi ko'zlarini nam.
Sahnadan tushib boryabsan.
Uzoqlar soyang misli g'ani.

Ko'krakka otash, o't solib,
Boqamiz mag'rur va g'olib.
Yuramiz keyin... boyagi
Sahna tomonga yo'l olib.

TOSHKENT OQSHOMI

...Shundoq, do'stim, gap rosti — ne desak-da,
Tarixga o'z hisobini berajak, ha:
Ikki yarim million yurak shahdi ila
Toshkent dadil bormoqda kelajakka.

Iffatli qiz odob-la to'xtab, ana,
Nimanidir so'rashga chog'lanadi.
Damlangan osh ustida mayizdayin
Qora xoli yuzida cho'g'lanadi.

O'sha kech yuragimga to'lib o'lan,
Borardim men "Hamza"ning* yo'li bilan.
Cho'pon ota masjidin tepasida
Cho'lpon yulduz tovlandi nur tarab sha'n.

Bamisoli ol barkash ko'kdagi oy —
Og'ib borar mahali ko'lga qaray,
Qo'liga ilib olmoq bo'lib uni,
Yugurdi ko'cha bo'ylab cho'ng qarag'ay.

Yutoqib kuzataman shafaq nurin,
Nimaga mengzash mumkin dil sururin.
Askiya aytgan chollar bir zum to'xtang,
Go'zallik haqida ham bahslar quring.

Ziynatlar o'ynatadi bunda ko'zni,
Tinglaysan har qadamda shirin so'zni.
Ne izlasang — Toshkentda topiladi,
Yo'qotib qo'ymasang bas bunda o'zni.

...Shundoq, do'stim, gap rosti — ne desak-da,
Tarixga o'z hisobin berajak, ha:
Ikki yarim million yurak shahd ila
Toshkent dadil bormoqda kelajakka.

NASIBBEK AYTO‘G‘LI (1950)

Nasibbek Ayto‘g‘li Sharqiy Turkistonning Tarbag‘atay aymo-g‘idagi Shaueshek tumanida tavallud topgan. 1955-yilda oilasi bilan otamakon — Qozog‘istonga kelib yashay boshlagan. Semey viloyati Shubartov tumanidagi Barshatas qishlog‘ida o‘rta maktabni tamomlagan.

Ilk mashqlari Shubartov tumanidagi “Yangi hayot” gazetasida chop qilingan. 1974-yili Qozog‘iston Davlat universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagach, “Boldirg‘an” jurnalida she’riyat bo‘limi mudiri bo‘lib ishladi. Muqag‘ali Maqatoyev nomidagi adabiy mukofot sovrindori.

Uning “Bog‘chaga borar yo‘lda” (1974), “Qo‘zi ko‘ch” (1975), “Otam haqida qo‘sish” (1977), “Yurak bayqiriqlari” (1978), “Yomg‘ir qo‘sishig‘i” (1982), “Tunda uchgan turnalar” (1986) kabi bir qator she’riy to‘plamlari chop etilgan.

ORZU

Hamma ham bir tekisda baxtiyormi,
Dunyoda orzusi yo‘q kishi bormi?
Katta gap — o‘z-o‘zingni angiaganing,
Hamma ham tushunarmi jon siringni?!

Orzuda — qismatingning mazmuni jam
Va tinmay kurashmog‘ing boisi ham.
Turar, axir, orzuung o‘zatida
Eng teran o‘rtanishlar — quvonch-alam.

Orzu deb uzun tunlar
Bedor bo‘lgung,
Charx urib yugurasan,
G‘amga to‘lgung.
Orzung-chun — kerakmi gar —
Yuz yashaysan!
Orzung-chun — kerakmi gar —

Erta o'lgung...
Qo'msaysan
Goh qoshingdan ketganni ham,
Qo'msaysan
Goh boshintdan o'tganni ham.
Yoz kunlarin betoqat qo'msar oning,
Qo'msaysan goh bulturgi ko'klamni ham.

Talpinasan ertangi ufqqa keng,
Chorlar orzu cho'qqisin yuksagi eng.
Orzusizlar — yaroqsiz askar misli,
Orzusizlar — qanotsiz qush bilan teng.

Orzuni deb yasharlar, yelkada yuk,
Orzuni deb yasharlar, jonlar kuyub.
Agar bilsang,
Orzuning bari yuksak;
Agar bilsang,
Orzuning bari buyuk.

Yuragingda qulf ursin orzu guli,
So'nmasidan qoningda surur uni.
Qumda yotgan qayiqqa o'xshar odam
Orzusidan butkul voz kechgan kuni

BULUT OQIB BORADI

Tashqariga chiqdim men
Dilgir bo'lib,
Oqar edi bulutlar osimon to'lib.
Yetarmanmi —
Basma-bas quvsam birin?
Ketarmikin —
Ko'nglimning yuvsam kirin?
Ko'z o'ngimda ko'ndalang turib oldi
Zangori tog',
Ko'k adir,
Nozli qirim.

Oqar edi bulutlar chalqib kunga,
Bor tabiat aldanib boqar unga.
Ufqlarga qarayman xumorlanib,
Ko'rinmaydi biroq u tumanlanib.
Tumanlanib turgani-yey manov tongning,
Boqmoqchiydim yuziga men bir qonib!

Ufqlar uzra boqar tog' bamisli sir,
Yana ko'zim o'ngida yashnadi qir.
Zangor cho'qqi ko'ksini mo'ljal olib.
Bulutlar oq matjonin osdi bir-bir.

Undan yana borarlar olis qalqib,
Qirdagi tulporlarda shavqi ortib.
G'azabga minsما, chaqmoq qamchisi-la
Betiga qora toshning chars-churs tortib.

Gohida ko'z yosh to'kib yig'lab qolar,
Yig'lamasa bulutlarga ayb bo'lar.
Bir-birini qoq dashtda jilg'a quvlar ---
Mavjlanib, erkalanib oqar suvlar,
Bulutlarni yupatolmas biroq ular...

Tund osmon shu'lalardan libos kiydi,
Yig'lasa, bulutdan ham mung ariydi.
Dunyoda har narsaning o'z gashti bor,
Mung arigan yurakka baxt doriydi...

Bulutlar oqib borar sollanib sha'n,
Ularning shukuhiga kim bermas tan!
Ularga yerda turib yetolmadim,
Birining ishi yo'qdir, eh, men bilan!

QOSIMXON BEGMANOV (1958)

Janubiy Qozog'iston viloyatining Kentov shahrida tug'ilgan. 1975-1980-yillarda Qozog'iston Politexnika institutida tahsil olgan. Xalqaro Turkiy xalqlar she'riyati festivalining ishtirokchisi.

"Yomg'irli tun", "Ilk kitob", "Beshikdan qabrgacha", "Sog'inch" singari she'riy to'plamlar muallifi.

Yoshlar she'riyatida uning ovozi o'z harorati va samimiyati bilan alohida ajralib turadi.

O, TURKISTON

O, Turkiston!

Muhabbat ber, sabr ber,

Jabrdiyda yurtni siyla, ona-yer.

Ko'z o'ngimda o'rkach-o'rkach adirlar,

Cho'kib yotar unda ne-ne qabrlar.

Ul qabrlar — ko'hna moziy, tarixdir,

Ul qabrlar — bizga ba'zan jumboq, sir.

Bor vujudim bilan shuni sezdim man,

Ul qabrlar cho'kib qolgan cho'ng Vatan.

G'ussalarga chulg'ar meni adirlar,

Va bitaman mungli-mungli satrlar.

Moziy sari o'zni urib, tig'layman,

Keng dalada to'yib-to'yib yig'layman.

O, Turkiston!

Dyonat ber, sabr ber,

Baxt izlagan yurtni siyla, ona-yer.

Ko'z o'ngimda o'rkach-o'rkach adirlar,

Cho'kib yotar unda ne-ne qabrlar...

Mashaqqatlar girdobida men hamon,
Taqdir sinar shoir qalbim beomon.
Bosib o'tgan egri-bugri yo'llarim
Mening nozik umr yo'lim, begumon.

Fisqu fujur davralardan bezdim men,
Gavanada dengiz mungin sezdim men.
Urumchida uyg'ur qizga bayt aytdim,
Istambulning ko'chasida kezdim men.

Dil izhorim eshit, gulim, tingla jim,
Har qayda men diydoringga ko'z tikdim.
Olis yurtda yolg'iz qolgan damlarim
Seni eslab, elni eslab entikdim.

Yillar o'tdi — bir-birini surishgan,
Bo'shamadim men she'r izlab yurishdan.
"Hech bo'lmasa chorvador ham bo'lmaiding",
Deya bir payt otam meni urishgan.

Nima o'zi shoir qalbning ilinji?
Ijoddami, oromdami dil tinchi?
Men o'landay samimiyl do'st topmadim,
Qolgan bari yolg'on ekan... o'tkinchi.

ABDULLA AYMOQ

(1954)

Janubiy Qozog'istonning O'rdaboshi tumanida tug'ilgan.

Muxtor Avezov nomidagi viloyat Pedagogika institutining filologiya fakultetida tahsil olgan. Matbuotda 80-yillarning boshidan she'rlari bilan ko'rina boshladi.

Ayni paytda Respublika Yozuvchilar uyushmasining Janubiy Qozog'iston viloyati bo'limida mas'ul kotib vazifasida faoliyat ko'rsatmoqda.

Uning "Laylo" (1993), "Do'maloq ona" (1997), "Yuragimda" (1998), "Oltin beshik" (1999) kabi she'riy to'plamlari chop etilgan.

Har yurakdan chiqadi armon sasi,
Ketar unga har bitta dil havasi:
Hovli uzra kir yoyar bir kelinchak,
Chiroyda naq Vinchining madonnasi.

Titradi dil — hech kuyi chalimagan,
Ishq bobida hech kimga yaliimagan.
Erka yellar ko'ylagin yulqilardi,
Eng oxirgi tugmasi solinmagan.

Kun ovora bulutlar girdin yoqib,
Ahyon-ahyon borarkan ko'kda oqib.
Yel ovora kelinchak etagi-la,
Ovoraman men esa unga boqib.

IZLA MENI

Ayrliq azobidan bo'lib sarang,
O'zimni yig'idan men tutdim arang.
Qaradim qora-qo'ng'ir bulutlarga
So'rab ko'r ulardan, gar ishonmasang.

So'ragin kaptarlardan — ular anglar,
Yurakka o'tganini ne alamlar.

Ortimga ko'p bor boqsim — nadir chora,
Qoshingdan vido aytib ketar damlar.

Shudringdan sirg'a taqqan changalzor, o,
Sen kelgan mahallarda edi zebo.
Termildim ularga-da sirim aytib,
Bilmadim: uqdimi yo, uqmadi yo.

* * *

Sevgimizning eng murg'ak — ilk mahali
Qo'limizdan kelməsdi jur'at hali.
Kapalakday qiz eding, qanotingda
Kuch yo'q edi hatto so'z ko'targali.

O'taverdik goh g'amgin, gohi kulib,
Bir-birimiz goh yaqin, goh yot bilib.
Osmongina bizlarga panoh bo'ldi,
Kechalari bo'yniga marjon ilib.

Goh anglamay ishqni, goh anglab yetdik,
Goh umiddan yurakni mammun etdik.
Qo'l ushlashib ochunni kezdik-da bir,
Keyin moviy ufqqa singib ketdik.

Ko'rgim kelar men seni ko'rgan sayin,
Hisga to'lar yuragim biram mayin,
Bukildim-ku men so'roq belgisiday,
Quvvat bergin, qaddimni ko'tarayin.

Senga qarab, ertamni chamalayman,
Yashamoqqa seni deb doim shayman.
Seni ko'rsam chiroyli bo'lgim kelar,
O'z-o'zimni tuzayman, tarangayman.

Har lahzada takrorlar noming tilim,
Yurakdag'i sevgimni angla, gulim.
O'zing bo'lsang qoshimda yashnagayman,
Bo'lmasang-chi, yomg'irday yig'lar dilim.

QOZOQ ADABIYOTI NASRIDAN

MUXTOR AVEZOV (1897-1961)

Semipalatinskda tug'ilgan bo'lajak yozuvchi avval madrasada, so'ng rus maktabida ta'lim oladi. O'qituvchilar seminariyasini tuga-tadi. M.Avezov 20-yillarda Toshkentda yashab, O'rta Osiyo Davlat universitetida aspiranturada o'qiydi. Ayni paytda adabiy faoliyatini ham to'xtatmaydi. 1917-yili "Yenglik-Kebek" intermediyasi bilan qozoq dramaturgiyasiga asos solgan M.Avezov Toshkentda "Kundoshlar" (1922) pyesasini yozadi. Qozoq tilida nashr qilingan adabiy to'plamlarda hikoyalari, maqolalari bilan ishtirok etadi. Ko'plab hikoyalari, qissalar muallifi M.Avezovni nomini dunyoga ikki kitobdan iborat - "Abay", "Abay yo'li" epopeyasi maskhur qildi. Epopeya o'z davridagi yuksak mukofotlarga sazovor bo'lib, xorijiy tillarga tarjima qilindi. Yozuvchining "Abay" romani, "Qarash-qarash voqeasi", "Ko'kyol" qissalari va hikoyalari o'zbek o'quvchilari orasida ham mashhur.

M.Avezov uzoq yillar pedagogik faoliyat olib borgan yozuvchidir. 1928-yildan umrining oxirigacha Olmaota pedagogika instituti, Qozog'iston universiteti, Moskva universitetlarida dars berdi, adabiyotshunoslik bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Muxtor Avezov – xalq yozuvchisi, olim, jurnalist. U filologiya fanlari doktori, Qozog'iston FA akademigi, Qozog'istonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi edi.

O'QIMISHLI YIGIT

I

Qaxraton qish o'rtalari. Tush payti edi. Osmonda zarra bulut yo'q, ochiq; yoz kunidek charog'on-u, biroq havo izg'irinli, sovuq edi.

Yerda hali qor bor. Uch-to'rt kundan beri cho'zilgan ayoz hali o'z kuchida. Kun chiqishidan esgan izg'irin yuzingni chimchilaganday bo'lar, a'zoyi badaniningni muzlatar edi.

O'troq xalqning ko'pchiligi qozoqlar bo'lgan Sibirning kichik-roq bir shahri qaxraton oppoq libosiga o'ralgan. Hamma uylarni qor bosgan, ba'zi kichkiti uylarni butunlay ko'mib yuborgan. Ko'cha

yuzidagi qorlar odamlarning oyog'i ostida toptalib silliqlangan, bosgan sayin g'arch-g'urch qiladi.

Bu shahar Sibirdagi katta soylardan birining bo'yiga joylashgan bo'lib, binolari betartib tushgan, ko'rimsiz edi. Markazigina sal tuzuk. Buning ustiga, qozoqlarning shahar chetidagi yerkapaga o'xshash past-past ko'rimsiz uylari shahar husniga dog' bo'lib tushgan edi.

Shahar o'rtasidagi, bozorga olib boradigan Zemkaya ko'chasida bugun negadir odam kam ko'rindi. Faqat ahyon-ahyonda u-bu narsalarni oralab bozorga ketayotgan bitta-yarimta yo'lovchilar, olibso-tarlarga uchraydi.

Ba'zida esa chanasini shiqirlatib, unga qo'shilgan tuyasining bo'jasidan ushlab olib "chux-chux"lab qishloqdan kelayotgan savdogarlar kezlashadi.

Bir oz vaqt o'tgach, ko'chaning quyi tomonidan bozorga kelayotgan bir chana ko'rindi. Chanadagi odam shu shaharda ishlaydigan o'qimishli yigitlardan biri – Meyirxon edi.

Chana bozorga yaqinroq joydagi darvozasi ko'k bir uy yoniga kelib to'xtadi. Meyirxon chanadan tushdi-da, xaligi uyga qarab teztez yurib keldi. Uning bunday shoshilinch kelganiga, avzoyiga qara-ganda, bu uyda bir gap bo'lunga o'xshaydi. Meyirxon daxlizga kirib eshik tutqisini ushlaganida eshik ochilib, ichkaridan bir yoshgina ayol chiqdi.

Yaxshi kiyingan bu ayol ham negadir xafa ko'rindi. Go'yo qattiq charchaganday chehrasi so'lg'in, qora ko'zları kirtayib, kipriklari namlangan. Meyirxon bu ayolni ko'rib to'xtab qoldi.

– Nima bo'ldi, Xadicha? Nega buncha xafasan?

– Bilmadim tuzaladimi yo'qmi? - deb javob berdi Xadicha. – borgan sayin ahvoli og'irlashib ketayotibdi. Ertalab sizni "chaqirib kel" deganidan keyin ataylab kishi yuborgan edim. U ko'ziga yosh olib yerga qaradi. Meyirxon uni yupatgan bo'lib bir-ikii so'z aytdiyu, uyga kirdi. Chog'roq, ikki xonali uyning narigi bo'lmasida, baland to'shak ustida Maqsud inqillab yotardi.

Yanoq suyaklari turtib chiqqan, rangida qon yo'q, ko'zları qon talashhib ketibdi. Bir chimdim qora mo'ylovi, qayrilma qora qoshi, orqasiga taralgan sochi huddi yopishtirib qo'yganday, lablari isitmadan qovjirab oqarib ketgan.

Oriq, darmonsiz, dir-dir titragan qo'llari bilan tanasini hadeb siyaplar edi. Qo'llari sarg'ayib, tiroqlari esa ko'karib ketgan.

Meyirxon o'rtog'ini bu og'ir ahvolda ko'rib nima qilarini bilmay, uning yonidagi stulga kelib og'ir cho'kdi. Go'yo ular bir-biri bilan quchoqlashib ko'rishganday, birpas tikilishib o'tirishgach, Meyirxon Maqsudning hol-ahvolini so'ray boshladi.

Maqsud javob berar ekan, past, bo'g'iq tovushini sal ko'tarmoqchi bo'lib, harchand urinmasin, baribir chamasi kelmadi: uning nima deyatganini tushunish qiyini. Meyirxon engashib tinglasa ham baribir hech narsa tushuna olmadı. Bir ozdan so'ng Maqsud dovdirab, alahsiy boshladi. U xadeb o'z o'yłari: dars bergen, tarbiya bergen qozoq bolalari haqida gapirar edi. U behol yotarkan: "Bolalar....yetim bola....men o'z burchimni to'la oqlayolmadim....mana endi..... – derdi u qornini silab, -....hayotim qil ustida turibdi..... – U Meyirxon qo'lini ushladi. --Meni so'k-maysanlarimi? Menda gunoh yo'q...." – dedi-da, keyin yana gapidan adashdi.

Meyirxonning ko'zi jiqqa yosh. Qani endi og'ziga unga tasalli beruvchi biror so'z kelsa-chi. Xasta do'stining ko'ngli uchun aytgan: "tuzalib ketasan, o'limni o'ylama!" degan so'zlar ham ta'sirsiz chiqdi.

Bir ozdan keyin uyga Maqsudning onasi bilan xotini Xadicha kirdi. Xadicha kichkina qizini ko'tarib olgan. Ikkalasinining ko'nglida ham umid bilan umidsizlik kurashib, qaysi biri yengishi ma'lum emasdek, yuzlarida hayronlik, ishonchszilik alomati bor edi. Yolg'iz o'g'li – Maqsuddan boshqa suyanchi, ishonchi bo'lman sho'rlik onanining ko'ksi g'am-g'ussadan tars yorilguday, ko'zlaridan dur-dur yosh to'kiladi. U go'yo madad so'raganday Meyirxonga termilib qaraydi. Meyirxon ulami ham yupatgan bo'ldi. Ammo bugun ertalab kasalni ko'rgan doktorning: "Endi davolab bo'lmaydi, odam bo'lishi qiyin!" -degan so'zi ikkalasinining ham umidini uzib qo'ygan edi.

Xali onasi uyga kirganda Maqsud unga biroz qarab yotdi-da, keyin chiday olmay ko'zlarini yumib, devor tomonga o'girildi. U qarindosh-urug'siz yakka-yu yolg'iz qolayotgan sho'rlik onasini o'ylandi. Bir ozdan so'ng Maqsud onasiga o'girildi-da:

– Boshqalar mayliku-ya, senga qiyin, sening holing nima kechadi, onajon? Seni kimga tashlab ketaman!...dedi yosh boladay yig'-lamsirab, keyin yana teskari o'girilib yotdi.

— Onasi xo‘ngrab yig‘lab yubordi. Xadicha ham sal-pal ko‘z-yosh qilganday bo‘ldi.

-- Shu alpozda bir oz vaqt o‘tgandan so‘ng eshik ochilib, uyga Maqsudning o‘rtoqlari Jumag‘ul va Oqtoylar kirdi. Bular ham faqat surati qolgan xasta do‘smini ko‘rishgandan keyin, bir oz hol-ahvol surishtirgan bo‘ldi-da, indamay o‘tirib qolishdi. Maqsud hamon devor tomonga qarab yotarkan, boshini burmay dedi:

— Xadicha...o‘lmaydi.... Onajon u sendan tuqqan emas.... uning boy ota-onasi bor.... hech bo‘lmasa shularning oldiga boradi... hali u ham seni qancha kuydiradi....

Yig‘idan endi tingan onasi:

— Nega unday deysan, chirog‘im? Yolg‘izim... — deb achchiq-achchiq yig‘lay boshlagan edi, Maqsud holsiz shivirladi:

— Onajon, yig‘lama, nariga uyga chiqqin, ko‘z yoshlaring yuragimni ezib yubordi.

Meyirxon bilan boshqa yigitlar ko‘ksi pora-pora bo‘layotgan kampirni yupata boshlashdi.

— Yig‘lamang kampir, kasal qiynaladi....narigi uyga chiqib tura turing...

—Yolg‘izim, yota qol....ko‘rar ko‘zim, so‘zlar so‘zim yota qol.... Men chiqib ketay, - deb kampir og‘ir xo‘rsindi-yu, asta oyoq uchida yurib chiqib ketdi. Indamay turgan Xadicha ham onasining orqasidan chiqdi.

Ko‘ngli bo‘sh Meyirxon qattiq istirob chekar edi. Sho‘rlik kampirning kelajak taqdiri uning ko‘z oldidan bir-bir o‘ta boshladi. “Maqsudning o‘lishi aniq, kampirning ojiz, so‘qqabosh bo‘lib qolishi ham turgan gap. Biroq mana bu yosh xotin erining hurmatini qilib, bu uyda turarmikin? Albatta turmaydi. Buning ustiga u shaharda o‘sgan qiz. Birovning etagini ushlab ketadi-qoladi....”

Bu kabi turli o‘y-shuhbalar ko‘pga cho‘zilgani yo‘q. Kasalning ahvoli kundan-kun og‘irlashib, huddi chiroqday asta-sekin so‘na boshladi. Bir kuni tushga yaqin uning nafasi qisilib, xirillay boshladi, hech ham majoli qolmadi. Endi u qimir etmay ko‘zlatini zo‘rg‘a ochib-yumib yotar edi. Tepasida turgan do‘s-st-yorlari, tanishbilishlari, endi buning odam bo‘lishi qiyin, deb umidlarini uzishgan mahalda, Maqsud yana ko‘zlarini ochdi. Taqdирга tan bergenligi ko‘z qarashlaridan shunday sezilib turardi.

U o‘z holini tushunolmay:

– Man bormannini?.... Yo‘qmanmi?..... – deb shivirladi va ko‘zlarini qayta yumdi. Kasalning qo‘l-oyog‘i sovib, ko‘zları chala yumilib, bir nuqtaga tikilgancha qotib qoldi. Oq‘zi yumilmay, tishlari ko‘rinib, yuziga o‘lim tamg‘asi bosila boshladı. Xademay u jon berdi.

Uy ichida yig‘i-sig‘i ko‘tarildi. Kampir holdan toyib yiqildi: Meyirxon, Jumag‘ul, Oqtoylar ham o‘z do‘srlaridan judo bo‘lganlariga qattiq kuydilar.

Odamlar o‘sha kuniyoq Maqsudning o‘limidan xabar topdi. Do‘s-t-birodarlar, tanish-bilishlari, xullas shaharning hamma ziylolilari chin ko‘ngildan ta‘ziya bildirishdi. Hamma ham:

– Eng olidianob, asl yigitlardan edi. Bechoraning onasiga qiyin bo‘ldi! –deb achinishdi.

Ertasiga Maqsudning janozasiga juda ko‘p odam keldi. Ular o‘z do‘srlari bilan so‘nggi marta vidolashgani kelgandilar. Hammasi g‘amgin, hammasi nohush.

Bir ozdan keyin odamlar murda solingan tobutni ko‘tarishib go‘ristonga yo‘l olishdi. Ular tobutni avvaldan tayyor qilib qo‘yilgan qabr oldiga olib kelib qo‘yishdi: ko‘p yoshlari mozor boshiga kelolmay, bir chetda turishdi. Faqat domlalargina mozor boshida ivirsib yurishar, ular o‘z hatti-harakatlari bilan odamlarning ko‘ziga baloday ko‘rinar edi. Ular murda ustiga yopilgan chopon, tobut atrofiga o‘ralgan surpni talashishardi. Bir oz o‘tgandan so‘ng oq kafanga o‘ralgan Maqsudni lahadga soldilar. Keyin lahad og‘zini kesak bilan berkitib, uning tanasini termilgan ko‘zlardan yashira boshladilar.

II

Kunlar o‘tdi, oylar o‘tdi, yoz kelib olam yasharib ketdi. Yashil libos yopingan daraxtlar mayin shabbadada tebranar, yaproqlar shitirlar edi.

Butun jon-jonivorlar uyg‘ongan; qushlar go‘yo go‘zal tabiatni madh etganday charx urib sayrashadi. Odamlarning ham kayfi chog‘, ammo Maqsudning uyi bu sevinchdan mahrum. Azador kampirning yuzi somonday sarg‘aygan.Kampirning oh-vohi olamni o‘rtab yuborguday. Uy tirikchiligidan yosh Xadicha qattiq ezilib, qaddini rostlayolmas edi.

Hozir u o‘zini ancha o‘nglab olgan. Qulay-qulay deb turgan yolg‘iz, egasiz uy ham, o‘g‘lining dardida adoi-tamom bo‘lgan kampir ham Xadicha uchun hech gap emas. Uning qo‘lini ipsiz bog‘lab turgan Maqsuddan qolgan Jamilagina, halos. Jamila kampirga ham, Xadichaga ham ermak edi.

Maqsud o‘lgandan keyin Meyirxon bu uyga kam keladigan bo‘lib qoldi. Maqsudning do‘st-yorlaridan Jumag‘ul bilan Oqtoygina bu uyga tez-tez kelib turishar edi. ular dastlabki kunlari ta’ziyalı uyu, deb biroz tortinishib turishsa ham, bora-bora ko‘nikishib, tortinmasdan gaplashadigan, hatto hazil-huzul gaplar bilan Xadichaning ko‘nglini ko‘taradigan ham bo‘lishdi.

Ayniqsa, so‘nggi kunlarda Jumag‘ul yolg‘iz keladigan, qiziq-qiziq gaplar aytib Xadichaning ko‘nglini ko‘taradigan bo‘lib qoldi. Ichidan pishgan, so‘zida chinidan ko‘ra yolg‘oni ko‘p Jumag‘ul marhum do‘sti Maqsudni tilga olmaydigan, ko‘pincha o‘zi to‘g‘risida, ko‘rgan-bilganlari haqida gapiradigan bo‘lib qoldi. U faqat kampirning oldidagina Maqsud haqida gapirardi. Shunday qilib u kampirning ko‘ziga “yaxshi bola” bo‘lib ko‘rina boshladi. Xadicha ham Jumag‘ulga alohida e’tibor bera boshladi: uning gap-so‘zлari moyday yoqadigan bo‘lib qoldi. Faqat qora kiyib yursa ham dardi allaqachon esdan chiqib ketgandi. U kechalari negadir uxmlay olmas, g‘am-alam o‘rnini allaqanday umid uchquni qoplayotganday bo‘ldi. U o‘tmishini emas, ko‘proq kelajagini o‘ylaydigan bo‘lib qoldi, ko‘ngli bu uydan asta-sekin soviy boshladi. O‘zini butun shirin orzu-umidlari payhon etilib, qafasga tushib qolgan odamday his etardi. Bularning hammasi yaqinda bo‘ladigan katta o‘zgarishning muqaddimasi edi.

Bir kuni Meyirxon ishdan qaytib kelib, o‘rnida dam olib yotgan edi, yoshgina, qozoqcha kiyangan bir yigit kirib keldi-da, qo‘liga kichkina bir xat topshirdi. Meyirxon xatni ochib o‘qidi:

“Do ‘stim Meyirxon!

*Ertaga soat o‘n ikkida marhamat qilib to‘yimizga kel.
Eshitgandirsan, men Xadichaga uylanadigan bo‘ldim. Taqdir ekan,
nima ham qilardim.*

Jumag‘ul.”

Meyirxon hayron bo‘lib qoldi. Ko‘zlariga ishonmay xatni qayta-qayta o‘qib chiqdi. Xat olib kelgan yigit chiqib ketdi. Meyirxon huddi boshiga tosh kelib tekkanday, garang bo‘lib uy ichida u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi. Keyin o‘tirib xat ustiga: “Bormayman. To‘ying boshingda qolsin!” - deb qisqa qilib yozdi.

Ertasiga Meyirxonning oldiga to‘yga ketishayotgan ikki do‘sti kirdi. Ikkałasi ham olifta kiyangan, atir sepgan, kayflari chog‘ edi. Meyirxon ularga “Bormaslik kerak. Axir bu do‘st kishining ishi emas-ku!. Kechagina Maqsudni ko‘mib kelib, bugun marhumning xotini bilan Jumag‘ulning to‘yiga bormoqchimisiz”, degan edi, jo‘ralari ko‘nmadi. Ular “Qo‘y-e, sen ham idealist bo‘lib ketibsan. Nima bo‘pti, boramiz, to‘ygunimizcha ovqat yeymiz, qittak-qittak otamiz....” -deb Meyirxонни og‘zini ochirishmadи. Xullas, ular Meyirxonni o‘zları bilan olib ketishdi.

To‘y ayni qizigan. Jumag‘ul bilan Xadicha hech gap bo‘lmagan-day yasharib ketgan. To‘yga kelgan odamlar ham go‘yo hech gap o‘tmaganday, ikki yoshga chin yuraklaridan baxt-saodat tilashib, qadahlar ko‘tarishmoqda. Odamlar qittay-qittay ichishib sal qizib olishgach, qiy-chuv she’rxonlik, o‘yin-kulgu boshlandi. Sal kayf bilan Meyirxon ham o‘rnidan turdi-da, qo‘lidagi qadahni baland ko‘tarib:

Men sizlarni Maqsud uchun ichishingizni iltimos qilaman.
Yashasin Maqsudning ruhi.

Ba‘zilar bu gapga kuldı. Jumag‘ul bilan Xadicha ham ularga qo‘shilib kulishdi. Ba‘zi odamlar esa hech narsaga parvo qilmay ustma-ust qadah ko‘tarishdi. Kimdir Meyirxonni “jim o‘tir!” deganday turtib, uni o‘tkazib qo‘ydi. Bu – Meyirxonning do‘stlik burchini o‘tagani edi.

Oradan bir-ikki ku o‘tgach, Jumag‘ul bilan Xadichani qaynatasi Qundiboy bola-chaqasi bilan bilan birga yaylovga ko‘chirib olib chiqdi. Jumag‘ulning do‘st-yorlari yaylovga tez-tez chiqadiga bo‘lib qoldi. Uch ot qo‘shilgan izvosh Qo‘ndiboy darvozasidan qo‘ng‘irog‘ini shaldiratib chiqqanda, Jumag‘ul qashisidagi marhum Maqsudning uyiga suqlanib qaradi.

Buni ko‘iib Maqsudning bechora onasi ikki ko‘zidan yosh oqizib, tizzalarini darmoni qurib o‘tirib qoldi. Izvoshni kuzatib qolgan o‘qimishli yigitlar to‘p-to‘p bo‘lishib, hazil-huzul qilishib, kulishib, bu g‘arib uy derazasi oldidan o‘tib ketishdi....

May oyi. Atrof yam-yashil maysayu tabiat husniga yana husn qo'shilgan. O'tgan yilidan qolgan quruq cho'plar onda-sonda ko'zga tashlanadi. Ularni yangi o't-o'lanylari ko'mib ketgan. Yashil gilam kabi maysazorda qip-qizil bo'lib ochilib turgan lolaqizg'aldoq kishini bahrini ochadi.

Tog' bag'ridagi soy, o'zanlarning atrofi ham ko'm-ko'k. Soy yoqalab ezilgan yashil daraxtlar, suvi toshib, ko'pirib, sharqirab oqayotgan sho'x soy, o't-o'lani tizzadan keladigan yashil maysalar, shu atrofda uchib-qo'nib yurgan turli qushlar – hammasi, hammasi bu tevarak-atrofga huddi yangi tushgan kelinchakning uyiday zeb berib turibdi.

Bu yil suv ham mo'l. Arshida oynaday yarqiragan ko'l ko'zga tashlanadi. Uning bo'yida qo'ylar, qoramollar, yilqilar o'tlab yurardi. Tush paytalarida ovul o'tovlari uzoqdan huddi tuxumday bo'lib ko'rinar edi. Chingiz tog'idan yaylovga ko'chib kelgan ovullar g'oyat ko'ngilli, nash'ali edi.

Qishdan baquvvat chiqqanligidan ko'k maysaga og'zi tegishi bilan semirgan ot-ayg'irlar, biyalar hozir minib yurilibdi. Ikki-uch kishining boshi qo'shilib qolsa, darrov kim o'zdi o'ynashar, bir-birini ot ustidan ag'darishar, otining, o'zining kuchini sinab ko'rishardi. Ko'chib kelishlari bilan ovul kattakonlari: "Qulunlar bo'lsa yetilib qoldi, yaylovga qimilsiz borsak uyat bo'lar, endi biyalarni bog'lab sog'ish kerak", deyishdi. Shundan keyin biyasi bor ovullar ip eshib, no'xta, saba* tiktira boshladidi. Jumag'ul ovuli ham shu ishga kirishdi. Qamariya yosh kunitanoq bunday ishlarga pishiq, saranjom, qattiqqo'l ayol bo'lganidan hammasini bir pasda taxt qilib qo'ydi.

Shuning uchun ham Amira oqsoqol bugun ovul atrofidagi ko'k maysaga biyalarini boylay boshladidi. Bu yerda ovuldag'i qo'shnilar, ba'zi bir kambag'allarni demasa, o'zga ovullardan kelgan yot odamlar yo'q. Uning bu odatini biladigan uzoq-yaqindagi og'aynilari bu paytlarda kam kelardi.

Butun qish bo'yli arqon ko'rmay asov bo'lib qolgan otlar, qulunlar, biyalarning bir joyda turmay har tomonga irg'ishlab ketib qolaverishini ko'rib Amira oqsoqoi: avvalo biyalarning qulunini ushlab bog'langlar, deb buyruq berdi.

Abjir yilqichilar bir-biriga surkalashib, to'planishib, otlar orasida yurgan qulunlarni sirtmoq bilan tez-tez tutishir, yosh, asov qulunlar yilqichi sirtmog'iga qanday tushib qolganini bilmay tipirchilar, kishnashar edi. ba'zi bir sirtmoq ko'rmagan asov qulunlar sirtmoqqa ilinganda osmonga sapchib chinqirsa ham, yilqichining mitqi qo'llaridan chiqib ketolmasdi. Amira oqsoqol har qulun yiqilganda bir marta "Bismilloh" der, yilqichiga "ehtiyot bo'l, tag'in mayib qilib qo'yma!" deb tayinlardi xavotir olib.

Hamma biyalar bog'lanib bo'lgach, xotin-xalajlar ovul odatiga ko'ra uydan qurt, yog' olib chiqishdi.

Amira oqsoqol uyur-uyur bo'lib yurgan ayg'irlarni tutdirib, sag'rilariga qatiq chapilatib, odamlar to'plangan joyga keldi. Qari-qartangar, yosh-yalanglar haligi xotinlar olib chiqqan qurt, yog'larni talashib-tortishib yeishardi.

Shu alpozda bir oz vaqt o'tgach, odamlar bir-ikki kun ilgari eshitishgan gaplari haqida so'z ochishdilar. Jumag'ulning shaharda uylanganligini gap qilishdi. Hali bular anig'ini bilishmasdi. Shunday bo'lsa ham qo'shni ovullarga kelgan shaharliklar: "Jumag'ul shaharlik Qo'ndiboyning qiziga uylanibdi. Mol-dunyosi ko'p emish, ilgarigi eri o'lgan ekan, undan qolgan qizini ham Jumag'ul o'z qo'liga olibdi. O'lgan yigitning yolg'iz onasidan boshqa hech kimi yo'q ekan, u ancha badavlat yigit bo'lgan ekan. Shaharda dang'illama uyi ham bor ekan. Endi o'sha yigitdan qolgan mol-mulkka Jumag'ul ega bo'lsa kerak, degan gap-so'z bor. Kelinning otasi Qo'ndiboy, eridan qolgan hamma mol-dunyo qizimniki bo'lishi kerak, deb gapning uchini chiqarib qo'yibdi. Shunday qilib, qarabsizki, Jumag'ulningiz bit kundayoq boy bo'ladi-qoladi", degan xabarlar Amira oqsoqol bilan Qamariyaning qulog'iga eshitila bosblagandi. Chol-kampir bu gaplarga ich-ichidan xursand bo'lib yot kishilarga:

—Ha, boyning qizini olsa olibdi-da. o'g'limizni o'qitganda, chol-kampirning topganini sarf qil, deb o'qitganmidik? Mol top, qartay-ganda bizni boq, deb o'qitganmiz. Shu kungacha bir tiyin topGANI yo'q. Endi qachon foydasi tegadi bizga! Bundan keyin ham ishlab mol topmasa, uyga kiritmaymiz deb yurgan edik. Shuni eshitgan bo'lsa kerak, - deb vaj qilishardi xo'ja ko'rsinga.

Yilqi bog'langan joyda to'planishgan odamlar:

—Jumag‘ul bir-ikki kundan keyin ayoli bilan keladi, ular kelguncha qimizni boplab qo‘yish kerak. Ular bu gal faqat mehmon bo‘lib ketsalar kerak! —deyishsa, ba’zi birovlar:

—Anovi marhum yigitning mol-dunyosiga ega bo‘lib o‘tirgan kampirni ham ola kelishsa yaxshi bo‘lardi. Endi kamirga dunyo kerakmas. Endi uning issiqsovug‘iga qarab turadigan odam bo‘lsa bas, — deyishardi.

Qamariya shu gapdan keyin ko‘pdan deri dilida saqlab yurgan gapin aytib soldi:

—U kampirga mening bolamdan ortiq bola topilarmikan? Nima, Jumag‘ul unga o‘z onasiday qaray olmaydimi? Qo‘limda tursin desa, ana, Jumag‘ul borib tursin, yo‘q demayman. Agar u kampirning aqli bo‘lsa, Jumag‘ulni endi bag‘riga bosishi kerak....

Kampirning bu gapni ko‘pchilik orasida aytganini Amira oqsoqol yoqtirmadi. Shuning uchun ham u Qamariyaning so‘zini bo‘lib:

—Qo‘y, qayoqdagi gaplarni gapirma xotin. Xudoning aytgani bo‘lar! — dedi u.

Dala odatiga ko‘ra, odamlar hamma gapni o‘rtaga tashlab, Amira oqsoqol bilan Qamariyaning, hatto bir-biridan sir saqlab yurgan narsalarini ham biliib olishdi. Ular boy badavlat bolani ko‘z oldiga keltirdilar. Biroq ro‘zg‘orning ko‘zini biladigan Amira oqsoqol ularning maqtashlariga ham, xushmuomalalik bilan aytgan gaplariga ham uchmadi. U hech sir boy bermay, odamlarning gapin indamay tinglab o‘tirar edi.

Odamlar allamahalgacha u yoq-bu yoqdan gaplashib o‘tirishdi, keyin sekin uy-uylariga tarqala boshlashdi.

Oradan bir necha kun o‘tdi. Qosh qorayib qolgan pay edi. Amira quduq boshida otlarini sug‘orib, janub tomondagi yaylovga haydar, ovul atrofida yoyilib yurgan qo‘zilar tinmay ma‘rashar, Qamariya bo‘lsa sut sog‘uvchi ayollarga nimalarnidir buyurardi. Shu mahal qo‘zi boqadigan bola uning oldiga yugurib kelib:

—Suyunchi bering, opa, suyunchi! Jumag‘ul akam keldilar! — dedi.

Uning kelishini intizorlik bilan kutayotgan ovul odamlari bu xabarni eshitib yugurib kelishdi.

Yelib-yugurib yurgan xotinlar ham, chuvillashib, sakrashib o'y-nab yurishgan bolalar ham, haligi xabarni quduq boshida eshitib bu yoqqa kelayotgan qariyalar ham, hamma Jumag'ulning kelishidan juda xursand edi. Ovulning hamma katta-kachiklari Amiraning eshigi oldida to'planib turishganda, uzoqdan jadal kelayotgan qo'ng'iroqli izvosh ko'rindi. Izvoshchi yigit odamlarning peshvoz chiqqanini ko'rib otlarini yana ham qistadi. Izvosh ovulga yaqinlashib qoldi. Hademay u Amira uyining oldiga kelib to'xtadi. Mehmonlar izvoshdan tushishdi. Yaqin qarindoshlar Jumag'ulning yuzidan o'pib ko'rishdi. Xotin-xalajlar darrov Xadichani o'rab olishdi, Qamariyaga o'xshagan yoshi o'tganlari uning yuzidan o'pib ko'rishdi. Xazil-xuzul gaplar davom etdi. Xammaning sevinchi ichiga sig'maydi. Odamlar bir-biriga mehri qonib, yaqinlashib, ko'nikkan sayin, yangi kelgan mehmonlar bilan ovul yoshlari o'rtasida qandaydir bir farq borligi sezilganday bo'ldi.

Ovulga kelish oldidan yaxshi, ozoda, yengil yoz kiyimlarini kiyib olishgan yoshlari huddi shaharliliklarga o'hshardi. Hatto Junag'ulning gapida ham "siz, biz" kabi so'zlar ko'payib qolgandi, uning bu muomalasi esa ovul odamlariga yot tuyular edi. Bu narsa, ayniqsa, kelinning muomalasida aniqroq sezilib turardi. Uning qaynatasi, qaynanasi bilan "salomatmisiz, yaxshimisiz?" deb ko'rishishi, uyga kirishi bilan to'rga chiqib, erining oldiga o'tirib olishi, u bilan shivir-shivir gaplashishi yaylov hayotiga sira ham to'g'ri kelmaydigan odat edi. Kelin aslida o'qib, ta'lim olib, o'qimishli kishilar bilan birga yurmagan bo'lsa ham, shaharlik o'qituvchining xotini bo'lganidan yuzi ochilib, har bir narsada o'sha o'qimishlilarga taqlid qilar edi.

Ovul yoshlari uning bu odatiga unchalik parvo qilishmasa ham, qariyalar bunga darrov e'tibor berishdi.

Bu xil narsalarni ilib oladigan ayollar tashqariga chiqqanda bir-birlari bilan shivirlashib, qiqirlashib kulisha boshladilar. Uydagi ba'zi erkaklar buni sezishsa ham, o'zlarini sezmaganlikka solishib, sir boy berishmadi. Ba'zilari kulgan xotinlarni koyigan bo'lib, xazil-huzil bilan o'zlatining ham ko'nglidagiarni bildirib qo'yishdi. Bu ahvolni uncha-buncha bo'lsa ham sezib o'tirgan Amira ko'ngliga bir nima kelganday, indamay qoldi. Qamariya bo'lsa, ularning

kelajagini o'ylab, hozirgi mayda-chuyda gap so'zlarga parvo qilmay, Jumag'ulning atrofida parvona bo'lardi.

Lekin ko'p o'tmay ular bir-birini ko'nglini topib, ota bilan bola, kelin bilan qaynona apoq-chopoq bo'lib ketishdi. Qiziq, ularni bir-biriga shunchalik tez yaqinlashtirgan narsa nima? Hozirgi kunda ularning oldida ko'ndalang turgan masala – mol-mulk masalasi. Bu masalada esa hammasining ham o'y fikri bir joydan chiqdi. Hamma gap shunda. Molparastlikka, xasisilikka, qanoatsizlikka, insofsizlikka kelganda kelin qaynonasidan, garchi o'qimishli bo'lsa ham, yigit otasidan qolishmasdi. Shunday qilib, o'qimishli odam bilan g'irt omi odamlarni bir-biriga yaqin qilgan, ularning boshini qo'shgan narsa – mol-dunyo. Endi ularning o'rtaidan qil ham o'tmaydi, hech narsani bir-biridan sir saqlashmaydigan bo'lishdi.

Qamariya ikki so'zning birida:

–Chiqimiz ko'payib ketyapti, kampir-cholning qo'lidagi mol-lar sob bo'lyapti, endi bizni boqadigan mahallaring bo'ldi. Endi qaerdan bo'lsa ham mol topishning harakatini qilinglar! – deb o'g'li bilan kelinining qulog'iga quya boshladi.

Kelini olib kelgan buyum-jihozlar dastlab uning ko'ziga o'lja ko'rinsa ham, bir oz vaqt o'tgach, bularni esidan chiqara boshladi.

Endi hammasining dardi – shahardagi Hadichaning ilgariga qaynanasi qo'lida qolgan mol-mulkni qo'lga kiritish edi. Jumag'ul bilan Hadicha ilgari bu haqda kam gapirishsa ham, endi yaylovga kelgandan keyin o'sha mol-mulkni undirish payiga tushib qolishdi. Qamariya ham o'g'li bilan kelinining bu masalada bo'sh kelmasliklarini bilab, unday qil, buday qil, deb aql o'rgatishni qo'ydi. Biroq unutib ketishmasin, deb kampir ularning esiga solib turardi. Buni ochiq aytishning ilojini topmpsa u:

–Dunyoga qachon ega bo'lsan, qizalog'im! Biz qarilarga qachon yordaming tegadi? O'sha yomon buvingning qo'lidagi molni borib tortib olmaysanmi? – deb go'yo Maqsuddan qolgan kichkina Jamilaga gapirgan bo'lardi-yu, aslida esa Jumag'ul bilan Xadichning miyasiga quyardi. Amira bo'lsa mol topishning boshqa bir yo'lini axtara boshlagan edi. Ovluda o'zi bilan tengdosh Jong'ozi degan bir katta boy bor edi. o'sha boyga Jamila yoqib qolib, bir kun u daladan birga qaytayotgan Amiraga:

– Mana shu qizni o'tgan yili tug'ilgan kenja o'g'limga unashtrrib qo'yay, o'g'lingga aytgin-chi nima der ekan?

Amira buni ma'qul ko'rib, Jumag'ulga aytgan edi, u:

– Hozircha bunday gaplarning o'rni emas. Unday qilsak men birato'la yomonotliq bo'laman. Ertaga u kampirning oldiga borib, shu yetimchani yig'latmayman, o'z farzandimday tarbiya qilaman, agar bersangiz mana shu yetimchaning haqqini berasiz, demoqchiman. Bir tomondan qizni bahona qilib kampirning mol-mulkini olsang-u, bir tomondan qizchani sotinoqchi bo'lsak, axir el-yurt nima deydi. Uyat emasmi?

Amira Jumag'ulni hozircha ko'nmasligini bilib, noiloj rozi bo'ldi. Shunday bo'lsa ham:

– Odamlardan yaxshilik chiqarmidai? Sening boyligingni ko'riشا olmaydi. Odamlarning gap so'zi deb, ulushingdan quruq qolib yurma tag'in. "Betimning qalini- jonimning huzuri", deyishadi, - deb o'g'liga pand nasihat qila ketdi. Biroq uning boyagi niyati ushalmadi. Eng kami bir yilcha sabr qilishga to'g'ri kelib goldi.

IV

Yoshlar yaylovga kelgandan beri ikii-uch oy o'tdi. Yozning yarmi ketib, odamlar pichan o'ra boshlagan, qish g'amini yeya boshlagan, daladagi o't-o'lanlar sarg'ayib, yozning fayzi ketgan edi. Yaylovdagi qo'nish joylar, mol sug'oriladigan quduq atroflarining changi chiqib yotibdi. Odamlar boshqa joylarga ko'cha boshlagan. Amira oqsogolning ovuli ham ko'pchilik bilan birga tog' bag'riga qarab ko'chib kelishyapti.

Jurnag'ul bilan Xadicha bu yil yozda yaxshilab dam olganlanidan juda mammun.

Ular shahardan ozib, xorib kelgan bo'lsalar, hozir ikkalasi ham ancha to'lishib, ochilib ketgan. Buning ustiga, ovul odamlari orasida obro'lari oshib, o'yin-kulgudan, mehmonorchilikdan boshlari chiqmadi. Mana endi dalaning ana shunday fayzli kunlari ham tugab qoldi. Endi ular shaharga ketish to'g'risida gapni bir joyga qo'yib, yaqin kunlarda jo'nab ketishmoqchi edi.

Bir kuni kechqurun, yo'lga chiqish oldidan oila a'zolarining kichkinagina kengashi bo'ldi.

Tog‘ bag‘riga ko‘chib kelayotgan odamlar bir joyga qo‘nmoqchi bo‘lishdi. G‘ir etgan shabbeda yo‘q, osmon tiniq oydin kecha. Har yer, har yerga qo‘ngan odamlarning yoqqan o‘tlari yaraqlab ko‘rinib turibdi. Yero‘choqda ba‘zan lovillab, ba‘zan pasayib yonayotgan olov tun uyqusi bilan kurashayotganday bo‘ladi.

Jumag‘ul bilan Xadicha o‘zlarining holiroq joyga qurilgan chaylasi ichida gaplashib o‘tirishardi. Bir ozdan so‘ng ularning gapiga Qamariya ham qo‘shildi. Gap asosan Maqsuddan qolgan uy bilan mol-dunyoni qo‘lga kiritish ustida borgani uchun, Jumag‘ul bu safar ham qat‘iy fikr aytishdan ojiz, miq etmay o‘tirardi. U hozir tabiatidagi quvlik-shumlik odatlarini aql mezonida o‘lchab o‘tirgan edi. Ammo u boshqalarning gap-so‘ziga xalaqit bergani yo‘q. Xadicha bilan Qamariya bir-birini ma‘qullab, mol-dunyo to‘g‘risidagi hamma gaplarini aytib bo‘lishdi. Ularning fikricha: Maqsudning yaqin qarindoshi yo‘q, onasining bo‘lsa to‘ridan go‘ri yaqin. Uning uchun o‘la-o‘lguncha issiqsovug‘iga qarab turadigan odam bo‘lsa bas. Mol-dunyoning endigi vorisi kichkina Jamila. Shuning uchun hozir nima qilib bo‘lsa ham, bir amallab uy bilan mol-dunyoni Jamilaning nomiga o‘tkazib olish kerak!

Shu bilan kengash tugadi.

Amira bilan Qamariya shu maslahatdan keyin ovulda qolishdi. Xadicha bilan Jumag‘ul esa shaharga jo‘nab ketishdi. Oradan bir necha kun o‘tdi, qir saylidan qaytgan ikki yosh shahardagi tenqurlarining, yor-u jo‘ralarining o‘rtasiga qaytib kelishdi. Kelinning qarindosh-urug‘lari ularni juda yaxshi kutib olishdi. Xadicha bo‘lsa onasining uyiga kelib tushdi.

Xadicha bilan Jumag‘ul shahardagi tanish-bilishlarining holahvolini so‘rab bilishdi. Berahm taqdir qo‘liga tushgan azador kampir ham Maqsudning chirog‘ini yoqib o‘tirgan ekan, ular buni ham surishtirib bilishdi. Xadicha tashlab ketgandan keyin, kampir o‘zining yakkayu yagona bir oqsoq qarindoshini dastyor qilib olib, kunini yig‘i bilan o‘tkazar ekan. U Jumag‘ullar kelishdi, deganni eshitib o‘sha kuni kechasi bilan chirog‘ini o‘chirmay, mijja qoqmay chiqibdi. Xadicha kelgandan keyin Jamilani ko‘tarib olib bag‘riga besib, quchoqlab, “bolamning ko‘zi” deb zor-zor yig‘laganida Xadicha pinagini ham buzmadi.

Xadicha kampirning oldida bir-oz o'tirdi-da, hech narsa demay qizini ko'targancha uyiga qaytib keldi.

Jumag'ul ham kelgach, qaynatasi Qundiboy maslahat berdi:

—Endi vaqt ni o'tkazmay, tanish o'rtoqlaring bilan maslahatlashib, anovi mol-dunyoni qo'lga olib olinglar!

Shundan keyin Jumag'ul bilan Xadicha ishga kirishdi. Ular so'rab-surishtirib, axiri o'quv bo'limining yonidagi yosh o'smirlar g'amini yeydigan idorani topishdi-da, unga ariza berishdi. Jumag'ul o'z niyatiga yetish uchun bor hunarini ishga soldi. Shunday qilib, bu idora Xadichaning arizasini ko'rib chiqib, pirovardida Maqsuddan qolgan mol-dunyoning hammasi qizi Jamilaning nomiga o'tadi, qiz bo'yiga yetguncha Jumag'ul unga vasiylik qilishi kerak, deb qaror chiqardi. Xadicha bilan Jumag'ulning qo'shilishida boshqa o'rtoqlari bilan birga Oqtoyning ham qo'li bor edi. Bu Jumag'ul bilan sirdosh, masladosh bo'lganligidan, endi ularning ham boy badavlat odamlar qatoriga kirishlari uchun qo'lidan kelganini ayamadi. Xadicha bilan Jumag'ullarning to'yi oldidan, uni bir kun og'asi oldiga chaqirib olib: "Qo'ndiboyning qizidan ortiq kimni olmoqchisan? Shunga uylanib, mol-dunyosiga ega bo'lmay, nima qilib yuribsan o'zing! E, sen ishning ko'zini bilmaysan. Ana, Jumag'ul bopladi" deganda, u sal o'kinganday bo'lgan edi. Biroq, endi vaqt o'tib, fursatni qo'lidan boy bergenligi uchun Jumag'ulning tarafini olmay iloji yo'q edi. Hozir ularga yelib-yugurib yordam qilayotganligining sababi ham shunda.

Xadicha o'quv bo'limidan boyagi mazmundagi farmonni olib kelgandan so'ng, Qo'ndiboy kampirning oldiga kishi yuborib: "Xudoning peshonaga yozgani bo'ladi. Yolg'iz o'zi bir uyda sho'ppayib o'tirgani yaxshi emas, uydagi mol-dunyosini Jamila bilan Jumag'ulning nomiga o'tkazib, o'zi shularning qo'liga kelib o'tirsin!" deb tayinladi.

Kampir bu gaplarga Maqsudning o'limidan ham battar kuyundi, qattiq ezilib yoqasidan ushladi. O'g'li o'lgandan beri bir kun bo'lmasa ham bir kuni, axir ko'raman deb kutib yurgani – zo'rlik, xaqraratga yuzma-yuz kelgandy bo'ldi.

Ammo Qo'ndiboyning gapini yetkazgan Duysen kampirning dardini tushunmas edi. Buni sezgan kampir bor kuchini yig'ib gapirdi:

-- Men, o'g'limdan, erindan, ota-bobomdan qolgan mol-dunyonni tuqqanim emas, tug'ishganim emas, dushmatium Jumag'ulga nega berar ekanman? O'g'lim bo'lmasa qarindosh-urug'larim bor, Jumag'ulga o'xhash yotga bergandan ko'ra, shularga bersam bo'lmaydimi? Men unga o'z roziligidan bilan bir qatim ip ham bermayman. Endi kelib-kelib men notavon kampirga zo'rlik qilmoqchi bo'lning-larmi? Mayli, qo'llaringdan kelganini qilaveringlar!

Duysen shu gaplarni eshitib jo'nab qoldi.

Biroq u Xadichanining idoradan olib kelgan farmonni eshitgandan so'ng, o'zining yolg'izligi, notavonligini o'ylab yana ham badtar ezildi. Buning zo'rlik, xiyonat ekanini bilib-ko'rib tursa ham, unga qarshi nima qilishini bilmassi. Xudoga nola qilib, oh-voh qilib o'tirganda, kampirning esiga o'g'lining jonajon do'sti Meyirxon tushib qoldi. U o'sha kuniyoq oqsoq qarindoshini yoniga olib, Meyirxonning oldiga keldi. Yig'ladi-siqtadi, yuragidaga bor gapni to'kib soldi, Xadichanining hech narsasi qolmaganini, onasinikidan olib kelgan hamma mol-dunyonni olib ketganini aytdi. O'g'limning hurmati yordam ber, deb yalinib-yolvordi. Meyirxon kampirning hamma gaplariga qo'shildi. Ertaga Jumag'ul bilan ham, boshqa o'rtoqlari bilan ham gaplashishga va'da berdi. Kampirning g'arib ko'ngli ancha taskin tongandayuyiga umid bilan qaytdi.

Ertasiga Meyirxon Jumag'ulga uchrashib:

-- Do'stim, shu ham insofdanni? Kim aytadai seni o'qimishli yigit deb?. Sen ancha ishning ko'zini biladigan yigit chiqib qolding, xotinni suv tekin olding, ter to'kimay shuncha mol-mulkka ega bo'lding. O'zing ham beli baquvvat odamsan, buning ustiga qaynatang ham shaharning eng katta boylaridan. Nima, shu kichkina qizni boqolmaysanmi? Nega kampirni yig'latding, axir bechoraning to'ridan, go'ri yaqinku. Hech bo'lmasa kechagina o'lgan do'sting Maqsudning hurmatini qilsang bo'lmaydimi? – dedi.

Jumag'ul Meyirxonning bu so'zlarini meni ko'rolmasligidan aytyapti deb, o'yladi.

-- Bu ishlarni qilayotgan men emas, Xadicha. Men unga bir narsa deyolmayman. Shuni ham aytib qo'yay, do'stim, yaxshisi bu ishlarga aralashina, chunki biz ham qarab turmaymiz, -deb qovog'ini solib,

Meyirxonning gaplari Jumag'ulga pashsha chaqqanday bo'lgani ham yo'q. U qonun asosida ish qiladigan bo'ldi. Shundan keyin meyirxon chor-nochor g'ing deyoqlmay qoldi. Hademay Jumag'ul bilan Oqtoylar: "Meyirxon birovning bo'lganini ko'rolmadi, ichi tor yigit", deb gap-so'z tarqata boshladilar. Kampir Jumag'ulning niyatini eshitib qattiq iztirob chekdi, ko'z yoshi to'kdi, axiri bularga chidayolmay ko'rpa-yostiq qilib yotib oldi. Ba'zan hushidan ketib alahsiydigan bo'lib qoldi. Ich-ichiga tushib ketgan so'niq ko'zlarini nuqtaga tikilib qolar, ba'zan g'azabiga chidayolmay o'midan uchib turar, uyidagi ba'zi bir buyumlarni ushlab:

– Bermayman dedimmi, bermayman! O'ldirsang ham bermayman.... Ertagayoq ketaman.... Maqsudxonimga olib borib beraman!
– har narsaning oldiga bir borar, yulqilar, bag'riga bosar edi.

O'sha kuni kechqurun Jumag'ul kampirning, mol-dunyoni bermayman, deganini eshitib, qo'lidagi farmon bilan miliitsiya idorasidan uchta soldatni boshlab kampirnikiga keldi. Bir ahvolda yotgan kampir miltiq ushlagan soldatlarni ko'rishi bilan o'inidan sakrab turdi-da, huddi mast odamdek gandiraklab borib, to'shaklarini ushladi:

– Bermayman....o'ldir meni....o'ldirib ket....voy dod, o'ldim, o'ldim,... Maqsud.... qutqar meni! – deb, u chalqanchasiga yiqlib tushdi-da, sal o'tmay jon berdi.

Jumag'ul bilan Xadichanening murodi hosil bo'ldi.

1923 yil

SOBIT MUQONOV

(1900–1973)

Sobit Muqonov 1900-yil 13 (26) aprelda Akmola viloyati (hozirgi Shimoliy Qozog'iston viloyati, Jambul tumani) Petropavlovsk tumani Tauzar volostida fermer xo'jaligida ishchi oilasida tug'ilgan.

Bo'lajak yozuvchi ota-onasidan erta ayrıldı. İlk ta'limni ovuldagi mulladan olgan Sobit 15 yoshida do'mbirä chalishni puxta egallab, ovullardagi bayramlarda xalq qo'shiqlarini kuylash bilan kun ko'rgan. Shu vaqtan ilk she'rлarini yozishni boshlaydi.

Fuqarolar urushi qatnashchisi. 1919-yilda Omskdagi o'qituvchilar kursini tugatdi, keyin ovulda dars berdi. 1925-1928-yillarda u Respublika matbuotida ishlagan, KazAPPning ma'sul kotibi lavozimida ishlagan. 1935-yilda Moskva Qizil professorlar institutining adabiy bo'limini tugatgan. 1935-1937-yillarda – "Qazaq adabiyoti" gazetasi muharriri, Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvi raisi, 1937-1941-yillarda Qozoq pedagogika instituti (hozirgi Abay nomidagi KazNPU) professori. 1943-1951-yillarda - Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvi raisi. Ulug' Vatan urushi paytida u "Pravda" gazetasining muxxbiri edi. 1958-1969-yillarda Tinchlik Qo'mitasi Kengashi a'zosi; 1965-1969-yillarda - Arab davlatlari bilan do'stlik va madaniy aloqlar jamiyatining Qozoq bo'limi raisi. Abay nomidagi Qozog'iston davlat mukofoti laureati. Qozog'iston FA akademigi (1954).

"Boy o'g'li" (1928), "Sof sevgi" (1931), "Temirtas" (1935), "Bo'tako'z" (1938) romanlarida qozoq xalqi tarixini tasvirlagan. "Mening maktabim" (1939-53) avtobiografik qissasi mashhur. "Cho'qon Valixonov" (1954), "Saken Seyfullin" (19dramalarini yozgan. "Sirdanyo" (1948), "Bo'z to'lqinlari" (1956), uch kitobdan iborat "Oq to'lqinlar" (1967-70) asarlari bor. Yozuvchining "Hayot maktabi" (1954), "Cho'pon bola" (1961), "Bo'tako'z" (1962), "Cho'loq polvon", "Hikoyalar, qissalar" (1970) kitoblari o'zbek tilida nashr qilingan.

OLTIN VODIY

I

Ko'kchatog' ko'llaridan birining atrofiga joylashgan Boytos ovuli yilqichilari yilqisini navbatma-navbat boqishar edi.

Bir kuni navbat Oltinsariga keldi. Oltinsarining o'tovi ovulning pana tomoniga tikilgan bo'lib, urunlari eshigiga bitta ot, bitta sigir bitsa bitib, bitmasa u ham yo'q, kambag'al turmush kechirishar, so'nggi kezlarda esa, peshonalariga toy tuyog'i bilan besh-oltita yilqi bitib, o'rta hoiga aylangan edi.

Kun botar oldida yaylovga chiqarilgan ovulning sog'in biyalar ko'lida suv ichib, endi har tarafga yoyilgan kezda, Oltinsari qisir biyasini minib qo'liga qurug'⁹ini olib yiqlarni Oqsho'qi tog'iga haydadi.

Sog'in biyalar endi yaylovga qo'yilgan kezda, juda yotoqqon bo'ladi. Yana yilqi zoti huddi gul terganday o'tlarning eng mazalisisini tanlab o'tlaydi. May oyining o'rta kezlari edi chamasi. Ko'l yoqasidan yarim gazcha keladigan yerdan chiqqan qalin o't-o'lanlar go'yo orasida toychoq yotsa yashiringudek o'sgan edi....

Ko'kchatog' atrofining yoz kunlaridagi dim oqshomlarida pashsha xaddan ziyod ko'p bo'ladi. Xalqa-xalqa bo'lib o'rلان tutunday quyuq, gala-gala bo'lib uchadigan sariq pashshalarini xalq bulutdan yog'ar emish deyishadi.

Oltinsari yilqisini yig'ib, Oqsho'qi tog'iga qarab haydagan kezda: "bulutdan yoqqan" sariq sariq pashshalar otning ham, o'zining ham yuz-u ko'zini talab yurgizmay qo'ysi. Ba'zi bir yuguriq otlar pashsha talagandan keyin pishqirib,depsinishib, o'z quyruclar bilan yelpinib, yo'rtib yurib o'tlaydi. Ostidagi otining og'zidan sulug'ini chiqarib, yo'lma-yo'lakay o'tlatib kelayotgan Oltinsarining o'zi ham pashshadan sal bo'lsa ham qutilish niyatida shamolga qarshi ora-chora otini yeldirib olardi.

Molga ham, jonga ham ozor yetkazuvchipashshalarini yaratguvchi tabiatning shu noo'rin tentakligi bilan barobar, o'zi yaratgan bu maxluqlarning ta'zirlarini berib qo'yadigan mo'jizasi ham mo'ldir. Uning mana shunday mo'jizalaridan biri – nozik pashshalarning qanotlarini ho'llab, ularni yerga tushirishga majbur qiladigan shudringdir.

Birdan yopirilgan bu pashshalar Olinsarining o'zini ham, uning ostidagi mingan otini ham, oldindagi boshqpha yilqilarning ham

⁹Qurug' –yilqichilarining yilqi tutadigan uzun, tuzoqli (uchiga chilvir bog'langan) gavroni

tinchligini buzdi. Oltinsari pashshadan o‘zini qo‘riqlab, ikki ko‘zininga ochiq qoldirib, boshini ro‘mol bilan yaxshilab o‘rab boylab oldi. Biroq nashtarini yilqining qalim terisidan ham suqib o‘tkazib yuboradigan pashsha tumshug‘i uning yuziga o‘rab olgan yupqagina ro‘molini pisand qilmasdi.

— Paxtali chopon kiyib olmaganimni qara-ya! — deb o‘kindi Oltinsari.

Saldan keyin tabiatning go‘yo malga ham, Oltinsariga ham rahmi kelganday, yer betini shudring qopladi, pashshalarning g‘ingillagan ovozi birpasda tinib, jim bo‘ldi-qoldi. Shundan keyin yilqilar ham tinchligi buzilib, shataloq otishni,depsinib pishqirishni, duch kelgan tomonga qarab chopib qolishini qo‘ydi; Oltinsari ham pashsha chaqib olgan joylarini shapatilashni qo‘ydi. Yilqilar ham biroz tinchib, yalqov yurish bilan o‘tlay boshladi. Uning depsinib, pishqiribmazasini olgan biyalar ham tinch topdi.

Tun yarim kechaga borganda, osmon charaqlab ochilib ketdi. Shun kuni o‘n to‘rt kunlik bo‘lib yetishgan to‘lin oy, go‘yo suvda qalqigan oltin barkashday yulduzlar bilan to‘lib-toshgan osmon uzra balqib suza boshladi.... Bu tun uncha-buncha kunduzga almashmaydigan tun edi.

Nortuyadek cho‘kib yotgan Oqsho‘qi tog‘i bunday qaragan kishigi yaqin bo‘lib ko‘rinardi. Pashshalab tinchliga qochgan yilqilar kechasi ancha uzoqlashib ketib qolganini Oltinsari endigina bildi.

Bu yerlarda kechasi shudring tushsa, u go‘yo kunduzgi sarob yanglig‘ jimir-jimir qilib turadi. Kunduzgi sarob uzoq yerdagini yaqin qilib ko‘rsatadi; o‘ttiz chaqirimdan ortiq yerdagi Oqqo‘shqini, uzoqligi qirq chagirimlar chamasi keladigan Buraboyni sarob qanday ovul yonginasida turganday qilib ko‘rsatadigan bo‘lsa, kechasi oydinda tushgan shudring ham huddi shunday qilib ko‘rsatardi. Tun qo‘ynida shudring ko‘rpa yopingan tog‘, tikilib qaragan odamga huddi dengiz uzra suzib kelayotgan kemaday bo‘lib ko‘rinardi.

Sarobli kunduzi ham, shudringli kechasi ham mazkur Ko‘kcha – Ko‘kchatog‘ tog‘lar tog‘iman deganday mag‘nurqad ko‘tarib turardi. Bu o‘z ichiga ozod, Sirimbet, Yolg‘iztog‘, Ayritog‘, Imontog‘, Oqon, Sontiqtog‘, Ikki ilonli, Zerendi, Buqpa, Cho‘rtan tog‘larini ol-

gan. Shu sababdan ham u xoh kunduzi bo'lsin, xoh kechasi bo'lsin baribir qaddimi baland ko'tarib, yaqqol ko'zga tashlanadi.

Yilqilarini Oqsho'qining kun chiqishiyoyq betiga yoygan Oltinsari bir pas pashshadan sergib dam olgandan keyinyilt-yilt qilib mayv urgan shudringda kemaday qalqib turgan Oqsho'qiga qaragan edi, undan avval narigi yog'idagi Ko'kcha ko'rindi.

Qanday ajib tomosha bu!...

Oltinsari Ko'kchaning butun bag'rini ko'rish niyatida bo'ynini cho'zib qaragan edi, u go'y: "Mening ham tog' degan otim bor, axir! Nega endi ko'kchani tugal ko'rsatar ekanman!" degandek. Oo'sho'qi Oltinsarining ko'z oldini to'sdi-ko'ysi.

Biroq Oqsho'qi uning ko'z oldini to'sgani bilan Ko'kchaning butu go'zalligini, uning qaerida nimasi bor ekanligini Oltisari juda yaxshi bilar edi.

Ko'kchaning o'zini ham, unga qarashli barcha katta-kichik tog'-larni ham, qayna buloqlari, mayv urgan ko'llarini ham – hammasini boshdan-oyoq o'z ko'zi bilan ko'rib, bir umrga ko'kragiga yoo'ib olgan Oltinsarining endigi ozusi -- Ko'kchaning bag'rini ham ko'rish edi.

Uning tasavvurida: Ko'kchaning osti chayqalib yotgan oltin ko'l; tog' sirtida moyoni yo'q sakson ko'li bor bo'lsa, tog' ostida ham suvi oltin sakson ko'li bor! Shunday deb aytishiga, hatto uning o'z ismi ham guvoh bo'la oladi.

– Otimni nega Oltinsari deb qo'ydinglar deb so'raganida, otasi bilan onasi:

– Sen tug'iladigan yiling biz ko'kchadan bir talay oltin topib olib, iriming yaxshilikka ko'ringandan keyin, otingni ham Oltinsari qo'ya qolganmio', - deyishgan edi.

Oltinsarining ovuli To'rayg'ir tog'inining Buraboy tomonida tog' etagida edi. Ovullarining chet yoqasida go'yo nurab, qulab tushgan jarliklar singari huvillab yotgan yoydim chuqurlar ko'p bo'lardi. Agar Oltinsari:

– Bular nimasi? – deb so'rasha.

– Oltin yuvib ketgan joylar, - deyishar endi unga keksalar.

Birovlar: "Tog'dan oqqan buloqqa cho'mich tutib ko'rgan edik, qumga aralash oltin quyqasi chiqdi", -degan gapni eshitishadi. Bu gapga Oltinsarining qiziqish sababi shunday. U bolalik chog'larida

tog‘ia-tog‘ kezib, talay-talay qaynar buloqlarning suviga cho‘mich solib, oltin chichishini kutgan. Ammo uning bu mehnatlari bekor ketmas edi: ertalabdan kechgacha uning cho‘michiga oltin quyqindisi ba’zan chiqar, ba’zan chiqmas edi. Shunday oltin uvoqlari topilgandan keyin, oltinsari bola kezida emas, hatto yigit bo‘lganidan keyin ham “Ko‘kchaning tagida oltin ko‘li bor” degan gaplarga ishonadigan bo‘ldi. Shunday ko‘llardan bittasini qanday qilib bo‘lmasisin, topish – uning yotsa-tursa, o‘tirsa-yursa armoni bo‘lib qoldi.

Ulg‘ayib yigit bo‘lgandan keyin esa, u o‘zining oltin izlash to‘g‘risidagi orzusiga g‘oyat darajada berilib kirishdi. Shu kezlarda Birjon Solning “osmon o‘par” mozori qoshidan oltin chiqibdi. Bu oltinni qazib olish uchun podsholik odam yuboribdi.....” degan mish-mish xabarlar tarqaldi. Bu 1915-yili edi.

Oltin topishni, hatto Ko‘kchaning oltin chiqadigan ko‘lini topishni qachonlardan buyon armon qilib yurgan Oltinsari ... “otabobeng qilmagan hunar”, deb uni to‘xtatishlariga qaramay, “Birjon bulog“i” dan topilgan oltinlarni borib qazishmoqqa otlandi.

Oltin qazuvchilar bilan u ikki yilga yaqin shaxtada – tilla konida birga ishladi. Shu ikki yil ichida u ko‘p narsani tushunib yetdi va: “Harqalay Ko‘kcharining ostida oltin ko‘p ekan! Agar borlig‘ini qazib, yig‘ishtirib oladigan bo‘lsa – ko‘l bo‘lar ekan!... degan qat‘is qarorga keldi. Biroq Ko‘qcha juda xasis tog‘.... Oltinga shuncha boy bo‘lishiga qaramay, “ma, ola qol!” deb sira marhamatini darig‘ tuta qolmaydi. Tutish bir yodqa tursin, hatto bisotida bor oltinlarining hammasini kukun qilib tugib, tosh-kesaklar bilan aralashtirib, balchiqlarga qo‘shib qorib, qora yerning qa‘riga sochib yuborgan go‘yo. Go‘yo: “Eringan qo‘ysin, erinmagan qazib olsin!” – degan kabi. Biroq xasis Ko‘kcha: “Agar bisotimdagи oltinlarimni judayam maydalashtirib, kukun qilib yuborsam, balki oltin izlovchingin ko‘ngli qolishi mumkin.....” degandek, ahyon-ahyonda mushtday-mushtday tug‘ma oltinlarini ko‘rsatib ham qo‘yadi.

Oltinsari bilan birga ishlagan staratellar shunday tug‘ma oltin tuxumlardan talay-talayini topib olgan kezlar ham bo‘lgan....

Topganlari bilan nima foyda!... Ish ko‘p, ish xaqi oz. Faqat ishlab mol topish uchun emas, balki oltin ko‘l topish maqsadida staratel bo‘lgan Oltinsari bir yildan keyin, qilgan ishini, topgan-

tutganini bunday hisob-kitob qilib qarasa, qilgan ishlariga nisbatan olgan ish haqqisi - o'ndan emas, hatto yuzdan biriga ham arzimas ekan. Lekin shunday bo'lsa ham u, azbaroyi oltin topishni sevganligidan, yana bir yil ishlab berdi.

Oltin izlab yurib, uning olgan saboqlaridan tag'in biri shu bo'ldiki -- staratellardan ba'zi birovleri topib olgan o'zagini, agar zavodchi boy unga pulini kshproq qilib bersa aytib, oz bersa topgan oltinlarini undan chshirishar ekan.

Ikii yil staratel bo'lib ishlagandan keyin, shunday oltin o'zaklaridan biri ko'pdan uni orzu qilib yurgan Oltinsariga ham uchrab qoldi. Bu kezlarda Oltinsari oltinni qumdan emas, hatto toshdan ham farq qila oladigan bo'lib qolgan edi.

Tabiatning qiziq ishlari ko'p: oltin aralash toshlarini go'yo tilingan taxtaday yap-yalpoq qilib tarashlab, yaratadi-da, so'ng oson-gina sug'urib olmasin deganday, tosh ustunning bir yoq uchini yerning betiga sal-palgina chiqarib, ko'z-ko'z qilib, ikkinchi tomonini yer tagiga sho'ng'itib yuborgan bo'ladi. Bunday tosh ustunlari ning qalinligi yarim metrdan tortib bir metrgacha bo'ladi. Yalpoqligi bir sarjindan tortib, bir metrgacha bo'ladi, uzunligi esa ba'zan kaltaroq, ba'zan esa besh-olti chaqirimgacha yer tagiga kiriyo ketgan bo'ladi. Mana shunday uzun toshlarning bir yoq uchi ba'zan yer betidan kishi bo'yi qazilgandan keyin topilsa, ikkinchi yoq uchi besh yuz metrgacha yer tagiga kirib ketgan bo'lishi mumkin.

Oltinsariga bugnday tosh, go'yo, oltin ko'lning yuziga chiqib qolgan oltin muz qatlami singari bo'lib tuyuldi. Shunday muzlardan birini Oltinsari 1917-yilning kuzida topib, zavodchi boyning qo'yniga qo'l solib ko'rghan edi, biroq uning beradigan haqi, bunday o'ylab qarasa, hatto topgan toshining xuniga ham arzimas ekan. Oz pulga mashaqqatli ko'p mehnatini sotgisi kelmagan Oltinsari, befeysda ishning ketidan salanglab yurishdan bosh tiortib, yumushdan bo'shadi-da, o'z evuliga qaytdi.

Man, shunga ham o'n yilcha bo'lib qoldi. Ammo shundan beri uning ishdan bo'shash oldida topgan toshi yursa-tursa ko'zi oldidan, uyg'onsa esi, uxlasa tushidan ketmas edi....

Yilqisini o'tlatib, haydab borayotib Ko'kchaning ostini ham ko'rishin orzu qilgan Oltinsarining esiga bir vaqlar topgan o'sha ustun toshi tusha qoldi.

“Yopiray, - deb o‘ylab ketdi u, - nahotki, sho‘roga ham oltin kerak bo‘lmasa! Agar shunday bo‘lsa, u kelib mana shu ko‘kcha tohdan oltin axtarmas ekan!....”

“Agar kishi kelsa, hech kimga aytmay yurganim – o‘sha oltin o‘zagini aytar edim!” – deb o‘ylarda u yana. – Yoki....izlab kelishi-ni kutib yurmay, o‘zimoq borib aytsammikin-a?

“Asti shundoq bo‘lmasa, - deb bir qarorga keldi u. – shu orada Oltin zavodi qurilishiga o‘sim boshchi bo‘lay!... Axir o‘zimizning xukumatku.... Nihoyatki, unga ham, mega ham foydasi tegmas....”

“O‘zimizning” degan so‘zni u o‘ziga olib, haqiqatan ham chin ko‘ngildan aydi.

“Buhukumatdan burun, deb o‘yladi Oltinsari o‘tgan kunlarini esga tushirib, - bizning ovulgv youi, aytaylik, mening o‘zimga shunchalik mol bitganmida? Hozir bo‘lsa qornimiz to‘q, qayg‘umiz yo‘q. ...ilgarilar esa – yerning osti tugul, bir parcha ustiga ham ega emas edik. Yetti qavat yerning tagidagi oltin odamlarniki edi. Yolg‘izko‘l, yetim-yesir, beva-bechoralar, hatto eshigijagi bitta-yu oti yoki sigiriga ham oziq topa olmay sho‘ri qaynardi. Endilikda yerning ustি bizniki bo‘ldi, endi ostini ham egallahimiz kerak!....”

Tongni Oltinsari oltin o‘ylab orttirdi.

II

Aylanasisiga go‘yo qunduz telpak kabi yam-yashill qarag‘ay nihollari bitgan Ko‘kcha ko‘llaridan bittasini yoqalab ot qo‘shilgan yengil tarantas aravada ikki kishi kelmoqda: bulardan bittasi – Oltinsari, ikkinchisi uning tengquri – Chopibkel edi.

Bularning yurib kelayotgan yo‘li – kengligi birgina arava sig‘adigan eski so‘qmoq yo‘l edi. So‘qmoqning bir yoq yonboshi, agar arava mabodo ag‘darilib tushadigan bo‘lsa, to‘ppa-to‘g‘ri ko‘lga uchib ketadigan chuqur jarlik edi. Jarlik osti jimirlab yotgan ko‘l yoqasi bilan tutashgandi. So‘qmoqning ikkinchi boshida esa yerdan tikka ko‘tarilgan tik jarlik – cho‘qqi edi. Jarlikning huddi tilim-tilim qilib qo‘yilgandek devori, go‘yo yaxshilab taxlangan kitob javonini ko‘z oldingizga keltirardi.

So‘qmoq yurgan sari yuqorilayverardi. Uning bir yoq uchi arqonday chuvalatib pastlikka yastangan ko‘l yoqasiga kelib tushsa, bir yoq uchi o‘rlab-o‘rlab tog‘ beliga ko‘tarilar edi.

So‘qmoq tog‘ning tik ko‘tarilgan yarim belidan oshib o‘tganda Oltinsari otining boshini tortdi.

– Shu o‘rtada bir to‘xtamaymizmi? – dedi Chopibkel.

– To‘xtaylik.

Oltinsari ovuldan chiqishda Chopibkelga: “Shu o‘rtada bir burgutning uyasini ko‘rdim, bolasini olib kelamiz”, - deb olib chiqqan edi.

– Hey, menga qara! – dedi u otlarini tog‘ bag‘riga o‘tga qo‘yib kelib. - Mana shu tog‘da oltin ko‘p degan gap bor, shuni bir bel bilan kavlab ko‘rsakmikin-a?

– Burgut-chi?

– Burgut qaerda deysan. Avval oltinni kavlab ko‘raylik-da.

Oltinsari uyidan burgut uchun emas, oltin uchun chiqqan edi. Uning ho‘ bir vaqtan beri yashirib, hech kiunga aytmay yurgan oltini mana shu tog‘ning etagida edi. U bu o‘yini Chopibkeldan ham yashirdi.

– E-e, qo‘ysang-chi shu ishingni! – dedi Chopibkel. – Boshingga urasanmi oltinni!... Xudoning shunday issiq kumida nima azob yer qazib!... Usiz ham o‘zi yuragim kuyib turibdi. Suvsinimiz qaerda?...

Suvsin ichib o‘tirib, Oltinsari so‘zini yana takrorladi.

– Men senga rostdan aytayapman, - dedi u, - bir izlab ko‘raylikda! Bizlardan nima ketdi. Topilmasa topilmas. Birov bizga bir nima derdi deysammi?

– Yopiray, muncha xumor bo‘lmasang shu keraksiz ishga!...

Oltinsari bir vaqtlar mana shu oradan oltin tosh topganini Chopibkelga aytmoqchi bo‘ldi-yu, “avval belgilab qo‘ygan joyimni topib olay, tag‘in topa olmay uyat bo‘lib yuomasin”, deb aytmadи.

U shu o‘y bilan erinchoq Chopibkelni aravaning oldida qoldirdida.yu o‘zi mo‘ljalini izlab ketdi. Biroq qancha ovora bo‘lmasin, belgisi hadeganda topilavermadи.

– Eh, attang, attang!... – deb o‘kindi Oltinsari aravasining oldiga qaytib kelayotib. – Ammo topilganda obro‘ bo‘lardi!... Oltini ko‘p edi...

Aravaning ostida, ko‘lankada dam olib tiniqib yotgan Chopibkel quruq qo‘l kelayotgan Oltinsariga:

— Xo‘-o‘sh, Sarim!... Qani necha pud oltin topib kelyapsan? .. — deb kalaka qildi.

— Kulma do‘stim! — dedi Oltinsari. — Oshiqma! Noumid — shayton, degan....

— Kulayotganim yo‘q, so‘rayotibman. Oting oltin bo‘lgandan keyin, oltin topar chiqsang kerak, deb o‘ylagan edim, biroq nima qilay, oxirida aqalli mis topar ham bo‘lib chiqmading!...

— Axir, “oshiqma!” dedim-ku senga. Agar oltin topilsa, sen ham qarab turmassan, oltinga o‘xshab o‘ztningoq chopib kelarsa...

— Chopib ketish qaerda deysan, qochib jo‘nayman. Azbatoyi xudo, qochaman. Qani, iishonmasang bir xalta topib olib kel-chi! Olarmikanman?..

Oltinsari yengilgandek bo‘ldi.

— Sening shu so‘zing uchunoq men oltin topganim bo‘lsin! — dedi unga Oltinsari, arava olib kelgan belini olib jo‘nar ekan.

Oltinsari oltin chiqadigan yerni shu yerdan unib chiqqan o‘t-o‘landan ham tusmollab bilar edi. Shu chamasiga ko‘ra, qumi yanchilgan bir yerni qaziy boshladi...

— Ishing o‘ngidan kelsin, xorma endi! - dedi Chopibkel, Oltinsari qaziyotgan chuqurchasini belbog‘ bo‘yi tushirgandan keyin, tepasiga kelib.

— Aytganing kelsin, bor bo‘ll! - dedi Oltinsari qaddini ko‘tarib, peshana terini artar ekan. — Lekin mana shu o‘rtada oltin borligi aniq. Hali hash-pash deguncha chiqib ham qoladiyu ishonmasang, bir qazib ko‘rsang-chi!..

Yaxshilab damini olib olgan Chopibkelga oltindan ham ko‘ra ko‘proq ermak kerak edi.

— Yaxshi, bo‘lmasa bu yoqqa chiqib, belingni benga ber! Men ham bir oz qaziy, sazang sinmasin, - dedi u chuqurga tushishga shaylanib.

Xaqiqatdan ham bir oz charchagan Oltinsari chuqurdan chiqib, belni Chopibkelga berdi. U qaziy boshladi. Bu yoqqa chiqqan Oltinsari esa chuqur tepasida cho‘kka tushib qarab o‘tirdi.

Kuchga to‘lib yurgan Chopibkel birpasdayoq yana bir quloch bo‘yi qazib tashladi. Ora-chora u qum bo‘laklarini atayin oltinsariga iring‘itib tashlab turdi. Bir vaqt birdan..... to‘xtab qoldi-da, Oltinsariga

elovsiz ko'z bilan bir qarab qo'yib, engashib oyog'ining ostidan bir nimani oldi.

– Nima u? – dedi shoshib qolgan Oltinsari ham boshini quyi engashibirib. – nima olding oyog'ingni ostidan?

– Hech narsa olganim yo'q...

– Yo'q sen bir narsa olding? – dedi OLTinsari o'rindan dast ko'tarilib.

– Nima oltin topdi, deysanmi shunchalik?

– Nima topsang ham hozir ko'rsat menga!

Chopibkel qo'yniga bir nimani tiqqanday bo'ldi. Oltinsari "qani ko'rsat!" deb unga qadalgan sayin, uning quti o'chib, rangi bo'zara boshladi.

– Sening bir balong bor-ov!.. Nega bo'limasa shunchalik qutin o'chdi! – dedi Oltinsari bir chuqurga, bir Chopibkelning yuzlariga tikilib. – Noinsof kofir, sen bir narsani topib, mendan qizg'anib turibsanimi deyman-da shu! Ko'rsat qo'yningga tiqqaniningni!

– Hech narsa tiqqanim yo'q! Nimani tiqaman qo'ynimga? – dedi Chopibkel qo'lidagi belini balchiqqa sanchar ekan, bukchayib. – Rost, sen bilan o'chakishganimdan keyin, kishi bo'yi qaziganim bo'lsin shu chuqurchani. Ha, bir nima topmagunimcha qo'yamanman endi....

– Avval topganiningni ko'rsat! Yaxshilikcha ko'rsatsang zo'rlab bo'lsa ham ko'raman.

Oltinsari Chopibkeldan kuchliroq edi. Shu sababdan, mabodo olishib qolishgudek bo'lsa, Chopibkel yengilishini bildi. Tepada turgan oltinsari unga:

– Bo'limasa tushib yoningga tintganim bo'lsin! – deb chuqurga tusha boshlaganda, Chopibkel:

– Mana, ishonmasang tintib ko'r! – deb chuqurchadan chiqishga uringan kishi bo'ldi-da, jo'rttaga qo'ynidagi oltinni sekin tushirib yuborib, oyog'i bilan tepkilab, balchiqqa qorib, aralashtirib yubordi.

– Ol, tint! – dedi bu yoqqa chiqqandan keyin xezlanib, ko'kragini ochib. –Shunchalik, qachondan beri mendan shubhalanadigan bo'lib qolding!...

– Men seni emas, chuchurni tintaman! –dedi Oltinsari.

– Oltin chiqmasa, chuqur aybdormi senga? Tintging kelsa, mana, meni tinta qol!..

Oltinsari chuqurchaga tushmoqchi bo'layotgan edi, Chopibkel birdan hamla qilib ag'darib tashladi-da, u yoq-bu yog'ini yig'ishtirib o'rnidan turguncha, chuqurchaga o'zi tushib, balchiqdan bir nimani olib, yana qo'yniga tiqdi.

– Endi olib chiq! – dedi Oltinsari.

– Nimani?

– Topgan oltiningni!

– E-e, xudo ursin seni bo'lmasa! O'zi chindanoqshunday deb turganingmi, a? Yo tavba-yey, senga nima bo'ldi o'zi! Men jo'rttaga, qani, seni nima qilarkin, deb tushdim. Mana ishonmasang, tushib qarasang qaray qol!

Chopibkel chuqurdan chiqdi. Uning oyoq ostidan engashib bir nima olganini ko'rmay qolgan Oltinsari, chuqurga astoydir tushmoqchi bo'lib turdi-da, yana:

– Hey, menga qara! –dedm. – To'g'risi qo'yningni bir ko'rsat-chi.

Chopibkel jaxli chiqqan bo'ldi.

– Taning sog'mi o'zi? – dedi u qovoq-lunji osilib. – Yoki mayna qilyapsanmi meni! Ie menga desa, menga desa butun tog'ni orqalab ketmaysanmi boshingga. Ol, men ketganim bo'lsin aravaning qoshiga!....

Chopibkelning buzuq avzoyi Oltinsarini tag'in shuhaga soldi. Shundan keyin u o'ynashgan kishi bo'lib, uning qo'yniga qo'l solib ko'rmoqchi edi, ammo Chopibkel itarmalab o'ziga yo'latmadidi. Shunday qilib ikkovi olishib ketdi.

Ular anchagacha olishishdi. Axir, Chopibkel ham tirik jon. Shu sababdan u xiylagacha Oltinsariga bo'sh kelmadidi. Har ikkovining ham kiyimlari burda-burda bo'lib yirtilib ketdi. Nihoyat ikkalasi ham olishib charchadi. Ularning bu olishuviga qiyomga kelgan kun osmonga qad ko'targan Asqar tog', mavj urib turgan ko'l, qalin to'qaydan boshqa, shu yaqin-atrofdagi joni-jonivorlardan boshqa hech kim guvoh bo'la olmadidi.

Tinch to'qayning ichida, yaproqlar orasida yem izlab, dik-dik etib, o't terib yeb yurgan quyonning qulog'iga bularning gusur-gusuri eshitilib, cho'chib, taqqa to'xtadi. "Bu nima ekan!" deb qulqlarini qaychi qilgan quyon, oldingi oyoqlarini ko'tarib, bo'ynini

cho'zib qarasa, ikki odam olishib yotibdi... U, bularni ko'rdi-yu darhol qalin chakalakzorga qarab o'zini urdi.

Orqa oyog'i bilan anqayib qotib turgan quyonni ko'rgan iteogi qorag'ayning tepasilan turib, olishib yotganlarga bir qur ko'z Yugurtib, chovit solayin deb turgan ovidan ayrıldi.

Tog' bag'rida bu iik zotning biri o'lsa o'ziga yem bo'lishini kutgan och tog' burguti ularning tepasidan nari ketmay, gir aylanib uchib yurdi.

Kumushdek, jaranglab, yoqimli ovozi bilan teh bag'ridagi o'rmonni to'ldirgan bulbuligo'yo ham maqomini yo'qotmadi.

Daraxtlarning yaproqlarini o'ynagan, jimir-jimir qo'l betini yalagan yengil shabada ham sekin tina qoldi. Faqat bir tog'dan oqqan qaynar buloq jilg'asigina hamon shildir-shildir qilib, o'ynab oqardi.....

Tabiatning butun mana shu mo'jizalariga tomosha bo'lgan Oltinsari bilan Chopibkel hamon xarsillab, kuyib-pishib, tutoqib olishmoqda edi...

Odamning butun a'zoyi badanidagi kuchi uning borliq muchalarda bir hilda bo'lmasligini Oltinsari Chopibkel bilan olishgandagina bildi. Olishishi bilanoq Chopibkelni yerdan dast ko'tarib urishiga qaraganda, Oltinsari uni xash-xash degunchayoq yengib olsam kerak, deb o'ylagan edi. Rosa olishishga kelganda esa Oltinsari Chopibkelning kuchi uning qo'lida ekanin payqadi. Uning o'zini po'choqqa ham ko'rmay, yerga ko'tarib urgan Oltinsari, keyin qancha kuch berib urinmasin, baribir, uning maxkam qisib, changallab olgan kaftini hech yoza olmadi. Uning hovuchi misli bir kavsharlangan temir yanglig' bo'lib ketgan edi.

Chopibkelning olishuvini boshda hazildir, deb o'ylagan Oltinsari, uning chinga aylanganini ko'rgach, yana yana kaftini yoza olmasligiga qurbi yetmasligini bilgach, ostida bosib yotgan Chopibkelning ko'zlariga tik qarab:

– Hey, menga qara, oxirgi marta aytaman senga, rostingni ayt, berasanmi, yo'qmi! – dedi qaxr o'tida yonib.

– Nimani beraman senga! – Chopibkel nafasi bo'g'ziga tiqilib. – Tukim ham yo'q senga beradigan.

– Qo'lingdagini ber!

– Qo'limda hech narsa yo'q.

- Bo'lmasa, nega ochib ko'rsatmaysan? Qani yoz-chi kaftingni!
- Yozmayman.
- Nega yozmaysan?
- Ataylab, o'chakishganim uchunoq yozmayman!..

Oltinsarining qovog'idan qor yog'ib, g'azabi qaynab, Chopibkelni yotgan joyidan dast ko'tarib oldi-da, ko'lning eng baland tepasiga – tikka jarlik yoqasiga olib keldi.

-- Mening odatini o'zing yaxshi bilasan-a! – dedi u Chopibkelning ko'ziga tik qadalib. – Agar kaftingni yozmasang, shu yerdan turib ko'lga uloqtiraman!

Oltinsarining quchog'ida o'zini yo'qcha ko'rghan Chopibkel, uning vajohatiga qaragan edi, xaqiqatan ham uloqtirib yuborishiga ko'zi yetdi. Shuning uchun u Oltinsarining:

-- Agar o'lging kelmasa, ber chaqqon! – degan so'zidan quti o'chib:

-- Ma! – deb kaftidagi oltinni uloqtirib yubordi-da: - Qo'yib yubor endi! – dedi sekin.

Oltinsari rozi bo'liday jilnayib, Chopibkelni sekin yerga tushirdi-da, uning uloqtirib yuborgan mataxini qaradi. Qarasa: u yoq-bu yog'iga qum, tuproq yopishgan mushtday oltin ekan. Oltinsari quvonchidan uning og'irligini chamlab ko'rди.

-- Mendan qizg'anganing mana shumi? – dedi u Chopibkelga qarab kulib. – Sen mendan ko'p qizg'anmasang ham bo'ladi! Bu oltinni o'zim olmayman.

-- Olmasang nima qilasan? – dedi uning so'ziga ishonmagan Chopibkel, hamon xo' boyagidek kek bilan.

-- Hukumatga beraman.

-- Xukumat senga nima beradi? – dedi Chopibkel kesatib.

-- Qilgan mehnatimizning haqqini beradi. Bu oltin esa – xalq xazinasiga tushadi.

-- Yana qanday foyda ko'rasan shundan?

-- Oltin izlash kasbimga qayti kirib, ishlayman. Staratellar artelini tashkil qilaman. Axir "Oltin chiqqan yerni odam bo'yи qazi!" – degan emasmi ota-bobolarimiz. Shu yerlarni yana-yana qazib, yer ostida yotgan oltinlarning barini yig'ib olamiz. Tushundingmi? Seni ham chaqiraman shu ishga!...

— Unisini endi kezi kelganda ko'rarmiz, — deb qo'ya qoldi, mushtday oltinning qo'lidan ketib borayotganiga ichi kuygan Chopibkel. So'ng u, aqalli qo'lingdagi oltiningni ulashib olaylik-da, deb aytmoqchi ham bo'ldi-yu, biroq Oltinsarining bunga ko'nmasligiga ko'zi yetib, indamay qo'ya qoldi.

Oltinsari otini olib kelgani ketdi. Shu kezda aravaning qoshiga kelgan Chopibkelning boshiga Oltinsarini o'ldirsammikan, degan yovuz fikr keldi.

“Biroq kuchim yetmaydi-da....”

Uning esiga aravaning o'qi tushdi. “Shu, bildirmasdan, bilakday keladigan yo'g'on cho'yan bilan orqa tomonidan shartta bir tushirib qolsam?.... — deb o'yładi u. — Boshi toshdandir deysanmi? Nahotki qulamas ekan!....”

Shunday yovuz niyat bilan u aravaning o'qini sug'urib olib, Oltinsari otini olib kelganda, urmoqchi bo'lib unig atrofidan ikki-uch marta beixtiyor aylandi. Uning nima uchun atrofida aylanishlab qolganini Oltinsari sezmadni.

Chopibkel aylanishlab urishga juda o'ng kelganda qo'lidagi bilakday yo'g'on cho'yan o'q bilan bir tushirib qolmoqchi bo'lib ko'l ko'tardi-yu....biroq yoshlidan birga o'sgan yaqin tengdoshini asti ko'zi qiyrnadi.

III

Ular yo'lga tushib, orqa izlariga qaytishdi. Ovuldan chiqishlarida Chopibkel Oltinsariga:

— Qaytishda daladagi qo'shchilarga yo'liqib qaytaylik, — degan edi.

Ot esa Oltinsariniki edi. U, Chopibkelning aytgani esida turgani uchun, aravani to'g'ri yo'lidan qo'shchilar ishlayotgan tomonga qarab burdi.

— Nega endi qosh-qovog'ingni uyib kelyapsan? — deb so'rada oltinsari Chopibkeldan katta yo'lidan qo'shchilar tomon burilgandan keyin.

— Ha, nima qil demoqchi eding, menga? — dedi Chopibkel qovog'idan qor yog'ib.

— Ha, jin ursin seni, jin urgur! Buning nimasi endi, qarab turib, rostdanoq arazlashib qolganingmi bu, a? Ma, senga shunchalik oltin

kerak bo'lsa!... Faqat qovog'ingni olib yur... O'yin-kulgumizning sadaqasi ketsin shu mushtdek oltin!.... Nahotki, shu mushtdek toshni deb yuzta shunday toshga alishmaydigan do'stligimiz buzilsa?

Oltinsari oltinni uning oldiga tashlagan edi, u olmadi.

— Sen bunaqa ginaxonligingni qo'y! — dedi Oltinsari. — Birga tug'ilib, birga o'sgan emasmizmi, axir, qasam urgan!... Bilsang, bu oltin ikkovimizga ham birdek foyda keltiradi... Ishonmasang, sinab ko'r mening mana shu so'zlarimni!...

— Ko'rsak ko'rarmiz sinab, - deb qo'ya qoldi Chopibkel umga.

Qo'shchilarning qoshiga yaqin qolganda, Oltinsari boshqa hech narsa demay, oltinni olib cho'ntagiga solib qo'ydi.

— Ho'-o', hormanglar! — dedi u so'ka haydayotgan qo'shchilaning oldiga kelib.

— Ha, br bo'ling! — deyigdi umga yuz-ko'zlarini chang bosgan ikki yigit.

Ovuuning odamlari qo'sh haydashga to'rt-besh uy birikib chiqishgan bo'lib, bu qo'shchilarga Oltinsari bilan Chopibkel ham sherik edi.

— Besh kundan beri haydagan yerlaring shumi? — deb so'radai Oltinsari qo'shchi yigitdan. — Yerni ham shunday qilib haydaydimi hech zamonda?... Bu qanaqa yer haydash?... Yerning ustini qirtishlab, or-chora qoldirib ham ketibsizlar.... o'rtasi haydalmay qolib ketibdi-kul... qandan qilib bu yerdan endi ekin unadi?...

— Nima qilaylik endi, boshqa iloji bo'lmaqaj? Ataylam shunday qilishibdi deysizmi?... Xo'kizlar tortmayapti, buning ustiga so'qalar ham o'tmayapti, - dedi qo'chi yigitlardan biri nolib.

— O'tmasligininng sababi, - dedi tag'in bir qo'shchi yigit, - xaligi ko'r bo'lqur Qiraboy shahardan so'qa olib chiqishda, g'ildiragini almshtirib olib ketib qolibdi. Mana, qarang, g'ildiraklarinig bittasi kata bo'lsa, bittasi kichik. Endi qanday qilib bu so'qa bilan yerni bir tekis qilib haydab bo'ladi!... Faqat xo'kizlarni qiyashdan bo'lak gap yo'qla!...

Otinsarining ichagi uzulgudek, bo'lib kului.

— Nega kulasiz? Deb so'radi qsho'chi yigit.

— Nega kulmay endi? — Axir, so'qa shunuqa bo'lmay qanaqa, qanaqa bo'ladi?.. O'zi so'qaning g'ildiragi shunaqa biri katta, biri kichik bo'ladi-ku, axir.

So'qalarga xo'kiz qo'shilgan edi – to'rt juft xo'kiz.... Og'izlari dan so'lagi oqib, tillari bir qarich bo'lib osilib qolibdi. Oltinsari, bo'yinlarini bir yoq boshlariga qiyshaytirib nochor turgan xo'kizlarning oldiga kelib qarasa, bo'yinlaridagi bo'yinturug'i qisib, qip-qizil go'sht bo'lib ketibdi...

– Axir uvol-kubu!... – dedi Oltinsari shoshib-pishib. – U bechoralarni qiyab qo'yibsizlar-ku juda!

Bu el ilgarilari yer haydab, ekin ekmas edi. Eksa ham boylari o'ris yollab, gadolari ketmon bilan kaviab ekardi. O'sha kezlarda faqir-fuqarolar: "Qani endi...bizlarning ham peshonamizga yer-su, ot-ulov bitsa!..." deb armon qilishardi.

Mana, hozir shu arinon qilgani larning hammasiga ega: yer, oti bor – hammasi faqir-fuqarolarninki qancha eksa o'z erki, burunlari ot-ulovlari bo'lmasa, hozir u qilib, bu qilib yurishib, ot-ulovli ham bo'lib olishdi. Agar ilgarilari, ot-ulov topi, so'qa-shayman topmaydigan bo'lsa, endi qishloq xo'jalik koperativlarda ular ham to'lib yetibdi – bunga ham qo'llari yetadi.

"Endigi yetishmaydigani – deb o'ylardi Oltinsari, - ekin-tkin ishlariga hali uncha o'rganishmaganlik,faqat!..."

U, qo'shchi yigitlarga shu fikrini aytgan edi., ulr Oltinsariga:

– O'rgangan-o'rganmaganimizda, shu ko'lik, shu so'qa-shaymanlar bilan bir ish chiqarish qiyin, - deyishdi baravariga.

– Xo'sh, bo'lmasa, sizlarcha nima qilish kerak? - deb so'radi Oltinsari ulardan.

– Yaxshisi, yerni o'zi haydab, o'zi ekin ekadigan mashini kerak ekan.

– Oshiqmanglar, ali u ham bo'lar! – dedi ularga Oltinsari.

U qo'shchi yigitlar bilan shu alpozda gaplashib turar ekan, bularga qarab yaqinlashib kelayotgan qo'sh otlik odamlarga ko'zi tushib qoldi. Ularning mingan of-aravalari, yurish-turishlari, bu atrofning kishilariga o'xshamas edi.

Qo'shchilar o'zlariga yaqinlashib kelayotgan yigitlarni qarshi olib qarashsa, ular shaharcha kiyangan, lekin o'zlariga o'xshagan qozoq yigitlar ekan. So'rab-surishtirishsa: bittasi – tog' konlari injeneri Tovboy oqli yigik, ikkinchisi uning yordamchisi – Toshboy degan yigit ekan.

Omonlashib turib ular xazillashib qolishdi.

-- Ekinni ekishni bilmas ekansizalar? -- dedi Tovboy, so'qa yurgan yerkarda razm solib. -- Xo'kizlarni ham, chamasi, haydashni bilmaydiganga o'xshaysizlar, bo'yynini bo'yinturuqqa oldirib qo'yibsizlar-ku!. Uvol bo'libdi-ku, jonivorlarga....

Begona kishiarning qoshida, ekin eka bilmas ekansizlar, degan malomatga o'zi ham qolagn Oltinsari ularning hazilidan yengilgisi kelmay:

-- Yer haydaydigan mashina chiqarib bersanglar, bizlar yo'q demas edik, -dedi.

— Biroq shu mashinani chiqaradigan biz emas, sizlarning o'zlariningiz, -dedi Tovboy.

— O'zlariningiz, deysizimi? — dedi qo'shchi yigitlardan biri Tovboyni hazil qilyapti deb o'ylab.

Tovboy uning xazil so'ziga chin javob berib, hozir hukumatimiz mamlakatni og'ir sanoatlil ilg'or mamlakatga aylantirish uchun kurashayotganini va bu siyosat turli qishloq xo'jalik mashinalarini ko'plab ishlab chiqarishga sharoit yaratib berayotganini aytdi.

-- Bu aytganlaringizning hammasi ma'qul. — dedi Oltinsari. — Lekin shu ishlarni amalga oshirmoq uchun, hali siz aytganingizday, biz nima bilan yordam berishimiz mumkin?

— Oltin qidirish bilan yordam berishiingiz mumkin! — dedi Tovboy.

U o'z sirini endigina ochdi: bular tolo-to'p yillari bekilib qolgan Stepnyak oltin o'chog'ini qayta ochish ishlarni tiklash uchun chiqib kelishayotgan ekan.

— Biz bu yumushlarni, - dedi Tovboy ularga, - faqat sizlarning, ya'ni shu yerdagi mahalliy xalqlarning yordamlari tufayligina amalga oshira olishimiz mumkin.

Bu so'zlarga astoydil qulqoq solgan Oltinsari ham rostini so'zlab:

— Qisqasi senga oltin kerakini, Qarog'im? - dedi Tovboyga. — Agar oltin kerak bo'lsa, u mana shu ko'kcha tog' ostida to'lib yetibdi. Qancha qazib olsang ham tamom qila olmaysan.

— Ko'kchatog'ning ostida oltin ko'p ekanini o'zimiz ham bilmiz! — dedi Tovboy. — Biroq bizga shuni topib beradigan kishilar kerak.

— Unisini bilmadim. Ammo o'zim oltin izlashuvvg' tayyormjan. Mana bu o'rtog'im Chopibkel ham tayyor. Shundayni do'stim? —

dedi Oltinsari yo‘ldoshiga qarab. Ammo Chopibkel “sazasi sinmasin” deganday qilib, boshini qimirlatib qo‘ya qoldi.

– Faqat izlashu emas, balki toparsizlar ham, - dedi Tovboy kulib.

– Topmaydigan bo‘lsak, izlashib nima qillardik? – dedi Oltinsari ham jilmayib.

– Ehtimol, tpib yurgan ham chiqarsizlar? – dedi Tovboy, “asti mana shu yigit eski saratellardan bo‘lmasin tag‘in”, - deb o‘ylab.

– Ehtimol, - dedi Oltinsari ishonimli tovush bilan.

– Qo‘sh boshida u-bularing bormi? – deb so‘radi Oltinsari qo‘shchi yigitlardan.

– Hali qimiz olib kelishgan edi, - dedi qo‘shchi yigitlardan biri.

– Bo‘lmasa bir oz daminglarni olinglar! – deb ularni qimiz bilan mehmon qilgani qo‘sh boshiga boshlab olib borgan Oltinsari Tovboyga bugungi topgan oltinini aytib bergan edi, quvonchidan uning ko‘zlarini kosasidan chiqib ketayozdi:

– Qani topgan oltiningiz?...

Oltinsari topib olgan mushtday oltinini ko‘z-ko‘z qilib unga ko‘rsatdi-yu, lekin qo‘liga bermadi.:

– Shiqma, qarog‘im! – dedi u Tovboyga. – Men bu oltinni zavodning idorasi osilgan kuni o‘z qo‘lim bilan olib borib topshiraman-da, oldin o‘zim oltin izlovchi-staratel bo‘lib yozilaman.

IV

Zim-ziyo tun qo‘ynini charaqlab ochilgan kun kabi yorug‘ qilgan elektr chiroqlarining shu’lesi ostida, ustiga nam o‘tkazmaydigan brezent plashch, oyog‘ida uzun qo‘njli etik kiygan Oltinsari, shtrek bo‘ylab yurib kelmoqda.... Qaro‘isida – injenerning kabinet. Shaxtaning tepasidagi tosh qatlamlarining yorug‘ joylaridan ba’zan sizib suv tomib tursa, ba’zan fotanday bo‘lib otolib ketadi. Shaxta bo‘ylab solingan ingichka temir yo‘l izlaridan yer osti qazilma boyliklarini g‘izillatib tashib o‘tayotgan elektr vagonchalarning shaqu-shuquri eshitilganda, Oltinsari o‘zini bir yoq chetga olib turadi-da, vagonchalar o‘tib ketganlaridan keyin, yana o‘z yo‘lida davom etadi.

Qadam bosgan sayin uning ko‘z oldida ilgariga ishlagan shaxtalarning tor, zex va qorong‘i yo‘llari keladi. U ana shu qop-qorong‘i

shaxta yo'llaridan qo'liga kichkinagina, nursiz, kerosin chiroq ko'tarib yurib borar ekan, hattoki o'zidan ikki qadam naridagi narsani ham ko'rmas edi. .. Hozir uning esiga shular tushdi. Mana, endi esa huiddi naqllarda aytilgandek, elektr o'tkazilgan, ko'zni qamashtiruvchi oltin qasrlar singari keng va yorug' shaxta...

Oltinsari bilagidagi soatiga qarasa, vaqt kunduzgi uch bo'lган екан. Chunki uni soat uchga Tovboy о'зининг шахтадаги кабинетига чаqирган edi. Ammo nimaga chaqirganini Oltinsari bilmaydi.

-- Bugun normangiz qancha bo'ldi? – deb so'radi Tovboy Oltinsarini kabinetida qarshi olar ekan.

-- 120. Kechgacha 180ga olib borsam kerak deb o'layman.

-- Yo'q, endi olib borolmaysiz! – dedi Tovboy kulib.

-- Nega? – dedi Oltinsari hayron bo'lib.

-- Gorkomdan telefon qildi. Siz o'z kolxozingizga - "Oltin tong"ga borib, saylovchilar orasida tashviqor-targ'ibot ishlarini yurgizib kelar ekansiz....

Steniyak oltin koni ishga tushgan kunday buyon xizmatchi bo'lib yozilgan Oltinsari, dastlabki kunlardan boshlaboq, savodsizlikni tugatish maktabiga kirib o'qiy boshlagan edi. Ko'p o'tmay u yozishchizishni o'rgandi. Shundan keyin uni tashviqotchi-targ'ibotchilar qatoriga tirkab qo'yishdi.

Oltinsari lift bilan yuqoriga ko'tarilib, yer yuzasiga chiqdi. M-1 mashinasi kelib, uni kutib turgan ekan. Haydovchisi Chopibkel edi.

-- Qayoqqa boramiz? – deb so'radi undan Chopibkel.

-- "Oltin tosh"ga.

-- Xo'p bo'ladi! – deb Chopibkel mashinisini haydab jo'nadi.

Ular "Oltin tong" kolxoziga xademay yetib kelishdi. Kolxoz tog' etagidagi buloq boshiga solingan oltmish xo'jalik uydan iborat edi. Uylarning hammasi yangi qarag'ay yog'och-taxtadan yaxshilab solingan edi. O'rtada – kolxoz idorasi bilan ovul maktabi.

Ular idoraga kelishsa, u yerda faqat qorovul xotingina bor ekan. Bular undan:

-- Kolxoz raisi qaerda? – deb so'rashsa, u bularga:

-- Kolxozchilarning oldiga chiqib ketdi, - deb javob qildi.

-- Boshqarma a'zolaridan kim bor?

-- Hammasi ekin-tekin tepasida.

– Nima qilishadi hammasi shunchalik kolxozchilarning tepasida?

– Yig‘ilish bor, deb chiqib ketishdi.

Oltinsari bilan Chopibkel o‘zлari ko‘rgan kolxozi xirmonining tepasiga chiqib borishsa, xammasi shu yerda ekan: tog‘-tog‘ qilib uyib qo‘ygan bug‘doy bog‘larini bir tomonda yanchish, bir tomonda shopirish bilan ovora.....

Oltinsari mashinadan tushishi hamon, bir to‘p tengqurlari bilan birga bir qator ayollar undan: “Qani osmonga irg‘itmaylikmi!....” deyishib, xash-pash deguncha bo‘lmay, uni ko‘tarib olib jo‘nashdi. Bir oz “Qani, xa....” deb, osmonga ko‘tarib-tashlashib, so‘ng sekin yerga tushirishdi-da, atrofini o‘rab olib:

– Qani, Oltinsari, ayt-chi, bizlarga shuni! Oltin senda ko‘pmi yoki bizlarda ko‘pmi? – deb so‘rasha boshlashda.

– Sizlarda ham ko‘p, bizlarda ham ko‘p! – dedi hamon nafasini rostlab ololmagan Oltinsari.

Shunday demasligi mumkin emas edi uning. Chunki kolxozi raisining aytishiga qaraganda, “Oltin tong” kolxozi bu yil 1300 hektar ekin maydonining har gektaridan, oldidan 40 sentnerdan, ketidan 20 sentnerdan bug‘doy hosili yetishtirgan. Bu mo‘l hosilga faqat yerni traktor bilan haydab, bug‘doyni kombayn bilan o‘rib olishning orqasidangina erishganlar.

– Oltin ko‘paysa, mashina ham ko‘payadi! – der edi ularga suhbат chog‘ilarida Oltinsari.

Mana, endi shu aytgani keldi: aniq hisobini aytmaganlari bilan, harqalay, Stepnyak oltin koni oltinni har oyiga qadoqlab emas, balki, pud-pudlab berayotgani turgan gap edi. Axir, shuncha ko‘p oltin mashinalarning sonini ko‘paytiymaydi deysizmi?....

Mamlakatimizning endi oltini ham, mashinasini ham ko‘payadi-gan tusi bor edi. Bunga kundan-kunga o‘sib borayotgan to‘qchilikning o‘zi guvoh edi. Mana shunday erishgan zo‘r yutuqlarimizning og‘ir yukini sudrab, oldinda kelayotgan kishilarimiz qatorida Oltinsari ham bor....

Shunday ekan, kolxozchilar uni “xon ko‘tarib” osmonga irg‘itishmaganda, kimni irg‘itishadi?...

Xirmon boshida ichiga istagancha kishi sig‘adigan bug‘doy omchori bor edi. Oltinsari ana shu yerga yig‘ilgan kolxozchilarga,

mamlakatimizning og‘ir sanoatini rivojlantirish tufayli erishgan yutuqlari to‘g‘risida gapirib berar ekan, bo‘sag‘ada suyanib turgan Chopibkel unga qarab hayol surib qolgan edi... Oltinsarining yoshligidan berigi ko‘rgan-kechirgani unga o‘zining kaftidagiday ayon: axir, har ikkalasi birga tug‘ilib, birga o‘sdi, birga o‘sdi, birga yashab, birga qaynadi....

Chopibkel bola kezlarida Oltinsaridan pishiq edi. Oltinsari kim nima desa ishonaveradigan, rostgo‘y va mo‘min bola edi. O‘zini undan aqli, pishiq sanaydigan Chopibkel bola kezlarida ham, ulg‘ayib yigit bo‘lganidan keyin ham Oltinsarini qancha-qancha aldagani edi. Lekin Oltinsari bularning hech qaysisiga ahamiyat bermas, ko‘ngliga olmas edi – hammasiga ko‘nib ketaveradi.

Lekin oxiriga kelib esa, “baridan qo‘y boqib, ayron ichgan o‘zadi”, deganday mehnatsevar Oltinsarining ishi rivoj topib, u, o‘zini dono, bilarmon hisoblagan Chopibkelning nazarida ko‘kka ko‘tarilib ketdt-yu, quvlik qilib, mehnatdan bosh tovlab yuradigan Chopibkel orqada qoldi.

“Ko‘kka ko‘tarilgan bundan ortiq bo‘ladimi? – deb o‘ylardi hamon bo‘sag‘ada qotib turgan Chopibkel uning to‘g‘risida xasad qilib. – Poezdga minadigan ham shu, avtomobilga minadigan ham shu, aeroplanga minadigan ham shu; Olmaotani oralaydigan ham, Moskvani tomosha qiladigan ham shu. Yegani oldida, yemagani orqasida. Yaxshi kiyim-bosh, tomoq ham shunda.... Obro‘-e’tibor, otoq ham shunda!...”

Oltinsarining bunchalik baxti chopganini Chopibkel burunlari ko‘rolmas edi, ammo, lekin, hozir esa, u bo‘sag‘ada hayol surib suyanib turib, birinchi marta o‘z tengdoshining ishidan g‘ururlanib ketdi.

“Balli senga!” – dedi Chopibkel ichida unga, 1927-yili tog‘dan qazib olishgan tug‘ma oltinni qanday talashganlarini eslab. Mana, o‘sha paytdagi uning aytgan so‘zлari rostga aylandi. Oltin ko‘paygan edi, mashinalar ham ko‘paydi!...”

Chopibkelga go‘yo ana shu mashinalarning hammasi Ko‘kchatog‘ning ostida oltin bilan belanib yotganday bo‘lib ko‘rinib ketdi. Mana shu oltinlarni topuvchi ham qazuvchi ham uning ko‘ziga Oltinsari bo‘lib ko‘rindi. Shunday ekan, el-yurt uni ardoqlamaganda, kimni ardoqlasini!....

“Agar o’sha kezlarda men ham u bilan baravarlashib oltin qaziganimda, endilikda bu ahvolda yurmas edim!....” – deb o’kindi Chopibkel.

Bunday deyishining sababi: umuman kolxoz ishlariga ham bo‘y bermay yurgan Chopibkel, xatto o’sha Stepnyak oltin koni ochilgan yillari ham, ayniqsa, dastlabki vaqtлari mehnatga bo‘yin yor bermay, oyog‘ini uzatib yotib olgan edi, faqat keyinchalik borib, och qolgan-dan keyingina, mashina haydashni o‘rganib rulni ushladi.... hozir u oyiga sakkiz yuz so‘m olardi. Bu puldan ham yarimidan ko‘pini “baribir, men boyimayman”, deb ichib qo‘yardi. Shu vajdan uning o‘zi ham, oilasi ham hiyla nochor edi... Xo‘s, endi, Oltinsari-chi.... Chopibkelning chamasiga qaraganda, hatto burungi menman degan boylar ham buningchalik huzur-hulovat ko‘rmagan bo‘lsa kerak.... shunday ekan, demak, rohatda, farog‘atda, yashashning boisi mehnatda ekan....

Miting tamom bo‘lgan kezda, kun botib, qosh qorayib qolgan edi. Yig‘ilishga qatnashgan chol-kampirlar yuk mashinisiga tushib, shaharga qaytishdi-da, bir to‘p yoshlari Oltinsarini xirmon boshida qolishini iltimos qilishgan edi, u tungi smenaga ishga tushishini ayтиб, узр со‘ради.

Zavodga qaytish uchun tashqariga chiqqan Oltinsari, birmuncha vaqt yon-tevarakni tomosha qilib turib qoldi....

Tun – oydin, yulduzlar – yoruq‘... yon-atrofi kaftdek ko‘rinadigan balandlik joy edi. Adirdan zavod ham ko‘rinib turar ekan. Zavod shaharchasini to‘ldirib charoqlab yonib yotgan elektr chiroqlari osmonni to‘ldirgan yulduzlardan kam emas edi. Allaqaerdan, Cho‘rtontog‘ tomondan o‘tib ketib borayotgan poezdning qichqirig‘i eshitiladi. Ana!.. Ko‘kda ikki yulduz uchib boradi. Biroq u yulduz emas... Qiziljardan Qarag‘andaga qarab uchib borayotgan po‘lat quş u!....

Oltinsarining ko‘ziga osmon bilan o‘pishgan Ko‘kchatog‘ tushdi... Xo‘-o‘ bir vaqtlardagi yilqisini yaylovga haydab boayotib Ko‘kchatog‘ haqida o‘ylagan o‘ylari tushdi hozir uning yodiga....

Darhaqiqat, to‘g‘ri! – dedi u tun qo‘ynida cho‘kib yotgan buyuk Ko‘kchatog‘ga qadalib. – Sening go‘zalliging qadimgi Yunon, Rim badiiy ustalarining qo‘l bilan yasagan go‘zal san’at asarlaridan ham go‘zalroqdir!... yerdan qad ko‘tarib, go‘yo taxlangan kabi falak

peshtoqiga qadilib chiqqan sening o'q yetmas cho'qqingni, go'yo ulkan, sehrli oltin jomga qo'yilgan qimiz kabi jimir-jimir qilib turgan quchog'ingdagi oltin ko'llaringni, etaklaringga tikilgan kumush uqaday aylanma, yam-yashil bog'laringni, sening husni-jamolingning maftuni bo'lib atroflaringga sochilgan butun katta-kichik tog'laringni... mana shularning barchasini birga qo'shib quchoqlab, barchasidan baland mag'rur boshingni tik ko'tarib qarab, bulutdan sut emib, er yetgan o'zingni.... ajabo... qanday ulug'rassom huddi o'zingdek qilib chiza olar ekan!.. huddi o'zingdek qilib chiza olar ekan!..

Yo'q, hech kim o'zingdek chiza olmaydi sening rasmningi!... Axir, qo'li chevar tabiat million yillar davomida solgan sening suratingni yoshi yuzga yetmagan rassom qanday qilib sola olsin!....

O', sen ajib ko'kchatog'! Sening faqat sirtingga emas, hatto iching ham mislsiz go'zaldir! Sening har bir toshing ham oltin, har qism tuprog'ing ham oltindir. Sening oting oltin daryo!.. Seniing shu oltin daryongni axtarib topgan kim?... U, faqat,davrimiz yigitlari, davrimiz qizlaridir!...

-- Yasha, kamol top, zamondosh yigit-qizlar! – deb yubordi birdan Oltinsari to'lqinlanib.

Anchagina hayol suribbir yerda tippa-tik turib qolgani endigina uning esiga tushib, u parishonxotir parishonxotir mashinasi yoniga kelsa, Chopibkel kabinada uni kutib o'tirgan ekan.

-- Hey, menga qara, Oltinsari, - dedi u yoniga ztirayotgan teng-doshiga, - men senga aytsam, bir ishga jazm qildim, sen nima deysan?

-- Xo'sh!

-- Aytsam, oltin koniga endi men ham tushmoqchiman, tushganda ham boshqalar bilan emas, faqat sen bilan musobaqalashgani tushnoqchiman. Ilajini topsam – sendan ham o'zmoqchiman!...

-- Mayli, men roziman, ishing o'ngidan kelsin! – dedi Oltinsari.
– Faqat, senga shuni aytib qo'yayki: men ham senga yetkazmaganim bo'lsin....

-- Avvalo, - dedi Chopibkel, kimning o'zish-o'zmasligi – bu mutlaqo tavakkalning ishi. Lekin men gapni xazillashib aytdim. Ol, endi, chinimni aytsam, yalqovlikning ta'zirini toza tortdim. Og'ir

yuk kabi yelkamdan bosib yotgan bu alvasti yalqovlikni butunlay irqitib tashlayman endi....

— Rostdanoq shunday deyotganiningmi, a? — dedi Oltinsari Chopikelning so'zlariga endigina ahamiyat berib.

— Rost, qani ber qo'lingni?

Ikkalasi qo'l berishdi.

— Ola bilganga Ko'kchatog'ning boyligi yetib ortadi. — dedi Oltinsari. — Faqat biz ikkalamiz emas, ming-ming odam umri bino qazisa g'am ortib qoladi uning oltinlari! Tog'ning ostida oltin daryo ekani rost. Oltin vodiyilir bu...

ABDUJAMIL NURPEISOV

(1924)

Qozog'istonning Orolbo'yidagi Ushshoq qishlog'ida tug'ilgan. Moskvada M.Gorkiy nomidagi Adabiyot institutda tahlil olgan. 1953-yili institutni tugatib Qozog'istonga qaytadi va matbuot organlarida ish boshlaydi. 1954-yili "Juldiz" (Yulduz) jurnalining bosh muharriri bo'ladi. O'zi ham urush qatnashchisi bo'lган A.Nurpeisovning birinchi romanı "Kurlandiya" urush mavzusidadir. Yozuvchining "Kutilgan kun" (1957), "Oqshom" (1960), "Sarsonlik – sargardonlik" (1970) romanlari uning nomini elga tanitdi. A.Nurpeisovning "Qon va ter" (1974) trilogiyasi qozoq adabiyotining yutug'i bo'ldi. Uning asarlari ko'plab chet tillariga tarjima qilingan. Adib tarjima bilan ham shug'ullangan. A.P.Chexov, A.M.Gorkiy hikoyalarini, jahon adabiyotidan - ispan draturgi A.Kessonning "Daraxtlar tik turib o'ladi" dramasini va turk shoiri Nozim Hikmat asarlarini qezoq tiliga tarjima qilgan. A.Nurpeisov bir nechta davlat mukofotlari sorindori. Qozog'iston xalq yozuvchisi.

QARINDOSHLAR

(*"So'nggi farz" romanidan parcha*)

.... U idorasiga yaqinlashib qolganida, endi uyqudan uyg'o-nayotgan ovulga yana bir bor nazar soldi. Nariroqda, bir uy oldida it xurdi-yu, tindi. Yana jimjitlik. U idoraga kirganida qabulxonada o'tiradigan kotiba qiz endigina kelgan bo'lsa kerak, hali u yoq-bu yog'ini tartibga keltirib ham ulgurmabdi. Faqat boshidagi popukli ro'molini qayta o'rab, kichkinagina yumaloq oynachasiga qarab, ayozdan qizarib ketgan yuzlarini ko'z-ko'z qilayotgan ekan. Raisni ko'rib shoshib qolgan qiz o'rnidan uchib turdi-yu, unga to'g'ri qarayelmay, iboli yuzlarini yerga tikdi. Uning ikki yuzi olmaday qizarib turar edi. Rais qiz oldidan indamay o'tdi-da, kabinetga kirib, eshikni tezgina yopdi. So'ng qishlay bo'm-bo'sh huvillab turgan kabinetining to'ridagi stoliga borib o'tirdi. Ishga qo'li bormay, ulkan va beso'naqay stolning qator tortmalarini ochib ko'rgan bo'lди. U qaysi torman ochmasin qog'ozlar bilan liq to'la edi. Ularni sekingina

berkitib-berkitib qo‘ya qoldi. Xuvillab turgan kabinetida u nima qilishini bilmas, devorlarga qarab angrayib o‘tirar edi.

Zamon tez o‘zgarib ketdi. Ilgarilar odamlar tong sahardan turib, ishga tushib ketishar, yuzlarini shamol yalagan qora-qura kishilar raisning oldiga kirgani-kirgan edi. Ular dengizda qanday emin-erkin yurishsa, bu yerga ham shunday erkin kirib chiqishardi: biriga u yetmasdi, biriga bu deganlariday... yoshgina raisni yoqasidan olishardi. Ba’zan tentaknamolari aytgan yumushlari bitmasa, stolni qulochkashlab mushtlardi ham. Ularni yer yutganmi o‘zi? Qani ular? U o‘zi payqamagan holda “Qani!” deb baqirib yubordi. So‘ng o‘ziga kelib, boshini kaftlari orasiga oldi-yu, jum qoldi. Xechqursa haligi.... sariq papkasini bag‘riga bosib, iymanibgina kirib keladigan uyatchan kotiba qiz qani?. Unga nima balo bo‘ldi?

Knopkaga qo‘lini cho‘zdi. Cho‘zdi-yu, uni mo‘ljallangan joyidan topolmay paypaslab qoldi. Go‘yo qo‘li tegsa o‘sha tugmani ezib yuborguday vajohati bor edi. Bosdi. Qabulxonadagi qo‘ng‘iroq shitob bilan jiringladi. Kotiba qiz eshitdimi-yo‘qmi, ammo o‘zi qo‘ng‘iroq tovushidan cho‘chib tushdi. U xato qilganini sezdi. Alanglab eshik tomonga qaraguncha bo‘lmay, kotiba qiz ham ko‘rinish berdi. Yodgor eshik oldida iymanib turgan qorachagina qizdan uyalib:

– Qog‘oz.....Qog‘ozlar.... –dedi.

Zuhra xo‘p deganday boshini egdi-yu, chiqib semizgina sariq papkani olib kirdi.

– Meni kechir..... singlim.

Zuhra indamadi. Faqat chiqib ketayotib bir soniya to‘xtadi-yu, raisning ahvolini ko‘rib ajablandi. Orqasiga o‘girilayotib, o‘zicha jilmayib qo‘ydi. Rais yolg‘iz qolgach, papkani ochdi. Undagi qog‘ozlarning aksarisi ovuldan ko‘chmoqchi bo‘lgan baliqchilarning arizalari ekan. Bor-yo‘g‘i o‘ntacha xonodon.

Ularning deyarli hammasi o‘zi bilan tepkilashib katta bo‘lgan yigitlar. Orasida otasi bilan birga dengizda baliq ovlashgan keksalar ham bor. Hov bir gal yigirma besh xonodon ko‘chgandan so‘ng hammaning ko‘ngliga g‘ulg‘ula tushib qoldi. Ko‘chmoqchi bo‘lgan biorsta odamni to‘xtatib qololmaydi. “Ertaga mana bular ham ko‘chadi”. U xo‘rsinganini o‘zi ham sezmay qoldi. Huddi shu mahalda eshik tag‘in ochildi. Qalin kiyinib olgan qandaydir odamlar

kirganday bo'ldi. Polni gurs-gurs bosib kelishyapti. Ana, yaqinlashib qolishdi. Uchta kishining oyogi ro'parasiga kelib to'xtadi. Yodgor ularning tizzasidan yuqorisini ko'rmasdi. Uchchovining oyog'ida ham qo'nji qaytarib olingen baliqchilarning etigi. Ikki chekkadagi odamning gavdali ekanini oyoqlaridagi etiklaridan payqab turar edi.

— Ho'sh, pochcha.... ertalab kelibsizlar. ...

— Yodgorjon, oldinga ish bilan kelgan edik. Seni joyingdan topish oson emas. Tinim bilmaysan, yugurganing-yugurgan....

— Marhamat, o'tiringlar bo'lmasa, gaplashaylik.

— Rahmat, chirog'im. Vaqtinagi olib nima qildik. Faqat senga qog'ozlarimizni tashlab ketaylik deb....

O'itasidagi oldinga bir qadam bosdi. Shuni kutib turgandek ikki chetdagilar ham stol yoniga kelib to'xtashdi. Umr bo'yи eshkak eshgan besunaqay qo'llar birin-ketin qog'ozni stolga tashladi. Rais shundoq oldiginasiga tashlangan uchta qog'ozga qo'l cho'zmay, ko'z qo'li bilan sovuqqina tikilib o'tiribdi. U bu qog'ozlarning nima ekanligini yaxshi biladi. Bu uch chol ilgari bir-ikki marta kelishgan. Birinchi safar kelishganda Yodgor: "Bu Orol dengizi otabobolarimiz zamonida talay marta kamaygan. Bu gal ham bir sabr qilaylik-chi, zora ilgariga qolipiga qaytsa!" — deb ularni aldab jo'natgan edi. Chollar ham bu gapga xursand bo'lib: "Aytganing kelsin chirog'im. Yaxshi niyat — yarim mol", deb ketishgan edi. Ikkinci bor kelganlarida esa: "Xo've anavi Sibir daryolarini burib, Orolga quyishmoqchi", deb sodda chollarni aldab jo'natgan edi. Mana endi... uchovi tag'in kelishibdi. Tag'in raisning og'ziga tikilib o'tirishibdi. Ularga endi nima deydi? Nima bahona qiladi?

— Yodgorjon, bizning hamma gapimiz mana shu qog'ozlarda aytilgan. Bu yog'ini o'zing o'ylab ko'rarsan.

U nimani ham o'yldi. Chollarga rahmi keldi. Kollektivlash-tirish davrida qozoqlar qattiq qiynalishdi. Umr bo'yи ot minib, mol boqib o'tgan ko'chmanchi xalq emasmi, kolxozlashtirish boshlanganida to'g'ri kelgan tomonga pitrab qochib, tutqich bermay yurganda, Kalen boshliq mana shu uchovi bilaklarini shimarib, shu atrofdagi xalqni kolxzogza birlashtirishga yordamlashmaganmidi?. Endi bu uchovi ham ovuldan ketsa, ular bilan birga ovulning barakasi, birligi, puturi ham ketadiganday tuyuldi unga.

— Xo'p, pochcha, arizalaring to'g'risida o'ylab ko'rarmiz.

- Mayli, chirog'im. O'ylab ko'ringlar. O'zing xabar qilarsan.
- Kechiktirmay xabar qilamiz...
- Bo'pti.. Yaxshi, Yodgorjon.

Kesa baliqchilar chiqishi bilan eshikdan lip etib Sariq Shaya kirdi. U o'pkasini boselmadidi. Yodgor, tag'in bunga nima bo'ldi, deb o'ylaguncha bo'lmay, Sariq Shaya gapin davomi ettidi: - Avlodimizda hozir senga mendan boshqa yaqin odam yo'q. Agar bilsang, men senga ota o'mida – ota, og'a o'mida –og'aman. Shunday, chirog'im...

- Aylanay, Yodgorjon, - deb yig'lamsiradi. Yodgor, bunga tag'in nima bo'ldi, deb o'ylaguncha bo'lmay, Sariq Shaya gapin davom ettidi: - Avlodimizda hozir senga mendan boshqa yaqin odam yo'q. Agar bilsang, men senga ota o'mida – ota, og'a o'mida –og'aman. Shunday, chirog'im...

Xaqiqatdan ham uning Yodgorga qarindoshligi bor edi. Tez-tez esiga solib turmasa, mana bu inisi tushmag'ur unutib qo'yadiganday har ko'rganida u qarindoshligini gapirgani-gapirgan, uning bu odati so'nggi paytlarda Yodgorning joniga tega boshiagan edi. Tag'in bu qarindoshining mana bunday ko'ngilsiz paytda kelganimi qarang. Shu bahona bo'ldimi, og'asining bu tashrifi inisining g'ashiga tegdi. La'natinning boshi ham bosh, qoshi ham qosh emas ekan. Qoshi o'mida jiyib ketgan jun yopishtirib qo'yganday, bir nimalar sarg'ayib turar edi.

- Sen bola og'angning qaysi so'ziga qulq solgavn eding. Asli, oldingga kelmaslik kerak edi. Keldim. Endi aytaman. Ota-bobolarimiz "Xotinga ishonina, suvgga suyanma!" deguvchi edi. Xotindushman! Dushman ko'zga ko'rinish hamla qilsa, xotin ... qo'yningga yotib abgor qiladi. Man, abgor qildi-ku axir... Voy do-od dastidan!....

U tovushini boricha baqirib, o'z boshini o'zi savalab dod solganida Yodgor shoshib qoldi. Uning dod solishini sababi: aytganiga qulq solmaydigan rais inisining xotinidan ayrilib kuyib turganidan foydalanim, rashk o'tini yoqish edi. Keyin uni no'xtalab olib, urug'chilik, qavm-qarindoshchilik tuyg'ularini o't oldirib, o'z yo'liga solmoqchi. U buni o'zi ham tasdiqladi:

- Ota-bobolarimiz "Oz bo'lgandan ko'ra ko'p bo'll!" –demagan-midi?. Anavilar ko'pchilik bo'lib bizni ezib qo'yishmoqchi, bizlarni ko'p bug'doy ichidagi yolg'iz arpa boshog'iday bo'g'ib tashla-

moqchi! Nima unimizni ichimizga yutib, bo'g'ilib o'lib ketavera-mizmi? Nomus-orimiz qani? Mayli, erkaklik nomusingni bu yoqqa qo'yib turaylik. Urug'imiz nomusi-chi?. Joningni fido qilib yubormaysanmi! Ana, tashqarida xalqing seni kutib turibdi! Uyma-uy yurib, o'zimizga qaraganning hammasini to'plab keldim. Faqat boshla! Bizni boshla!

Uning gaplari Yodgorning qulog'iga kirmas, faqat og'zining qimirlashini, qizil tilining yilt-yilt etganini, qurt yegan so'yloq tishlarini, gapirgani sayin o't-olib borayotgan sap-sariq, shilpiq ko'zlarini ko'rib turardi. Bir burda yuzida soqoli ham, mo'ylovi ham yo'q: faqat har joy – har joyda bitta-yarimta tuk tikkayib turar, kimlargadir zaxrini sochib, zarda bilan gapirganida iyagida tikkayib turgan tuklarga jon kirib, qimirlab ketar ular ham kimnidir chaqmoqchi bo'layotgan maxluqlarday daf qilar edi. Qarindoshi odam emas, butun zaxrini tiliga to'plab olgan sariq chayonga o'xshab ko'rindi Yodgorning ko'ziga.

– Yo'qol!

– Nima?

– Yo'qol deyapman! Yo'qol....

– Yo'qol dedingmi? Xi-xi-xi....

Sariq Shaya yonginasida turgan kresloga joylashib o'tirib oldi. Yuzlariga masxaromuz tabassum qo'ndi.

– Chindan ham yo'qol deyapsanmi, chirog'im?

– Xe..... Sariq chayon!

– Barakalla. Raxmat. Og'angni odamlar "Sariq Shaya" der edi. Sen "Sariq chayon" dedingmi? Xi-xi-xi...Qoyil-a, chirog'im, - dedi Sariq Shaya. U bu gapni hech qanday keksiz, xusumatsiz, astagina aytdi. Shunday bo'lsa ham Yodgor jahl ustida beixtiyor mushtini tugib olgan, dag'-dag' tirar, buni o'zi ham sezmas edi. Sariq Shaya-ning nigohi Yodgorning mushtiga tushdi.

–Chirog'im-ov, bu musht emas, qora gurzining o'zginasi-ku, - dedi inisining mushtini ushlab salmoqlab ko'rarkan. – sen faqat buni nimaga ishlatishni bilmay yuribsan-da, - qiqirlab kulib ham qo'ydi.

Yodgor mushtini yengini ichiga oldi. O'zini masxara qilib kulayotgan og'asiga nima deyishini bilmay, dag'-dag' tirar edi. Bu holni ko'rgan og'asi inisining qo'lidan hech narsa kelmmasligini bis etib, tag'in o'ktam gapira boshladı..

– Chirog‘im, maria buningni cho‘ntagingga solib qo‘y, - dedi u,
- agar sen mard bo‘lsang, erkak bo‘lsang, kuchingni poytaxtdan kel-
gan, zo‘ravonga ko‘rsat! Xa, shunday qil.... Xi-xi-xi.....

– Voy, rasvo!

– Nima deding? Nima deding, chirog‘im?

– Rasvo dedim!

– Shunaqami hali? – dedi-da, Sariq Shaya o‘tirgan joyidan asta turdi. Haliga o‘tday yonib turgan ko‘zjadi birdaniga so‘nib qolganday edi. Basharasidan bamisoli zaxar tomardi. U inisiga boshdan-oyoq xaqoraomuz nazar tashladi. – O‘zing rasvosan! Xa, o‘zing rasvosan, chirog‘im. Kuppa-kunduzi qo‘ynidagi xotinini oldi-rib qo‘ygan, qo‘lidan hech narsa kelmaydigan landavursan!

Yodgor bundan bu yog‘i nima bo‘lganini bilmaydi. Jaxl ustida hech narsani o‘ylamadi. Faqat shu narsani yaxshi bildiki, mana bu chayonga o‘xshab yuzidan chak-chak zaxar temib oldida turgan qarindoshi g‘irt dushmanini o‘zginasi ekan. Hamma balo shundan chiqqan: odamlar bilan, urug‘ bilan urug‘ni, xullas - hammani abgor qilgan mana shu rasvo ekan. Shu gap hayoliga kelganida Yodgor o‘zini idora qilolmay qoldi. Sariq Shayaga tashlandi.

– Hoy,hoy.... mana bu it nima qilyapti? O‘z og‘asiga qo‘l ko‘tarmoqchimi?

U Sariq Shayani it talagan mushukday chirillaganiga ham parvo qilmadi. Anchadan beri a’zoi badanini qaqshatib kelayotgan kek, izza yuzaga chiqib, gurziday mushti bilan gurs-gurs ura boshladi. Sariq Shayaning burni qonadi. Boyadan beri tagida qarshilik ko‘rsatib tipirchilab Yotgan Sariq Shaya burnidan oqqan qonni yuziga chaplab yubordi-da, birdan tinchib qoldi. Yodgor nima maqsadda bunday qilayotganini hayoliga ham keltirmadi. Uni burchakka tiqib olib, qera qonga belangan burniga, yuzlariga, lim-mim demay targan og‘ziga ustma-ust uraverdi-uraverdi..... shu payt xonga birov kirganday bo‘ldi. U Yodgorga!. Qo‘ying, qo‘ying endi...” deb yalindi, qo‘llariga tirmashdi ham. Bu Zuhra edi. Yodgor qizni silitab yuborganini o‘zi g‘am bilmay qoldi. Faqat “Qo‘ying, uyat bo‘ladi” deb, uyog‘idan-bu yog‘iga o‘tib yurgan qiz birdan indamay qolgach, o‘ziga kelib, ortiga qaradi. Zuhra huddi o‘pkalangan bola yanglig‘ teskari o‘girilib turar, yelkalari bilinar-bilininas silkinardi. Buni ko‘rib, Sariq Shayaning xalqumidan

mahkam ushlagan qo'llari beixtiyor yozilib ketdi. Bet-og'zi qop-qora qonga bo'yalgan Sariq Shayani qo'yib yubordi-da, tashqariga otildi. Eshik oldida uning yo'lini kimdir to'sdi.

— O'rtoq.... bu nimasi? — dedi. Yodgorning betartib ust-boshiga, aft-angoriga qarab bosh chayqarkan. — Kolxoz a'zolarini musht-lab.... Bu g'alati-ku... Uyat-ku!

— Avvalo siz.... nima uchun bunday bo'lganini biling....

— Yo'-o'q, o'rtoq.... Nimasini bilaman. Buni biz shunday qoldirmayimiz. Bizning boshimiz ham bitta, ikkita emas. — Bu partorg edi.

— Nu i k chert....

Yodgor bir amallab o'zini bosdi.

Partorg, qani aytadiganini aytib bo'lsin-chi, deganday bir-oz kutib turdi-da, uning boshqa lom-mim demaganini ko'rib:

— Anavi odamlar nima qilib yuribdi bu yerda? Nimaga to'plading ularni? — deb so'radi.

— Qanaqa odamlar?

— Bilmaysana?

U hech narsani tushunmadi. Amo yuragi bir shumlikni sezib, partorgdan ilgari tashqariga yugurib chiqdi. Qarasaki..... voy rasvo! Sharmandalik! Boyagi Sariq Shaya: "Tashqarida xalqing yig'ilib turibdi!" — deganida unchalik ahamiyat bermagan edi. Endi qatasa, xaqiqatdan ham eshik oldida odamlar tirband: hammasi o'zining yaqin-uzoq qarindosh urug'lari, tag'in hammasi jahl ustida, qo'llariga ilingan narsa borki — kaltakmi, so'yilmi.... ko'tarib olishibdi.

— Hoy, sizlarga nima kerak? Nima qilib turibsizlar?

Sariq Shaya bilan Ko'shen oldinga chiqishdi.

Yodgorjon, chirog'im.... Boshingga ish tushganda, mana bu qarindoshlar qarab tura olarmi?..

— O, rasvolar! Voy rasvolar.... Yo'qol hammang, qoralarin ni ko'rmay.....

Uning esi joyida emasdi. Ko'zları qon talashib hech narsani ko'rmasdi. Shu orada kimningdir qamchisini qo'lidan tortib olgani esida.

— Yo'qolinglar! Ketinglar bu yerdan! Qoralarin ni ko'rmay! — deb baqirib, odamlarga qamchi siltay beshladi. Yuzy demay, ko'zi

demay ularga ularga qamchi siltar, o'ng tomondagini o'ng tomonga, chap tomondagini chap tomonga quvlar edi. Buni ko'rib to'plangan-larning es-xonasi chiqib ketdi. Uncha-bunchaga, xatto yer tebransa ham qilt etinaydigan bu vazmin yigitning birdaniga huddi jin chalganday baqirib-chaqirishi, og'zi-burnini qiyshaytirib, kuchanib, to'g'ri kelgan odamni qamchi bilan savalashini ko'rgan odamlar yuragi chiqib:

- Mana bu jinni-pinni bo'lganmi o'zi?
- Esi joyida emas-ku!
- Mayib qilishdan toymaydi bu...
- Qochinglar!
- Ha ketaylik! deyishib, duch kelgan yoqqa qocha boshlashdi.

Sariq Ivan bilan Ko'shen ham odamlarning orasida qochib borardi. Faqat haydovchi yigitgina qimir etmadni. Qo'lida mashinaning buraydigan kalit. Hozirgina mashinaning tagidan chiqqani ko'rini turar edi. Boshidagi g'ijimlangan kepkasi bilan egni-boshi qora moy.

- He, masxaraboz it!

U shunday deb, haydovchiga ham hamla qildi. Pochalari shimalgilan yalaang'och boldiriga shart-shurt qamchi tortib yubordi. Haydovchi bunga parvo ham qilmadi. Qamchini qayta havoga ko'targan Yodgor buni ko'rib, nima qilishini bilmay, qo'li ko'tarilgancha muallaq qoldi.

- Ket, yo'qol!

Haydovchining ko'zida g'ilt-g'ilt yosh aylandi. Yodgorning qaxr bilan ko'tarilgan qo'li shilq etib yoniga tushdi. So'ng u qamchini uloqtirib yubordi-da, xaligina partorg eshik oldiga boylagan to'riq otga sakrab mindi.

- Hoy, rais, to'xta! Qayqqaba rasan! Gap bor.....

Yodgor ot tizginin qo'lga olgach, yoniga kelib qolgan partorgga qaradi. U hammaga aql o'rgatadigan bu odamdan tezroq qutilgisi kelib:

- Dengizga borib kelmoqchiman, muzni ko'rib qaytaman! – dedi-da, otni yo'rttirib jo'nab ketdi.

— Hali muz yaxshi qotgani yo‘q. Baliqchilarni hali-veri ishga chiqarib bo‘lmaydi. Faqat aylanishib qolma, tezroq qayt! — deb qichqirdi partorg uning ketidan....

Yodgor yaqin orada qaytib kelmasligini yaxshi bilardi. Ovul yaqinidagi baland jarlikdan asta qiyalib tushdi-da, to‘riq, otni tushovlab, jarlikka qo‘yib yubordi. U yolg‘iz o‘zi asta piyoda ketdi. Kechasi yoqsan momiq qor oyog‘i tagida g‘arch-g‘urch qilardi. Nazarida Sariq Shaya hozir ham uni ta‘qib qilib kelayotganday, qulog‘ining tagida shang‘illayotganday bo‘lardi. Birdan a’zoi badani jimirlab ketdi. Busiz ham asablari taranglashib turgan Yodgor, badtar yuragi xijil tortib, odimini tezlashtirdi. U dengiz chetidagi muzning odamni ko‘tara oladigan joyiga bordi. Huddi shu yerda, boyta Sariq Shayani mushtlayotganida hayoliga ham kirib chiqmagan bir narsani esladi. Burni qonagandan so‘ng u o‘chdi... so‘ng qonni yuzlariga chaplab yubordi-da, huddi o‘lishiga ko‘zi yetganday, uning o‘zi Yodgorning gurziday mushtlariga yuzi, ko‘zini tutib berdi. Qiziq, nega bunday qildi? Bu qanaqasi bo‘ldi? Yo inisidan kaltak yeganaga nomus qilib, uning qo‘lida o‘lgisi kelganmidি, bu?! Yo‘-o‘q. Unaqa emas. Burni buzilsa, basharasi dabdala bo‘lsa, tishi sinsa.... bularning hammasi sud oldiga borganda ashyoviy dalil, fakt. Ha, ha, akt qilish uchun naqd fakt kerak bo‘ladi. U quv huddi mana shuni o‘ylagan. Meni qo‘lga tushirish uchun unga huddi shu kerak.

Yopiray! Bu Sariq Shaya haqiqatan ham sariq chayonning o‘zgini ekan-u, a? Ha, xuddi sariq chayonning o‘zgini! Mana ko‘rarsiz, endi Yodgorning ketiga tushadi. Xudo biladi, u hozirning o‘zidayoq bo‘lgan gaplarni qog‘ozga tushirib, rayonga chopib ketdi. Hali anavi qo‘ziqoringa o‘xshash amaldorlarning oldiga boradi. Xo‘sish, bordi ham deylik. Buni qoralaydigan hujjatlarni oldiga yoyib qo‘ydi ham deylik. Shunda u nima qilar ekan? Qo‘llarini qornini ustiga qo‘yib, xursand bo‘lib, hujjat to‘plab borganda “malades, malades!” dermikan?... bordi-yu, bu rasvo rayondan bir gap chiqara olmasa, viloyatga chopadi. Ishqilib, qadami yetgan joyda qarindoshini yomon otliq qilib, ishga olmaydigan qilib, qora eshakka teskari mindirib, yuziga kuya surkab qaytmasa ko‘ngli tinchimas-ov!

Kun birdan kech kirib qolganday tuyuldi. U turgan joyidan jilmay, hayol surib turar edi. Ortida bepayen Orol dengizi. Suv

yuzasi hali muzlab ulgurmagan. Hamisha cheki-chegarasi yo‘q bo‘lib ko‘rinadigan dunyo hozir uning ko‘ziga tor ko‘rindi, hozir u huddi dunyoning chetiga kelib turganday tuyuldi. Mana dunyoning chetidagi so‘nggi izlari... go‘yo orqa tomonda ham, oldinda ham oyoq bosadigan yer yo‘qday, dunyo tugab qolganday. Xo‘sh, endi qayoqqa boradi? Kimning oldiga boradi? Shu shuvillab turgan bepayon dengiz ortida ham oyoq bosguday yer qolmaganday nazdida. Go‘yo uning ortida osmon, yer, suv, elu yurt yo‘qday. Qadimda ota-bobolarimiz huddi mana shunday o‘ylashardi: ular nazdida, dengiz ortida hech zog‘ yo‘q, hunar, ilm yo‘q edi. Ular jamiki ko‘kdagi qudratni – payg‘ambarning sharofatidan deb tushunishardi. Ovul odamlarining nazarida suv payg‘ambari Sulaymon, agar xahlasa, suv ostida huddi yerda yurganday yuraveradi.

Bordi-yu, Sulaymon payg‘ambarning odamlar tasavvur qilgan o‘sha sehri unga qo‘nguday bo‘isa, hozir dengizga tushar edi-da, sehrli hassasining uchi bilan moviy to‘lqinlarni huddi billur vazani chertganday jarang-jurung qilib urib, borsa kelmasga ketgan bo‘lur edi. Afsuski yonida na Sulaymon payg‘ambar-u, na qo‘lida uning sehrlı hassasi bor. To‘g‘ri, baliqchilar ovulida oppoq soqoli ko‘ksiga tushadigan Sulaymon ismli bir chol bor. U xassasini qo‘liga mahkam ushlab, kunchivoqda o‘xo‘-o‘xo‘ qilib yo‘talib o‘tirgani-o‘tirgan. Umr bo‘yi suv kechib yursa-da, unga Suiaymon payg‘ambarning sehri-karomati qo‘nimagan. Qiladigan ishi shuki, pochталон bola har oyning oxirida besh o‘n so‘m pensiya olib olib keladi, shuni oladi. Ilgarilari u otasi bilan to‘r tashlab, baliq ovlagan deyishadi. Kim biladi deysiz? Ovlagan bo‘lsa, ovlagandir. Ammo hozir salom bersang eshitmaydi, qo‘lidagi xassasini dir-dir titratib, ikki tizzasining orasiga qisadi-da, qo‘lingni maxkam ushlab, qulog‘ini og‘zingga tutganicha: “A? Nima deysan? Qattiqroq gapir!” – deb sog‘ boshingni savdoga qo‘yadi.

Odamzot xudodan kecha-yu kunduz yolvorib umr tilaganda, unga ko‘rsatgan mehr-shafoati shu bo‘lsa, unda yaratganning qudrati hamin qadar ekan-u.

U qattiq xo‘rsindi. Uni o‘z xayollari biyday dalada huddi och kuchukday tinmay talayverdi-talayverdi.....

Bir mahal shamol turdi. Orol ob-havosiga tushunib bo'lmaydi: kutilmaganda ayniydi qoladi. Tevarak-atrofga sovuq inib, osmonga birpasda tusi sovuq qora bulut chiqdi. Qor uchqunlay boshladi.

Yodgorning qaytgisi keldi. Sovuq izg'irin chimdib achitgan yuzlarini qo'llari bilan uqaladi. Ketadiganlar ketib bo'lgandir. Dengiz bo'ylab, muz ustidan ketganida allaqachon qorasi ko'ringan bo'lardi. Ko'rinnaganiga qaraganda, qir yo'li bilan ketdi shekilli-da? Shunaqadir-ov?!

SOBIT DO'SONOV

Sobit Do'sonov 1940-yilda Qozog'istonning To'rg'ay viloyati Amangeldi tumanida tug'ilgan. Hezirgi qozoq adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri, jamoat arbobi, Qozog'iston Davlat mukofoti sohibi.

Uning o'nlab roman, qissa, hikoya va publisistik maqolalari turli xalqlar tillariga tarjima qilingan. Adib 2000-yilda M.Sholoxov nomidagi xalqaro mukofotga sazovor bo'lgan. Shuning bilan bir qatorda u Rossiya pedagogika va ijtimoiy fanlar akademiyasining akademigi.

Sobit Do'sanovning "Tog' yo'li", "Ikkinchi hayot" romanlari, "Arvona" nomli qissasi muallifga katta shuhrat olib kelish bilan birga, uning nomini chet ellarga yoyishga xizmat qildi. Sobit Do'saney o'zining turkiy xalqlar oldidagi xizmatlari uchun M.Koshg'ariy nomidagi xalqaro mukofot bilan taqdirlangan. Yozuvchining "Qashqir uligan tun" romani va bir nechta hikoyalari o'zbek tilida M.Islomqulov tarjimasida e'lon qilingan.

UCHRASHUV (Hikoya)

Oynaday yarqiragan bepoyon ko'lida chag'alay yanglig' oppoq kema ortida somon yo'liga o'xshash ko'pikli yo'lak qoldirib, ohista suzib bormoqda. Botayotgan quyoshning qizg'ish nurlari ko'lning shabnamday shaffof sathida tovlanib, turfa ranglarda mavjlanadi. Tik tepada, to'ncarilgan qozonday moviy gumbaz toqida qalqib borayotgan bir parcha oqish bulut malak qo'lida xilpirayotgan durracha kabi xayolni olislarga olib qochadi. Kema ko'ksi ila yorib borayotgan suvning shovuri-yu motorning bir maromdag'i guviri tog' quchog'idan qaynab chiqayotgan oydin buloq shalojasining shodon sharqirashini esga soladi. Bu kanorada bundan o'zga sas eshitilmaydi. Naryog'i Tarbag'atoy tog'lariga borib tutashgan moviy sarob va zangor osmon sутday oppoq shu'lalarga cho'mgan ufq ila uyg'unlashib, hayratlanarli sohir bir manzara kashf etgan. Uyqudagi sanamday tabiatning mana shu go'zal tarovatidan sарxushlangan O'ljas ustoz-shoir Abdilda og'aning:

Shunchalar go'zal dunyoda

Yovuzlik qanday yaralar?—

satrlarini esladi.

"Ha, —dedi u ichdan to'lqinlanib, — "yorug" olam" deguvchi manov yolg'onda suluvgigu ulug'likda tabiatga teng keladigan nima bor? Lekin biz mana shu suluvgigu, ulug'likning qadrlayapmizmi? Ibtidoda Yaratgan Egam odamga "Yer yuzidagi butun tiriklikni ixriyoringga topshirdim. Cheksiz kengliklari yuksak tog'lar, ko'mko'k ummonlaru, zilol ko'ilar, zangor o'monlar – haruma-hammasi seniki! Uning gullab-yashanishi-yu, zavoli o'zingga bog'liq. Hammasi uchun Mening oldimda o'zing javobgarsan!" —yegan ekan. Bizga Yaratgandan ato etilgan Ona Zaminni ko'z qorachig'idek asrash o'miga biri-biridan qudratli, biri-biridan dahshatlil bomba, raketalar o'ylab topib, kulini ko'kka sovurishga kirishgandaymiz. Birgina Semey atom poligoni--qozoq dashtining bitmas jarohati, kulfatiga aylandi. Poligonning kasofatidan qozoq dashtida har qirq soniyada bitta majruh go'dak dunyoga kelmoqda!.. Shunday tang vaziyatda mamlakat milliy daromadining yigirma foizi harbiy sanoat ravnaqiga, xalq sog'lig'ini saqlash uchun esa uning uch foizigina ajartilayotganini qanday izohlash mumkin?! Madaniyat va maorif sohalari esa sadaqa evaziga kun kechirayotgan tilanchiga o'xshaydi. Oqibat nima bo'ladi?! Oqibatda – Shekspir tug'ilmagan yurtda Nyuton ham tug'ilmaydi!

G'arbdagi tahlilchilarining hisob-kitoblariga ko'ra, sinov uchun portlatilayotgan har bir atom bomba uchun o'ttiz million dollar mablag' sarflanar ekan. Binobarin, yiliga yigirmata bomba portlatiladigan Semey atom poligonida har yili olti yuz million dollarlik mablag' havoga uchib ketar ekan. mablag' sarflanar ekan. Bu mablag'ning bir bo'lagi suv o'miga zahar yutayotgan, na yo'li, na elektr chirog'i bo'limgan chekka tumanlarga ajratilsa, dashtdagi xalq ham ro'shnolik ko'rib, qadlarini allaqachon tiklab olmasmidi! Afsuski, xalqining manfaatini o'ylaymaydigan, uning ehtiyojlari bilan hisoblashinaydigan jamiyatda bunga erishib bo'lindaydi chog'i.

Bu ko'hna dashtning sho'rishlari buncha ko'p bo'limasa?! Qo'riqni o'zlashtirish shiori ostida azaliy ting yerlar tilka-pora qilinib, ming yillar mobaynida ajdodlarimizni boqib kelgan saxovatli buyuk dalaning hosildor qatlami cho'l shamollarida qora quyunga

aylanib, o't-o'lansiz taqir sahroga aylandi. Xalq boshiga tushgan bu ko'rgiliklarni shoir aytmasa, kim aytadi? Achchiq bo'lsa-da, haq gapni ochiq aytish uchun tuz ko'z, muz yurak yuzlagan generallari, minglagan zabitlari bo'lgan "harbiy sanoat" monopoliyasiga qarshi turish uchun maydonga tushadigan vaqt keldi. Aslida bu kurash ma'muriy-boshqaruvning boshida turgan "markaz" deb ataluvchi ajdaho bilan olishish degani. Boshni garovga qo'yib, "AZ i Ya" ni yozganimday yana bir bor maydonga tushsam, xalq meni qo'llarmikan? Yoki yolg'iz otning changi chiqmas, yolg'iz yigitning dongi chiqmas, deganlariday, maydonda yolg'iz qolamanmi? Alaloqibat, kimdir haqiqatni aytishi kerak-ku! Nozim Hikmat aytganiday:

Men yonmasam lovullab,
Sen yonmasang lovullab,
U yonmasa lovullab,
Osmon qandoq yorishsin?!

Bombalarining tinimsiz portlashlaridan ko'ksi tilkalangan qozoq dashtining hasratlarini o'ylaganda – yuragim she'rga, ko'zim yoshga to'ladi. Buyuk Mag'jon aytganiday:

Tug'ilmas oqin xalqni yig'latay deb,
Tug'ilar oqin xalqni yupatay deb,
She'rarin ro'molchaday yoyadi u
Ko'z yoshin odamzodning yo'qotay deb.

Odamzodning ko'z yoshini yo'qotish qo'limdan kelmasa-da, loaql o'z xalqim ko'z yoshini jinday aritishga yarasam armonim qolmas edi. Shoirlik va fuqarolik – egizak, deyishadi. Fuqarolik tuyg'usi yo'qolsa, shoirlik ham o'ladi... Xalq uchun boshni garovga tikib, achchiq haqiqatni ochiq aytadigan payt keldi.

– Xayrli oqshom, O'ljas O'marovich! – dedi pastdan palubaga ko'tarilgan viloyat partiya qo'mitasining kotibi Sergey Petrovich Sorokin.

– Xayrli kech, Sergey Petrovich!

O'rta bo'y, oq-sariqdan kelgan Segey ismli yigit bilan O'ljas o'tgan yili viloyatga, uchrashuvga kelganida tanishgan edi.

– Kayfiyatning yo'qroq ko'rindi, O'ljas O'marovich? –kulimsirab so'radi Sorokin.

– Qayg'u-mung kimi larni so'rmadi?

O'ynashdik o't bilan ham, o'q bilan ham.

Umidziz kunlarim bo'imadi,

Shul sabab mukamma'day baxtim ham, -deb O'ljas Sergeyning yelkasiga qo'lini tashladi.

-- O'ho', bu o'yantiruvchi satrlar o'zingiznikimi, O'ljas O'marovich?

-- Yo'q, menikimas, bular allaqchon xalqining timsoliga aylangan ulkan shoir Mustay Karimniki.

- Kamina adabiyot olamidan olis bo'lsamda, badiiy adabiyotni ko'p o'qiganimdanmi, ijodkorlar haqida ayrim shaxsiy fikrlarim yo'q emas, deyishim mumkin. Mustay Karim "Tashlama olovni, Prometey" dramasida, tarixiy voqealar zamirida bugungi kun muammolarini aytib, iste'dod yo'liga g'ov bo'luchchi senzurani dog'da qoldirgan, deb o'layman.

-- Sizningcha senzura iste'dodga yo'liga g'ov bo'la oladimi?

-- G'ov bo'lish u yoqda tursin, uni kurtakligidayoq bo'g'ib, yo'q qiladi!

-- Bu fikrga qo'shilolmayman, -dedi O'ljas. -Pushkin senzura qatag'oni sharoitida ijod qildi. Tolstoy, Dostoyevskiy, Turgenev, Chernishevskiy ham senzuraning xushyor nazari ostida qalam tebratishgan. Stalin davridagi senzurani esa - bahorda endi nish urayotgan maysani po'lat zanjirlari bilan ezg'ilagan tankka o'xshatish mumkin edi. Lekin, Bondarev, Rasputin, Astafiev, Aytmatov, Bikov, Kugultinov, G'amzatov - sho'roviy senzuraning qahrtli nigohi ostida mumtoz asarlar yarta oldilar. Xrushchyov sho'rolar ittifoqida faqat bitta til - rus tili bo'ladi, milliy tillar o'ldai, deb ayuhannos solgan damlarda G'amzatov "Avar tili ertaga o'lsa - men bugun o'lishga roziman!" deb xitob qildi. Menimcha, haqiqiy adabiyot senzura, davlat siyosatining taz'iyida qaytanga toblanib, yuksaladi.

-- To'g'risi, bu haqda o'ylab ko'rmagan ekanman, -dedi Sorokin.

-- Men asli geolog, -dedi O'ljas. -Tuzli cho'kindilar mavzusida diplom ishi yozganimda yerning pastki tuz qatlamlari tepadagi bosimni yengib, yuzaga ko'tarilishini o'qigandim. Bu jarayon geologiya fanida - yerosti qatlamlarining tektonik harakatlanishi, deyiladi. Tadqiqotlarimga asoslangan holda aytishim mumkinki, ana shu tuzli

qatlamlarga tepadan bo‘ladigan bosim qanchalik kuchli bo‘lsa, ular yer yuzasiga shunchalik tez ko‘tarilar ekan. Aksincha, tepadan bo‘ladigan bosim yo‘qolsa, pastdan bo‘ladigan qarshilik ham susayib, tepaga intilish ham to‘xtaydi. Adabiyotdagi rivojlanish, yuksalish ham xuddi shunga o‘xshaydi.

— Besh barmoq barobar emas, deganlariday, bu turfa olamning odamlari ham turfa xil: biri – sayoz, biri – teran, biri – pakana, biri – daroz! Xullas, odam ko‘pu shaxs kam. Sizningcha, buning sababi nimada?

— Har bir tirik organizm o‘z muhitining mahsuli. Hatto gul ham serhosil, unumdon yerda o‘sadi, nobop yerda quriydi. Odam ham gulga o‘xshaydi. Yorug‘ dunyo eshigini ingasi bilan ochib kegan go‘daklarning yomoni, noqobili bo‘lmaydi. Ularning kim bo‘lib ulg‘ayishi – o‘sgan muhiti-yu olgan tarbiyasiga bog‘liq. Dono Abayning “Kimda-kim yomon bo‘lsa, bunga zamondoshlari venovat”, degan gapida teran ma’no bor. Tug‘ilganning jo‘ni bo‘lak, yo‘li boshqa. Odamning shaxs darajasiga yetishi uchun, yuqoridagilarga qo‘shimcha qilib aytganda – bilim, mehnat, o‘ziga talabchanlik, talant va teran fikrlash salohiyati, shuningdek, hur fikrli, ilg‘or muhit bo‘lishi shart. Bularsiz shaxs bo‘lib yetilib, yuksakka ko‘tarilish qiyin. Amerikaning atoqli iqtisodchisi, Nobel mukofotining sohibi, asli rossiyalik Leontev: “Sho‘rolar tuzumining eng katta nuqsoni – shaxsga yetarlicha e’tibor bermasligida”, –deb bekor aytmagan.

— O‘lijas O‘marovich, siz bilan mana shunday yaqindan suhbatlashishni orzu qillardim, ortiqcha savollar bilan boshingizni qotirganim uchun uzr so‘rayman...

— Hechqisi yo‘q, Sergey Petrovich, bemalol... Siz bilan fikrlashish menga ham yoqadi.

— Bugungi kunda Soljenitsin haqida turli gaplar ayланib yuribdi. U haqda qanday fikrdasiz? – dedi Sorokin O‘lijasga qisiq ko‘zlarini sinovchan tikib.

— Aleksandr Isaevichni yomon yozuvchi desak, vijdonsizlik, yaxshi siyosatdon desak – haqiqatga xiyonat qilgan bo‘lamiz. Soljenitsin okeanning naryog‘idan hayotimizga qora ko‘zoynak taqib qaragani bois--uni faqat qora rangda ko‘rayapganday...

— Yaqinda Semey viloyatdagi Abay, Abirali, Shubartov, Aqsuvot, Ko‘kbetii tumanlarida o‘tkazgan uchrashuvlaringiz haqidagi

axborotlarni mahalliy ro'znomalarda o'qigandim. Safardan qaytib oqishni respublikaning birinchi rahbari qabulida bo'lib, viloyatda zudlik bilan hal etilishi zarur bo'lgan bir qancha muammolarni qo'yibsiz.

-- Semey viloyatida zudlik bilan hal etilishi zarur bo'lgan uchta muammoga to'xtaldim. Buning birinchisi, ya'ni o'ta mushkuli—Semeydagi atom sinov poligonini yopish. Ikkinchisi — chekka tumanlardagi xalqning yuragida armon bo'lib qotgan muammolarni, ya'ni, suv, yo'l, elektr ta'minoti paysalga solinmasdan, tezda hal etilishi kerak. Uchinchisi — yurtmizdag'i ekologik vaziyatning tangligi. Bu tanglik faqat Semey viloyatidagina emas, balki butun Qozog'istonga dahldor.

-- Bu gaplaringiz to'g'ri-yu, lekin ularning yechimini topib bo'larmikan? Ayniqsa, Semey poligoni muammosini hal etish qiyin bo'lsa kerak...

-- To'g'ri, qiyinlikka-qiyin, —dedi O'ljas o'ychanlik bilan. -- Ammo qiyin deb qo'l qovushtirib o'trib bo'lmaydi? "Pessimist--har qanday imkoniyatda qiyinchiliklarni ko'radi, optimist — har qanday qiyinchiliklardan imkoniyat axtaradi", -degan ekan Uinston Cherchill. Kezi kelganda, mazkur muammolarni Moskvaning eski maydonidagi Kremlga ham. ittifoqdosh o'n besh respblika xalqiga ham yetkazarmiz.

Quyosh ufq ortiga berkinib, oqshom qorong'iligi quyuqlasha boshladi. Endi suv sathini shaloplastib sakragan ulkan va chovoq baliqlar ham, chag'alaylarning tinimsiz chiyillashi ham timb, ko'l uzra sokinlik cho'ka boshladi.

-- Yorug'roqda pastga tusha qolaylik, —dedi Sorokin.

Ular zinadan pastga tushayotganlarida kema oyog'iga yem tushgan otday yurishini sekinlata borib, taqqa to'xtadi. Sorokin bilan O'ljas bir-birlariga urilib, zinadan pastga yiçilishlariga oz qoldi.

-- Eh, jin ursin! —dedi Sorokin.

-- Nima gap? —ajablanib so'radi O'ljas.

-- Kema loyqaga tiqildi.

-- Endi nima qilamiz?

-- Tong otguncha kutishdan boshqa ilojimiz yo'q.

-- Shunisi yetmay turuvdi! — dedi O'ljas asabiyashib.

Lekin yalpoq bet, katta og'iz kema kapitani Jo'lim bamayli-xotirlik bilan:

— Nichego, —dedi u ustara qirtishlangan yaltir boshini ulkan kafti bilan silar ekan. —Hozir ko'lda suv pasaydi, lekin tun yarmida qayta ko'tariladi. Tong otishi bilan zuvillatib, sizlarni narigi sohilga yetkazib boraman. Sergey Petrovich tonggacha zeriktirmaydi, vaqtning qanday o'tganini sezmaysizlar.

— Vaqtni-ku bir amallab o'tkazishga o'tkazarmiz, lekin sohilda yo'limizga ko'z tikib o'tirgan xalq nima deydi? Shundoq ham tayinlangan vaqtdan kechikdik. Ular bizni ertagacha kutishmaydi, —dedi O'ljas xafsalasi pir bo'lib.

— Balki kutishar? —dedi Jo'lim iljayib.

— Nima bo'lsayam, borganda ko'rarmiz, —dedi Sergey Petrovich.

Jo'limning aytgani bo'ldi. Sergey Petrovichning bir o'zi bir teatrga tatiydigan hunari bor ekan. Palubaga yozilgan dasturxon tepasida hangoma, latifago'ylik qilib, hammani kuldirdi, bayarni qulochlab cho'zib, laparlar aytdi:

O'rmon kezib Vanyusha,

Ke'rib qoldi Manyani.

Manya ham tineh yurmasdan,

Sevib qopti Sanyani.

...Tonggi shirin uyquda yotgan O'ljasni Sorokin uyg'otdi.

— O'ljas O'marovich, turing, uchrashuv joyiga yaqinlashib qoldik.

— Soat necha bo'ldi? —dedi O'ljas o'rindiqdan turar ekan.

— Tonggi besh.

O'ljas darrov kiyinib, yuvindi-da, Sorokin izidan palubaga ko'tarildi. Ular yonma-yon turib, sohilga tikilishdi.

— Ana, uchrashuv joyiga yetib ham qoldik, —dedi Sorokin qo'li bilan sohilni ko'rsatib.—Sohilda turganlarni ko'ryapsizmi?

— Ko'ryapman, ular juda ko'pchilik-ku?—dedi O'ljas ajablanib.

— Kamida ikki yuztacha. Bular kecha oqshom siz bilan uchrashuvga kelishgan.

— Bundan chiqdi, ular bizni mana shu ochiq osmon tagida, ko'l yoqasida tuni bilan uxlamay kutishganmi?

— Albaita, O'ljas O'marovich...

-- Yopira-ay! Xalqning kuttirib qo'yganimiz noqlay bo'ldi-da!
Bu gunohni endi qanday yuvamiz?

-- Bunga siz aybdormassiz. Manov Zayson ko'lida suvning sathi
oqshomlari pasayib, tun yarimida yana ko'tarilishidan kemalar
ba'zan loyqaga tiqilib qolishini mahalliy xalq yaxshi biladi.

Ikkovlari so'zlashib, pastga tushishdi. Kema yurishini sekinlatib,
sohilga kelib to'xtadi. Shundan so'ng ko'l yoqasidagi keng
maydonda olomon kemadan tushayotganlar istiqboliga yurdi.
Oldingi to'pda kelayotgan milliy libosdagi baland bo'yli qiz
to'dadagilardan bir qadam oldinga chiqdi. Uning chiroyli bo'ta
ko'zlar mo'ltirab, oppoq cheharasi tong quyoshining qizg'ish nurla-
ridari tovlanib, shoirga non-tuz tutdi. Norming bir chekkasidan
ushatayotgan shoirning nigohi qizning nigohi bilan to'qnashdi. Shu
lahzada non tutgan malakning yonoqlari avvalgidan-da lovillab,
qizardi, yuragi gupillab urdi.

-- Xush kelibsiz, O'ljas og'a! Sizni qarshi olayotganimdan baxt-
liman! --dedi qiz hayajonini yashirolmay, ovozi to'lqinlanib.

-- Rahmat, qarog'im!

-- Butun xalq siz bilan tilakdosh, og'a!

-- Isming nima, bo'tam?

-- Oqmorol!

-- Ismingni topib qo'yishgan ekan, Oqmorol desa oqmorol
ekansan, qayda yoursang ham om'on bo'll! --dedi shoir qizga mehr
bilan tikilganicha. Shu payt maydon uzra:

-- O'ljas!

-- O'ljas!

-- O'lja! --degan xitoblar yangradi.

-- O'ljas!

-- O'ljas!

Shoir qo'lini ko'ksiga qo'yib, xalqqa ta'zim qilib:

-- Kuttirib qo'yganimiz uchun uzr so'rayman! --dedi.

-- Hechqisi yo'q, bir tun -- ming kun emas! --dedi o'rtada turgan
miqtı gavdali yigit.--Biz sizni qancha kutish kerak bo'lsa, shuncha
kutishga rozmiz!

-- O'rtoqlar, --dedi Sorokin. -- Vaqtni o'tkazmasdan ishga kiri-
shaylik, uchrashuvni qaerda o'tkazamiz? Klubdami, ochiq maydon-
dami? Xalq teatrining rejissori qani?

– Shu yerdaman, Sergey Petrovich, –baland bo‘yli oq-sariqdan kelgan yigit olomon ichidan chiqib, O‘ljasning qarshisiga kelib, tiz cho‘kdi-da: –Ismi tillarda doston bo‘lgan buyuk shoirni ko‘rib turganidan bag‘oyat baxtliman! Siz bilan zamondoshligimdan faxrlanaman, O‘ljas O‘marovchi! –dedi hayajon bilan.

– O‘rningizdan turing! Bu nima qilganingiz? –dedi norg‘ul yigitning tiz cho‘kib turishidan o‘ng aysizlanib, qulog‘igacha qizarib ketgan O‘ljas, so‘ng uni qo‘ltig‘idan ko‘tarib, o‘rnidan turg‘azdi. – Ismingni bilsak bo‘ladimi, yigit?

– Ismim – Antoliy, familiyam – Ivanov.

– Nima deysan, rejissyor, uchrashuvni qaerda o‘tkazsak bo‘ladi? –so‘radi O‘ljas.

– Klubimiz kichik – to‘planganlar sig‘maydi. Qarshi bo‘lmasangiz, shu ochiq maydonda o‘tkazsak, degandim.

– Ma‘qul, sen aytgancha bo‘la qolsin, –rozi bo‘ldi O‘ljas. –Unda uchrashuvni boshla, rejissyor.

Rejissyorning ishorasi bilan Zaysan sohilidagi maydonda, shahar teatrlaridagi spektakllarga o‘xshamaydigan, o‘zgacha bir tomosha boshlanib ketdi. Tomoshabinlar nigohi oldidan Mahambetdan – O‘ljasgacha o‘tgan botirlaru shoirlar bir-bir o‘ta boshladilar. Ular shunchaki o‘tnasdan, san‘atlarini O‘ljasning she’rlari jo‘rligida narnoyish etib o‘tishardi. Maydon uzra shoirning aqiq satrлari qirq daqiqa davomida baralla yangrab turdi. Undan keyin O‘ljasga non-tuz tutgan Oqmorol go‘zal qo‘shiq aytib, raqsga tushdi. Uchrashuv so‘nggida O‘ljas muxtasar kirish so‘zi aytib, so‘ng e‘z she’rlaridan o‘qiy boshladi:

Sen deb ozdim,

Seni deb qaltiradim.

Sen bo‘imasang,

Mening ham yo‘q yuragin,—

deb muxlislar oldida hayajon va zavq bilan she’rlarini o‘qiy boshladi.

“Yopiray, aylanib o‘tayin, sadag‘ang ketayin, O‘ljas og‘am-ey, manov she’tni siz emas, men yozgandayman, –derdi Oqmorol o‘zicha pichirlab. –Manov satrlar mening sizga umr bo‘yi aytal olmagani tuyg‘ularim, bu yolg‘on dunyodagi qalbimni o‘rtagan armonlarim, chin dunyoga o‘zim bilan birga olib ketadigan sirlarim-

ku. Qosim oqin aytganiday “Oshiq edim, netayin, uni bilar jon qayda, armon bilan o’tayin, armonsizdan ne foyda?..” Mana shu O’ljasning “Sevmasa gar meni tog‘lar, meni qanday qadrlardi odamlar”, degan she’ri bor emasmidi? Shuni o’zgacha qilib, “Sevmasa meni O’ljas agar, meni qanday qadrlardi odamlar!” – desam manov xaloyiq nima derkin? “Xudo bo‘lib birovni bir xatardan qutqazsang, bundan ortiq baxt yo‘qdir agar bilsang!” –deb yozgandingiz-ku, O’ljas og‘al! Xudo bo‘lmayoq, O’ljas bo‘lib, sen deb yongan yuragimning olovini o‘chirsang men uchun “bundan ortiq baxt yo‘qdir agar bilsang”, arslonim, donishmandim, jon og‘am, qayda yursang omon bo‘l, yo‘lingga chivin jonimni sadag‘a qilayin!”

G‘arb ham yo‘qdir,

Sharq ham yo‘q.

Hazillashmang, bo‘zarmang.

Barcha ulug‘ tillarda

Bitta so‘z bor—bu zamin.

“Bu Gagarin fazoga uchgan kechada-yoq burgutdayin parvez qilgan iste’dodning teran tebranishidan quyma oltin bo‘lib qog‘ozga quyilgan “Insonga ta’zim qil, Zamin!” dostoni-ku, –o‘yladi Oqmorol. –Yoqut so‘zlardan to‘qilgan gavhar satrlar siyohi qurimasdan-oq, respublikaning eng mo‘tabar gazetasida e’lon qilinib, varaqha holida Olmaota osmonidan aeroplandan sochilganini matbuotda o‘qigandim. Bu yulduzli doston shoirning ham yulduzini yuksakdan porlatgan edi. “Insonga ta’zim qil, Zamin”ni O’ljas badavlat AQSh bilan kalandimog‘ Angliyada, bashang Fransiyada o‘qib, hammani lol qoldirdi. O‘sanda shoir atigi yigirma besh yoshda edi. O‘ttizga yetmasdan o‘rda buzgan oltin og‘am-ey, o‘shandan beri sen jahonning qay go‘shalarida bo‘lmading. Jahonni boshdan-oyoq necha bor kezib chiqding. Ko‘hna Afrikani ham olovli she’rlaring bilan mudroq uyqudan uyg‘otib, “qozoq” degan nomni olamga mashhur qilding. Aylanayin, olmosday asil og‘am-ey, bu sening bиринчи jasorating edi. Undan keyingi yana bir mardligingni el unutganicha yo‘q. Ilmda yangilik yaratib, to‘nkarish yasagan “AZIYa” kitobing respublikanigina emas, butun Sho‘rolar Ittifoqini larzaga solmadimi?! Millionlagan odamlar ongini o‘zgartirgan o‘sha kitobingning bir donasini odamlar bitta “Volga” avtomashinasiga

ayirboshlagan paytlarda, kalandimog' shovinistlarning senga yoppa hujumi boshlanib ketdi. O'shanda senga it ham, kit ham tashlangan edi. Bu hujumga ikki yuz ellik millionlik xalqi bor "SSSR" deb atalmish ulkan imperiyaning sur kardinali Suslovning o'zi bosh bo'lgan edi. Shunda ham sen egilmading, sinmading...

Quyoshning sharqdan chiqishi qanchalik haqiqat bo'lsa, yuksalish ham sharqdan boshlangani aksioma ekanligini qo'rmasdan aytib, boshingni kundaga qo'yib, xalqining qadrini yuksaltirishni mardlik demay ne deyin?! Yolg'iz mengina emas, olamdag'i jami go'zal qizlarning orzusiga aylangan O'ljas og'amga tabiat saxiylik ko'rsatib, o'ydan ham, bo'ydan ham qismagan. Yaratganning nazari tushib, bo'yi bilan o'yi, chiroyi bilan buyukligi mos tushgan bunday yigit yana qayda bor? Ovozi ham buncha yoqimli bo'Imasa, bunday ajoyib talaffuz SSSR xalq artisti u yoqda tursin, jahon xalq artistida ham yo'q! "Insonni—inson etuvchi bir ulug' fazilat bor, uning nomi—hayo!" degan ekan donishmand adibimiz Mustafin. Agar qozoq qiziga xos bo'lgan hayo bilan uyat tushov bo'Imaganida o'zim seni izlab borib, bo'yningga qo'riq tashlagan bo'lardim! Endi senga g'oyibdan oshiq bo'lib, olisdan turib, senga omonlik tilashdlan o'zga choram yo'q, jonim og'am!.."

To'lqinlanib, shiddat bilan she'r o'qiyotgan qizil ko'ylakli shoirga tikilgan Oqmorolning ko'nglida ana shu o'ylar tug'yon urardi.

Shoir she'r o'qishdan to'xtashi bilan maydon uzra gulduros qarsaklar ila:

— O'ljas!

— O'ljas!

— O'ljas!!!

—degan ovozlar yangray boshladи.

— Qoyilman! Bu unutilmas uchrashuv bo'ldi! —deb hayajon ila O'ljasning qo'lini siqdi Sorokin.

— Endi nima qilamiz? —so'radi O'ljas.

— Endi Zaysan tumanidagi Kurshim sovxoziiga boramiz.

— Sovxoza bormasak bo'lmaydimi? —dedi O'ljas ertangi chet el safari yodiga tushib.—Olmaotaga erta tonggacha yetib borishim kerak.

-- Sovxozga bormasangiz bo'lmaydi! --dedi bu payt uning yoniga yetib kelgan Oqmorol.

-- Nega, bo'tam? --kulimsirab so'radi O'ljas.

-- Birinchidan - u mening ovulim, ikkinchidan -- xalqqa aytib qo'yanmiz.. El yo'lingizga intizor bo'lib kutib o'tiribdi, og'a!

-- Ikkala sabab ham salmoqli ekan, nachora, borsak boraylik, -- dedi O'ljas. Shu tobada maydon uzra yana:

-- O'ljas!

-- O'ljas!

-- O'ljas!

degan xitoblar takror yangradi. To'pdan ajralib chiqqan rus, qozoq yigitlar kelib, O'ljasni yerdan dast ko'tarib olishdi.

-- O'ljas!

-- Shoir O'ljas yashasin!

-- Botir O'ljas yashasin!

Degan xitoblar takror-takror yangradi.

-- Yigitlar, shoirni toliqtirmanglar, qani endi otlarga! --dedi Sorokin.

Yigitlar O'ljasni ko'targancha, mashina yoniga olib kelishdi. Shu payt Oqmorol qandaydir noma'lum bir kuch ila O'ljasni ko'tarib borayotgan yigitlar to'dasi ortidan yugurib borib, mashinaning old eshigini ochayotgan shoirga:

-- O'ljas og'a, sizning yoningizda ketsam maylimi? --dedi haya-jonini bosishga intilib. Qizning mo'ltiragan ko'zlaridan uning qalbida junbushga kelayotgan hayajonni uqqan shoir:

-- O'tiraqol, bo'tam, o'tir, --dedi mashinaning orqa eshigini ochib, unga Oqmorolni chiqazdi-da, o'zi yoniga joylashdi.

Qaytgan g'ozlarday qator tizilgan mashinalar karvoni sovxozi markazi tomon yelib borardi. Kutilmagan baxtdan boshi aylangan Oqmorol uzun kipriklarini yerga tikkanicha, o'ylab borardi: "Bu o'ngimmi yo tushimmi?! Xudoyim-ey, nahotki O'ljas og'aning yonida o'tirgan bo'lsam? U ko'zlarini ohista ochib, o'ng tomonda o'tirgan O'ljasga cho'chibgina ko'z qirini tashaladi. Tushim emas, o'ngim-ku bu! Ko'kdan tilaganingni Xudoyim yerdan beradi, deganlari shu bo'lsa kerak-da! Peshonam buncha yarqiragan bo'lmasa! Aylanayin O'ljas og'a, faqat xayolimda sen bilan uyquga ketib, sen bilan uyg'onaman. Sen bilan birga bo'lsam ayovlim,

ko‘ngilda qolmas edi qayg‘u-mung. Sening o‘tli quchog‘ingda balqigan malakning ham bu dunyoda armoni bormikan? Quchog‘ingdagi yoring--qadringni bilarmikan? Sen bilan yonmayon o‘tirgan bu lahzalar unutilarmikan? Bundan keyingi o‘zga shodlik, o‘zga quvonchlar bu baxtga yetarmikan? O‘ljas og‘am bilan ochilib-sochilib suhbatlashsam edi. O‘zi menga tikiladi, lekin gapirmaydi. Ko‘zini ochmasang, buloq ham oqmaydi! Yuragimdan yuragiga qanday qilib yo‘l topayin, so‘zni o‘zing boshlamasang, jon og‘a, qiz boshim bilan men netib un qotayin?!..”

Shu payt Oqmorolning dilidan kechayotgan o‘ylarini uqqanday O‘ljas so‘z boshladi:

- Qay tog‘ning kiyigisan, bo‘tam?
- Bayanovul tog‘ining kiyigiman, og‘a.
- O‘ho‘, unda ikkalamiz hamyurt, tug‘ishgan ekanmiz-da...
- Qanday qilib? Siz Olmaotada tug‘ilmaganmidingiz?
- Ha, Olmaotada tug‘ilganman, lekin Sulaymon bobom ham, otam Umar ham Bayanovulda tug‘ilganlar. Boshini garovga tikib, Ablayxonni asirlikdan qutqazgan bobokalonim O‘ljaboyning maqbarasi ham Bayanovulda. Kindik qonim Olmaotaga to‘kilgan bo‘lsada, tub tomirim Bayan tog‘i etagida. Ablayxon lashkarining o‘ng qanot sardori bo‘lgan O‘ljaboy botir qozoq yeriga bostirib kelgan jung‘orlarga qarshi janglarda mislsiz jasorat ko‘rsatgan ekan. Jung‘orlar bilan bo‘ladigan hal qiluvchi jang oldidan bo‘lib o‘tgan mashvaratda ayrim urug‘ sardorlarining qo‘rqoqligidan g‘azablangan O‘ljaboy bobom ajdaho ilonning boshini qo‘ltig‘ida qisib, og‘zidagi tilini sug‘irib, keyin ilonning boshini tishi bilan yulib olib, yerga tuflab, labidagi qonni artmasdan, mushtini tukkanicha: “Agar biz el bo‘lib, bir mushtga jipslashib, jasorat ko‘rsatsak, ajdahoning boshini xuddi mana shunday chopib tashlaymiz. Boshimiz birikmasdan, mana bunday safsata sotib o‘tirsak, ajdaho bizni yutib yuboradi!” –deb na‘ra tortgan ekan.

– Jung‘orlarning tug‘ida ajdaho tavsvirlangan-da!.

– Topding, bo‘tam!

– Shu yo‘l bilan ko‘pning g‘ururini uyg‘otgan O‘ljaboy bobomiz qanchalar dono ekan. Sizning shajaringizni yaxshi bilmasam-da, O‘ljas og‘a oddiy emas, asil bo‘lishi kerak, deb o‘ylardim. Bekorga shunqordan – shunqor, tulporдан – tulpor bunyod bo‘ladi, deyilma-

gan! Yanglishmagan ekanman. Bilsangiz, sizda yuksaklardan yuksaltiruvchi qo'sh qanot bor...

– Bu nima deganing, bo'tam?

– Bu – shoirlilik bilan botirligingiz, deganim. Bu ikki fazilatni yartagan suyukli bandasigagina ato etar ekan.

– Ofarin, bo'tam, gaplaringni tinglab tabiatingga shoirlilik xosmi deyman-da...

– Yashirmayman, uncha-muncha she'rlar mashq qilib turaman. Lekin shoirlikning manzili biz uchun g'oyat olis, og'a...

– Bitta she'ringni o'qi-chi, bo'tam.

– Sizning oldingizda she'r o'qishga uyalaman.

– Uyalma. O'qi, bo'tam, o'qi.

– Mayli, o'qisam o'qiyin, lekin jinday kutasiz.

– Nega, jonim?

– Yuragim jinday tinday tinchib, o'zimga kelib olayin. Maylimi, jon...-deb Oqmorol yutindi, "jonim" deyishga oz qolib "Jon og'a" deb so'zini yakunladi. So'ng xayolini bir joyga jamlab, ko'zlarini bir nuqtaga tikkanicha, O'ljasga atalgan she'rini o'qishga tutindi.

Er yigitning so'zi bir, tuprog'i chin,

Elimning baland uchgan qironi – sen.

"AZ i Ya"-la dunyonи titratganding,

Qozoqning iftixori, ishonchi sen!

Ming yillarda bir tug'ilalar senday inson,
Noming – dong'ing kelayotir huv elisdan,
Aziz nöming sharaflansin yana ming yil,
Shunqor doving kelib tursin
Arshdan.

She'rlaringda zamon ruhi, joni bor,
Millatimiz imoni bor, qoni bor!
O'ljas kabi ulug' sheir, botirni,
Hey asrlar! Yotsirmay tanib ol!
Ko'kda Alloh,
Yerda Xalq,
Tilagimai qabul ol,
Qabul ol! –deb she'rini yakunladi Oqmorol.

– Shoir onamiz Mariyam Hakmijonova iborasi bilan aytganda “Iste’ doding tomiri teran, ko’k tol ekan, sezdim, yuragingda o’t bor ekan” –dedi O’ljas.

– Menga sizning fikringiz qadrlı, jon...og‘a, –nargis ko‘zlarini yerga tikanicha dedi Oqmorol yuzi lov-lov yonib.

– Sen – shoirsan, bo‘tam.

– Rostdanmi, jon og‘a?

– Rost, bo‘tam, rost! Yaxshi oqinzing iste’dodi bitta she’rdanoq ko‘rinadi. Sen adabiyotimizning ertasisan. Chiqar tog‘ing yuksak bo‘lsin, ko‘ksing gumbirlagan kuyga to‘lsin! Kel-chi, bo‘tam, qutlab qo‘yayin.

O’ljas qizning betidan o‘pib qo‘ydi. Yonoqlari cho‘g‘ bo‘lib yonib, badani olov bo‘lib lovillagan yosh qizning ko‘zlarini tinib, shoirning ko‘ksiga boshini qo‘yib, so‘z bilan ifoda etib bo‘lmaydigan ajoyib bir lahzani boshdan kechirdi. O‘y bilan tushning o‘rtasida, o‘zi umr bo‘yi oshiq bo‘lgan insonning ko‘ksida hushini yo‘qtuguday bo‘ldi, so‘ng hayajondan entikib: “Rahmat, sizga, jon og‘a! Bu dam hayotimdagи eng baxtli kun bo‘ldi!..” –deya oldi.

Avvalgidan ham suluqlanib, qorga ag‘anagan qirning qizil tulkisiday chehrasi qulfurib, boshini ko‘targan Oqmorolning yuziga suqlanib qaragan O’ljasning xayoliga Pushkinning Anna Kernga bag‘ishlagan she’riy satrlari keldi:

–Esimdadir sehrli dam hali,

Ko‘z oldimda bo‘lding namoyon—

Sen – sevgining olov-mash’ali,

Sof go‘zallik ko‘zgusisimon!

“Bu lahzalar sira xayoldan ketarmi? O‘zga bir shodlik, quvonch bu baxtga yetarmi? Bundan keyin ertaga o‘lib ketsam-da, armonim yo‘q, jon og‘a! Chivin jonim sizga sadag‘a bo‘lsin!” –derdi Oqmorolning yoniq nigohi.

–Men shundayman har qachon, har lahzada,

Yashirmasman jonim yonib-kuysa-da.

Ko‘p narsaga yetmadi kuch, biroq men

Aldamadim,

Aldash qo‘ldan kelsa-da, –dedi O’ljas qizning lovillagan chehragisga mehr ila tikilib.

– Meniyam aldamaysiz-a, jon og‘a!

– Oqinmi oqin

Kelajakni aldasa?!

– Kelajak deganingiz menmi shunda?

– Ha, sensan, bo‘tam. Sen sarvqomat, benuqson suluvsan! Jozi-balisan! Buyuksan! Darvoqe, mening Margarita ismli yorim bor. Senga bo‘lgan tuyg‘umni G‘afu oqin so‘zi bilan aytSAM:

“Boraman shardan qayta olmay, sevaman deb ayta olmay.”

– Jambil otamiz aytganiday: “Oqin uchun azoblisi mana shu” deng, jon og‘a!

– Ha, shunday bo‘tam! –dedi O‘ljas kulimsirab.

– Sizni tushundim, og‘a, –dedi qiz ma‘yuslanib.

Shu tobda mashinalar ovul chekkasidagi ko‘rkam bino qarshisiga kelib to‘xtadi.

– Bu bizning madaniyat uyimiz, –dedi Oqmorol.

– Chiroli ekan, –dedi O‘ljas binoni ko‘zdan kechirar ekan.

– Ovulimizning nafaqat binolari, qizlari ham chiroli, –deb kuldil Oqmorol.

– Senga qarab, bu gapingga shak keltirmayman.

– Rostdan men chiroylimanmi? –kuldil Oqmorol.

– Yolg‘on gapirishni bilmayman, –dedi O‘ljas.

– Ovulimizda mendan ham chiroyliroq qizlar bor.

– Bu olamda sendan go‘zalroq qiz borligiga ishonmayman.

– Bu gapingizni nima bilan isbotlaysiz?

– Senga atab “Olaming eng go‘zal qiziga” degan she‘r yozaman.

– Rahmat, og‘a! Men sizdan usiz ham bir umrga qarzdorman.

– Nega, bo‘tam?

– Bugun menga hadya etgan eng baxtli kun uchun!

Ular o‘zaro suhbatlashaib madaniyat saroyining ichkarisiga kirib borishdi. Mehmonlar ostonadan kirishlari bilan tomosha zalini to‘ldirib o‘tirgan xalq oyoqqa qalqib, ularni qarsaklar bilan qarshi oldi.

– O‘ljas!

– O‘ljas!

–degan xitoblar yangradi.

Uchrashuvni muxatasar kirish so‘zi bilan ochgan Sorokin:

– Shoир O'ljas Sulaymonov she'riyati haqida so'z Oqmorol Asqarovaga! –dedi. Minbarga chaqqon ko'tarilgan Oqmorol hayajonini bosib, peshenasiga tushgan bir tola sochini kafti bilan orqaga qayirib, so'z boshladi. U qo'lidagi kaftday qog'ozga onda-sonda ko'z tashlab, shoир ijodi haqida to'lqinlanib, jo'shib gapirardi. Qizning ovozi ham husniga mos, yoqimli, oydin buлоq suviday sharqirab, quyilib kelardi.

– Marhamati cheksiz Alloh Taoloning irodasi ila o'ydan ham, bo'ydan ham mukammal qilib yaraigan sirti nurli, qalbi sirli, barchaga birday suyukli shoirlimiz haqida o'ylaganda qadimdan qolgan bir eski rivoyat yodimga tushadi. O'timishda o'z elining xazinasiga ko'z yeriga ko'zi to'ymasdan qo'shni mamlakat yeri bilan xazinasiga ko'z olaytirgan bir podsho o'sha elning sirlari-yu, ojiz yerlarini o'rganib qaytgan ayg'oqchisi bilan shunday suhbat qilgan ekan.

– So'zla, arslonim, qo'shni shohning qancha lashkari bor ekan?
– Lashkari yuz ming ekan, shohim!

– Yuz ming?! Mening yetti yuz ming lashkarim oldida bu bir urvoqcha ham bo'lmas ekan! Yuz ming lashkarni nari borsa bir soatga qolmay qirib tashlaymiz! Unda ertadanoq yurish boshlaymiz!

– O', zoti oliylari! –debbi josus, –ammo u yurting otashnafas, tili tig'dan o'tkir shoirlari ko'p ekan.

– Menga shoirlarining sonini emas, salmog'ini ayt! Xalqi she'rlarini yoddan aytadigan, qo'shiq qilib kuylaydigan shoirlari nechta ekan?

– Xalqi she'rlarini yoddan biladigan, og'zi bilan qush ovlaydigan shoiri yetti nafar ekan.

– El suygan shoiri yetti nafar dedingmi? –debbi podsho o'yga tolib.

– Ha, onhzurat, yetti nafar!

– Unda fikrimdan qaytdimi, urushga bormaymiz, –debbi shoh. – Unday yurt bilan qasplashib bo'lmaydi!

– Olampanoh, nega fikringiz bunchalik tez o'zgardi? –ajabalaniб so'rabdi josus.

– Xalq suygan yetti nafar shoir – oshib o'tib bo'lmaydigan yetti tog', suzib o'tib bo'lmaydigan yetti dengiz! Yetti dengizdan kechib, yetti tog'dan oshib o'tib bo'larmidi? Yetti shoir yetti tomondan na'ra

tortib, otga minganda xalq dengizday to‘qinlanib, alp toqqa aylanmaydimi? Dengizni – dovul, xalqni – shoir ko‘taradi. Mening yetti yuz ming askarim bo‘lgani bilan, xalqning ruhini ko‘taradigan, diliga quvvat be‘ladigan bitta ham shoirim yo‘q. Davlatimiz quadratli. Elimizda hamma narsa bisyor. Lekin, eng keraklisi – suyansa bo‘ladigan shoiri yo‘q. Qirq vazirim bilan ming ahbobimni og‘zi duoli bir shoirga almashmas edim. Afsuski, bu mening armonim!—deganicha podsho barmog‘ini tishlab, boshi xam bo‘lganicha o‘tirib qolibdi. Biz bugun mana shu rivoyatni haqiqataga aylantira oladigan atoqli shoir – O‘ljas O‘mar o‘g‘li Sulaymonov bilan uchrashish baxtiga tuyassar bo‘lib turibmiz, – deb boshladi Oqmorol so‘zini.

So‘ng u “Biz O‘ljasni nima uchun sevamiz, nega uni jahonning jami ziyozi qavmi hurmat qiladi? –degan savolga o‘rinli javob berdi. Gaplarini shoirning she’rlaridan ixtiboslar keltirib, dalilladi.

“O‘ljasga o‘xshaydigan rus shoiri M.Yu.Lermontov “Shuhrat uchun shoir azobdan xiroj to‘laydi, u shuhratni tekin olmaydi” degan satrlari xayolimga keladi. Men shu o‘rinda shoirning “AZ i Ya” kitobini nazarda tutmoqdamon”, –deb so‘zini davom ettirdi qiz.

O‘ljas minbardagi qizga hayratlanib tikildi. “Manov qiz bu gapni chekka ovulda emas, shaharda aytganida boshi balolarga qolgan bo‘lardi...” –o‘yladi shoir.

Oqmorol so‘zini O‘ljasning “Mahambetga” she’rining:

Qanday baxt bu – oqin bo‘lib tug‘ildim!

Yo‘qsa seni tanirmidim oqin deb?! –satrlari bilan yakunladi.

Oqmoroldan keyin Sorokin gulduros qarsaklar ostida navbatni O‘ljasga berdi. Shoir so‘zining boshida chekka ovullarda ham zamon talabiga mos maktablar qurish haqida gapirdi. Shu payt, zal o‘rtasidan, o‘tmish bahodirlariga o‘xhash alp qomat, burgut qarashli qariya o‘rnidan turib:

– Aylanayin, O‘ljas! So‘zingni bo‘lganim uchun kechir, ovullarimizdagи kam-ko‘stlarni o‘zimiz butlarmiz. Senga xalq nomidan aytadigan ikkita omonatim bor. Ruxsat bo‘lsa, shularni aytsam, – dedi.

– Ayting, –dedi O‘ljas.

– Aytsam, birinchi omonat – Semey poligonini yopishga yordamlash, ikkinchisi – “AZiYa”ning davomi – “Bir ming so‘zni” yozib tugat.

– Ismingiz nimaydi, oqsoqol?

– Isimim – Abzal, otamning ismi – Muhammadjon.

– Xalq aytса – xon tuyasini so‘yipti, degan otam qozoq. Men xon ham emasman, xalqdan buyuk ham emasman. Xalq nomidan aytgan omonatingizni qabul qildim. Ularning uddasidan chiqishga va’dа beraman, Abzal og‘a!

Zalni yana qarsaklar tutib ketdi.

Shoir sal tin olib, so‘ng she’rlarini o‘qishga tutindi. Shoirning o‘ktam ovozi, uning o‘tli satrlari oldingi qatorda vujudi quloq bo‘lib o‘tirgan Oqmorolning qalbini junbushga keltirardi. Nazarida shoir to‘lqinlanib aytayotgan so‘zlar uning yuragidan chiqayotganday, bu she’riy satrlar faqat uning ko‘ngil tuyg‘ularini ifoda etayotganday tuyulardi. “Yopiray, bu men-ku, men aytolmagan fikrlarni u qanday biladi. Manov satrlarni u emas, men yozgandayman!” –deb pichirlardi qiz.

Uchrashuv so‘nggida xalq shoirning yelkasiga xonlar kiyadigan zar to‘n yopdi, tagiga oq arg‘umoq mindirdi, qo‘liga tilla soat taqdi.

– Qozoqda “G‘oz yeganiga emas, sakraganiga semiradi”, degan gap bor, –dedi O‘ljas, –Sizlarning menga ko‘rsatgan iltifotininglardan boshim osmonga yetdi. Menga ko‘rsatgan bu hurmatni – qozoq adabiyotiga ko‘rsatilgan hurmat, deb bilaman. Uch xil sovg‘angizdan g‘ururlanib ketdim. Sovg‘angizning biri – manov oq arg‘umoqni ovulingizning oqsoqoli – Abzal og‘aga, manov tilla soatni ijodimni o‘rnili va o‘yli tahil qila olgan oltin qizinglar – Oqmorol Asqarovaga taqdim etishga ijozat bergaysiz! – dedi u qarsaklar ostida. – Endi, manov, yelkamiga tashlagan to‘nni Olmaotaga olib ketaman. Bu to‘n mening tanamgagina emas, yuragimga ham iliqliq bag‘ishlab, sizlarni eslatib turadi, sadag‘ang ketayin xalqim. Sizlarga sog‘liq, baxt tilayman. Oylarimiz – yorug‘, yillarmiz – yulduzli bo‘lsin!

Sovxozi oshxonasida mehmonlar sharafiga ziyofat berildi. Ziyofat so‘nggida Abzal og‘a tomoq qirib, so‘z boshladи:

– Aylanayin, O‘ljas! Sen tarixni bizdan yaxshi bilasan. Qozoqda ne-ne so‘zga chechan shoirlaru oqinlar o‘tgan. Shulardan biri – Ko‘r

Qorakerey. Uni ko'rgan-bilgan donishmandlar o'z zamonasining zamboni bo'lgan bu oqinga :

— Xon oldiga borganda,

Qaltirab yolg'on aytmasdi.

Xalq oldiga borganda

Xalqi ham shu so'zdan qaytmasdi.

Yasoqni yovga solganda

Yuragi qo'rquvdan qotmasdi, —deb ta'rif bergenlar.

Bugungi davrning ana shunday mardi o'zingsan, O'ljas! El uchun qilgan ishlaring olti alashga ma'lum, noming esa olamga mashhur. Sen o'tmishdagi alplarning ko'zisan, Mahambet bilan Mag'jenning o'zisan! Xalq seni mana shu qo'sh alpning qo'shilmasi deb tan oldi, mudroq bossa o'tli satrlaringdan uyg'ondi. Buyuk mansab — yuksak qoya, unga qanot qoqib qiron ham chiqadi, sudralib ilon ham chiqadi. Sen oddiy emas, asilsan. O'ljaboy singari botirning yettinchi avlodisan. Senga Xudo ato etgan olmos so'z bilan qozoq degan elni olamga tanitding. Olatog'day yuksak noming bilan xalqingga qo'rg'on bo'lding. Shoirlikka, farzandlikka munosib ersan! Ham bo'yli, ham o'ylishan! Suyuklisan! Shundan sen yoshu qari, erkagu ayol, qozog'u o'risga qadrlisan. Qayga borsang-da, xalq yo'lingga peshvoz chiqib, quchoq ochib kutib oladi, boshga ko'tarib, izzat qiladi. Xalqim, degan o'yingdan, elim, degan so'zingdan chekinma! Ana endi, qo'lingni och, xalq nomicidan duoimni berayin:

Bismillohir rahmonir rahim!

Xudo o'zi qo'llasin!

Xizir bo'lsin yo'Idoshing!

Qasd aylasa kim senga,

Ikki dunyoda o'ngmasin!

So'zing shamshir,

Xayollaring — qo'rg'oshin!

Osmonda Alloh,

Yerda xalq,

O'ljas kabi arslonni,

Aqli donishmonni,

Har qachon ham qo'llasin!

Jon- bovurim O'ljasim,

Baxt bo'lsin yo'Idoshing!

Oumin! —Ovmin!

Duo aytilib, kaftlar yuzlarga silangach, odamlar mehmonlarni kuzatgani tashqariga gurillab chiqdi. O'ljas ko'kka qaradi. Osmon beg'ubor edi. Ovluga kelganlarida tik tepada turgan quyosh ufq ortiga ohista cho'ka boshiabdi. Uning qirmizi nurlari Tarbag'atoy tog'ining olabosh cho'qqilarida tovlanardi. "Qancha jigarlarmiz mana shu tog'ning naryog'ida, musofir yurtda umrguzaronlik qilishmoqda. Ana shu uch million qozoq bovurlarimizni Xitoydan Qozog'istonga ko'chirib kelsak edi! Buning uchun yurt mustaqillikka erishmog'i kerak. Ota-bobolarning ana shu asriy orzulariga bizning avlod yetisharmikin? Istiqlolga eltuvchi ana shu saodatl yo'l qayda ekan? Bilib, bilmay qilgan gunohlarimizni kechirib, bizni ana shu yo'lga boshlagaysan, Parvardigor!".. degan xayollar bir zum shoir ko'nglidan o'tdi, keyin u xushyor tortib, kuzatib chiqqanlarga qarab:

— Azizlarim! —dedi O'ljas hayajonlanib, —biz yurdik endi. Ko'rishguncha – kun yaxshi, yo'liqquuncha – yo'l yaxshi bo'lsin!

Xalq ila shoir bir-birlarini qiymasdan xo'shlashdi.

O'ljas mingan mashina joyidan qo'zg'alganida Oqmorolning ko'zları yoshga to'ldi...

"Aylanayin xalqim, qanchalar mehribon, donosan! Shoirini seningdek suyub, seningdek ardoqlaydigan oltin xalq yana qayda bor?! Kaftida solib – bola, oldiga solib – dono qilgan xalqni sevmay bo'ladimi?! Menam seni jon-dilimdan sevaman, aylanayin oltin xalqim!.." — O'ljasning ko'nglida ana shu gaplar o'tar ekan Maxatma Gandining o'limi oldidan aytgan "Men seni sevardim, xalqim, sen ham meni ardoqlab sevrading" degan so'zları yodiga tushib ketdi.

Tasmaday tortilgan asfalt yo'lda yengil mashinaning tezligi tobora oshib borardi.

Quyosh esa, ertangi tongda olamni yana munavvar qilish uchun tog'lar ortiga yashirindi...

Shoir orzu qilgan nurafshon istiqlol tonggiga esa hali yana bir necha yillar bor edi...

MARHABOT BAYG'UT

Marhabot Bayg'ut – taniqli qozoq adibi. Xalqaro “Alash” adabiy mukofotining sohibi, Qozog’iston Respublikasida Xizmat ko’rsatgan madaniyat arbobi. Adibning “Saraton”, “Sirbulloq”, “Interantning bolasi”, “Navro’zak”, “Bechora yurak”, “Tovushning rangi”, “Mashotdagi muhabbat”, “Feraldagи mushuklar”, “O’quv zali!” va boshqa kitoblari nashr etilgan. Asarlari rus, ukrain, o’zbek, turk, qaroqalpoq, saxa tillariga tarjima qilingan.

HOKIMNING AYOLI

Qiziq.

Ikki ming o’n birinchi yilning noyabrida yer kurrasida yetti milliardinchi inson tug’ildi.

Ro’yxatga olindi. “Ko’ksandiq” xuddi shunday xabarladidi. Yetinchi noyabrdi. Yetti milliard dedi. Keyin “ko’ksandig’ingizdan” “Qo’ng’ir” guruhining qo’shig’i berildi. Uzun, xushqomat qiz: “Dunyo... dunyo... dunyo-ey. Dunyoga kim ega-ey?..” deya xonish qildi. Ikki yigit unga jo’r bo’lishdi. G’alati qo’shiq. Mungli.

Besh yil muqaddam, eri mazkur muzofotga hokim etib tayinlanganida, unga tegishli aymoqda millioninchi chaqaloq dunyoga ingalab kelib, tantanali tarzda ro’yxatga olingandi. Mana shu, Oypara ayniog’ida..

Yurtchilik buni yaxshilikka yo‘ygan.. Eri haligi chaqaloqning tutingan otasi, u--tutingan onasi bo’lgandi.

Ayrimlar bu lagambardor va yelpataklar tomonidan ataylab yushtirilgan, degan oldi-qochdi gap qilishgan.

O’shandan beri o’tgan vaqt ichida butun mamlakat qatorida mazkur muzofotda iqtisodiy yuksalish bo’ldi.. Muzofot bilan hamjihatlikda ularniki ham beo’lchov o’sdi.

Erining jizzakilagini bosiqligi bilan bildirmasdi. Xushyorligi sezdirmasdi.

Ammo o’ziyam xushomadgo’ylar qurshovida qoldi.

Manov Oypara muzofotida hokim bo’lgandan ko’ra, hokimning ayoli bo’lish o’ta mashaqqatli ekanligini angladi. Bular amalga tadbirkorlikdan kelganlardan. Eri azaldan shu lavozimga intilgan.

Biznesdan orttirilgan sarmoyaning katta bo'lagi shu maqsad yo'liga sarflangan. Qolgan salmoqli qismi olisdag'i halolligi tan olingen betaraf davlat bankida saqlanmoqda.

Oyparadagi dastlabki yilining dastlabki oylari og'ir kechdi. Kelgusi yilga kelib, eslarini yig'ib olishdi. Hokim chigal tugunlarni yechishni, uzilgan rishivalarni ularshni o'rgandi. O'zini ham, o'zgalarni ham ayamadi. Qat'iylik bilan yuqoriga sudradi. Qo'polishamadi. Benemenlarga xos kibrannadi. Ommalashdi. Faoliyati shaffofligidan oyparaliqlar uning nimalarni yamab, nimalarni yasqaganini bilib o'tirishdi.

Badnafslanmadi. Avvaliga. Xushomadgo'ylarni haydamadi. Keyinroq. Kadrlarni saralaganday, ularning ham manglaylariga chertib-chertib, ustalik bilan foydalaradigan bo'ldi. Ayoli esa to'pori malaylarni yaqiniga yo'latmadidi. Sadoqatiga, o'lsa ham sotmasligiga ishongach, ming turli sinovlardan keyin o'zi turgan sohilga astasekin suzib chiqishiga izn berdi.

Er-xotin bir-birlarining ismlarini deyarlik aytishmaydi. Er tomoq qursa, xotin yo'taladi. Ishora bilan cheklanishadi. Bir-birini qiyashimaydi.

Omad kului. Tepadan ajratilgan, mahalliy ishlab-chiqarishdan olinadigan daromadalar yuz hissaga ko'paydi. Oypara aymog'ida trillion tenga deydigan tushunchalar, milliondan oshgan tenderlik tushumlar oddiy holga aylandi.

O'lchamlar o'zgardi. Imkoniyatlar yiriklashdi..

Xushomadgo'ylar ko'paydi. Qarindoshlar safi kengaydi.

O'lchamlarning o'zgarishi tufayli ufqlar ham o'zgargani sezildi. Albarra, hokimning ayoli bo'lganidan qarshisida imkoniyatlar chekisizlanayotganini, turli-turli novlardan boylik, aqchalar oqimi kutilamagn darajada to'lib-toshib, beto'ztov oqib kelishini his qildi.

Biroq, pul deganning hisob-kitobiga yetolmagan, zavqlangan lahzalarda rahmatli onasining qanoatli qiyofasi ko'z o'ngida gavdalandi. Marhum otasi tuman firqasining uchinchi kotibi edi. Qayta qurish avj olgan yillar. Xizmat ko'ligi yo'q. Poyi-piyoda yuradi. Kunlarning birida boradigan yeriga yetolmay, yo'l chekkasida sarg'ayib, asabiylashib tursa, birinchi kotibning ayoli erining oqish "Volga"sida u yoqqa o'tipti, bu yoqqa o'tipti. Kechqurun uyiga kuyinib kirgan ota: "Padariga la'nat, tumanning uchinchisi bo'lgun-

cha, birinchi kotibning xotini bo'lsam-chi!" --dedi. Keyinroq onasi, o'sha solihali holatda, jilmayganicha: "Otangning haligi gapini qulog'ingdan yulib, chiqarib tashla," --degandi.

O'shanda, o'tgan asrning saksoninchı yillarining o'rtasida, o'n uch yoshida, otasining achchiq ustida aytgan gapi qulog'i qo'rg'o-shinday quyulib, xotirasiga muhrlanib qoldi. Bu gap farishtalarning qulog'iga chalingandırki, yolg'iz qiz – bugun viloyat hokimining ayoli.

Noviardan oqib kelayotgan pul oqimi ko'pligidan, bora-bora uni sanashni bas qilishdi. Tadbirkorlik davrlarida tuqqan-tug'ishganlarni moddiyijihatdan qo'llab turishardi. To'ylarida qizg'anmasdan mo'may to'yonalar berishardi. Eri hokim bo'lganidan keyin ham bu odatni kanda qilishmadi. Oyparaga o'tishlari bilan ayol o'zinikilaru qayin yurtiga ayanmay yordam puli berib turdi. Ammo, qancha bergenning bilan qadrlashmas ekan. Tushunishmaydi. O'yashmaydi. O'zliyam to'ymaydi. Ko'zliyam to'ymaydi. Yuz marta yordamlashib, yuz birinchisida bermasang, to'nni teskari kiyib olishadi. Dushman ko'rib ketishadi.

Oqib kelayotgan pullar oqimi sanalmasa-da, tug'ayotgan ustama foizlar hisoblanmasa-da, ularni qisib-qimtishga o'tishdi. Tuqqantug'ishganlaru, oshna-og'aynilarga ko'mak berish mutlaq to'xtatildi. Mablag'ning asosiy qismi yana biznesga yo'naltirildi.

Hokimiyat rahbarlari, davlat xizmatidagilar biznes bilan shug'ullanishlari fan qilinadi degan farmon chiqdi. Kulgili, albatta. Jami nufuzlilar qavmining aybi ochilar. Takabburlik oshib ketgan. Mensimaslik avj olgan. Butun mamlakatda, Shuningdek, Oypara muzofotida ham.

Pullardan zavq tuyish bora-bora ayolning me'dasiga tega boshladi. Sababini tushunmadı. Ishlar to'qson yo'nalishda yurishib yotgan bo'lsa. Zuvillab. Katta tezlikda shuvillab. Yuraversin-chi. Biroq, qandaydir zerikarlimi-yey? Noxushlikmi? Unday emasdirov. Zerikish ham emas. Unda nima? Aqchaga ham ishtiyosiz, boshqaga ham qiziqmaydigan odam bo'ladimi? Hokimning ayoli bo'ladimi? Qiziq.

To'rtinichi yil yakunida Xudo qo'shgan jufti haloli: "Azizam, ehtiyyot bo'laylik. Peshonamizga bir milliondan oshiq odam yashaydigan hududni boshqarish yozilipti. Tug'ilgandagi birinchi ingadan

so'nggi damdag'i nidogacha bo'lgan oraliqda bandasi nimalarni ko'rmaydi? Nimalar qilmaydi? Biz, Xudoga shukr, faqat ro'shnolik ko'ryapmiz. Yoshimiz endi qirquning qirg'ogiga ilinipti. Ehtiyyot bo'iyaylik..."

"Azizam"ni doimi aytgan. Odatdag'i so'z. "Ehtiyyot bo'laylik"ni ilk bor aytishi. Bu so'zni onasi ko'p takrorlardi. Eriga ajablanib tikildi. Uzun-uzun kiprikiari yelpindi. Qulog'ini engashib, qaynoq nafasi bilan erkalandi? "Bolangga borib qaytasammi?" –dedi er. Tushki oromdan keyin Jannatning bir burchiday orombaxsh to'shaklaridan turayotib.

Keyingi paytlarda ayolning chet eldag'i nufuzli o'quv maskanida ta'lim olayotgan yolg'iz o'g'lidan xabar olgani qatnovi ko'paydi. AQShdag'i saxovatli banklarining holatini o'rganib, xurjunu chedomdanlarini niqlab qaytadigan bo'ldi. Dastlabki jamg'armalar bilan keyingi tushumlarning qatlamlashuvidan lazzat tuyardi. Bora-bora bu lazzat ham so'nganday, sovuganday sezina boshladi. Ko'ngilsizlangandaymi? Zerikkandaymi? Yoi bu lazzat, zavq tushunchalar yot bo'lgan loqaydlikmidi? Haytovur tushuniksiz bir nima.

Ustiga ustak, AQShda ta'lim olayotgan yolg'iz o'g'il ham o'zgacha. Bosiqligi shubhalantiradi. Bilimga chanqoqligidan hayrtalanadi. Til tegmasin. Ko'z o'tmasin. Bu ketishda, shubhasiz, hokim otadan parvozi ancha baland bo'ladigan. Allaqanday bir nimalarga urinib, baloga yo'liqib qolmasmikan, deya, vahima qilishga asos yo'q. Bunday farzand o'zgacha, nojo'ya yo'ldan yurishi mumkin emas.

Hokimning ayoli bo'lganidan beri chet ellarga ko'p qatnadi. Eri biznes bilan shug'ullanganida ham ko'p tentiradi. Taylanddan boshladi. Chet elga kezishni. Er-xotin ikkalovi birga borishdi. Alohidalo'hida ham ketishdi. Nufuzli binesmenlarning sinashta suluvlari bilan. O'shalar bilan birgalashib, tizzalashib, tomoshalashdi O'zga yurtlarni o'rganishdi. Maftunkor bo'lishga intilishdi. O'sha tomonlarda "Dolche Gabana", "Armani" kabi stillar bilan maftunkor bo'lish osonligini bilishdi. Maftunkor bo'lish uchun ming-minglab ayollar ozib-to'zib, sog'liqni yo'qotishadi. Atayin yog'ini oldiraman deb o'lib ketayotganlar ham son mingta. Lipoksatsiyada. To'rt milliarddan oshiq qurimagur ayollarning safida qiyiq ko'zlarni

torttira-torttira, uxlayotganida ham yonarlari yumulmay yotadiganlari millionlardan oshib ketgan. U chet ellarda orttirgan tajribadan oqilona foydalanadigan darajaga erishdi. Maftunkor bo'lish oson emasligini tushundi. Bunga erishishdan toliqmadi, chekinmadi. Natijada Oypara muzofotining eng maftunkor, suluv ayoliga aylandi.

"O'zimizda yashash va davolanish xatarli", –deyishdi qadrdonlari.

"Yurtimizda, Oyparada tug'ish qo'rqinchli", –deyishdi sirdosh dugonalari.

"Mamlakatimizda o'g'il-qizni o'qitish befoyda", –deyishdi do'stlari.

Uddaburon yosh tadbirkorlar bilan tajribali mutaxassislarining ayollari, qariyalarning kelinlari chet el tug'uruqxonalarida tug'adigan bo'lishdi.

O'zлari va oila a'золари bilan rivojlangan davlatlarning shifoxonalarida davolanishdi.

O'g'il-qizlari, nevaralari nufuzli, bir necha asrlik tarixga ega chet el universitetlarda ta'lim olishdi.

Hokimning ayoli bora-bora chet el safarlaridan ham ko'ngli goldi. O'sha, boyagidagi toliqishmidt? Yoki zerikishmidt?

Gavdani xushbichimlashtirish uchun uzoqqa borish shart emas, uch qavatli kottejining tagidagi basseynda mashq zali bunga zarur zamонавий uskunalar bilan jihozlangan.

Hokimlikning beshinchi yilda ayolning ko'nglini tushuniksiz bir vahima kemira boshladи. Onasi rahmatli tushlariga tez-tez kiradicigan bo'ldi. Avvalgiday onasiga xos bo'lgan vazminlik, iliqlik yo'q. Nigohi sovuq, kipriq qoqmaydi. O'zining mehribon, tuqqan onasi. Bir gal xuddi o'ngidagiday unga ko'rsatkich barnog'ini nuqib, jerkdi: "Hoy, hokimning ayoli! Ko'zingga qara! Qudratilarga taqlid qilib, ularga tenglashaman demasdan, yo'qsillarga qayishib, muruvvat ko'rsatib yashasalaring bo'lmaydim?!" –dedi.

U bu tushmidli, o'ngili, bilolmadi. Buni aniqlash uchun, hatto badanining u yer bu yerini chimchilab ko'rди. O'nggi shekilli. "Oyi,!--dedi u o'z ovozini aniq eshitib. –Oyi, olam qudratilarnigina tan oladi. Biz dunyo miqyosida bo'lmasa-da, mamlakat miqyosida qudratlimiz. Bu zamon talabi. Oyparaday ulkan muzofotni qudratli

bo‘lmasdan boshqarib bo‘ladimi? Zamon bilan hamqadam bo‘lmasak, ortda qolib ketamiz."

Oناسига роғимниң анықтамасынан о‘нг‘а сизленди. Онаси: "Ей, хокимнинг айоли! Менга ма’руза о‘қима, ахмоқ! Бизнинг дунёда ма’руза емас, ўракдан чиқсан дуогина қабулланади. Мен нима дејман, қо‘бизим нима дејди?!"

Онаси шундай деб шартта тескари о‘гирilib ketdi. "Онајоним-еъ, жами yo‘qsil, yalang‘ochlarni to‘ydirib bo‘larkanmi? Eng rivojlangan, ilg‘or деб тан олинган японларда ham yo‘qsillar борекан. O‘z ko‘zim билан ко‘рганман. O‘rgilib ketay, sodda онајоним-еъ!" –dedi u. O‘ngidagiday со‘zladi. Онаси esa, bir yo‘la тескари турганича, баттар аччиқланаб, gap qotdi: "Япон елида нимани англадинг, хокимнинг айоли!? Уларда боylarning ortiqcha керилмаслигини, yupunlarning куйинмаслигини payqamadingmi, eh-h?!"

У yig‘lab uyg‘ondi. Umrida birinchi bor... Eri хоким bo‘lgанинг бешинчи yilda. O‘shandan beri ko‘nglidan g‘ashliq arimay qoldi.

Qur’он o‘qitdi.

Qayta-qayta.

Unutganday bo‘ldi. Tushini. Eriga mehmon chaqirgisi kelganini ma’lumiлади. Ko‘plan beri mehmon kutniapti. Shuni o‘ylab ikkovlon ro‘yxat tuzishди. Oson bo‘lmadi. Ro‘yxat tuzish kadr tanlashдан ham qiyinroq екан.

Ro‘yxatga birinchi bo‘lib oligarxning nomi yozildi. Shu viloyatning oligarxi. Takabburgina. Buni e’tiborga olishmadi. Unchalik haddidan oshmaydi, деб o‘yashdi. Ikkinchisi – zamindor boy. Serhimmat. Sipo. Uchinchi. To‘rtinchi. Beshinchilar yozildi. Yaltiroq qog‘озга. Avvaldan aralashib yurgan nufuzli tadbirkorlar. Ayollarini ayoliga sinashta, sirdosh, ishonchli. Oltinchi – maslahat kotibi. Yettinchi – o‘rinbosar. Hokim o‘rinbosari. Shular yetarli, deyishdi. Yangilik, bo‘lsin deya, muzofotdagи taniqli olimning ham nomini ro‘yxatga kiritishdi. Ziyofat ziyolinoma bo‘lsin, degan maqsadda.

Taklif qilinganlar to‘liq to‘planishdi. Olimning ayoligina kelmadи. Kiyimi yupun екан. Ko‘rimsiz kiyinadi-da.

Ziyofat o'rtalarida oligarx qizishib qoldi. Takabburligiga borib, olimni yoqtirmayotganini sezdirib qo'ydi. Mazax qilishni boshlab yubordi. Ikkalovini tinchlantirib, ko'z-qulqoq bo'lish hokimning o'rribbosrai bilan maslaxat kotibiga topshirildi.. Boshqalar bog'ni aylangani chiqishdi.

Kiraverishdagi keng bo'l madagi shod-shodumon divanlarga oligarx, hokim o'rribbosari, maslaxat kotibi, shuningdek, olim joylashishdi.

-- Qani, alloma! Falsafa so'qishni boshla! --dedi oligarx masxaromuz ohangda.

-- Badnafslik, ochofat avj olmoqda! Senlar xalqni poda deb o'ylasanlar. Yo bu gapim yolg'onmi? --dedi olim.

-- Avaylab, ortingga qarab so'yla! --dedi oligarx ustara yaltirib qirilgan dumaloq boshini huzurlanib silar ekan.

-- Olimlarning orti toza, qiztalоq! --dedi alloma.

-- Siz qizib qopsiz. Tashqariga chiqaylik-chi, --dedi kuyunchaklik bilan hokim o'minbosari suhbat tezoblashganidan xavotirlanib.

-- Shunday qilinglar. Ayolingiz ham kelmapti, --dedi maslahat qotibi titroq ovozda. --Hokimimizning uyidamiz. Uyat. Ishqilib ayollar eshitib qolishmasin...

Biroq hokim ayolining qulog'i ding, kim nima deganiyu, nimani yeganini nazardan qochirmsadi.

-- Ey, maslahatchi! Bu bilan menga ket, demoqchi nidsan? Meni mast deb o'ylama. Haqiqatni aytdim, xolos. Bilib qo'y, men sering deputating emasman,--dedi olim ensasi qotib.

-- Yaqinda o'zingday bir olim, ya'nı hamkasbing yozganini o'qidim. "Bizda daholar yo'q Bor deganlari yolg'on. Millatning soni chorak milliarddan oshmaguncha undan daholar chiqmaydi", debdi va bu fikrini dalillapti. Hamkasbing. Sening ilmiy kashfiyotlaring oqimga tushib, hayotga tatbiq etilgunicha millating to'zib bitadi. Juda bo'lmasa, mana, bizga o'xshab besh xotin olib, har qaysinisidan uchtadan bola tug'dirib, millatingni to'zishdan asrab, qezog'ingni ko'paytirmaysanmi?--dedi oligarx undan battar xezlanib. --Bizniki o'n besh. Bugungi tongda. Bilib qo'y!

-- Senday to'ng'izdan tug'ilgan qo'ng'izlarning saposiga javob berolmayman. Yetti millionga yetmaydigan yahudiylardan necha minglab daholar chiqmaganmidi?

- Qo‘ysanglar-chi. Uyat-ku! –deydi hokimning o‘rnbosari yuagi olinib.
 - Kimning shang‘arog‘ida o‘tirganlaringni unutmalaring, --dedi maslahatchi manglayidagi terni artib.
 - O‘zimga ham uvol kerak. Keta qolay, –deb o‘rnidan gandiraklab qo‘zg‘aldi alloma.
 - "Hukmdorning aqlisi, ulamoga o‘zi borib, salom berib turarkan, ulamoning aqlsizi, hukmdorga o‘zi ketib, shunday Xudo urarkan", degan ruboiy kimniki edi? –deb qo‘rsaydi oligarx.
- Bog‘ning ajoyibotlarini tomoshalab qaytganlar o‘tirishni bundan buyog‘iga qizdirib yuborishdi.
- Viloyat olimining ketganiga hech kim e’tibor bermadi.
- Faqat hokimning savolomuz nigohiga ayoli jilmayibgina, lovul-lagan olovday ol rangli lablariga nozik ko‘rsatkich barmog‘ini bosib, tinchlantirdi.
- Navbatdagi tanaffusda erkaklar yer ostidagi maxsus zalda alvon xil yopinchiquylarga o‘ralib, ko‘ngil chigilini yozishdi. Yoppasigap toshsoqqa surishdi. Ayollar qavmi uchinchi qavatdagi shirin choy bo‘lmasiga sirlashgani to‘planishdi.
- Hazil-hazil bilan ular taqinchoq musobaqasini boshlab yuborishdi. Oligarxning ayoli kumush bandl, gavhar toshli uzuklarni xush ko‘rar ekan. Uzuklarning biri – besh karat, ikkinchichs to‘rt karat chiqdi. Zamindorning egachisi uzuk inusobaqasida g‘olib bo‘ldi. Uning uzuklaridagi gavhar ko‘zlarning ranggi ko‘kimir kaptarning qiyilgan tomog‘idan tomgan ilk qon tomchisiga o‘xshab, har bir ko‘z o‘n karatdan oshardi.
- Uchinchi, to‘rtinchchi, beshinchi tadbirkorlar xonimchalarining uzuklari ham musobaqada yuqori pog‘onani egallahshdi.O‘rnbosar bilan maslahat kotibi xonimlarining barmoqlaridagi uzuklardagi ko‘zlar yetti-sakkiz karat atrofida ekanligi aniqlandi.
- Ikkinci bosqichda – boldoq-uzuklar namoyishi boshlandi. La’l, yoqutlardan taralgan yog‘dular go‘yoki hokimning mehmonxonasidan ko‘tarilib, butun shaharga sochiladiganday. Boldoq-uzuklardan keyin biłakzuklarga o‘tishdi. Maslahatchi xonimning bilagidagi bilakzukning yo‘g‘onligiyu, yoqut toshlari barchaning ko‘zlarini qamashtirib, lol qildi. Taqinchoqlarning qiymati millionlik

chegaradan oshib o'tdi. AQShning ko'kish puli bilan hisoblaganda, albatta.

Hokim o'rinxosarining xonishoyimi oligarxonning eng kenja, beshinchisi to'qolidan o'zdi..

-- Voy, o'lmasak, biz mast bo'lib qoldikmi? --dedi ayollardan biri.

-- Xosiyatli xonadonning sharofati bilan emin-erkin, yayrab o'tiribmiz-da! --dedi ikkinchi ayol..

-- Mana shunday taqinchoq namoyishining zavqi o'zgacha bo'larkan,--dedi uchinchisi. --O'ylab ko'rsak, har birimiz falon million dollarlik xazinani ko'tarib yurar ekanmiz!

Ovozi pasaytirilgan ko'ksandiqa "Qo'o'ng'ir" guruhi paydo bo'ldi.

-- Mana shu "Qo'ng'ir"ni yaxshi ko'raman. Ovozi xush yoqadi, -- dedi to'rtinchchi xonim. --anov up-uzun, ingichka bel qizga havasim keladi.

"Qo'ng'ir"ning up-uzun, ingichka qizi "Dunyo...dunyo...dunyo-yey. Dunyoga kim ega-yey?" deb xonish qildi. Unga ikki yigit jo'r bo'ldi.

Taqinchoqlar tanlovi yakunlandi..

-- Xonanda qizning beli qancha santimetr ekan-a? --dedi ayollar ning beshinchisi.

-- Kelinglar, kimning beli ingichkaroq, qomati adoligini aniqlaymiz, --dedi ayollardan biri.

Qomat tanlovi juda ta'sirli o'tdi. Hammanikidan uy sohibasining qomati chiroyli deb topildi. Hokimning ayoli bo'lgarligidan emas, albatta. Chindan shunday. U Oypara aymog'ining eng sohibjamol go'zal farishtasi unvonini olgan. Go'zal bo'lgach, hokimning ayoli blsa nima bo'pti.

-- Sovrin beramiz! --dedi oligarxonning ayoli uy sohibasining ko'rkm qaddiga havas bilan tikilib. --Oypara aymog'ining qamar ruxsorli go'zapliga barchaniz bir-bir eng qiymas taqinchoqlarimizni hadya qilamiz!

-- Bir ovozdan qo'llaymiz! Quvvatlaymiz! --deyishdi qolganlar. Biri bilakzugini, ikkinchisi uzugini, uchinchisi ziragini eng xush-qomat, maftunkor xonimga sovrin berish uchun suzilganlaricha navbatga turishdi.

MUNDARIJA

KIRISH	3
O'zbek-qozoq adabiy aloqalari tarixidan	5
QOZOQ SHE'RIYATI	12
Abay	12
Yuragim mening qirq yamoq. Muzaffar Ahmad tarjimasi.....	12
Nurli osmonga intilib. Muhammad Ali tarjimasi	13
Iskandar (doston). Muzaffar Ahmad tarjimasi	14
Abay nasridan	20
O'n yettinchi so'z. Nosir Fozilov tarjimasi	20
Jambul Jabayev	24
Olatov. Quyida tarjimonni ko'rsatilmagan barcha she'rлarni Mirpo'lat Mirzo tarjima qilgan	24
Sariboyga	25
Shokarim Xudoyberdiyev	27
"Do'st senga zor..."	27
"Suydim men azaldan turk tilin..."	28
Sultonmahmud To'rayg'irov	30
Qimiz	30
Tuqqan elimga	32
Ahmed Boytursunov	33
Oqin inimga	33
Qozoq udumi	34
Mag'jan Jumaboy	36
Turkiston	36
Saken Sayfullin	40
Mung	40
G'amzada ko'ngilga	41
Ilyos Jonsug'uров	43
Yaylov	43
Do'mbira	44
Abdulla Tojiboyev	46
Shoirlik	46
Tilak	47
"Men ham shu yurt ko'rkining bir xumori..."	48
"O'y-xayollar ergashtirsa izidan bot..."	48

“Tuqqan yurtga o‘tadi erkaligim...”	48
Jumag‘ali Sain...	49
“Qarama-chi, qadama-chi ko‘zingni!”	49
“Men uyquga ayni cho‘mgan dam edi...”	50
G‘ali O‘rmonov...	52
Yangiyer gullari	52
Do‘sit madhiyasi	53
Dixan Abilov...	55
Qoraqalpoq bovurlarga	55
To‘qtag‘ulga...	56
Kuz bo‘lsa-da	57
Juban Mo‘ldag‘aliyev	58
Toshkent bilan ko‘rishganda...	58
Non...	59
Kuz	60
Sirboy Mavlenov...	61
G‘afur G‘ulom...	61
“Yaproqlar ila yoz uchib...”	62
Qozoqlarning vakili	62
G‘afu Qairbekov	64
Samarqand...	64
Ulug‘bek	65
Muqag‘ali Maqatoyev	67
Dasturxon ustida	67
Ey, o‘lan!	68
Umr o‘zi ne desam	68
Tursunxon Abduraxmanova	70
Xalqim desam	70
“Essiz ko‘ngil- yemasa gar o‘z g‘amin...”	71
“So‘z so‘zlasang, o‘zagiga boqib ayt...”	71
“So‘zchanlikni fazilatga biz yo‘ydik...”	72
O‘ljas Sulaymonov...	73
Quvib yet...	73
“Yozda bir qiz keldi...”	74
Bolalik, bog‘lar, saraton	75
Tungi taqqoslar	77
Xayrlashuv	78

Sahro tuni	79
Javzo.....	80
Tumanboy Mo‘ldag‘aliyev	81
O‘zbegin – o‘z og‘am	81
Qodir Mirzaliyev.....	84
Buxoro bozori	84
Husayn Boyqaroning vazirlarga degani	85
Tanti yurak	87
To‘legen Ayberganov	88
Yurak so‘zi	88
Ko‘klamda.....	88
Qizim mening.....	89
Fariza O‘ng‘arsinova	90
“Sog‘inch xatin yo‘lladim...”	90
“Ot minsam, yigitlardek...”	91
“Oltin zarin sochganda tong nurlanib...”	92
“Yurak mudom moyildir o‘yga ezgu...”	92
Muxtor Shaxanov.....	94
Diydorlashuv	94
Men haqinda o‘yladingmi?	95
Baxtli bo‘l	97
Nurlan O‘razalin	98
Otam yodi.....	98
Ona yurt	99
Ulug‘bek Esdavlat.....	101
Bulutlar va yilqilar	101
Oltoy ayozi	102
Tug‘ilgan kun	103
Xonbibi Yesenqoraeva	105
Ulug‘ dalam	105
Umr o‘tib boayotir	106
Chaqmoqli tun.....	106
“Olchalar g‘arq pishgan bog‘ ...”	107
Asqar O‘razaqin	109
O‘lan.....	109
Urush va tinchlik	110
Ta’til paytidagi maktab	111

Jarken Bo'deshov	112
Qushlar uchib kelganda	112
Olkо'lga aytar so'z.....	113
"Targ'il toshli tuyog'ila tarashlab..."	114
Sho'mishboy Sariyev	115
Oqin ko'ngli	115
"Keng dalamdan kiyikdayin kelaman"	116
Yeseng'ali Ravshan	118
Qozoq qissasi	118
Toshkent oqshomi	119
Nasibbek Ayto'g'li.....	121
Orzu.....	121
Bulut oqib boradi	122
Qosimxon Begmanov	124
O, Turkiston	124
Abdulla Aymoq.....	126
"Har yurakdan chiqadi armon sasi..."	126
Izla meni.....	126
QOZOQ ADABIYOTI NASRIDAN	128
Muxtor Avezov	128
O'qinishli yigit. Nosir Fozilov tarjimasi	128
Sobit Muqonov.....	145
Oltin vodiy . S.Xudoyberganov tarjimasi	145
Abdujamil Nurpeisov.....	169
Qarindoshlar. Nosir Fozilov tarjimasi	169
Sobit Do'sonov	180
Uchrashuv. Mehmonqul Islomqulov tarjimasi	180
Marhabot Bayg'ut	201
Hokimning ayoli. Mehmonqul Islomqulov tarjimasi	201

Qaydlar uchun

O‘quv nashr

Adhambek Alimbekov

QARDOSH TURKIY XALQLAR ADABIYOTI

(QOZOQ ADABIYOTI)

Mas’ul muharrir:
filologiya fanlari doktori, professor Q.Omonov

«Yosh avlod matbaa» nashriyoti, 2021

Muharrirlar:	A. Abdujalilov
Texnik muharrir:	Y. O‘rinov
Musahhiha:	D. Beknazarova
Dizayner:	F. Qo‘ziyiv

Nash.lits. Tasdiqnoma: 0719, 12.02.2021 y.
Terishga 24.08.2021-yilda berildi. Bosishga 28.12.2021-yilda
ruxxat etildi. Bichimi: 60x84 1/16. Ofset bosma. «Times New
Romar» garniturasi. Shartli b.t. 13.5. Nashr b.t. 12.55.
Adadi 150 nusxa. Buyurtma № O-12.
Bahosi shartnomaga asosida.

«Yosh avlod matbaa» nashriyoti, 100190, Toshkent shahri,
Olmazor tumani, Beshqo'rg'on 2 mavzesi, 9-uy 87-xonodon.
e-mail: yosh.avlod@bk.ru

«Yosh avlod matbaa» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Olmazor tumani, Beshqo'rg'on 2 mavzesi, 9-uy 87-xonodon.
Telefon: +99890 394-10-65

«Yosh avlod matbaa»

ISBN 978-9943-7850-0-7



9 789943 785007